19. Takhirovich D.A., Burchaklar S.J.A., Shukhratovna N.G., Shukhratovna S.G., Zainuddinovna M.G. (2022). COURSE OF COVID-19 IN PATIENTS WITH DIABETES. Web of Scientist: International Journal of Scientific Research, 3(02), 73–76.
20. Takhirovich D.A., Korners S.J.A., Shukhratovna N.G., Shukhratovna S.G., Zainuddinovna M.G. (2022). COURSE OF COVID-19 IN PATIENTS WITH DIABETES. Web of Scientist: International Journal of Scientific Research, 3(02), 73–76.
21. Abduvali, X., Otabek, S., Asilbek, E., & Daminov, A. T. (2023). TYPE 2 DIABETES: TIME TO CHANGE THE CONCEPT. Science and innovation, 2(D4), 165-167.
22. Togaeva G.S. «Ўз-узিনি назорат қилиш мактабида ўқиган қандли диабет 2 тип билан касалланган беморларнинг клиник ва биохимиявий курсаткичлари». Journal of Biomedicine and Practice 2 Special Issue. Tashkent in 2020. Pages 132-135.
23. Togaeva Gulnora Siddikovna., Oripov Firdavs Suratovich., Davranova Aziza Davranovna.: "Structural features of cells of the islets of Langerhans in offspring with alloxonic diabetes" (Review article). Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021; P.158-162
24. Negmatova G.Sh, Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. "Assessment of the effectiveness of cardioprotective drugs in treatment of children with diabetic cardiomyopathy"/ The American journal of medical sciences and pharmaceutical research//4.01. 79-83.
25. Negmatova G.Sh., Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. Uzbek medical journal. // Criteria for physical and sexual development in with thyroid diseases. 4. 32.
26. Negmatova G.Sh, Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. "Assessment of the effectiveness of cardioprotective drugs in treatment of children with diabetic cardiomyopathy"/ The American journal of medical sciences and pharmaceutical research//4.01. 79-83.
27. Dzhuraeva Z.A. Negmatova G.Sh. The state of the cardiovascular system in patients with hypothyroidism. Use of highly innovative technologies in preventive medicine. Republican scientific-practical conference. Andijon 2020.
28. Z.Y Xalimova G.Sh. Negmatova - "Аутоиммунные Полигландулярные Синдромы. Обзор Литературы". Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2021

29. Endocrinology: national guidelines. Ed. Dedova I.I., Melnichenko G.A. M.: GEOTAR-Media; 2016.
29. Aramovna D. Z., Azamatovna H. D. Features of the Pathology of the Reproductive System in Pubertal Patients with Hypothalamic-Pituitary Dysfunction //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 74-77.
30. Qodirov, E. A., Ismoilov, S. I., Valiyev, J. J., & Daminov, A. T. (2023). Qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarda COVID-19 xavfining ortishi patofiziologiya, davolash va oldini olishdagi dolzarb muammolar. *Science and Education*, 4(3), 91-101.
31. Daminov, A., Khaydarov, O., Hasanova, M., & Abdukakhorova, R. (2023). COMPLICATIONS OF GLUCOCORTICOID THERAPY IN PATIENTS DIABETES SURVIVED COVID-19. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4), 197-200.
32. Урунова, Ф. З., Амирова, Ш. А., Базарова, В. Р., Бахронова, М. Б., & Даминов, А. Т. (2023). Осложнения глюкокортикоидной терапии при COVID-19 на фоне сахарного диабета 2-типа. *Science and Education*, 4(2), 520-529.

UGLEVODOROD GAZLARINI ABSORBSIYA USULIDA BENZINSIZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Sh.Sh. Turdiyev

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası mudiri

E-mail: shahboz_01011991@gmail.com

J.Sh. Rabbimov

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası assistenti

E-mail: rabbimov1933@gmail.com

A.R. Boboxonov

QarMII “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi”

yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Neftning tarkibida yengil uglevodorodlar mavjud bo‘lib, undan samarali foydalanishda bu fraksiyalarni yo‘qotilishini bartaraf qilish yo‘llarini o‘rganishda chet el va respublikamizda olib borilayotgan ishlarni o‘rganish hamda tahlil qilish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. “Sho‘rtanneftgaz” MChJ va “Muborakneftgaz” MChJ korxonalarining konlarida neftning tarkibidagi yo‘ldosh gazlarni ajratib olish va uni qayta ishlash ishlarini jadallashtirish bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi. Neftkimyo sanoatining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda mustahkam tejamkor xom-ashyo bazasini yaratishda neft va gazdagi yengil uglevodlarning yo‘qotilishini oldini olish va taklash muhim masalalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: butan, pentan, absorbsiya, kondensatsiya, dietilenglikol, yo‘ldosh gaz, gazni past haroratli ajratish qurilmasi, propilen.

TECHNOLOGY OF DEGASIFICATION OF HYDROCARBON GASES BY ABSORPTION METHOD

ABSTRACT

Oil contains light hydrocarbons, information is given on the study and analysis of work carried out abroad and in our republic in the study of ways to eliminate the loss of these fractions with its effective use. Accelerating the production and processing of associated gases contained in oil at the fields of the enterprises of LLC Shortneftegaz and LLC Muborakneftegaz is extremely important today. In connection with the rapid development of the petrochemical industry, the prevention and recovery of losses of light hydrocarbons in oil and gas is one of the important issues in creating a solid and economical resource base.

Keywords: butane, pentane, absorption, condensation, diethylene glycol, satellite gas, low-temperature gas separator, propylene.

Uglevodorod gazlarini benzinsizlashtirishning absorbsiya texnologiyasining sxemasi 1–rasmda keltirilgan. Xom gaz absorberning pastki qismiga (1) to‘planadi. Pastdan yuqoriga harakatlanadi, yuqoridan pastga oquvchi va likopchalarda gidravlik zatvor hosil qiluvchi absorbentlar gaz bilan aralashadi. Absorberdan benzinsizlashtirilgan gaz ajratgichga (20) kirib keladi va u yerda sorbentning tomchilaridan tozalanadi. Undan keyin esa bosim rostlagich orqali absorberda doimiy bosimni saqlagan holda gaz uzatmasiga yo‘naltiriladi.


Absorbentdan to‘yingan absorber sig‘imga oqadi. Gazni sig‘imga yorib kirishini oldini olish uchun absorberning pastki qismiga sath rostlagich joylashtiriladi va uni yordamida to‘yingan absorberning sathi doimiy holda ushlab turiladi. Sig‘imda to‘yingan absorber bosimni pasaytirish orqali uchuvchan uglevodorodlardan qisman ozod qilinadi.

To‘yingan absorbent sig‘imdan issiqlik almashtirgichga kirib keladi, issiqlikni almashishi hisobiga regeneratsiyalanadigan absorbent qiziydi va qizdirgichga yo‘naltiriladi. Bug‘lanish haroratigacha qizdirilgan to‘yingan absorbent qizdirgichdan desorberga yo‘naltiriladi.

Absorbentni desorbsiyalash rektifikatsiyalash tartibi bo‘yicha olib boriladi. Desorberning yuqori qismiga bug‘larni haydash orqali olinadigan suyuq uglevodorodlar kiritiladi va uning pastki qismidan suv bug‘i kirib keladi.

Desorberdan haydaladigan uglevodorodlarni va suvning bug‘i sovutgichga yo‘naltiriladi va u yerda suyuqlik fazasiga aylantiriladi. Suyuqlik sovutgichdan ajratuvchi sig‘imga va u yerda gazli benzinni suvdan ajralishi sodir bo‘ladi. Suv

sig'imdand chiqarib yuboriladi, gazli benzin esa kondensat yig'gichga kirib keladi. Gazli benzinning bir qismi nasos yordamida desorberning yuqorisidan sug'orish uchun beriladi.



1 - rasm. Absorbsiyali gazbenzilli qurilmasining texnologik sxemasi:

1 – absorber; 2 – ajratgich; 3, 12, 14 – sig'im; 4 – issiqlik almashgich; 5 – qizdirgich; 6 – desorber; 7 – sovuqgich; 8 – ajratuvchi sig'im; 9 – kondensat yig'gich; 10 – nasos; 11 – yog'li sovuqgich; I – xom gaz; II – quruq gaz; III – suv; IV – bug'; SR – sathni rostlagich; QBR – qarshi bosimni rostlagich; IR – issiqlikni rostlagich

Tiklangan absorbent desorberning pastki qismida issiqlik almashtirgich orqali yog'li sovuqgichga va undan keyin sig'imga yo'naltiriladi, nasos yordamida absorberga uzatiladi. Talab qilinganda toza absorbent sig'imdand yangidand qo'shiladi. Ishlatib bo'lingan absorberlar ma'lum vaqt oralig'ida almashtiriladi, quvur uzatmada desorberdand sig'imga o'tkazish oldindand ko'rib chiqiladi. Agarda absorbent jarayon to'xtatilmassand almashtirilsa, u holda chiqarib yuborishdand regeneratsiyalangan absorbent sig'imga to'kiladi, absorberga esa sig'imdand nasos yordamida toza absorbent haydaladi.

Qurilma to'liq avtomatlashtiriladi. Absorberdagi, desorberdagi va hamma sig'imlardagi suyuqlik sathi sathni rostlagich yordamida ushlab turiladi. Sig'imlardand chiqadigan bug'larni va gazlarning bosimini doimiy saqlab turish qarshi bosimni rostlagich yordamida amalga oshiriladi. Bug'ni qizdirishga va desorberga sovuq sug'orishga uzatish belgilangan haroratni saqlab turgan holda issiqlik rostlagichi yordamida amalga oshiriladi. Absorbent va gazni oralig'idagi nisbatlar avtomatik

ravishda ushlab turiladi. Absorbent sifatida barqarorlashtirilgan uglevodorod kondensati, kerosin, solyarka, ligroin va boshqa turdagi og‘ir uglevodorodlardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Agzamov A.X. «Neft va gazni dunyo energiya balansidagi o‘rni», Toshkent, “Neft va gaz” jurnali -2015, № 4/2015b 67-70 bet.
2. Алькушин А.И., “Эксплуатация нефтяных и газовых скважин”, Москва, Недра – 1989, 360 стр.
3. Rabbimov, J. (2022). UGLERODLI PO ‘LATLARNING KONSTRUKTIV MUSTAHKAMLIGINI VA KORROZIYAGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(8), 227-234.
4. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Bo‘riyev, S. (2022). Murodtepa maydonida izlov-qidiruv ishlarini baholash tamoyillari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 246-250.
5. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo‘riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 242-245.
6. Турдиев, Ш. Ш. У., Комилов, Б. А. У., & Раббимов, Ж. Ш. (2022). АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ ПОДГАЗОВЫХ НЕФТЯНЫХ ЗАЛЕЖЕЙ. Universum: технические науки, (11-3 (104)), 58-62.
7. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO ‘LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 677-680.
8. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING STRATIGRAFIYASI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 502-504.
9. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 505-509.
10. Shermamat o‘g‘li, T. S., Asqar o‘g‘li, K. B., & Karim o‘g‘li, K. O. (2022). STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR. Journal of new century innovations, 10(2), 35-37.
11. Shermamat o‘g‘li, T. S., Shodmonkulovich, R. J., & Rustamovich, B. A. (2022). SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O ‘ZBEKISTONDA QO ‘LLASHNING IMKONIYATLARI. Journal of new century innovations, 10(2), 38-41.

12. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAM DAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 373-378.
13. SHermamat o'g'li T. S. et al. NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TADQIQOTLASH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 67-74.
14. Fozilov, S. F., Fozilov, X. S. O'., Rabbimov, J. Sh., & Raxmatov, A. Q. O'. (2022). Neft moylarining mahalliy tabiiy adsorbentlar asosida tozalash va ulardan mastikalar olish. Science and Education, 3(10), 285-288.

САЙЁХЛАР ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДАГИ ЙИЛ САРҲИСОБИ

Атаджанов Азамат Юрьевич

Хоразм вилояти ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш
бошқармаси катта инспектори

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада мамлакатимизда сайёхлар хавфсизлигини таъминлаш борасидаги йил сарҳисоби ҳақида муълумотлар келтирилган.

ABSTRACT

This article provides information about the annual review of tourist safety in our country.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о ежегодном отчёте безопасности туристов в нашей стране.

КИРИШ

Халқаро ташкилотлар томонидан тақдим этилган иқтисодий ва ижтимоий маълумотлар асосида халқаро статистик маълумотларни тарқатувчи энг нуфузли нашр ҳисобланадиган “World of Statistics” маълумотларига кўра Ўзбекистон 2024 йилда саёхат қилиш учун энг яхши давлатлар рўйхатига киритилган.

Ушбу рейтинг кам ҳаражатли саёхатлар бўйича махсус қўлланмалар ишлаб чиқаришга ихтисослашган биринчи расмий нашриёт ҳисобланадиган машҳур “Lonely Planet” саёхат нашри томонидан тақдим этилган материаллар асосида тузилган.

Шу билан бирга АҚШнинг CNN Travel сайти Ўзбекистонни бутун дунё сайёхларига ташриф буюриш учун энг яхши давлатлар рўйхатига киритилгани ҳақидаги маълумотларни ОАВ сайтида эълон қилди.

Мақола муаллифига кўра, Ипак йўли ва унда Ўзбекистоннинг аҳамиятини яхшироқ тушуниш учун Самарқанд, Бухоро ва Хивага ташриф буюриш керак.

Бундан ташқари, сайёхларни хавфсизлик ва тиббий хизмат билан таъминлашга ихтисослашган “International SOS” ташкилоти мутахассислари хулосасига кўра Ўзбекистон сайёхлар хавфсизлиги бўйича Марказий Осиёда энг яхши давлат сифатида тан олинган.

Бунинг замирида Президентимиз бошчилигида юртимизда туризм салоҳиятини ошириш, ички ва ташқи туризмни ривожлантириш, сайёҳлар оқимини кўпайтириш ҳамда уларга қулай ва хавфсиз шароитлар яратиш борасида амалга оширилаётган кенг кўламли ишлар турибди десак мубоғала бўлмайди албатта.

Республикамызда туризмни ривожлантириш, пировард мақсадда иқтисодиётимизни ва аҳоли турмуш тарзини янада яхшилашга алоҳида эътибор қаратилганлиги натижасида республикамызга, шу жумладан Хоразм вилоятига келаётган хорижий ва маҳаллий сайёҳлар сони кундан кунга ортиб бораётганлигини кузатиш мумкин.

Сайёҳлар оқими кўпайиши фонида музей, меҳмонхона, овқатланиш жойлари, савдо дўконлари ва шу каби бошқа туристик инфратузилмалар сони ҳам ортиб бормоқда.

Мисол учун, 2017 йилда вилоятимизда меҳмонхоналар сони атига 60 тага етмаган бўлса, ҳозирга келиб 200 тадан ошганлигини кузатиш мумкин.

Бу эса вилоятимизда сайёҳларнинг ҳаракатланиш географиясини кенгайтириб бораётганлигини кўрсатиши билан бирга уларнинг хавфсизлигини таъминлаш борасидаги ишларни янада жадаллаштирилишини талаб этади.

Президентимиз таъбири билан айтганда, “Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш, сайёҳлик жозибасини ошириш ва хавфсиз туризмни ташкил этишда ички ишлар бўлинмаларининг ўрни муҳимдир”.

Дарҳақиқат, Ички ишлар вазирлиги тизимидаги Хавфсиз туризмни таъминлаш бўлинмалари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 мартдаги “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4229-сонли Қарори талаблари асосида республикамызни ташриф учун хавфсиз мамлакат сифатидаги жозибадорлигини ошириш, туризм намоёни объектлари ва инфратузилмаси ҳудудларини жиноятлардан ҳоли ҳудудларга айлантириш, хорижий ва маҳаллий сайёҳларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасида ўз зиммаларига юклатилган вазифаларни сидқидилдан бажариб келмоқдалар.

Шу ўринда Хоразм вилояти ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармасининг 2023 йил натижаларига тўхталсак.

Бошқарма ходимлари хизматда фойдаланиш учун енгил автомашиналар, махсус жиҳозланган ISUZU русумли автобус, “Скутер”лар ҳамда “сигвей” ҳаракатланиш воситалари ҳамда тегишли электрон базалар билан таъминланган.

Шунингдек, Хива шаҳридаги “Ичан-қалъа” давлат музейи қўриқхонасида чет-эл ва маҳаллий сайёҳлар учун тезкорлик билан ёрдам кўрсатиш мақсадида

туристларга хизмат кўрсатишга мўлжалланган 5 та ахборот шахобчаси ўрнатилиб фаолият кўрсатиб келмоқда.

Ахборот шахобчаларига мурожаат қилган сайёҳлар ўз фикрларини билдиришлари учун “Таклиф ва мулоҳазалар” китоби ташкил қилинган.

Бошқарма ходимлари томонидан 2023 йилда вилоятга келган 452 мингдан ортиқ (336 мингдан ортиқ маҳаллий, 115 мингдан ортиқ хорижий) сайёҳларнинг ҳамда 55 та хорижий давлатлар ва 2 та ҳалқаро ташкилотларнинг 128 та делегациялари таркибидаги 1480 дан ортиқ вакилларини хавфсизлигини таъминлаш мақсадида вилоят ИИБнинг тегишли соҳавий хизматлари ҳамда бошқа идора ва ташкилотлар билан ҳамкорликда туризм намойиши ва инфратузилмалари ҳудудларида наъмунали жамоат тартибини ва сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш чоралари кўрилиб, ёрдамга мухтож сайёҳларга амалий ёрдамлар кўрсатилди.

Ходимларга турли масалаларда ёрдам сўраб 20.330 (9514 хорижий, 10816 маҳаллий) нафар сайёҳлар мурожаат қилган бўлиб, мурожаатларнинг 19.613 таси йўналиш кўрсатиш бўйича, 67 таси биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича ҳамда 650 таси хизмат кўрсатишга доир бошқа масалалар бўйичадир.

Шу билан бирга ўтган йил давомида вилоят ҳудудидаги туризм намойиши объектларида ўтказилган “Қовун сайли” фестивали, “Анор ҳосили” фестивали, “Лазги” халқаро рақс фестивали, “Халқаро туризм ярмаркаси”, “Этноспорт” халқаро фестивали, “Пахлавон Махмуд-Баходирлар ўйини” ва бошқа шу каби 120 дан ортиқ тадбирларда чет эл ва маҳаллий сайёҳлар билан бир қаторда хорижий ва маҳаллий иштирокчиларнинг хавфсизлиги таъминланди.

Бошқарма ходимлари томонидан вилоятда хавфсиз туризмни таъминлаш ҳамда сайёҳларга нисбатан ҳуқуқбузарликлар содир этилишини барвақт олдини олиш мақсадида ташриф объектлари ва уларга туташ ҳудудларда истиқомат қилувчи фуқаролар орасида жами 2.568 маротаба турли йўналишда профилактик тадбирлар ўтказилди.

Профилактик тадбирлар доирасида жами 357 маротаба оммавий ахборот воситаларида, жумладан, газетада 29 маротаба, радиода 19 маротаба, телевиденияда 27 маротаба ҳамда интернет ижтимоий тармоқларида 282 маротаба хавфсиз туризм билан боғлиқ мавзуларда чиқишлар қилинди.

Шунингдек, сайёҳларга нисбатан содир этилиши мумкин бўлган жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, аҳолининг маданияти ва меҳмондўстлик фазилатларини юксалтириш мақсадида жойларда 404 маротаба учрашувлар ўтказилиб, мазкур учрашувларда жами 4334 нафар иштирокчи ва фуқаролар қатнашдилар.

Бундан ташқари, намоиш объектлари ва уларга туташ ҳудудларда истиқомат қилувчи ва меҳнат фаолияти билан шуғулланиб келаётган фуқаролар орасидан профилактик ҳисобда турувчи ёки ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган шахслар билан 1.807 мартаба профилактик тадбирлар ўтказилди.

Ўтган давр мобайнида бошқарма ходимлари томонидан вилоятимиздаги 71 та сайёҳлик фирмалари, 204 та гид-таржимонлар ва 21 та экскурсаводлар билан профилактик тушунтириш ишлари олиб борилди.

Маданий мерос объектларида сайёҳларга хавф туғдириши мумкин бўлган ҳолатларни аниқлаб, бартараф қилиш ҳамда сайёҳларга қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида жойларда ўрганишлар олиб борилиб, турли давлат органлари ва ташкилотларига жами 36 та таклиф ва 26 та тақдимномалар киритилиб, ижроси назорат остига олинди.

Бундан ташқари бошқарма ходимлари томонидан намоиш объектлари ва унга туташ ҳудудларда мақсадсиз юрган 1371 нафар фуқаро олиб келиниб, ҳуқуқбузарлик содир қилган 627 нафар шахсларга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштирилди.

Шу билан бирга бошқарма Йўл ҳаракати хавфсизлиги гуруҳи ходимлари томонидан туризм намоиши объектлари ва инфратузилмалари ён атрофларида йўл ҳаракати қоидаларини бузган 3.285 нафар фуқароларга нисбатан қонуний чоралар кўрилди.

Вилоятда хавфсиз туризмни таъминлашда Ахборот технологиялари ва коммуникациялари имкониятларидан ҳам унумли фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилган.

Жумладан, бошқарма маъмурий биносида “Вазиятлар маркази” ташкил қилиниб, марказга Хива шаҳрининг туризм намоиши объектлари ва инфратузилмалари ҳудудларидаги 150 дан ортиқ кузатув камералари интеграция қилинган бўлиб, сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш, жиноят ва ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш ва содир этилган ҳуқуқбузарликларни фош қилишда унумли фойдаланиб келинмоқда.

Бундан ташқари, сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш ҳамда уларнинг мурожаатларини ўз вақтида қабул қилиб, тезкорлик билан амалий ёрдам кўрсатиш мақсадида туризм намоиши объектлари ва инфратузилмаси ҳудудларига қўшимча 5 та чақирув ёчалари ўрнатилган.

Шунингдек, чет эл ва маҳаллий сайёҳларга қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида, бошқарма жойлашган маъмурий бино, алоқа телефон рақамлари, манзили, иш вақти ва бошқа маълумотлар ўзбек ва хорижий тилларда интернетнинг “Facebook” ижтимоий тармоғи ва “Google maps” иловаси орқали жойлаштирилган.

Бу эса чет эл ва маҳаллий сайёҳлар, уларнинг гид-таржимонлари ва маҳаллий аҳоли томонидан бевосита интернет тармоғидаги “Google maps” электрон харитасидаги маълумотлар ёрдамида бошқарма ходимлари билан боғланиш ва мурожаат қилиш имкониятини яратади.

Шу билан бирга бошқарма телефон рақамлари, электрон манзиллари ва интернет тармоғидаги манзилини осон топиш имкониятини берувчи QR-код ақс этган ташриф қоғозлари ўзбек, рус ва инглиз тилларида ишлаб чиқилиб, вилоятдаги жойлаштириш воситалари, умумий овқатланиш шаҳобчалари ва сайёҳларга хизмат кўрсатувчи субъектларга тарқатилган.

Бошқарма томонидан хавфсиз туризмни таъминлаш борасида ҳамкорликда олиб борилган кенг кўламли чора-тадбирлар натижасида 2023 йил давомида чет эл ва маҳаллий сайёҳларга нисбатан жиноят ва маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилишига йўл қўйилмади.

2024 йилдаги режалар.

Сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш, жиноят ва ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш, йўл ҳаракати қоидаларини таъминлаш борасидаги ишларни янада жадалаштириш мақсадида яқин кунларда Тошкент вилоятининг Бўстонлик тумани тажрибаси асосида Хива шаҳрида “Хавфсиз шаҳар” ягона интеграциялашган тизимларини ишга тушириш режалаштирилган.

Шу мақсадда Хива шаҳридаги 120 дан ортиқ объектларга жами 240 дан ортиқ замонавий кузатув камералари ўрнатилиши режалаштирилган ва ҳозирги кунга қадар ушбу кузатув камераларидан 160 таси ўрнатилиб, ушбу йўналишдаги ишлар давом қилдирилмоқда.

Бошқарма томонидан вилоят ИИБнинг тегишли соҳавий хизматлари ҳамда бошқа идора ва ташкилотлар билан ҳамкорликда 2024 йил давомида вилоятдаги туризм намоёйиши объектлари ҳудудларида ўтказиладиган қуйидаги;

- Хива шаҳри 2024 йилда «Ислом дунёсининг туризм пойтахти» деб эълон қилинганлиги муносабати билан Ислом дунёсининг туризм пойтахти йили доирасида Хоразм вилоятининг Хива шаҳрида Ислом Ҳамкорлик ташкилотига аъзо 57 давлатнинг туризм вазирлари ва туристик маъмуриятлари раҳбарларининг йиғилиши юқори даражадаги XII сессияси;

- “Қовун сайли” фестивали,
- “Анор ҳосили” фестивали,
- “Лазги” халқаро рақс фестивали,
- “Халқаро туризм ярмаркаси”,
- “Пахлавон Махмуд-Баходирлар ўйини
- “Taste of Uzbekistan Festival” шиори остида гастронмик фестивали,
- “Халқаро зиёрат туризми ҳафталиги”

- Шу каби бошқа тадбирларда чет эл ва маҳаллий сайёҳлар ҳамда хорижий иштирокчиларнинг хавфсизлигини таъминлаш юзасидан зарурий чора тадбирлар белгилаб олинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси “Ички ишлар тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 мартдаги “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4229-сонли Қарори

NEFTNI AJRATISH, YO‘LDOSH GAZNI YIG‘ISH VA TAYYORLASH

Sh.Sh. Turdiyev

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası mudiri

E-mail: shahboz_01011991@gmail.com

J.Sh. Rabbimov

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası assistenti

E-mail: rabbimov1933@gmail.com

A.R. Boboxonov

QarMII “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi”

yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash asosida yo‘ldosh neft gaz mahsulotlari tarkibidan eng so‘nggi xom ashyoni ajratib olib, qayta ishlash jarayonlarini ilmiy asoslari va undan foydalanish bo‘yicha asosiy istiqbolli yo‘nalish kichik gabaritli qurilmalardan foydalanib, yo‘ldosh neft gazlarni utilizatsiya qilish orqali mash‘alalarni uchirish va gazsimon metan yoqilg‘isini, barqaror gaz benzinini va propan –butan fraksiyasining suyuq aralashmasini to‘g‘ridan –to‘g‘ri olishni imkoniyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: butan, pentan, absorbsiya, kondensatsiya, dietilenglikol, yo‘ldosh gaz, gazni past haroratli ajratish qurilmasi, propilen.

SEPARATION OF OIL, COLLECTION AND PREPARATION OF ASSOCIATED GAS

ABSTRACT

Based on the application of modern technologies, extracting the latest raw materials from the composition of satellite oil and gas products, the scientific basis of processing processes and the main promising direction for its use is disposal of satellite oil and gases using small-sized devices. the possibility of flaring and direct extraction of gaseous methane fuel, stable gas gasoline and liquid mixture of propane-butane fraction is studied.

Keywords: butane, pentane, absorption, condensation, diethylene glycol, satellite gas, low-temperature gas separator, propylene.

Neft qatlamdan quduq tubiga, quduqning stvoli bo'ylab quduq ustiga va quduq ustidan tovar neft olinguncha harakatlenganda termobarik sharoitning o'zgarish evaziga- gazni va suvni ajralishi sodir bo'ladi. Neftning tarkibidan gazni va suvni ajratib olishda ajratgichlar qo'llaniladi. Gazga to'yingan neftning tarkibidan suyuq uglevodorodlarni ko'proq chiqishini saqlab qolish maqsadida ko'p bosqichli ajratish usuli qo'llaniladi (3-4 bosqichli) va neftdagi bosimni bir meyorda pasaytirish hisobiga og'ir uglevodorodlarning $S_{5+yuqori}$ katta miqdori ushlab qolinadi. Ammo neftni ko'p bosqichli ajratish germetik bo'lmagan tizimlarda yig'ish va tashishda qo'llanilganda neftning tarkibida qolgan hamma og'ir uglevodorodlar sekinlik bilan atmosferaga bug'lanib ketadi va effekt nolga teng bo'ladi.

Shuning uchun neftni yig'ish va tashishda NQIZlarida va kon sharoitida yig'ish va tashish tizimlarida ko'p pog'onali ajratilganda yoki yopiq germetik tizimdan foydalanilganda samarali ajratiladi. Shuning uchun konlarda neftni ajratish bosqichlarini sonini tanlashda va SKSning loyahasida ularni utilizatsiya qilish bir qator shartlar bilan bog'langan, ulardan asosiyi quyidagilar: hosil bo'ladigan yo'ldosh gazning hajmi; quduq ustidagi boshlang'ich bosim; kondagi joriy gaz faktori; gazni siqish uchun harakatda bo'lgan kompressor agregatlarining mavjudligi va ularni bosim bo'yicha kirish tavsiflari; qo'shimcha SKSsi qurilmasini zarurligi; yuqori bosimli gaz uzatmalarining yoki gazni qayta ishlaydigan zavodning mavjudligi hamda xom-ashyo bo'yicha uning kirish parametrlari. Bu shartlarga muvofiq neftni ajratish bosimi tanlanadi va ajratishning har bir pog'onasidagi ajratgichlardagi bosimning hisoblari bajariladi.

Ajratgichlardan neft qazib olinadigan quduq mahsulotlaridan neft gazini yoki yo'ldosh gazlarni ajratishda foydalaniladi. Bu gazlardan xom-ashyo sifatida gazkimyoviy majmualar yoki energetik qurilmalarda yonilg'i sifatida foydalaniladi. Ajratgichlar quvur uzatmalardagi gaz suyuqlik oqimini gidravlik qarshiliklarni, pulsatsiyani va gidravlik zarbalarini pasaytirish vazifalarini bajaradi; neft quduqlari mahsulotlaridan ajratilgan qatlam suvlarini oraliqlarda tashlab yuborish jarayonini ham amalga oshiradi.

Ajratgichlar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: mo'ljallanishi bo'yicha-o'lchash va ajratish (ishchi); geometrik shakli va fazoda egallagan holati bo'yicha-silindrik, gorizonta, sharsimon va qiya; harakatlanish tartibiga muvofiq-gravitatsion, inersion (qavurg'ali); markazdan qochma, ultratovushli; bosim ko'rsatgichi bo'yicha-yuqori (100 kgs/sm^2); o'rta (30 kgs/sm^2); past (15 kgs/sm^2) va vakuumli; alohida buyurtma asosida maxsus tayyorlanadigan.

1-jadval

Komponent	Analiz plastovoy smesi z_i	K_i	Pervaya popitka $N=0,6$; $L=0,4$		Vtoraya popitka $N=0,57$; $L=0,43$		Tretya popitka $N=0,579$; $L=0,421$		Sostav smesi gaza $y_i=x_iK_i$ $(3) \times (6)$	Molekulyarnaya massa M	Dolya komponenta v molekulyarnoy masse smesi gaza $(7) \times (8)$
			$x_i = \frac{z_i}{L + K_i N}$	$x_i = \frac{z_i}{L + K_i N}$	$x_i = \frac{z_i}{L + K_i N}$	7	8	9			
1		3	4	5	6	7	8	9			
S_1	0,4241	185,0	0,0038	0,0040	0,0039	0,7302	16,04	11,71			
S_2	0,0533	41,00	0,0021	0,0022	0,0022	0,0904	30,07	2,72			
S_3	0,0467	10,80	0,0068	0,0071	0,0070	0,0756	44,09	3,33			
i-C ₄	0,0155	4,40	0,0051	0,0053	0,0052	0,0229	58,12	1,33			
n-C ₄	0,0202	3,50	0,0081	0,0083	0,0082	0,0287	58,12	1,67			
i-C ₅	0,0092	1,28	0,0079	0,0079	0,0079	0,0101	72,15	0,73			
n-C ₅	0,0086	1,00	0,0086	0,0086	0,0086	0,0086	72,15	0,62			
C_6	0,0313	0,340	0,0522	0,0502	0,0506	0,0172	86,17	1,48			
C_7	0,3911	0,018	0,9516	0,8883	0,9064	0,0163	114,2	1,86			
	$\sum z_i = 1,00$		$\sum x_i = 1,0462$	$\sum x_i = 0,9819$	$\sum x_i = 1,00$	$\sum x_i = 1,00$					
											Molekulyarnaya massa gaza 25,45

Ajratgichlar konstruktiv vazifasiga muvofiq to'rtta funksional seksiyadan tashkil topgan: 1-asosiy ajratish seksiyasi-neftdan gazni ajratish uchun xizmat qiladi; 2-tindiruvchi seksiyali; 3-neftni yig'ish seksiyasi; 4-tomchi tutqichli. Ajratgich ishining samaradorligi quyidagi ko'rsatgichlarga bo'yicha belgilanadi: gaz oqimi bilan birgalikda neft tomchilarini va neft oqimi bilan erigan gazni chiqib ketish qiymati bilan. Bu qiymatlarning ko'rsatgichlari qanchalik kichik bo'lsa, ajratgich ishining samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Qatlam sharoitidan atmosfera sharoitiga bir fazoli holatga keltirilgan gazzizlantirilgan neftning material balansi tenglamasi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$M_{qat.sharoit} = M_{ajr} + M_{gaz},$$

bu yerda,
 $M_{qat.sharoit}$ – qatlam sharoitidagi neftning dastlabki massasi; M_{ajr} – atmosfera sharoitida ajratilgan neftning massasi; M_{gaz} - ajratilgan gazning massasi.

Qatlamdagi neftning tarkibidan gazni ajratishda komponentlarning chiqishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: 1-ajratish bosimi; 2-ajratish harorati; 3-quduq mahsulotining tarkibi; 4-ajratish bosqichlari soni.

Xom neftni ajratish jarayonlarini guruhli o'lchash qurilmalari quduq mahsulotini to'g'ri o'lchash yoki hisoblash yo'li orqali o'rganiladi. Bu ikkala usulning ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Agzamov A.X. «Neft va gazni dunyo energiya balansidagi o'rni», Toshkent, «Neft va gaz» jurnali -2015, № 4/2015b 67-70 bet.
2. Алькушин А.И., «Эксплуатация нефтяных и газовых скажин», Москва, Недра – 1989, 360 стр.
3. Rabbimov, J. (2022). UGLERODLI PO 'LATLARNING KONSTRUKTIV MUSTAHKAMLIGINI VA KORROZIYAGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(8), 227-234.
4. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Bo'riyev, S. (2022). Murodtepa maydonida izlov-qidiruv ishlarini baholash tamoyillari va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 246-250.
5. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo'riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 242-245.
6. Турдиев, Ш. Ш. У., Комилов, Б. А. У., & Раббимов, Ж. Ш. (2022). АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМИ РАЗРАБОТКИ ПОДГАЗОВИХ НЕФТЯНИХ ЗАЛЕЖЕЙ. Универсум: технические науки, (11-3 (104)), 58-62.

7. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO 'LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 677-680.
8. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING STRATIGRAFIYASI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 502-504.
9. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 505-509.
10. Shermamat o'g'li, T. S., Asqar o'g'li, K. B., & Karim o'g'li, K. O. (2022). STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR. Journal of new century innovations, 10(2), 35-37.
11. Shermamat o'g'li, T. S., Shodmonkulovich, R. J., & Rustamovich, B. A. (2022). SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O 'ZBEKISTONDA QO 'LLASHNING IMKONIYATLARI. Journal of new century innovations, 10(2), 38-41.
12. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAMDAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 373-378.
13. Shermamat o'g'li T. S. et al. NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TADQIQOTLASH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 67-74.
14. Fozilov, S. F., Fozilov, X. S. O', Rabbimov, J. Sh., & Raxmatov, A. Q. O'. (2022). Neft moylarining mahalliy tabiiy adsorbentlar asosida tozalash va ulardan mastikalar olish. Science and Education, 3(10), 285-288.

SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Akishova Shaxnoza Davlet qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti o'qituvchisi

E-mail: akishova0202@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mavjud sug'urta kompaniyalari, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati va tahlili, sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari va sug'urta tovonlarining o'sish dinamikasi, sug'urta zahiralardan to'g'ri foydalanish va ularni yuqori foyda keltiruvchi faoliyatga yo'naltirish masalalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya faoliyati, sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta mukofotlari, sug'urta zahiralari, sug'urta tovonlari.


KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanib borishi, aholi hamda tashkilotlarning sug'urta himoyasiga bo'lgan talabining ortib borishi, mamlakatimizda jahon talablariga mos hamda jahonning ilg'or tajribalariga javob bera oladigan, to'laqonli sug'urta xizmatlarini ko'rsata oluvchi mustahkam sug'urta tizimini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Rivojlangan sug'urta ishi o'tish davri iqtisodiyotida O'zbekiston iqtisodiyotining ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati bilan birgalikda investitsiya faoliyatini ham jadal olib borishi, investitsiyalarga jalb etiladigan mablag'lar salmog'ini ko'paytirish hamda shu orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shmog'i lozim. Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun moliyaviy instrumentlardan samarali va keng miqyosda foydalanish bugungi davr taqazosi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlari qabul qilish, investitsiya faoliyatini to'g'ri, oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarini hisobga olgan holda maqsadli yo'naltirish sug'urta kompaniyalarining kelajagini hamda istiqbolini belgilab beradi. Sug'urta tashkilotlari tasarrufida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsiya siyosati yo'li bilan

iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha soʻz bilan aytganda, sugʻurtalovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablagʻlarni moliya bozorida harakat qiluvchi aktiv kapitalga aylantirishadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy potentsiali oʻz mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlar manbaasi (sugʻurta zahiralar) kompaniya aktivlari asosida shakllanadi. Shu maʼnoda sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy resurslari ularning moliyaviy potentsialini belgilab beradi. Sugʻurta tashkilotlarining ustav kapitali ularni davlat roʻyxatiga olishda shakllantiriladi. Ustav kapital sugʻurta tashkilotlari uchun faoliyatni boshlashning dastlabki vaqtida asosiy moliyaviy resurs hisoblandi. Ustav kapital turli xil manbalardan toʻldiriladi. Dastlab taʼsischilar tomonidan kiritilsa, keyinchalik korxonaning daromadlari va boshqa manbalar hisobidan toʻldiriladi.




1-rasm. Sugʻurta kompaniyalarining umumiy ustav kapitali (trln.soʻmda)¹

Sugʻurta tashkilotlarining jalb qilingan mablagʻlari daromad shaklida kelib tushuvchi sugʻurta mukofotlari hisobidan (sugʻurta zahirasi sifatida), bank kreditlari, ish haqi, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha kreditorlik qarzlari hisoblanadi. U balans passivining ikkinchi boʻlimida "Majburiyatlar" deb nomlanadi. Bulardan tashqari haridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, koʻzda tutilgan daromadlar, xarajatlar va toʻlovlar zahirasi, dargumon qarzlari boʻyicha zahiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu boʻlimda aks ettiriladi.

Sugʻurta kompaniyalari investitsiya faoliyati keyingi yillarda ijobiy oʻzgarishlarga ega. Chunki sugʻurta bozorida yigʻilgan mukofotlar samarali investitsiya faoliyatiga yoʻnaltirilmoqda.

¹ Inv.uz sayti maʼlumotlari asosida tayyorlandi



2-rasm. Sugʻurta kompaniyalarining investitsiya faoliyati.¹

2022 yilda sugʻurta kompaniyalarining investitsion portfleli sezilarli darajada oʻsdi. Tahlil qilinayotgan davrda Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining maʼlumotlariga koʻra sugʻurta kompaniyalarining investitsiyalari hajmi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 26,8% ga oʻsdi va 4751745 mln.soʻmni tashkil etgan (2-rasm).

Sugʻurta kompaniyalarining oʻz mablagʻlari va daromadlarining oshishi ularga sugʻurta zahiralari shakllantirish va investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi. Sugʻurta kompaniyalari investitsiya faoliyatlarini sugʻurta zahiralari joylashtirish nizomiga muvofiq zahiralari daromadlilik, qaytaruvchanlik, diversifikatsiya va likvidlilik tamoyillari asosida joylashtirishadi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, sugʻurta kompaniyalari uchun eng ishonchli investitsiya obyektlari hali ham bank depozitlari va qimmatli qogʻozlar hisoblanadi.

2022 yildagi investitsiyalarning kattagina qismi qimmatli qogʻozlar va bank depozitlari hissasiga toʻgʻri keldi. Sugʻurta kompaniyalari depozitlarga qilingan investitsiyalari 31,2% ga ortib 2 896 636 mln.soʻmni tashkil etdi. Qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalar esa 1 287 917 mln.soʻmni tashkil etib, bu oʻtgan 2021 yilga nisbatan 17,5% yuqori.

¹ Inv.uz maʼlumotlari asosida tayyorlandi.

Hozirgi kunda sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining ortda qolish sabablari bo'lib birinchidan, O'zbekistonda sug'urta sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ikkinchidan, sug'urta zahiralardan foydalanish samaradorligining pastligi. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatdan olgan daromadlari darajasi mamlakatdagi inflyatsiya darajasidan past yoki faqatgina inflyatsiya darajasini qoplaydi.

XULOSA

Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligi pastligini bir necha faktorlarga bog'lash mumkin:

1. Sug'urta faoliyatining yuqori daromadlilikligi. Bu bir tomondan sug'urta kompaniyalari uchun yaxshi ammo ikkinchi tomondan esa yomon. Sababi sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadning yuqori bo'lishi o'z navbatida sug'urta tariflarini yuqori bo'lishini talab etadi. Sug'urta tariflarini yuqori bo'lishi esa sug'urta sohasidagi raqobatning pastligi deb hisoblash mumkin;

2. Investitsiya operatsiyalari daromadlilik darajasi pastligi.

Bunga bir qancha sabablarni keltirishimiz mumkin. Birinchi sabab sug'urta kompaniyalari foyda keltiruvchi aktivlarining bir qismi boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etishi va o'z navbatida ikkinchi yuridik shaxsning aktivlari boshqa uchinchi yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etishi va buning natijasida sug'urta kompaniyalari aktivlari ustav kapitali qo'yilmalarida o'zaro aylanib yurishini kuzatishimiz mumkin. Bu esa sug'urta kompaniyasi uchun foyda keltirmaydigan faqatgina qog'ozda aks ettirilgan aktivlardir. Ikkinchi sabab sug'urta kompaniyalari fond bozorida mablag'larni joylashtirish bo'yicha malakali kadrlarga ega emas. Bundan tashqari O'zbekistonda fond bozorining rivojlanmaganligi va sug'urta kompaniyalari o'zlarining investitsion faoliyatini rivojlantirishga manfaatdor emas. Bunga sabab sug'urta faoliyatining investitsion faoliyatga qaraganda daromadlilik darajasi yuqoriligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom. 2008 yilning 12 mayda Adliya vazirligida 1806-son bilan ro'yhatga olingan
2. А.П. Архипов, В.Б. Гомелля, Д. С. Туленты. Страхование. Современный курс. М.: «Финансы и статистика» 2006 г.209 с.
3. Shennayev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, - 2013.
4. www.imf.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi)

DISTRIBUTION OF PHOSPHOLIPID MEMBRANES AND ACTIVITY OF APOPTOTIC ENZYMES IN TYPE 2 DM

Negmatova Gulzoda Shukhratovna

Scientific adviser: PhD.

Head of the Department of Endocrinology, Samarkand State Medical University

Mansurova Gulsum Zaydinovna

Assistant of the Department of Endocrinology, Samarkand State Medical University

Rustamova Malika Sirojiddin qizi, Abdiyev Lazizbek Sobir o'g'li

Clinical Resident of the Department of Endocrinology,
Samarkand State Medical University

ABSTRACT

Chronic hyperglycemia changes the composition of erythrocyte membranes, but the mechanisms of damage and activation of apoptosis are not well understood. A common feature of membranes in all eukaryotic cells is the non-random distribution of lipids across the bilayer. Lipid asymmetry in membranes is a consequence of multiple factors, including the biophysical properties of lipids that dictate their ability to spontaneously “flip” their polar headgroups through the hydrophobic membrane interior, and the presence of transporters (enzymes) that assist in active lipid translocation across the bilayer.

Keywords: hyperglycemia, apoptosis, phospholipid, inflammation.

INTRODUCTION

Chronic hyperglycemia changes the composition of erythrocyte membranes, but the mechanisms of damage and activation of apoptosis are not well understood. A common feature of membranes in all eukaryotic cells is the non-random distribution of lipids across the bilayer. Lipid asymmetry in membranes is a consequence of multiple factors, including the biophysical properties of lipids that dictate their ability to spontaneously “flip” their polar headgroups through the hydrophobic membrane interior, and the presence of transporters (enzymes) that assist in active lipid translocation across the bilayer. Moreover, this asymmetrical distribution of lipids has important functional consequences. For instance, the anionic phospholipid, phosphatidylserine (PS), is exclusively located at the cytoplasmic side of the plasma membrane in quiescent cells and is an essential co-factor for a number of membrane-

bound enzymes, such as protein kinase C and Na⁺/K⁺-ATPase. However, when exposed on the cell surface, PS acts as a conserved recognition signal for phagocytes and promotes the blood coagulation cascade. The present review aims to discuss the origin and maintenance of phospholipid asymmetry as well as the mechanism and functional significance of its disruption in health and disease.

Objective: to study the phospholipid composition of erythrocyte membranes and the activity of apoptotic enzymes in patients with type 2 diabetes.

MATERIALS AND METHODS

The study included patients with type 2 diabetes with a disease duration of 3-5 years without clinical manifestations of vascular complications. The first group consisted of 3 patients with low fasting hyperglycemia 6.67 ± 0.26 mmol/l (HbA1c $7.2 \pm 0.3\%$), the second group consisted of 3 patients with fasting hyperglycemia 9.81 ± 0.19 mmol/l (HbA1c $11.1 \pm 0.2\%$). The control group included 10 healthy donors without impaired carbohydrate metabolism. Erythrocytes obtained from venous blood were studied. Membrane phospholipids were analyzed by one-dimensional chromatography (Evans WS, 1990). μ -calpain activity was determined by the method (Sorimachi H. 1977, Elce JS, 2000). The active concentration of the caspase 3 enzyme was recorded by ELISA using Biosciences (USA) kits.

RESULTS

With low glycemia in group 1, there was an increase in the concentration of phosphatidylethanolamine in group 1 68.01 ± 0.74 mmol/l, diacylglycerol to 77.35 ± 1.24 mmol/l compared to the control 65.32 ± 0.14 ($p < 0.05$) and 70.43 ± 0.55 mmol/l ($p < 0.05$), respectively. An increase in glycemia leads to more significant changes in the concentration of phosphatidylethanolols by 68.62 ± 0.84 mmol/l, diacylglycerol 84.18 ± 2.06 mmol/l. There is also a significant increase in FFA to 100.51 ± 0.48 mmol/l compared to group 1 94.66 ± 1.94 mmol/l and control 94.33 ± 0.21 mmol/l ($p < 0.05$). Concentration of phosphatidylcholine in group 2 to 217.92 ± 2.24 mmol/l compared to the control 225.34 ± 0.51 mmol/l ($p < 0.05$). High hyperglycemia increases the activity of μ -calpain in group 2 to 36.35 ± 3.84 μ g/min, which was significantly different from group 1 8.89 ± 1.36 μ g/min and in the control 11.71 ± 2.03 μ g/min ($p < 0.01$). The activity of caspase 3 was maximum in group 1, 0.949 ± 0.135 ng/ml ($p < 0.05$), with a further increase in glycemia it decreased and did not differ significantly from the control (0.621 ± 0.051 ng/ml)

CONCLUSIONS

The scientific results indicate destructive processes in the membrane with activation of phospholipases and an increase in the proportion of damaged cells. High hyperglycemia leads to an increase in the activity of μ -calpain in erythrocytes, which indicates an increase in the pool of damaged cells that are not ready for apoptotic death

(caspase 3 activity is low); such cells are destroyed in the bloodstream by the mechanism of necrosis and increase inflammation. In patients with low hyperglycemia, the number of red blood cells ready for apoptotic death increases, which is a more favorable scenario, since it does not lead to activation of inflammation.

REFERENCES:

1. Salimova DE, Daminnov AT. A CLINICAL CASE BASED ON THE EXPERIENCE OF TREATING HYPERTENSION IN A PATIENT WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS, OBESITY AND VITAMIN D DEFICIENCY. *Educ Res Univers Sci.* 2023;2(12):150-154.
2. Sh, N. G., Salimova, D. E., Oybekovma, X. S., Qamariddinovna, X. A., & Amin o'g'li, B. J. (2022). ENDOCRINE GLANDS, STRUCTURE, AGE FEATURES, FUNCTIONS. *PEDAGOG*, 5(5), 341-345.
3. Shukhratovna, N. G., & Erkinovna, S. D. (2023). Features of the Course of Type 2 Diabetes Mellitus in Combination with Arterial Hypertension and Ways to Correct Them. *Eurasian Medical Research Periodical*, 17, 39-41.
4. Shukhratovna, N. G., & Erkinovna, S. D. (2022). THE ROLE OF GASTROINTESTINAL HORMONES IN THE PATHOLOGY OF THE DIGESTIVE SYSTEM. *PEDAGOG*, 5(6), 408-412.
5. Негматова, Г. Ш., & Салимова, Д. Э. (2023). Особенности течения сахарного диабета 2 типа в сочетании с артериальной гипертензией и пути их коррекции. *Ta'lim fidoyilari*, 2(1), 82-86.
6. Sobirjonovna K. N. Factors determining the clinical significance of depeptidyl peptidase 4 inhibitors in the treatment of patients with type 2 diabetes mellitus // *World Bulletin of Public Health.* 2022. Т. 8. – С. 67-72.
7. Курбонова Н.С. Негматова Г.Ш. "Ортиқча вазли қизларда хайз даврининг бузулиши"// *Тиббиётда янги кун.* 9(47) 287-291 бет. 2022
8. Курбонова Н.С. Негматова Г.Ш. "Эриктильная дисфункция у больных сахарным диабетом и ее клинический анализ"// *Биомедицина ва амалиёт* 5.1 сон. 160-165 бет. 2022 йил.
9. Курбонова Н.С. "Clinical manifestations and classification of lesions of the macular area in diabetes." *Eurasian scientific herald.* Vol13/2022/ 97-101стр.
10. Курбанова Нозима Сабиржановна "FACTORS DETERMINING THE CLINICAL SIGNIFICANCE OF DEPIPTIDYL PEPTIDASE 4 INHIBITORS IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS" *World Bulletin of Public Health (WBPH)Volume-8, March 2022* 67-72
11. Nazira K., Siddikovna T.G., Davranovna D.A., Takhirovich D.A., Tulkinovich O.S. (2021). Cardiovascular complications in patients with covid and diabetes mellitus 2. *Central Asian Medical and Natural Science Journal*, 2(3), 37-41.
12. GROWTH HORMONE FOR THE TREATMENT OF HEREDITARY DISEASES IN CHILDREN Ortikov Shahzod Tulkinovich. Karimova Nazira Alimovna, Kurbanova Nozima Sobirjanovna, Daminov Abdurasul Takhirovich /

- International Journal of Innovative Engineering and Management Research. 2021 281-284.
13. Features of the course of type 2 diabetes mellitus with arterial hypertension and ways of their correction Negmatova Gulzoda Shukhratovna, Salimova Dildora Erkinovna Eurasian Medical Research Journal 17, 39-41, 2023.
 14. FEATURES OF THE TECHNIQUE OF TYPE 2 DIABETES MELLITUS IN COMBINATION WITH ARTERIAL HYPERTENSION AND WAYS OF CORRECTION IX G.Sh. Negmatova, D.E. Salimova LLC "Research and publications", Enlightener, 2023.
 15. Features of the coexistence of type 2 diabetes mellitus with arterial hypertension and their treatment Gulzoda Shukhratovna Negmatova, Dildora Erkinovna Salimova LLC "Ochik fan", Science and education, 2023.
 16. Khalimova Z.Yu. and G.Sh. Negmatova. Autoimmune polyglandular syndromes. Literature review". Central Asian Journal of Medical and Natural S
 17. Даминов А., Хайдаров О., Хасанова М. и Абдукахорова Р. (2023). ОСЛОЖНЕНИЯ ГЛЮКОКОРТИКОИДНОЙ ТЕРАПИИ У ПАЦИЕНТОВ С ДИАБЕТОМ, ПЕРЕЖИВШИХ КОВИД-19. Евразийский журнал медицинских и медицинских наук , 3 (4), 197-200.ciences 2.4 (2021): 166-175.
 18. Khamidova M.N., Ismatova I.F., Zh.Sh. Berdirov, G.Sh. Negmatova and A.T. Daminov. "DIABETES AND COVID-19". Eurasian Journal of Medicine and Natural Sciences 2, no. 13 (2022): 190-204.
 19. Takhirovich D.A., Burchaklar S.J.A., Shukhratovna N.G., Shukhratovna S.G., Zainuddinovna M.G. (2022). COURSE OF COVID-19 IN PATIENTS WITH DIABETES. Web of Scientist: International Journal of Scientific Research, 3(02), 73–76.
 20. Takhirovich D.A., Korners S.J.A., Shukhratovna N.G., Shukhratovna S.G., Zainuddinovna M.G. (2022). COURSE OF COVID-19 IN PATIENTS WITH DIABETES. Web of Scientist: International Journal of Scientific Research, 3(02), 73–76.
 21. Abduvali, X., Otabek, S., Asilbek, E., & Daminov, A. T. (2023). TYPE 2 DIABETES: TIME TO CHANGE THE CONCEPT. Science and innovation, 2(D4), 165-167.
Bugungi kundan kunga rivojlanayotgan davrimizning eng katta muammolaridan biri – tabiatning ifloslanishidir. Insonlar o'zlari bilib, bilmagan holda tabiatga katta zarar keltirmoqdalar. Har yili ko'plab insonlar avtomobillardan chiqadigan chiqindi va gazlar bilan bog'liq kasalliklar, shuningdek ularning shovqinlardan aziyat chekmoqdalar. Bugungi kunda bu jarayon har bir mamlakatga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Achinarlisi, bunday o'zgarishlar O'zbekistonda ham mavjud. Hozirgi paytda bir yilda organik yonilg'ilarning sarfi 10 mlrd tonna atrofida ekanligi ma'lum bo'lsa, ularning oksidlanishi uchun taxminan 27 mlrd tonna kislorod talab etiladi.

Atmosferada to'planadigan kislorodning bir yillik zahirasi 200- 240 mlrd tonna ekani ma'lum bo'lsa, yaqin yillar ichida sarflanadigan kislorod miqdori uning qayta tiklanadigan minimal darajasidan oshib ketishi mumkin. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda havo tarkibidagi kislorod hozirgi vaqtda 21% ni tashkil qiladi va bu miqdor 14% ga kamayadigan bo'lsa, deyarli ko'pchilik tirik organizmlar, shu jumladan insoniyat xam kritik holatga tushib qoladi. Atrof-muhit ifloslanishining turli shakllari tufayli 2015 yilda jahon iqtisodiyoti 4,6 trillion dollar yo'qotdi (jahon yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizi). Tadqiqot mualliflari atrof-muhitning ifloslanishidan o'lim holatlarini kamaytirish bo'yicha sakkizta tavsiyani ilgari surdi, bunda monitoringni yaxshilash, hisobotlarni takomillashtirish hamda sanoat va avtomobil transportini davlat tomonidan qattiqroq tartibga solish zarurligi ta'kidlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XXI asrga kelib insoniyat atmosferaga tabiiy ravishda zararli gazlar bilan ifloslanishidan 170 marta ko'proq zararli gaz chiqarmoqda, bunga sabab bo'layotgan asosiy to'rt omilning ichida eng katta ulush aynan transport sohasiga to'g'ri keladi-40%, qishloq xo'jaligi va maishiy xizmatlar 24%, energetika sanoati-20%, ishlab chiqarish-14% ni tashkil qiladi. Oxirgi yillarda dunyo bo'yicha avtomobil ishlab chiqarish ko'rsatgichi yildan yilga o'sib bormoqda, 2000 – 2005 yillarda 60 mln atrofida o'rtacha yillik avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010 yildan so'ng ishlab chiqarish keskin o'sganligini kuzatishimiz mumkin, xususan, 2010 yilda 77,86 mln, 2015 yilda 90,78 mln, 2018 yilda 95,7 mln, 2019 yilda 90,864 mln, 2020 yilda 77,62 mln va 2021 yilda 79 mln dona avtomobil ishlab chiqarilgan. Avtomobil transporti majmuasining ekologik xavf tug'diruvchi chiqindilar manbalarini me'yorlash talablarini joriy etish atrof-muhitga zararli ta'sir etishni kamaytiradi va ularning ma'lum chegaraviy miqdorlaridan oshib ketmasligini ta'minlaydi. Ekologik me'yorlash tabiiy ekotizimlarga nisbatan ruxsat etilgan yuklanishlarni hisobga olgan holda avtomobil transporti majmuasining zararli manbalari tirik organizmlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi va tabiiy muhit sifatining buzilishiga yo'l qo'yimasligi lozim.

AVTOMOBILLARNING ATROF - MUHITGA ZARARLI TA'SIRI

Har qanday yonilg'ini yoqqanda, har xil yonish chiqindilari ajralib chiqadi. Bu chiqindilar kishi salomatligiga va atrof muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi zavodlar, fabrikalar va avtotransport korxonalarini ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda joylashib, shu yerni ifloslantirsa, avtomobillar esa qayerda ishlasa o'sha yerda ta'sir ko'rsatadi. Avtomobil transporti, hozirgi vaqtda zavod va fabrikalarga qaraganda, atrof muhitni ko'proq ifloslantiruvchi hisoblanmoqda.

Hozirgi vaqtdagi eng katta muammo avtomobilni ishlatishdan chiqadigan zaharli chiqindilarni kamaytirishdan iboratdir.

Avtomobil chiqaradigan asosiy zararli chiqindilar, hozirgi vaqtda yonilg'ini yonishidan hosil bo'ladigan gazda 200 dan ortiq zaharli chiqindilar borligi aniqlandi. Eng zaharlilariga: uglerod oksidi-SO, yonmay qolgan uglevodorodlar - SN, azot oksidi - NOx lari kiradi. Bu chiqindilarga, ko'pgina mamlakatlar tomonidan ruxsat etish me'yorlari joriy qilingan.

Mamlakatimizda yonilg'ini yonishidan chiqadigan chiqindilarni me'yorlash BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan chiqarilgan ko'rsatmasiga asosan 1970 yili joriy qilindi.

Chiqindi gazlar ichida zararsiz mahsulotlar ham bor: kislorod, karbonat angidrid, azot, oltingugurt. Ammo azot yuqori haroratda va bosim ostida oksid hosil qiladi, bu oksid juda katta zaharli kuchga egadir. Chiqindi gazlarning tarkibidagi zaharli mahsulotlar ko'pgina sablarga ko'ra hamma vaqt ham bir xil hajmda bo'lmaydi. Bu dvigatellar turiga, ishlash rejimi, qanday sozlanganligi, dvigatelni texnik qarovi va yonilg'ining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Dizel dvigatel, karbyuratorli dvigatelga qaraganda kamroq zararli bo'ladi. SO, NOx va SN dizel dvigatellarini ishlashida kamroq ajralib chiqadi, ammo qurumning hajmi ko'proq bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Kompleks ko'rsatgich chiqindi gazlarini neytrallash uchun qancha hajmda toza havo zarurligini ko'rsatadi. quyidagi jadvalga asosan dizel dvigatellari karbyuratorli dvigatellarga qaraganda ancha zararsiz ekanligini ko'rish mumkin (33% kamroq zararli). Chiqindi gazlar tarkibi quyida ko'rganimizdek 2 xil dvigatel uchun bir xil, ammo biz karburatorli dvigatellarda qo'rg'oshin birikmasi va dizel dvigatellarda bariy birikmasi borligini e'tibordan chiqarmasligimiz zarur.

Bu birikmalar quyidagicha hosil bo'ladi:

- benzinlarni antidetanatsion xossasini oshirish uchun etil spirt qo'shish natijasida (bu spirtida qo'rg'oshin bor),

- dizel yonilg'isini tutashini kamaytirish uchun tutunga qarshi maxsus bariy moddasi qo'shiladi va u dvigatelni ishlash sharoitida chiqindi gazlarning zararli bo'lishida katta rol o'ynaydi.

AVTOMOBILLAR CHIQRADIGAN CHIQUINDI GAZLARINI ZARARLIGINI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Chiqindi gazlarning zaharliligini kamaytirish uchun 2 xil yo'nalishda ish olib borilmoqda:

I-Dvigatel ish rejimini takomilashtirish, har xil yordamchi jihozlardan va yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish, sozlash ishlarini bajarish.

II-Kam zararli dvigatellar ishlab chiqarish: gazotrubinali, tashqi yonuvchi-Stirling dvigateli, eletromobillar va hokazo.

Butun dunyo sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga asosan, avtomobil transportini ishlashi natijasida atrof-muhitni zararlantirishi quyidagi ko‘rsatgichlarga asosan harakterlanadi: masalan AQSH da har yili 142 mln.t. zararli moddalar atmosferaga chiqsa, buning 86 mln.t si avtomobillarni ishlashi natijasida hosil bo‘ladi.

Avtomobilda atrof-muhitni zararlantiruvchi 3 xil manbani ko‘rish mumkin: chiqindi gazlar, karter gazlari va yonilg‘i parlanishi natijasida hosil bo‘ladigan zararli moddalar (yonilg‘i bakidan, karburatordan va hokazo).

Is gazi (CO) va oltingugurt (SO₂) gazi atmosferani ifloslovchi asosiy gazlardir. Is gazi atmosferaga tushadigan gazlarning 1/3 qismini, oltingugurt gazi esa 1/8 qismini tashkil etadi. Atmosferaga tushadigan gazlar va aerzollarning miqdori unga tabiiy manbalardan tushadigan miqdorga teng yoki ko‘proqdir. Keyingi 30-40 yil davomida atmosferaga chiqarilgan zararli gazlarning miqdori 3,5-4 baravar oshdi. Atmosferaga tashlanadigan is gazining 1/3 qismi tabiiy manbalarga va qolgan qismi esa antropogen manbalar bilan bog‘liq. Antropogen manbalardan atmosferaga tushadigan is gazining 80%i avtotransport vositalarining mahsulidir. Chunki avtomobillar chiqaradigan gazlar tarkibida is gazining ulushi 5-6%ni tashkil etadi. Is gazi va uning atmosferadagi fotokimyoviy o‘zgarishlarining mahsulotlari juda zaharlidir. Hisoblarga qaraganda atmosferaga ha yili antropogen manbalardan 19-20 mlrd. t karbonat angidrid gazi, 350-400 mln. t is gazi, 1-2 mlrd. t aerzollar tushadi.

Chiqindi gazlar yoqilg‘ilarning oksidlanish va to‘liq yonmasligi natijasida paydo bo‘ladi. Chiqindi gazlar yirik shaharlarning atmosferasida ruxsat etilgan kontsentratsiyasini va zararli moddalar miqdori ko‘payishining asosiy sababidir. Dvigateldagi chiqindi gazlarining asosiy zaharlilari uglerod, azot va uglevodorodlarning oksidi. Bundan tashqari, to‘yingan va to‘yinmagan uglevodorodlar, aldegidlar, qurum va boshqa komponentlardan iborat. Avtomobillardan chiqadigan chiqindi gazlar tarkibini quyidagi jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin.

№	Chiqindi gaz tarkibi	Dvigatel turi		Izoh
		Benzin %	Dizel %	
1	Azot	74.0-77.0	76.0-78.0	Zaxarli bo‘lmagan
2	Kislorod	0.3-8.0	2.0-18.0	Zaxarli bo‘lmagan
3	Suv bug‘i	3.0-5.5	0.5-4.0	Zaxarli bo‘lmagan
4	Karbomnat dioksidi	5.0-12.0	1.0-10.0	Zaxarli bo‘lmagan
5	Karbonat monoksidi	0.1-10.0	0.01-5.0	Zaxarli
6	Aldegidlar	0-0.2	0.001-0.009	Zaxarli
7	Oltingugurt oksidi	0-0.002	0-0.003	Zaxarli
8	Qurum g/m ³	0-0.004	0.01-1.1	Zaxarli

1-jadval: Avtomobil dvigatellaridan chiqayotgan chiqindi gazlar tarkibi.

Ushbu muammolarni taxlili asosida quyidagi xulosalarni beramiz. Avtomobil transportidan chiqayotgan zaxarli gazlar tashlamasi tarkibida inson va tabiat uchun o'ta zararli bo'lgan moddalar mavjud bo'lib, ular barcha odamlar salomatligi, xayvonlar va o'simliklar uchun xavfli ekanligi aniqlandi. O'zbekistonda ham boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi EURO standarti talablarini bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Avtomobillarda katalizator va neytralizatorlarini ishlash muddatini uzaytirish ishlari olib borilmoqda va ularning ishlash muddati tugaganidan so'ng qayta ta'mirlash yoki almashtirish choralarini ko'rilmoqda. Bosqichma-bosqich ichki yonuv dvigatel yordamida ishlovchi avtomobillardan vos kechib elektromobillarga o'tish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

XULOSA

Insonlarning ekologik madaniyatini oshirish va avtomobillarning tabiatga zararli ta'sirini kamaytirish bo'yicha maksimal darajada chora tadbirlar ko'rish kerak. Avtomobillarning ekologik sinfini ishlab chiqish va bu sinfni muntazam kengaytirish bo'yicha ishlar olib borish. Avtomobillarning chiqadigan chiqindilarning standart texnik va kimyoviy tarkibini domiy ravishda nazorat qilish. Yo'l harakatini tashkil etish, ko'cha-yo'l tarmog'ini rekonstruksiya qilish, atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal kontsentratsiyasi normalari va avtotransport harakati natijasida yuzaga keladigan maksimal ruxsat etilgan shovqin darajalari turar-joy binolari hududida ortiqcha bo'lgan taqdirda avtotransport vositalaridan cheklangan miqdorda foydalanish hududlarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Q.M.Sidiknazarov, E.A.Asatov, M.Z.Musajonov, Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. TAYI professori Sidiknazarov Q.M. tahriri ostida. – T.: Voris-nashriyot, 2008. 5606.
2. Xidirov, M. Q. Avtotransport tizimida chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalarning atrof-muhitga ta'siri.// Educational research in universal sciences, (2023).p. 543–548.
3. O'zbekiston respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni 1996 yil.
4. Ziyonet.com

ARTERIAL BOSIM OSHISHI. GIPERTONIYA.

Djurakulova S.S.

Toshkent davlat stomatologiya instituti, stomatologiya yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Xodjayeva D.Z.

Toshkent davlat stomatologiya instituti biofizika fani katta o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Arterial gipertoniya bilan og‘rigan bemorlarda gemokoagulyatsiya o‘zgarishlarini baholash va maqsadli organlarning shikastlanishini aniqlash bo‘yicha tavsiyalar.

Kalit so‘zlar: Giperkoagulyatsiya, maqsadli organlar, arterial gipertoniya (AG), arterial bosim, gemostaz, gemokoagulyatsiya.

Inson tanasi-bu inson yashaydigan ma’lum bir funksiyani bajaradigan ulkan mexanizm, organlar. Ushbu “tandem” da asosiy rollardan biri yurak-qon tomir tizimi. Asosiy organning ishlashi paytida uning klapanlari ma’lum bir bosim ostida qonni asosiy tomirlarga chiqaradi, bu qon aylanish yoki arterial **qon bosimi** deb ataladi. Bundan tashqari, qon butun tanaga tarqaladi va qon bosimi o‘zgaradi. Buning uchun ma’lum tibbiy normalar mavjud, ammo ulardan og‘ish qon aylanish tizimidagi nosozliklarni ko‘rsatadi.

Yoshga qarab, qon tomirlarining torayishi yoki kengayishi tufayli qon oqimining kuchi o‘zgaradi. 10 foiz atrofida yuqoriga yoki pastga tebranishga ruxsat beriladi. Yoshi bo‘yicha odamlar uchun me‘yorlarni jadvalda ko‘rish mumkin.

	Erkaklar	Ayollar
20 yosh	123/76	116/72
30 yosh	126/79	120/75
40 yosh	129/81	127/80
50 yosh	135/83	135/84
60-65 yosh	135/85	135/85
65 yoshdan yuqori	135/89	135/89

Nima uchun anormalliklar xavfli? Agar tonometrda me'yordan yuqori yoki past ko'rsatkichlar qayd etilsa, bu jiddiy kasallikni ko'rsatadi. Bunday og'ishlar surunkali holga kelgan hollarda, bemorda quyidagi xavflar mavjud:

- miokard infarkti;
- bosh pulpasida qon aylanishining buzilishi;
- surunkali etishmovchilikning rivojlanishi;
- qon tomir patologiyalari.

Arterial gipertoniya (AG) - bu yurak faoliyati davomida arteriya devorlariga ta'sir qiladigan qon oqimining kuchini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Oddiy qon bosimi 120/80 mm HG ni tashkil qiladi, lekin insonning yoshi, sog'lig'i va turmush tarziga qarab o'zgarishi mumkin. Yuqori qon bosimi yoki gipertoniya insult, yurak xuruji va organlarning shikastlanishi kabi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Arterial gipertoniya (AG) bilan kasallangan bemorlarda an'anaviy ravishda kasallikning prognozi uchun arterial qon bosimining qiymati (QB) mezon sifatida ishlatiladi.

Biroq, qon bosimi (QB)ni pasaytirish davolashning yagona maqsadi deb hisoblash mumkin emas, chunki arterial gipertoniya (AG) ko'pincha boshqa omillar, yurak-qon tomir tizimining buzilishi xavfi bilan birlashtiriladi, masalan giperkoagulyatsiya kabi. Trombotik asoratlarning patogeneza qon tomir-trombotsitlar gemostazini faollashtirish va giperkoagulyatsiya sindromining rivojlanishi yotadi. Arterial gipertoniya (AG) bilan og'rikan bemorlarda gemostatik tizimning holatini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi.

E.V.Anikina va Yu.M Klyashevalarning tadqiqotlarida arterial gipertoniyaning (AG) I va II bosqichlari bo'lgan 30 nafar bemor kiritilgan, shulardan 6 erkak va 14 ayol, o'rtacha yoshi $52,7 \pm 2,3$ yil. Arterial gipertoniya (AG) kasalligining davomiyligi $4,9 \pm 0,7$ yilni tashkil etdi. Gemostatik parametrlarni o'rganish Bekman-Coulter LH 500, LH750 (AQSh - Fransiya) analizatorlari yordamida amalga oshirildi,

Trombotsitlarning yopishqoqligi universal agregatsiya induktori bilan o'zgartirilgan usul yordamida bilvosita baholandi.

Barcha bemorlar quyidagi tekshiruvdan o'tdilar: EKG, qon bosimi monitoringi, EchoCG.

Natijalar. Arterial gipertoniya (AG) bilan og'rikan bemorlarda trombotsitlarning induksion agregatsiyasi tezlashgani aniqlandi $12,6 \pm 0,6$ sek (normativ qiymatlar 14-18 sek). Bemorlarning 72 foizida fibrinogen darajasi me'yordan oshdi va $423,9 \pm 12,3$ mg/dl.ni tashkil etdi.

APTT ning $26 \pm 1,2$ soniyagacha qisqarishi aniqlandi. Belgilangan fibrinolizning $5,2 \pm 0,5$ sekgacha tezlashishi aniqlandi. Normativdan chetga chiqish

PTI, D-dimer, TV, antitrombin III qiymatlarida aniqlanmadi.

SBP, DADdd, DADn, IVSADd, IVDADD, IVSADn, IVDADn, SNSDAD ning oshishi ko'rsatildi va bu maqsadli organlarga yuqori bosim yukini ko'rsatadi.

EKG ma'lumotlariga ko'ra, gipertoniya (AG) bilan og'riqan 12 (40%) bemorda LV gipertrofiyasi aniqlangan.

Ekokardiyografiya natijalariga ko'ra, bemorlarning 86 foizida LV devor qalinligi nisbiy indeks ko'tarildi. LV miyokardning massasi $287,5 \pm 7,4$ g.

XULOSA

Olingan ma'lumotlar arterial gipertoniya (AG) bilan og'riqan bemorlarda giperkoagulyar o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Fibrinolizning tezlashishi tromboz xavfini kamaytiradigan kompensatsion mexanizmdir. Tekshiruvdan o'tganlarning ko'pchiligida LV miokard gipertrofiyasi borligi aniqlangan. Maqsadli organlarning shikastlanishining samarali oldini olish va trombotik asoratlarni kamaytirish arterial gipertoniya bilan og'riqan bemorlarni davolashning asosiy maqsadi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Zukhriddinova, Khodjaeva Diyora. "METHODOLOGY OF TEACHING PHYSICS IN ACADEMIC LYCEUMS OF MEDICAL DIRECTION." *Journal of Critical Reviews* 6.5 (2020): 2019.
2. Zuhridinova, Khodjayeva Diyora. "Professional teaching of physics in academic lyceums in medical direction." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 837-840.
3. Российское кардиологическое общество Клинические рекомендации Артериальная гипертензия у взрослых // 2020.
4. Люсов В. А., Харченко В.И., Мишнев О. Д., Корякин М. В., Вирин М. М. Целесообразность модификации классификаций артериальной гипертензии по уровням АД // *Российский кардиологический журнал*. - 2007. - №6 (68)
5. Клименко А.А., Аничков Д.А., Демидова Н.А. Рекомендации по артериальной гипертензии Европейского общества кардиологов и Европейского общества артериальной гипертензии 2018 года: что нового? // *Клиницист*. - 2018. - №2. - С. 10-15.
6. Кудина Е.В., Рачек И.И., Ларина В. Н. Артериальная гипотензия: диагностика, немедикаментозные и медикаментозные методы лечения // *Лечебное дело*. - 2015. - №2. - С. 4-8.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Ergashev Tohir Nematovich

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti stajyor-o'qituvchisi

Ulug'murodov Elshod Abdusalim o'g'li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi
E-mail: ulugmurodovelshod2001@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqola oliy ta'lim sifatini raqamli pedagogika bilan ta'minlashda tutgan o'rni va ahamiyati hisobga olindi. Ta'lim sifati va samaradorligi ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili o'tkazildi. O'rganish jarayonida an'anaviy va raqamli pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tdi. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari "AKT" ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: AKT-ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'limni raqamlashtirish, professional, taqdimotlar, "HEMIS".

ABSTRACT

The article considered the role and importance of digital pedagogy in ensuring the quality of higher education. An analysis of the factors that have a positive effect on the quality and effectiveness of education was conducted. During the learning process, he mentioned the unique features of traditional and digital pedagogy. In higher education institutions, information and communication technologies are an integral part of "ICT" education.

Keywords: ICT-education, information and communication technologies, digitization of education, professional, presentations, "HEMIS".

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены роль и значение цифровой педагогики в обеспечении качества высшего образования. Проведен анализ факторов, положительно влияющих на качество и эффективность образования. В процессе обучения он упомянул об уникальных особенностях традиционной и цифровой педагогики. В высших учебных заведениях информационно-коммуникационные технологии являются неотъемлемой частью "ИКТ" образования.

Ключевые слова: ИКТ-образование, информационно-коммуникационные технологии, цифровизация образования, профессионалы, презентации, “ХЕМИС”.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot va texnologiyalarning inson hayoti, shu jumladan, ta'lim olish bo'lishi uchun kuchaymoqda. Shunga o'xshab, o'z vaqtida tanlab olingan mamlakatlar muvaffaqiyatga erishish yo'li, aksincha, eski usuldan ketayotgan mamlakatlar taraqqiyotdan orqada qolmoqda. Bu tendentsiya yuqori o'rganilayotgan mamlakatlar uchun ham xosdir. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari “AKT” ta'limining ajralmas qismidir, chunki o'z mamlakatlaridagi ko'plab oliy o'quv yurtlari rejada talabalarda zamonaviy texnik va asbob-uskunalar va aloqa vositalaridan kasbiy ma'lumotsiz foydalaniladigan texnologiyalardan o'rganadi, ularni tejaydi, yetib borishini ta'minlaydi. malaka va ko'nikmalariga ko'ra mehnat va uni uzatish bo'yicha bog'liq fanlar bilan axborot texnologiyalarini berish imkoniyati mavjud. Shuningdek, AKT bo'yicha o'qitish vositalarini aylantirish va shuning uchun zamonaviy o'quv jarayoni uchun elektron pochta, multimedia ilovalari Zamonaviy o'quv jarayoni uchun elektron pochta yaratish, multimedia ilovalari Ta'minotsiz mo'ljallangan dasturiy ta'minot uchun yaratish. Taqdimotlar video va audio materiallar va boshqalar tasavvur qilish qiyin. O'z mamlakatlarida yuqori ta'lim - Fanlar bo'yicha ta'lim resurslari va topshiriqlarini joylashtirish, talabalar bilimlarini nazorat qilish, o'qituvchi fikr almashish vositalarini tashkil etish, o'zida mujassamlangan ta'limni boshqarish LMS “LearningManagement System” tizimlari joriy qilinmoqda. Coursera, Udacity, Future Learn, Udemy kabi platformalar mavjud.

KIRISH

Mamlakatimizda ham oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish mo'ljallangan “HEMIS” milliy axborot tizimini yaratishga kirishdi va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari bu tizimdan AKTdan yaratilgan imkoniyatlardan keng qo'llaniladigan sohalarda keng qo'llaniladigan sharoitlarga bog'liq. Buni ishlab chiqish strategiyasi yo'nalishi bo'yicha ish olib borildi. Talabni jahon darajasiga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Raqamli “O'zbekiston -2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-son qaror qabul qilindi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan strategiya aholining raqamli savodxonligini oshirishning eng muhim shartini ta'minlashdan iborat Hujjatga ko'ra o'qitish tizimiga ko'ra raqamli ta'limning barcha bosqichlarida joriy ta'lim, IT-ta'limni rivojlantirish va aholining o'rtalarida raqamli ko'nikmalar mavjudligini ta'minlash rejalashtirilgan. Bu farmonda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida fundamental va

amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlarda ham ustuvor ahamiyatga ega. O'rganish jarayoniga faol tatbiq etilayotgan va joriy etilayotgan texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, bu texnologiyalardan ta'lim maqsadlarida samarali va oqilona foydalanish, turli xil qarama-qarshi fikrlar va bolada paydo bo'ladigan savollar keladi. Raqamli pedagogika aynan nima? Bu savolga javob beruvchi biz savolga javob berish orqali biz terminologik chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik, pedagogika fanlari metodik jihati malakali olib boorish maqsad va vazifalarni to'g'ri shakllantirish natijaga qanday erishishni istaymiz, albatta tushunamiz imkoniyat olish. ta'limni raqamlashtirishga ega ta'lim jarayoniga va ta'lim jarayoniga va ta'lim jarayonida hozirgi amalga oshirilayotgan zamonaviy texnika vositalarining yagona o'zgarishi. Ta'limning raqamli pedagogikasi nazariy va amaliy muammolari, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlari, shuningdek, ta'lim xizmatlarisiz qo'llaniladigan texnologiyalardan raqamli texnologiyalar samarali mavjud bo'lishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni o'rganadi. Darhaqiqat, ta'lim sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan faol oqim texnologiyalari haqidagi ma'lumotlar yangi holat yuzaga keldi. Bunday vaziyatda meros saqlash juda aniq pedagogik kuzatadi, lekin amaliy pedagogik faoliyat modeli bilan to'ldirilgan quyidagi yangi imkoniyatlar bog'liq:

1. O'quv materiallari oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimlarda yoki o'qituvchining tizimlarda yoki o'qituvchining shaxsiy veb-saytida joylashtirish;
2. Materiallarni elektron pochta orqali tarqatish;
3. Yuqorida qayd etilgan o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash holatlar testlarida qo'llaniladigan tizimlardan maxsus dasturiy ta'minot ta'minoti va kompyuterga muvofiq yaratish nazoratsiz qo'llaniladigan texnologiyalardan yo'lga chiqish;
4. Elektron pochta, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimlari o'qituvchi orqali talabalar bilan fikr almashish amalga oshirilgan arizaga erishish;
5. Fan ta'limi rejasiga xorijiy va milliy ta'lim platformalarida mashhur universitetlar ochiq onlayn kurslar kiritish, yakuniy nazorat testlardan test sifatida o'tish va sertifikat olish yoki qo'shimcha material sifatida ochiq onlayn kurslardan foydalanish.

XULOSA

Raqamli pedagogika tizimida uzluksiz ta'lim o'rin oladi bu hozirgi texnologiyalar asr ta'limi tizimingizda yangi raqamli pedagogika tizimi bu an'anaviy ta'lim sizning tizimingizdan butunlay farq qiladi _ Farqi bu raqamli pedagogika o'zining informatsion bazasi va unda modelni mutlaqo qo'llagan. xolislik , ta'lim o'rtada talaba va o'qituvchi bilan tezkorlik va soflik bilan ma'lumot almashish, Shuningdek, dunyongizning barcha rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida raqamli ta'lim tizimi ustuvorligi va bu juda katta muvaffaqiyatga erishish hech qachon kimga sir emas.

Bizning an'anaviy ta'limimiz biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun tayyormiz, aksincha aniqlandiki, bu raqamli pedagogika deyarli 3 yil davomida erishilgan natijalar uchun juda yaxshi bo'lgan bo'lishi mumkin, biz ushbu ta'lim tizimi bilan birga kelyapmiz hali Vatanimiz taraqqiyotiga o'z bilimi va qo'shgan hissasi bilan mehnati salohiyatli kadrlar oladi, menimcha

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi "Raqamli "O'zbekiston –2030" strategiyasi va uning amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son qarori.
2. Aglyamzyanovna GN Gumerova L. Zoliy maktabda raqamli pedagogika : o'quvchilarning o'rganishdan foydalanish simulyatsiyasi. Rossiya ta'lim va psixologiya jurnali 2021, 12-jild, 1-2-son, <http://riep.ru3>
3. Mamarajabov, Shavkat . Tabaqalashtirilgan ta'lim - bo'lajak mutaxassislarning umumiy kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish omili sifatida. Arkhivnauchnyxissledovany (2021).

DAVLAT XIZMATCHILARI VA ULARNI RAG‘BATLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Niyozmurodov Zafarali Zokirjon o‘g‘li

Tog‘-kon sanoti va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti bosh mutaxasisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish, O‘zbekistondagi davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning asosiy jihatlari, tashkilotdagi davlat xizmatchilari faoliyatini rag‘batlantirish yo‘llarini qamrab olish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xizmatchilarini rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlari, davlat xizmatida mehnat motivatsiyasini yaxshilash, Davlat xizmatchilari maqomi.

Davlat xizmatini hech shubhasiz jamiyat sivilizatsiyasining eng muhim ijtimoiy kashfiyotlaridan biri, deyish mumkindir. Davlat xizmati davlat tizimining asosiy negizini, uning samarali ishlashini ta‘minlashga yo‘naltirilgan asosiy institut sanalib, bunda davlat xizmatchilarining o‘rni ahamiyatlidir. Zero, davlat xizmatchisi - bu davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta‘minlash bo‘yicha professional faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Ushbu holatda davlat xizmatchisi va davlat (davlat organi) o‘rtasida davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelib, ular o‘zaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Davlat xizmatchisi - davlatni malakali boshqaruvchisi, balki vakolati doirasiga davlat vazifalarini amalga oshirish va davlat hokimiyati organlarining vakolatlarining malakali ijrosini ta‘minlashga kiradigan mansabdor shaxs hisoblanadi. Davlat xizmatchisi - bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig‘i va manfaatlari bo‘yicha uning nomidan harakat qiluvchi insondir. U fuqarolar manfaatlari yo‘lida davlat organlari tizimida davlat hokimiyati vakolatlarini bajaradigan, xalq ifoda etib, ijtimoiy masalalarni hal etadigan maxsus ijtimoiy fuqarolar birligining vakili hisoblanadi. Davlat xizmatchilari maqomining farqi, masalan, maqsadi foyda olish bo‘lgan tadbirkorlardan asosiy farki ana shundadir.¹

O‘zbekistonda davlat xizmatchilarini quyidagicha ta‘riflash mumkin:

¹ Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat xizmati" E.T. Hojiev, G.S. Ismoilova Toshkent. 2015

- davlat xizmatchisi o'z faoliyatini davlat xizmatchilari lavozimlari reestriga kiritilgan lavozimlarda amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir;¹

- chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi prezidentining alohida qarorlarida belgilangan tartibda davlat xizmatchilari lavozimlarini egallashlari mumkin;

- davlat xizmatchilari lavozimlari reestriga kiritilgan lavozimlarni egallab turgan davlat xizmatchilarining faoliyati davlat xizmatiga oid qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmat va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilish davlat maxsus xizmati bo'lib, alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat xizmatchilari - huquqning individual sub'ektlaridan iborat bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib, ma'lum bir haq evaziga davlat organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar.

Xizmatchilar to'g'risida batafsil tushuncha xosil qilish maqsadida, ularning faoliyatini jamiyatning turli tashkilotlarida (korxonalar, muassasalarida) band bo'lgan boshqa shaxslar faoliyati bilan taqqoslash kerak:

- xizmatchilar turli tashkilotlarda ma'lum bir lavozimlarni egallaydilar;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi xizmatchilari;
- davlat organlari xizmatchilari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari xizmatchilari;
- nodavlat tashkilotlarning xizmatchilari,
- notijorat, jamoat

Ularning faoliyati aqliy xususiyatga ega, ya'ni ular bevosita moddiy boyliklarni yaratmaydi. Lekin xizmatchilar moddiy ishlab chiqarish sohasida ham faoliyat yuritishi mumkin, masalan, tashkiliy, ishlab chiqarish jarayonini texnologik ta'minlash, loyihalarni tayyorlash, marketing, tadqiqot faoliyati va boshqalar;

- xizmatchilar hokimiyat faoliyatini (tashkillashtirish, farmoyish berish, rahbarlik, nazorat) amalga oshiradilar hamda tegishli tashkiliy-farmoyish berish va ma'muriy-xo'jalik vakolatlariga ega bo'ladi; ular davlat va jamoat majburlor choralarini qo'llashlari mumkin. Har qanday tashkilotdagi xizmatchilar, asosan boshqaruv funksiyasini amalga oshiradilar;

- xizmatchilar o'zlarining vakolatlarini, funksiyalarini, qoida bo'yicha, ma'lum bir haq evaziga amalga oshiradilar.

¹ <https://sof.uz/z58>;

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchilarining turli asoslarga ko‘ra guruhlariga bo‘linishi, ya’ni tasniflanishini ko‘rish mumkin. Jumladan, D.M.Ovsyankoning fikricha davlat xizmatchilarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:¹

1. Davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari:

- respublika miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi xizmatchilar;
- mahalliy miqyosda faoliyat ko‘rsatuvchi xizmatchilar;

2. Davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilarini:

- fuqarolik davlat xizmatchilari;
- harbiy davlat xizmatchilari (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilari);

3. Hokimiyatning bo‘linish prinsipidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari;

- qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- sud hokimiyati organlarining xizmatchilari;

4. Mansab vakolatlarining hajmiga ko‘ra davlat xizmatchilari:

- mansabdor shaxslar; mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

5. Xizmat muddatining davomiyligiga ko‘ra davlat xizmatchilarini:

- ma’lum bir muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar;
- belgilanmagan muddatda tayinlangan xizmatchilar;
- sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar va boshqalarga bo‘linadi.²

Xizmatchilar o‘rtasida davlat va mahalliy organlarda faoliyat ko‘rsatuvchi xizmatchilarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining xizmatchilari davlat va mahalliy organlarning manfaatlarini ko‘zlab, ularning nomidan harakat qiladilar hamda davlat va mahalliy ma’muriyatning vakillari bo‘lib hisoblanadi.

Davlat va mahalliy organlarning xizmatchilari davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi.

Davlat xizmatchisi davlat lavozimini egallagan, pul mukofoti evaziga mazkur davlat organining funksiyalarini amalga oshiradigan shaxsdir.

¹ Д.М.Овсянко Ключевые показатели эффективности на службе. Эффективность работы госслужащих // Вестник Евразийской науки, 2018 №2.

² Административное право. Москва, Юристъ, 2000, 211-216-б.

Davlat xizmatchilarining aksariyati ijro-farmoyish berish (tashkillashtirish) vakolatlarini va ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Faqatgina ayrim davlat xizmatchilari maxsus davlat mansablarini egallaydi, masalan, odil sudlovni va prokuror nazoratini (ya'ni, huquqni muhofaza qilish faoliyatini) amalga oshiradi.

Davlat xizmatchisi tushunchasini uch ma'noda ko'rib chiqish mumkin:¹

1. Davlat-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - bu turli xususiyatdagi va ahamiyatdagi vakolatlarga ega bo'lgan davlatning (davlat organlarining) "xizmatchisi" xisoblanadi.

Xizmatchilar davlatni davlat ma'muriyatining ichidagi turli ijtimoiy munosabatlarda yoki tashqi aloqalarda davlat nomidan harakat qiladi.

Davlat xizmatchisi - davlat va jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, davlat funksiyalarini amalga oshiradi;

2. Ma'muriy-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - maxsus xokimiyat, tashkillashtiruvchi-farmoyish beruvchi vakolatlarga ega. Davlat xizmatchisi yuridik (huquqni muhofaza qiluvchi) vakolatlarni amalga oshirish va ma'muriy-huquqiy sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega bo'lgan hokimiyat vakilidir;

3. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi - jinoiy javobgarlikning maxsus sub'ekti hisoblanadi (davlat xizmatchisi mansabdor shaxs - mansab jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladi).

Har bir davlat xizmatchisi egallab turgan mansabidan kelib chiquvchi ma'lum bir vazifalarni bajarishi kerak. Davlat mansabi - bu davlat xizmatchisining ish (xizmat) joyi hisoblanadi. Har bir davlat mansabi davlat xizmatining asosiy elementlaridan biri bo'lgan shtat birligiga kiritiladi. Shtat jadvali davlat organi (tashkiloti)da tashkil etilgan mansablardan iboratdir. Davlat tashkilotlarida mansablar davlat hokimiyati sub'ektlari tomonidan tashkil etiladi.

Davlat xizmatchisi ma'lum bir mansabni uzoq vaqt davomida (masalan, butun faoliyati davomida) egallashi mumkin. Davlat xizmatchisi davlat organida faoliyat yuritishi jarayonida mansab bo'yicha harakatlanishi mumkin, ya'ni davlat xizmatida malaka darajalar joriy etilgan. Malaka darajalar davlat xizmatchisiga bir mansabdan ikkinchi mansabni egallashini (masalan, yuqoriga yoki pastga qarab harakatlanishini) belgilab beradi. Ular butun professional hayot jarayonida davlat xizmatchisini davlat bilan bog'lab turadi hamda davlat va jamiyatdagi munosabatlarning muvozanatini ta'minlaydi.

¹ Стариков Ю.Н. Службное право. Москва, БЕК, 1996; Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право.-Зерцало, 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право. - М.: Норма, 2004; Козлов Ю.М. Административное право. - М.: Юристъ, 2003;

XULOSA

Davlat xizmati tizimida mehnat unumdorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning past samaradorligi taklif etilayotgan rag‘batlarning davlat xizmatchilari uchun ahamiyatsiz ekanligi va ularning qiziqishlarini faollashtirishga hissa qo‘shmasligi bilan bog‘liq ekanligini ma’lum.

Shuni ta’kilash joizki davlat xizmatchilarini rag‘batlantirish va samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi quyi tizimlardan foydanishni taqazo qiladi;

- xodimlarni rejalashtirish;
- mehnatga haq to‘lash;
- professional rivojlanish;
- karerani rivojlantirish;
- ijtimoiy kafolatlar;
- axloqiy va psixologik rag‘batlantirish;
- moddiy-texnik mehnat sharoitlari;
- axborot ta’minoti;

Ushbu tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning regulyatori mehnat motivatsiyasi davlat xizmatchilari bilan suhbatlashish orqali ularning faoliyatini rag‘batlantirish va demotivlashtirishning eng muhim omillari bo‘yicha amalga oshiriladigan xodimlarning motivatsiya darajasining o‘zgarishini nazorat qiladi. Bu monitoring motivatsiyani roslash uchun zarur ta’sirlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston davlat xizmatchilarini o‘z mehnat faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish kerak buning uchun avvalo to‘g‘ri rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘yishdir. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, davlat xizmatchilarini baholab borish kerak. Davlat xizmatchilarini ikki tomonlama baholash amalga oshiriladigan bunday yondashuv nafaqat o‘tmishdagi, balki kelajakdagi, istiqbolli faoliyatlarga e’tiborni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Xojiyev E. T. Davlat xizmati : o‘quv qo‘llanma / E. T. Xojiev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova.
2. Mehnat tartibga solish va davlat xizmatchilari professional faoliyatini optimallashtirish muammolari, usullari K. H. Abduraxmanov, I. A. Badaeva, L.V.Vagina
3. Abdurahmonov Q.X. va b. Personalni boshqarish. Darslik.-T.: “Iqlisodiyot”, 2013-356 b.
4. Административное право. Москва, Юристъ, 2000, 211-216-б.
5. <https://sof.uz/z58>;
6. https://www.norma.uz/nashi_obzori/gosslujashchih_ocenyat_po_kpi

NEW CONSTITUTION - THE COUNCIL OF DEVELOPMENT

Sirojiddinov Asliddin Abduvahidjan ugli

Gulistan State University, Faculty of Production Technologies,
Master's student of the 1st stage of the field of technology of storage
and preliminary processing of agricultural products.

misterasliddin99@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the role of our newly adopted Constitution in society and human life, the guaranteed rights and freedoms of citizens, the approaches of the newly introduced changes to the practice of law enforcement, and the norms aimed at protecting human rights and interests.

Keywords: Constitution, reform, state, person, law, norm.

INTRODUCTION

Today, in our modernized country, democratic reforms aimed at modernization of society and state life continue consistently. This, in turn, leads to the change of the state system, the development of national statehood, the emergence of new power institutions, as well as changes and additions to existing normative legal documents. In line with these updates, reforms related to the INTRODUCTION of amendments and additions to our Constitution, which is our General Council, are being carried out.

MATERIALS AND METHODS

After all, as President Sh.M. Mirziyoev stated at the meeting held with the members of the constitutional commission on amending the Constitution of the Republic of Uzbekistan on June 20, 2022: "Truly the ideology of the people, the most sacred aspirations of the nation can be fully expressed only in its main document, the Constitution"[1]. The Constitution of the Republic of Uzbekistan as a high-level law reflects the image of our state, democratic principles of management, social and economic strategic directions of society, and guarantees the rights and freedoms of citizens.

RESULTS AND DISCUSSION

The updated Constitution of the Republic of Uzbekistan entered into legal force on May 1, 2023 as a result of the mentioned ideas and research. In turn, 27 new articles were added to this Constitution, the number of articles increased from 128 to 155, which indicates that the number of norms in our Constitution has increased to 434 and it has been updated by 65%. Our updated Constitution serves as the most important

legal foundation for the comprehensive regulation of all aspects of the life of our society and democratic development of our country. Among them, the long-term development strategies of our country, in general, created a solid legal basis and a reliable guarantee for the future prosperous life of our country and people. In fact, the Constitution in a broad sense “is a legal document that strengthens and guarantees the rights and freedoms of people and citizens, as well as defines the foundations of the social system, form of government and state structure, the organization of central and local bodies of power, their powers and mutual relations”[4, 252].

It should be noted that the adoption of our updated Constitution is not just a desire, a simple event, but a historical foundation, in accordance with the centuries-old aspirations of our people, fully responding to its national interests, and universally recognized norms and principles regarding democracy, human rights and freedoms. strictly followed, it was an objective necessity reflected in the principles of friendly cooperation with the world community, the ultimate goal of which was to create a free, prosperous and prosperous life for our people.

This need is confirmed in the preamble of our Constitution, that is, in recognition of our high responsibility to the present and future generations to build a humane democratic state, an open and fair society, in which the one nation of Uzbekistan: man, his life, freedom, honor and value are considered the highest value. , based on the universally recognized principles and norms of international law, we can see that it aims to ensure the decent life of citizens, inter-national and inter-confessional harmony, prosperity and prosperity of our multi-ethnic friendly Uzbekistan.

In accordance with our updated Constitution, Uzbekistan as a sovereign, democratic, legal, social, secular state is of great importance in ensuring the priority of the Constitution and the law, in ensuring the priority of human rights, freedoms and interests, in directing all resources and opportunities of the state to improve the quality of life of citizens and the well-being of individuals. At the same time, the idea of “For human dignity” and the main principle of our current reforms, the approach of “Man-society-state” are deeply embedded in the content of our updated Constitution, and the protection of human dignity, honor and pride, rights and interests in all spheres is reflected. found That is, in the Decree No. PF-60 of the President of January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, the goal of making the principles of justice and the rule of law the most basic and necessary condition for development in our country is defined, including the 20th goal of the Strategy “Active civil society development and formation of a sense of respect and obedience to the law among citizens; We can see that the stated goals of raising the legal culture and consciousness of the people, establishing effective cooperation of the country’s bodies

with civil society institutions, mass media and educational organizations in this regard have been confirmed in our updated Constitution”[5].

Amendments and additions to the relevant norms of our Constitution are important because they serve not to weaken our Constitution, but rather to further improve this important legal document, to ensure the priority of individual rights, to guarantee the interests and dignity of the people, and to further develop the practice of law creation and law enforcement.

CONCLUSION

In conclusion, it is worth noting that at the heart of the reforms implemented in Uzbekistan are democratization of society with the help of features characteristic of our modern statehood, protection and full provision of people’s rights and interests, strengthening the state and society’s care for people in need of social protection, and further increasing the prestige of our country in the world. There is no doubt that the newly revised Constitution will play a decisive role in the realization of these goals.

REFERENCES:

1. On June 20, 2022, President Shavkat Mirziyoyev’s speech at the meeting with the members of the Constitutional Commission of the Republic. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions> THE ROLE OF NEIGHBORHOOD AND PUBLIC MEDIA AS CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS - "FAIR JUDGMENT"
3. New Uzbekistan strategy [Text] / Sh.M. Mirziyoev. -Tashkent: "Uzbekistan" publishing house, 2021.- 464 p.
4. Legal encyclopedia of Uzbekistan / Team of authors. - T., 2010. - 252 p.
5. Development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 <https://lex.uz/docs/5841063> 02/10/2023, No. 06/23/21/0085
6. Constitution of the Republic of Uzbekistan <https://lex.uz/docs/6445145> 01.05.2023, issue 03/23/837/0241)

IOT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA GASTROENTEROLOGIK SIGNALLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH TIZIMINING STRUKTURA VA ALGORITMLARI

Ro‘ziboyev Feruz Yusufboy o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Matematika, Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada IoT texnologiyalari asosida gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berish tizimining struktura va algoritmlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Simsiz uzatish texnologiyalari, Taxigastriya, Elektrod, Elektrogastrografiya, Oshqozon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены структуры и алгоритмы цифровой системы обработки гастроэнтерологических сигналов на основе IoT-технологий.

Ключевые слова: Технологии беспроводной передачи, Таксигастрия, Электрод, Электрогастрономия, Желудок.

ABSTRACT

This article presents the structures and algorithms of the digital processing system for gastroenterological signals based on IoT technologies.

Keywords: Wireless transmission technologies, Taxigastria, Electrode, Electrogastrography, Gastric.

KIRISH

Simsiz mobil texnologiyalarning rivojlanishi sog‘liqni saqlash sohasida dasturiy ilovalarining yangi yechimlarini ta‘minlab bermoqda. Garchi shifokor va bemor o‘rtasidagi yuzma-yuz maslahatlashish tizimi hech qachon o‘zgartirilmasa ham, simsiz texnologiyalarni qo‘llash orqali tibbiyotda samarali davolash mumkin bo‘lgan tibbiy holatlar mavjud. Simsiz uzatish texnologiyalari sog‘liqni saqlash va biomeditsina injiniringi sohasida tobora ommalashmoqda. Ma‘lumot uzatishning zamonaviy simsiz texnologiyalari mobil tibbiy uskunalarni yaratuvchilariga yangi imkoniyatlar ochib beradi. So‘nggi vaqtlarda hayotimizda Bluetooth simsiz terminali deb nomlangan yangi qurilma paydo bo‘ldi. Aksariyat hollarda bu qurilmaning kichik bo‘lagi bo‘lib, asosan RS-232 havolali muntazam aloqani ta‘minlash uchun ishlatiladi. Ushbu

dissertatsiya ishida Bluetooth texnologiyasidan foydalangan holda kichik o'rnatilgan EGG sensorli tizim prototipini ishlab chiqildi. Ushbu tizim ko'p qirrali va osongina ko'chirilishi mumkin.

Elektrogastrografiya (EGG - Electrogastrography) - bu qorin bo'shlig'i yuzasiga joylashtirilgan kesilgan elektrodlardan me'da ichidagi elektr faolligini qayd etish usuli. EGG me'daning miyoelektrik chastotasi va EGG signalining normal yoki notabiiy chastota diapazonidagi amplitudasi yoki kuchi haqida ma'lumot beradi. Oshqozon miyoelektrik faolligini qayd etish Alvarez tomonidan 1921 yilda tasvirlangan. 1970-yillarning o'rtalarida Elektrogastrografiya yangi qiziqishni uyg'otdi.

3.1- jadval.

Gastroenterologik signallarni chastota bo'yicha taqsimlanishi

№	Organlar	Chastota oralig'i
1	Yo'g'on ichak	0,01-0,03 Gs
2	Oshqozon	0,03-0,07 Gs
3	Ingichka ichak	0,07-0,13 Gs
4	O'n ikki barmoqli ichak	0,13-0,18 Gs
	Barigastriya Taxigastriya	10 – 15 % Minimumdan kichik Maksimumdan katta

Yangi texnik yechimlar va aqlli kompyuterlar avtomatlashtirilgan spektral tahlildan foydalanib, meda miyoelektrik faolligini qayd etish va tahlil qilish imkonini berdi. Texnikaning noinvaziv bo'lgan xususiyati uni tadqiqotda ham, klinik sharoitda ham muhim vositaga aylantiradi. Bugungi kunga qadar EGG oshqozon-ichak funksiyasi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil kasalliklarni o'rganish uchun ishlatilgan. Oshqozon miyoelektrik faoliyatining asosiy tarkibiy qismiga oshqozon sekin to'liqini yoki asosiy elektr ritmi (AER) deyiladi.

Bu doimiy past chastotali to'liq sinusoidaldir va odatda uning past chastotasi va past amplituda (100 μ V dan 500 μ V gacha) bilan belgilanadi. EGG-ning dominant chastotasi sog'lom odamlarda 0,05 Gs yoki daqiqada 3 siklga teng bo'ladi.


Oshqozondan chiqadigan signal oshqozon ishining buzilishi, oshqozon-ichak kasalliklari, shuningdek, ko'ngil aynishi, qusish, anoreksiya, dispepsiya va ovqatlanishning buzilishi bilan bog'liq kasalliklar haqida muntazam anomaliyalar beradi. AER (me'da buzilishi) ning bezovta qilishi quyidagicha turli shakllarda yuzaga kelishi mumkin:

- oshqozonning dominant chastotasining faolligi 3 daqiqadan 4-9 daqiqagacha tezlikka oshishi taxigastriya (tachygastria) deb ta'riflanadi;

- oshqozonning dominant chastotasining faolligi 3 daqiqadan 1-2 daqiqagacha pasayishi barigastriya (bradygastria) deb tariflanadi.


EGG nafaqat kuchli, balki keng polosali spektrga ega bo'lgan harakat artefaktlariga juda sezgir va ularning chastotalari meda miyoelektrik faolligi bilan bir-biriga to'g'ri keladi. Bu ularni ajratishni qiyinlashtiradi va EGG malumotlarini sifatli tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun, EGG dagi harakat artefaktlarini avtomatlashtirilgan aniqlash samarali echim talab qilinadi.

- Tizimning umumiy tuzulishi va arxitekturasi 3.1-rasmda keltirilgan. U asosan uchta moduldan iborat: Bemorning klinik belgilarini olish va qayta ishlash moduli, mobil kompyuterda tibbiy saqlash va server kompyuterdagi tibbiy nazorat bo'limi. Mikrokontroller (maxsus ishlab chiqilgan qurilma) sensor kirish signallarini konditser pallasida uchta kirishdan oladi va ularni real vaqt rejimida Bluetooth texnologiyasiga asoslangan holatda noutbukga uzatadi. Ma'lumotlar Bluetooth moduli orqali noutbukga uzatgandan keyin, internet tarmog'i orqali kasalxonaga (ya'ni serverga) yuboriladi.



3.1- rasm. IoTga asoslangan monitoring tizimining strukturasi


IoT texnologiyasiga asosgan holda bemor holatini monitoring qilish tizimi quyidagi vazifalarni bosqichma bosqich bajaradi. Tizim Elektrogastrografiya (EGG - Electrogastrography) signalni maxsus ishlab chiqilgan qurilma orqali inson tanasidan sensorlar yordamida qabul qilib oladi va uni Bluetooth texnologiyasi asosida mobil kompyuter (noutbuk)ga yuboradi. Tizimning ishlash ketma-ketligi quyidagi chizmada keltirilgan:



3.2- rasm. IoT texnologiyasidan foydalangan holda bemordan olinadigan EGG signalni amalga oshirish jarayoni bosqichlari

1-bosqich. EGG sensor orqali signalni o'qib olish

Elektrogastrograf tananing turli nuqtalari orasidagi elektr potensialini o'lchash uchun fadalaniladigan sensor qurilma hisoblanadi. Biz standart EGG signalni olish uchun maxsus elektrodli texnologiyadan foydalanamiz. Elektrod juftlarining EGG sensori bilan qanday bog'langanligiga qarab, turli xil chatotali va amplitudali to'lqin shakllari olish mumkin. Har bir sensorida oshqozon faoliyati haqida unikal ma'lumotlar mavjud.



3.3- rasm. EGG kuchaytirgich pallasi

2-bosqich. Bluetooth orqali ma'lumotni uzatish moduli

Bluetooth transmitterda ishlatiladigan simsiz protokoli texnologiya. Bluetooth ko'plab afzalliklarga ega. Bu texnologiya 10-100 m. masofadan radio to'lqinlari yordamida ma'lumot almashish imkoniyatini yaratadi. 3.4- rasm. Mobil qurilmadan Bluetooth orqali kelgan ma'lumotlarni o'qib olish algoritmi Birinchidan, u foydalanuvchi uchun qulay modulli shaklda mavjud. Bluetooth to'plamini yashiradigan va oddiy modem buyruqlaridan foydalangan holda foydalanuvchiga qurilma bilan aloqada bo'lishga imkon beradigan ko'plab Bluetooth qurilmalari

mavjud. Bundan tashqari, Bluetooth - bu mobil telefonlarda keng tarqalgan texnologiya va bu transmitter uchun foydalanish doirasini kengaytiradi. HC-06 Bluetooth - simsiz modul uchun tanlangan qurilma hisoblanadi. Uning quyidagicha imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Алексеев А.А., Агевич С.Н., Желедев В.А., Применение локальных сплайнов для цифровой обработки частотно-временных функций плотности распределения сигнальной энергии.//Радиотехника и радиоэлектроника. 208, № 6, С.296-311.
2. Астафева Н.М. Вейвлет-анализ: основы теории и примеры // УФН, 1996, том 166, номер 11, 1145–1170

ISHSIZ YOSHLARNING MEHNAT BOZORIDAGI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Abdimo‘minov Ikrom Bozarboyevich

Jizzax politexnika instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

Sunnatullayeva Mahliyo Erkin qizi

Jizzax politexnika instituti
4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar bandligini ta‘minlash va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini tutgan o‘rni yoritilgan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini raqobatbardosh yosh mehnat resurslarni tayyorlash tizimi o‘rganib chiqilib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ishsizlik, mamlakat, resurs, aholi bandligi, mehnat bozori, raqobatbardosh, bandlik dasturlari, xorijiy tajriba.

ABSTRACT


This article covers the role of ensuring youth employment and their competitiveness in the labor market. The system of competitive young labor resource training of employment and labor market in industrialized countries has been studied and analyzed.

Keywords: unemployment, country, resource, employment, labor market, competitive, employment programs, foreign experience.

Bugungi kunda mehnat bozori, ayniqsa, uning yoshlar segmenti beqarorligi sharoitlari bandlik siyosatini yanada takomillashtirish va korxonaga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar bilan ishlay oladigan, strategik fikrlash, tovarlar va xizmatlarga talab tarkibidagi o‘zgarishlarga tezkor va moslashuvchan javob qaytarish qobiliyatiga ega bo‘lgan yosh xodimlar ko‘lamini ta‘minlash zaruratini belgilab beradi. Shu munosabat bilan ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirishda yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimni bevosita iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlariga yo‘naltirishga ehtiyoj vujudga keldi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda mamlakatda aholiga xizmat ko'rsatish, bandlik muammosini samarali hal etish orqali ularning turmush darajasini yaxshilash, hozirgi kunda eng asosiy dolzarb muammolarning biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda ishsizlarning bandlik xizmati organlarining xizmatlariga qiziqishining muayyan darajada pasayib ketganligi quyidagi shart-sharoitlar bilan izohlanadi: taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlarining ishsizlar kasbiga mos kelmasligi; bo'sh ish o'rinlariga to'lanadigan ish haqi miqdorining kamligi; ish o'rinlarining vaqtinchalik tavsifga egaligi; taklif etilayotgan aksariyat bo'sh ish o'rinlaridagi mehnat sharoitining og'irligi, zararli va xavfli ekanligi va h.k.

Turli xizmatlar ko'rsatish orqali:



Shuning uchun ham tanlangan mavzu doirasidagi yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya va xizmatlar ko'rsatish orqali, ularni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda munosib ish bilan ta'minlashga erishish ilmiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida keng kamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, shu o'rinda ta'lim tizimidagi islohotlarni yo'nalishlarini belgilashda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning amaliy tavsifi mehnat bozorida yoshlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim muassasalari bilan korxonalar (tashkilot)larning integratsion aloqalari jarayonida iqtidorli talabalarni tanlab olish va ularni o'qitishni tugatganidan so'ng ishga qabul qilishga imkoniyat beradi. Masalan, «Lokxid» korporatsiyasi AQShning 12 ta yetakchi universitetida o'z vakolatxonalariga ega bo'lib, bo'lg'usi xodimlarining 60 foizini aynan shu yerdan topib boradi.

Iqtidorli talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ish beruvchilar tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan milliy ma'lumotlar bankiga uzluksiz kiritilib boriladi. Nafaqat AQShda, balki butun dunyoda universitetlar reytinglarida yetakchi pozitsiyalarni egallab turgan eng nufuzli oliy ta'lim muassasalari – Prinston, Garvard, Yel, Stenford, Kolumbiya, Pensilvaniya, Kornel universitetlari, Massachuset va Kaliforniya politexnika institutlari va boshqalarning bitiruvchilariga talab tadbirkorlarda eng yuqori hisoblanadi. Aynan ular fundamental tadqiqotlar o'tkazishga davlat mablag'larining katta qismini qo'lga kiritib, bu tadqiqotlarga talabalar majburiy tartibda jalb qilinadi, bu esa kelgusida ularning ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardoshligining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Barcha sohalar singari ta'lim sohasidagi islohatlar samaradorligi bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi, o'zgarishlariga moslashuvchan tizim yaratilishiga bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ta'lim tizimi rivojlangan ilg'or mamlakatlar tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kadrlarni tayorlash va takror ishlab chiqarish sohasidagi davlat siyosati xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun quyidagilarni e'tiborga olish zarur deb hisoblaymiz: milliy iqtisodiyotimizning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yoshlarni zarur bo'lgan kasb-hunarlariga yo'naltiruvchi ta'lim tizimi bosqichlari(o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'lim)ni yaratish; ta'lim tizimini yaratish jarayonida xalqaro mehnat bozorida o'zgarishlariga tez moslashish imkonini beruvchi ta'lim dasturlarini yaratib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahmonov Q.X, Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2013. - 536 b
2. Bartram. D. International Labour Migration. Foreign Workers and Public Policy. UK. 2005.
3. Umirova, G.Sh. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo'llari, 37-38. TATUFF-EPAI.
4. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va ro'li // QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2022. – T. 5. – C. 64-66.

5. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(1), 288-290.
6. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(05), 126-130.
7. Umirova, G. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo'llari. *Engineering problems and innovations*.
8. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 8, 74-77.

RESPUBLIKAMIZDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Sultonov Mansur G'aniyevich

Jizzax politexnika instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

Qarshiboyev Shaxzod Vaxob o'g'li

Jizzax politexnika instituti
1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so'nggi o'zgarishlar va joriy islohotlar dasturini amalga oshirishgan holda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish masalasi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, korporativ boshqaruv, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat.

ABSTRACT

In this article, the issue of implementing a corporate management system to Joint-Stock Companies of Uzbekistan is widely covered, with the implementation of the latest changes and the current reform program.

Keywords: Organization for Economic Cooperation and development, corporate governance, companies, Joint Stock Company, Limited Liability Company.

Hozirgi kunda jahon miqyosida korporativ boshqaruv sohasida jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchlidir. Iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor tomonlar va umuman iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompaniyalarda korporativ boshqaruvdan foydalanishni rag'batlantirishga katta qiziqish bildirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar korporativ boshqaruv kodeksini yaratish jarayonini birmuncha osonlashtirish maqsadida korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari va qoidalarini ishlab chiqdi. Shuni alohida aytishimiz mumkinki, korporativ boshqaruv xalqaro miqyosda standartlashtirilgan, kelishilgan, aniq belgilangan global tashkiliy tizimning muhim qismiga aylandi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning mutlaqo yangi tarmoqlariga asos solish, ayniqsa, ularni boshqarish uslublarini zamonaviylashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish strategiyasi va samarali boshqarish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi muhimdir.¹ Davlatimiz rahbari majlisda ana shu haqda to‘xtalib, korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishimiz uning haqiqiy bozor munosabatlariga mos kelishini ta‘minlash hamda konservativ qarashlardan voz kechishda katta hissa bo‘lganligini, lekin butun dunyoda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va ishni korporativ tarzda boshqarish asosiy usul, deb topilgan bir paytda bizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarli emasligiga, hali oldinda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham talaygina ekanligiga alohida urg‘u berdi. Korporativ usul bozor iqtisodiyotiga o‘tishning muhim vazifasi ekanligi, bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish hayotiy zaruratligi, ayniqsa, sohaga puxta bilimga ega bo‘lgan zamonaviy menejment hamda marketing usullarini amalda qo‘llay oladigan yosh mutaxassislarni jalb etish masalalari dolzarb ekanligi aytib o‘tildi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati uzoq yillardan buyon o‘rganilib hamda tahlil qilib kelinmoqda va bu borada tadqiqotchilarning fikrlari xilma-xilligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Korporativ boshqaruv - korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o‘rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta‘riflash va qabul qilishga doimiy va real ta‘sirini ta‘minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir”, deb izohlanadi. Tashkiliy huquqiy shakl sifatida korporatsiyalar barcha mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham keng hajmda qo‘llanilmaydi. Shu nuqtai nazardan korporatsiyalar, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlari va boshqalarni umumlashtirgan holda korporativ tuzilma tushunchasi bilan ifodalanadi².

Amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”

² Bekzod Qaxramonovich Usmonov - "Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1

o‘rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta‘minlash maqsadida respublika budjetidan katta miqdorda mablag‘lar ajratilib kelinmoqda.

Korporativ boshqaruvni rivojlantirish davlat mulkini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish orqali xususiylashtirish bilan ham bog‘liqdir. Bunday ishlar natijasida yurtimizda ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilgan. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o‘shiga munosib hissa qo‘shayotgan yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritayotgani ham korporativ boshqaruv sohasini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etishidan dalolatdir.¹

Xulosa qilib aytganda, korporativ tuzilmalarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari bir qancha davrlarni o‘z qamroviga olgan holda, yildan-yilga takomillashib bormoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yaratilgan bo‘lib, hozirgi kunda rivojlanib bormoqda. Buni ayni vaqtda mamlakatimiz hududida faoliyat yuritib kelayotgan korporativ boshqaruv shaklidagi iqtisodiy tuzilmalar faoliyati bilan ifodalashimiz mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
2. Bekzod Qaxramonovich Usmonov -"Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
3. Baker, H. and Anderson, R., “Corporate Governance: A Synthesis of Theory”, Research, and Practice, 2010.
4. Umirova, G.Sh. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari, 37-38. TATUFF-EPAI.
5. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro‘li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – C. 64-66.
6. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(1), 288-290.
7. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. International Journal of Advance Scientific Research, 3(05), 126-130.

¹ Akramova N. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 3/2022, may-iyun (№ 00059)

8. Umirova, G. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo'llari. Engineering problems and innovations.
9. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 8, 74-77.
10. Арзикулов О. Статистическая оценка экономической активности малого бизнеса в регионах //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 1. – С. 187-192.
11. O'g'li A. O. A., Qizi M. M. B. In the acceleration of the digital economy main aspects of statistical research of small business activity in jizzak region //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 13-16
12. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). Содержание стресс-тестирования экономической безопасности банковской системы. InterConf.

TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituvchi

E-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

Isokova Sevara Abdumannonovna

Guliston davlat universiteti o'qituvchi

E-mail: sevaraisokova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarning sport musobaqalari va hakamlik bo'yicha malakalarini oshirish uchun amaliy bilimlar yoritilgan. Sportning turli yo'nalishlari bo'yicha yosh iste'dodlarni aniqlash va tarbiyalash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish bu talabalarga o'z qiziqishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, modullarni tanlash imkonini beradi. Nazariya va amaliyotning integratsiyasi, uzluksiz baholash va mulohazalar, yoshlarda sportga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish uchun jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanishga yordam beradigan qulay muhitni yaratish bu tizimning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Musobaqalarning ahamiyati sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega bolib hamda sport turini aholi ortasida omaviy targ'ib qilish uchun ham muham ahamiyatga ega. Maqola davomida musobaqa o'tkazish usulari haqida ham keng tushinchalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musobaqaga mezbonlik qilish, sport musobaqasi, hakamlik, amaliy qo'llash, sport klub.

ABSTRACT

This article covers practical knowledge for improving students' skills in sports competitions and refereeing. Strengthening efforts to identify and nurture young talent in various areas of sports will allow students to choose modules based on their interests and goals. The integration of theory and practice, continuous assessment and feedback, and the creation of an environment conducive to physical activity and sports participation in order to increase enthusiasm for sports among young people are the main features of this system. The importance of competitions. Sports competitions are of great importance in improving the skills of athletes and popularizing sports among the population. During the article, the methods of conducting the competition were also given a wide range of ideas.

Keywords: Competition hosting, sports competition, refereeing, practical application, sports club.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены практические знания по совершенствованию навыков студентов в спортивных соревнованиях и судействе. Усиление работы по выявлению и воспитанию молодых талантов в различных областях спорта позволит студентам выбирать модули исходя из своих интересов и целей. Интеграция теории и практики, постоянная оценка и обратная связь, а также создание условий, способствующих физической активности и занятиям спортом с целью повышения интереса к спорту среди молодежи, являются основными особенностями этой системы. Значение соревнований. Спортивные соревнования имеют большое значение в повышении мастерства спортсменов и популяризации спорта среди населения. В ходе статьи также был дан широкий спектр идей по способам проведения соревнований.

Ключевые слова: Проведение соревнований, спортивные соревнования, судейство, практическое применение, спортивный клуб.

Mustaqillikning o'tgan 30 yilida mamlakatimiz sportchilarining Markaziy Osiyo va Osiyo o'yinlari, turli xalqaro turnirlar, jahon chempionatlari va Olimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtiroki va sovrinli o'rinlari tufayli O'zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib bormoqda. Sportdagi bu yutuqlar xalqimizda o'zlikni anglash, hamjihatlik, vatanparvarlik tuyg'ularining yuksalishiga olib keldi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev, "Biz O'zbekistonning xalqaro sport maydonlarida obro'e'tibori va nufuzini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, sportning yuqori saviyasidagi yutuqlar bilan cheklanib qolmaslik kerak, shuningdek, biz ham o'zimizni xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritishimiz kerak. Ommaviy sportga katta e'tibor qarating" nomli maqolasi mamlakatimizda aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.¹

Yoshlarda sportga bo'lgan havas va intilishni, jamiyatda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo'yicha mamlakat terma jamoalariga sport zaxirasini tayyorlash, o'quvchi va talabalarni sport

¹ S.Sh.Izzatullaev . [Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization](#)

mashg'ulotlariga uzluksiz jalb etishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida talabalarda sport musobaqalarini tashkil qilish va hakamlik qilish kompetensiyalarini takomillashtirish.

1. Iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish: sportning turli yo'nalishlari bo'yicha yosh iste'dodlarni aniqlash va tarbiyalash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish kerak. Iste'dodlarni aniqlash dasturlari maktab va jamiyat darajasida amalga oshirilishi mumkin, ular tizimli baholash va istiqbolli sportchilarni tarbiyalash uchun o'quv dasturlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat individual sportchilarning rivojlanishiga, balki mamlakatning umumiy sport manzarasini mustahkamlaydi.

2. Kasbiy ko'nikmalarni oshirish: yosh iste'dodlar aniqlangandan so'ng ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga kompleks yondashish muhim ahamiyatga ega. Maxsus o'quv dasturlari, murabbiylik mashg'ulotlari va raqobat muhitiga ta'sir qilish ta'minlanishi kerak. Bu nafaqat tegishli sport turlarining texnik jihatlarini takomillashtirish, balki jamoaviy ish, intizom va chidamlilik kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni ham beradi.

3. Milliy terma jamoalar uchun sport zaxiralari: Asosiy maqsad - mamlakat terma jamoalariga bemaol oziqlanadigan kuchli sport zaxirasini tayyorlash. Malakali va fidoyi sportchilarni rivojlantirish milliy darajada iste'dodlarning uzluksiz oqimini ta'minlaydi. Bu zaxiralar terma jamoalarning tayanchi bo'lib, mintaqaviy va xalqaro musobaqalarda barqaror muvaffaqiyatlarga hissa qo'shmoqda.

4. Sportga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish: yoshlarda sportga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish uchun jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanishga yordam beradigan qulay muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Maktablar, jamoalar va sport klublari turli sport imkoniyatlarini taklif qilish, yoshlarni turli sport turlarini kashf qilish va ishtirok etishga undash uchun hamkorlik qilishi kerak. Asosiy e'tibor sportni hamma uchun qiziqarli va qulay qilishiga qaratilishi kerak.

5. Sog'lom turmush tarzi tamoyillari: Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish sportga mehr uyg'otish bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim dasturlari jismoniy faollik va muvozanatli ovqatlanishning afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiyani maktab o'quv dasturlariga kiritish, salomatlik va sog'lomlashtirish bo'yicha seminarlar tashkil etish va salomatlikka oid ma'lumotlarni tarqatish uchun raqamli platformalardan foydalanish sog'lom turmush tarzini kengroq tushunishga yordam beradi.

6. Tashkilot va hakamlik kompetensiyalari: Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik qilish malakalarini oshirishga ham e'tibor qaratish lozim. Ushbu rollarga qiziqqan talabalarga o'quv dasturlari, seminarlar va murabbiylik imkoniyatlari taqdim etilishi mumkin. Malakali tashkilotchi va hakamlar kadrini shakllantirish nafaqat musobaqalarning silliq o'tishini ta'minlabgina

qolmay, balki sport tadbirlarini har tomonlama professional darajada o'tkazishga ham xizmat qilmoqda.

7. Talabalarning uzluksiz faolligi: Talabalarning sport bilan muntazam shug'ullanish darajasini saqlab qolish uchun o'quv yili davomida turli sport tadbirlarini taklif qiluvchi tizimni loyihalash juda muhim. Maktab ichidagi musobaqalar, maktablararo turnirlar va ko'ngilochar sport ligalari barcha mahorat darajasidagi o'quvchilarning faol ishtirok etishlari uchun platformalar yaratishi mumkin. Muntazam ravishda tashkil etilayotgan tadbirlar o'quvchilar o'rtasida hamjihatlik va do'stlik hissini uyg'otadi.

Musobaqalarning ahamiyati sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatni natijasini ko'rsatadi. Musobaqalarda qatnashuvchilar avvalombor, tajriba almashadilar, trenerlar esa yangi trenirovka usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sport musobaqalari sport tularini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop shakllaridan hisoblanadi.

Musobaqa o'tkazish tizimlari umuman olganda sport o'yinlari musobaqalarini O'tkazish amaliyotida asosan ikkita (chiqib ketish va aylanma) tizim qo'llaniladi.

Bu ikki tizimning qo'shilishi natijasida uchinchi - aralash tizim paydo bo'ladi.

Chiqib ketish tizimi bo'yicha musobaqalar o'tkazish bu tizim bo'yicha musobaqalar o'tkazilganda uchrashuvda yutqazgan jamoa keyingi uchrashuvlarda qatnashmaydi. Natijada musobaqa oxirida biror marta ham yutqazmagan jamoa qoladi. Ana shu jamoa g'olib hisoblanadi. Oxirgi (final) uchrashuvda g'olib jamoaga yutqazgan jamoa ikkinchi hisoblanadi. Bu tizimning afzalligi shundaki, agar 64 jamoa bilan aylanma tizim bo'yicha musobaqa o'tkazish uchun 63 kalendar kuni talab qilinadigan bo'lsa, chiqib ketish tizimi bo'yicha esa faqat 6 kalendar kunining o'zi kifoya. Lekin u bir qator kamchiliklarga ham ega. Bu tizim barcha jamoalarning haqiqiy o'yinlarini aniqlash imkonini bermaydi va shu usul qo'llanilganda aksariyat jamoalar juda kam uchrashuvlarda qatnashadi. Birorta kuchli jamoa birinchi kunning o'zida mag'lubiyatga uchrab, musobaqalardan chiqib ketishi mumkin. Chiqib ketish tizimi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda hamma uchrashuvlar biror jamoaning g'alabasi bilan tugallanishi lozim.

Chiqib ketish usulida jamolarning turlarda nechinchi turda o'ynashini buni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$(a-2^n) \cdot 2 = x$$

a – musobaqaga kelgan jarmoalar soni;

2^n -jamoalarning soniga yaqin ikkinchi darajasi, ammo qatnashuvchi jamoalarning sonidan kichik qiymatga ega.


2 - birinchi turda ishtirok etadigan jamoalarni juftlashtiruvchi son;
x - birinchi turda ishtirok etadigan jamoalar soni.

Misol uchun, 12 ta jamoa va 13 ta jamoa musobaqaga ishtirok etadigan holatlarni ko'rib chiqaylik:

$$(a - 2^n) \cdot 2 = x;$$

$$(12 - 2^3) \cdot 2 = (12-8) \cdot 2 = 4 \cdot 2 = 8;$$

1-sxema




13 ta jamoa o'ynaganda quyidagidek bo'ladi:

$$(a - 2^n) \cdot 2 = x;$$


$$(13 - 2^3) \cdot 2 = (13 - 8) \cdot 2 = 5 \cdot 2 = 10$$

2- sxema



Aylanma tizimda musobaqalar o'tkazilganda hamma jamoalar bir-birlari bilan bir, ikki yoki undan ham ko'proq uchrashib chiqishlari mumkin. Pirovardida butun musobaqa davomida eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib chiqadi. Aylanma tizim bo'yicha kalendar tuzishda musobaqalar o'tkazish uchun kerakli kalendar kunlari qatnashuvchi jamoalarning soni juft bo'lgan paytda musobaqa uchun kerakli kalendar kunlarining soni jamoalarning sonidan bitta kam bo'ladi, toq bo'lganda teng bo'ladi. 5-6 jamoa uchun o'yin kalendari quyidagicha tuziladi.


3- sxema



Jamoalarning soni toq bo'lgan paytlarda vertikal chiziqlarning yuqorisidagi va pastidagi jamoalar shu o'yin kunlari musobaqalarda qatnashmaydilar.

Jamoalarning soni juft bo'lgan paytlarda esa vaqtincha hisoblanmay turilgan oxirgi juft son vertikal chiziqlarning yuqo-risida va pastida joylashgan raqamlarga (qo'shib) juftlab chiqiladi. Bunda yuqoridagi raqamlarga - chap tomondan, pastdagilarga o'ng tomondan yozib qo'yiladi.

4- sxema



Shundan so'ng har bir kalendar kunni quyidagidek, avval vertikal chiziqning o'ng tomonda joylashgan raqam, so'ng chap tomonda joylashgan raqam ko'chirib yoziladi. Bunda yana bir narsaga ahamiyat berish lozim: birinchi kalendar kunni yuqoridan pastga, ikkinchi kunni pastdan yuqoriga, uchinchi kunni yuqoridan pastga qarab va hokazo tartibda (1-jadval) ko'chiriladi.

1-jadval

1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun
3-4	(6)-4	4-5	(6)-5	5-1
2-5	5-3	3-1	1-4	4-2
1-(6)	1-2	2-(6)	2-3	3-(6)

Shunday qilib, aylanma usul bo'yicha kalendar tuzilganda har bir komanda o'z maydoni va raqib maydonida galma-gal musobaqalashish imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtidorlarni aniqlash, kasb mahoratini oshirish, sport zaxiralarini tayyorlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tashkilotchilik va hakamlik bo'yicha malakalarni o'z ichiga olgan kompleks strategiya yoshlar o'rtasida sport madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshligidanoq sportga mehr uyg'otish va uzluksiz shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratish orqali davlatlar sog'lom va faol avlodni shakllantirishi va milliy bosqich uchun raqobatbardosh sportchilar yetishib chiqishiga hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D, T.Xusanova, F.A.Pulatov. Basketbol nazariyasi va uslubiyati.
2. Clark, D. Facilitating student learning in the credit module system: Strategies for future education teachers. Teaching and Teacher Education.
3. I.S. Abdumannonovna. [The Importance Of Proper Nutrition In Maintaining Human's Health](#)
4. S.Sh.Izzatullaev. [Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization](#)
5. S.Sh.Izzatullayev. Sport musobaqalari tashkil qilish va hakamlik qilish.
6. X.Soliyev. Hakamlikning nazariy asoslari.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH

Umirova Gulmira Shodiboy qizi

Jizzax politexnika instituti, Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

Farxodjonova E'zoza Nodir qizi

Jizzax politexnika instituti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobi yo'nalishidagi o'zgarishlarning hozirgi kundagi o'rnini haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, bulutli texnologiyalari, axborot texnologiyalari.

ABSTRACT

This article presents information about the current role of changes in the direction of accounting in the conditions of the development of digital technologies.

Keywords: accounting, digitization, digital economy, Cloud Technologies, Information Technology.

Bugungi kunda turli sohalarida, shuningdek, buxgalteriya hisobida ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora jadal rivojlanib bormoqda, bu esa har qanday obyektning boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida buxgalteriya hisobi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va ishni tezlashtirish orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi¹.

So'ngi yillarda mamlakatimizni yanada isloh qilishimiz hamda rivojlantirishimiz uchun har bir sohada yangiliklar qilishimiz zarur. Darhaqiqat mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tomonlama rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini ta'minlashda mustahkam poydevor vazifasini bajarishi hech kimga sir

¹Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.

emas. Shunday ekan mamlakatimizni yanada rivojlantirishimiz uchun jahon tajribasidan samarali foydalanishimiz va shu bilan birgalikda amalda to‘g‘ri qo‘llay bilishimiz lozim. Qisqa davr mobaynida O‘zbekistonning savdo, investitsiya, energetika, transport, kommunikatsiya, madaniy gumanitar almashinuv, turizm kabi deyarli barcha sohalarda juda jadal ishlar qilinmoqda va rivojlantirilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi bu-shaxsiy kompyuterdir¹. Ko‘proq tashkilotlarda buxgalteriya hisobi ma’lumotni qulay saqlash, hujjatlar va hisobotlarni yaratish, buxgalteriya ma’lumotlarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshiriladi. Ular buxgalterlarga bir — biriga bog‘liq bo‘lgan buxgalteriya bo‘limlarini boshqarishga imkoniyat beradi va rahbar xodimlar dolzarb ma’lumotlarga kirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi avtomatlashishi buxgalterlarning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi hamda axborotni qo‘lda qayta ishlashga nisbatan quyidagi afzalliklarni beradi:

-	asosiy hujjatlardagi rekvizitlarni avtomatik to‘ldirish;
-	katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda qayta ishlash;
-	analitik ma’lumotlarni idrok qilish uchun qulay bo‘lgan shaklda taqdim etish (diagrammalar, grafikalar, jadvallar);
-	hisobot registrlarini shakllantirish (hisob-kitob-to‘lov bayonnomalari, aylanma- balans varaqalari, kassa kitobi);
-	qog‘oz tashuvchilar sonini kamaytirish;
-	boshqaruv va bo‘ysunuvchilar, tashkilot bo‘linmalari o‘rtasida darhol ma’lumot almashish;
-	arifmetik xatolarni istisno qilish;
-	nazorat qiluvchi davlat organlari va banklar bilan onlayn muloqot;
-	qonunchilikni o‘zgartirishga tezkor javob berish qobiliyati. ²

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot zamonaviy buxgalterlarning imkoniyatlarinikengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisob-kitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantirib boradi. Shaxsiy kompyuterlar va maxsus buxgalteriya dasturlari

¹ Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.

²Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. **Volume 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN: 2181-1601** www.scientificprogress.uz.

yordamida qogʻoz ishini avtomatlashtirilgan hisob bilan almashtirish buxgalterni muntazam ishdan ozod qilishshu bilan birgalikda ularning ish natijalarini sifatini, tezkorligini yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.
2. Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.
3. Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. www.scientificprogress.uz. 2021
4. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan oʻrni va roʻli // Qoʻqon universiteti xabarnomasi. — 2022. — T. 5. — С. 64-66.
5. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(1), 288-290.
6. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. International Journal of Advance Scientific Research, 3(05), 126-130.
7. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. Qoʻqon universiteti xabarnomasi, 8, 74-77.

INTERPRETATIONAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Shukurova Zakhro Farxodovna

teacher of English theory and practice department
of Jizzakh State Pedagogical University

ABSTRACT

The article is devoted to the interpretational analysis of phraseological units. Furthermore, given paper briefly defines and provides explanations to some of the phraseological linguistic units in different contexts.

Keywords: idioms, phraseological units, phraseologism, stabilization, lexemes, lexical associations, phraseological meaning.

The phraseological unit as a stable combination of words with a fully or partially figurative meaning is an extremely complex many-sided language unit. Stability and figurativeness are intrinsic features of any phraseological unit in all its innumerable varied representations in discourse. For purposes of analysis, it is essential not only to have a clear idea of the concept of the phraseological unit as a separate entity, but also to establish terms for denoting various types of form of the phraseological units and to reflect their meaning and function.

Idioms cannot be seen only as a separate part of a linguistics, that can be used, or not used, because they form an essential part of a general dictionary of both languages. At present, it is very important to monitor the replenishment of the Uzbek and English phraseological fund, because idioms appear at great speed, which is due to the development of branches of science, the introduction of new technologies, political games and military conflicts, the influence of which is also essential for English and Uzbek people. At present, the formation of idioms is important by rethinking stable phrases of a non-idiomatic nature, i.e., terminological combinations from the field of science, technology, sports. Such combinations are easily metaphorizable and as a result of figurative-metaphorical use obtain stable meaningful values, gradually acquiring all signs of idioms, adding their structures.

Phraseological units such as “**Pul pulni topar, vaqting ketdi – naqding ketdi**” are interpreted on the basis of the specific meanings of the lexemes they contain, and they are also perceived in the form of a free link. Free association and figurativeness in the phraseological unit formed on this basis is the motivational (logical) basis, the criterion that maintains the connection between them. The phraseological units “**no**

money – no swiss, your money or your life” form a phraseological meaning based on the semantic transformation of the free link. The phraseological units **“easy come - easy go, money begets money”** are also phraseologized on the basis of the semantic transformation of the free link. Compounds like “mad money, make a killing” are not based on free connections, they are not perceived as free connections, it is practically impossible to perform actions like **“make a buck, sock away, pony up, spend a fortune”** in human activity. In this case, the use of a phrase in a non-specific way, on the basis of semantic transformation, forms a meaning specific to the phraseological unit. That is, links that are not interpreted on the basis of the lexeme specific meanings in the context, that do not take into account the lexeme-specific lexical meanings, appear in compounds. The meaning inherent in such phraseological units represents a meaning contrary to the meaning of the lexemes in the structure. The meaning in the phraseological units ‘square accounts, squirrel away’ is not explained on the basis of the meanings specific to the lexemes in these links, the meanings specific to the phraseological unit are formed due to semantic transformation. The factor that connects them with free connections is semantic transformation and imagery.

Hence, the differential criterion that distinguishes phraseological units from free association is semantic transformation and imagery. First of all, it should be noted that in the process of phraseologization, the meaning of free connection changes. The compound **“take up a collection”** is derived from the mutually compatible spiritual combination of the ‘take up’ and ‘collection’ lexemes that make them up only in the form of a free binding, retaining their lexical meanings and acquiring a meaning that represents the action associated with gathering or taking up a collection. This creates a meaning that can be interpreted on the basis of lexeme-specific meanings. In the process of phraseologization, the meaning of the free link is completely changed, and the meaning of **“gathering money or goods for charitable purposes”**, which is not specific to the lexemes in it, is formed. Phraseologisms are therefore divided into types such as interpretable and unexplained on the basis of lexeme-specific meanings. Therefore, what language factors are the basis for the formation of phraseological meaning. First of all, it should be noted that the free connection and the phraseology formed on this basis are figuratively connected. Image is a motivational (logical) basis and a criterion that maintains the connection between them.

In phraseology, this or that action, the reflection of the event, the image must be embodied. Phraseologization is not only a linguistic phenomenon, but also a product of the development of the human mind and should be considered as a linguistic-philosophical phenomenon. It is also present in philosophical observation in the process of phraseologization. The recognition of a lexeme as a linguistic unit and as a linguistic phenomenon has left no one in traditional linguistics in doubt. H. Nematov

and R. Rasulov¹ state that the main feature of a lexeme is its "readiness", that is, it is not artificial. Indeed, lexemes denote and express things, signs, quantities, actions, states, and features in reality, and are distinguished by their readiness for all members of society. It should be noted that the phraseological units have undergone a process of interconnection, syntactic relations, until they become stagnant in the language and become intelligible to the owners of the language that represents a particular meaning. This process takes place in speech.

The process of stabilization and willing participation in speech as a unit of language is the second stage in the formation of phraseological units. Hence, phraseological units functioned to participate in the speech process even before they became a linguistic phenomenon. So far, there is no consensus among linguists in determining the scope of phraseological units. Most linguists include in the scope of phraseology all stable compounds - proverbs, sayings, idiomatic compounds, non-idiomatic combinations of words, stable phraseological groups and pairs of words, and believe that the common feature that unites them is stability and readiness in language.

Such an approach makes it possible to consider all lexical units that have a portable meaning as a whole as phraseological units and expands the phraseological object. In Uzbek linguistics, two semantic types of phrases, such as phraseological integrity and phraseological confusion, are distinguished on the basis of the relationship between the meaning understood from the phrase as a whole and the meanings of the lexemes in it. A phrase that is not interpreted on the basis of the specific meanings of the lexemes in its structure, which do not take into account the lexical meanings specific to these lexemes, is called a phraseological confusion.

Linguists such as A.N. Kononov², E.I. Ubryatova, N.A. Baskakov, considering that phraseological units are functionally close to words, recognize them as lexical word combinations or lexical units (lexical associations). E.V. Sevortyan³ considers phraseological units as lexematic compounds or closed compounds with lexical meaning. Researchers' recognition of lexical phrases makes it necessary to determine the relationship of phraseological units to lexemes. Phraseological units are interpreted as lexical units in most definitions. Since lexical units are dates, they must also have lexical meaning. In the scientific literature, fixed word combinations include different types of compound words, lexemic phrases, grammaticalized phrases, phraseological combinations. Some scientific works classify idioms of lexical-phraseological type, i.e., phraseological units with specific lexical meaning, as well as idioms of pure phraseological type, all phraseological units without specific lexical meaning.

¹ H. Nematov, R. Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Tashkent: O'qituvchi, 1995

² A.N. Kononov. Zarubejnaya Tyurkologiya. Moscow: Nauka, 1986

³ E.V. Sevortyan. Etymological Dictionary of Turkic Languages. Moscow: Nauka, 1978

However, observations suggest that phraseological units may not have a specific lexical meaning. But the idea that these meanings are expressed explicitly in one place and more abstractly in another is close to the truth. As Polish linguist K.M.Gyulumyants stated: “One of the reasons for the transition of free compounds to stable compounds is the process of lexicalization”. In lexemes in the field of phraseology, we say that the semantic meanings of the individual components of a compound gradually become imperceptible, and that the phrases have a common meaning that overlaps the meanings of the compound parts.

As we recognize, the meaning of phraseological integrity derives from the general meaning of the lexical meanings of the units within it, and they are an alternative to a particular lexeme that exists in the language. Thus, the meaning understood from phraseological units is not merely a sum of the lexical meanings peculiar to the words they contain, but manifests itself as a superlative meaning, and at the same time as a figurative meaning. This is also observed in the lexicalization process. Even in the process of lexicalization, the lexemes in the compound lose their independence. In the process of phraseology and lexicalization, not one word, but a compound and two or more lexemes are involved in its composition. Due to the phenomena of phraseology and lexicalization, new derivative meanings emerge. They can also be lexical units that are considered alternatives to completely new or existing lexemes and also perform a function in speech. The formation of phraseological units is also a speech process, which is called **phraseologization**, and it should be noted that this process has much in common with the phenomenon of lexicalization.

Recently, in the works devoted to the problems of phraseology, there are allegations that the words included in the phraseological unit, in many attitudes or even completely lose their word status. Now we can call them components, although more recently they were called more cautiously – words-components. Using the term “component” we argue that the elements of a phraseological unit are not considered as words. This proof was preceded by the works claiming that the components of a phraseological unit are completely or partially devoid of categorical features of the word and, first of all, their separately lexical meaning. Since, the phraseological units related to meaning is a semantic phenomenon, the ways of its occurrence, naturally, should be sought in the action of the semantic laws of the language, in the change of the meanings of words, as well as in their compatibility with each other. There are turns in which one of the components has phraseological related meaning, which manifests itself only in connection with a strictly defined range of concepts and their verbal designations.

Moreover, for such a restriction, emphasized by V.Vinogradov, as if there are no grounds in the logical or real nature of the designated objects, actions, phenomena

(V. Vinogradov, 1953). These restrictions are created by the laws of the connection of verbal meanings inherent in a given language. Such combinations are not equivalent to words, since the same component in different distributions has different meanings: for example, for my money, money talks in the Uzbek language, such as “to‘qqiz puldek qilib tushuntirib bermoq” (meaning: explanation in details) (SH. Rakhmatullayev¹, 2003). In the given example from the Uzbek language in the first case, the word “pul” has a particular meaning.

Based on the assumption that phraseology studies the compatibility of lexemes of all types, we conducted a study of compatibility of lexemes denoting the concept of a monetary unit in English and Uzbek, which made Sh. Rakhmatullayev on some issues of Uzbek historical lexicology (2003). It becomes possible to draw conclusions regarding the characteristic properties of the phraseological systems of the two mentioned languages. There is no doubt that the problem of meaning in language is the most controversial issue among linguists and researchers. Since we study phraseology as an independent linguistic discipline which began its existence, another discussion has begun in the linguistic world, and dedicated to the difference in lexical meaning and phraseological meaning.

The fact is that the complexity of lexical semantics and the diversity of semantic classes of words do not exclude the selection of the lexical meaning of a word, which allows us to establish the diversity of this meaning. A similar principle is observed in the field of phraseology. The fact that a semantic feature of phraseological meaning is highlighted makes it possible to establish its main varieties: the idiomatic meaning, the idio-phraseological meaning and the phraseological meaning in accordance with the three classes of phraseological units (A.V. Kunin, 1966). These meanings are included in the phraseological microsystem of the language and provide an opportunity to find out their varieties in accordance with the semantic features of the phraseological units characteristic of each class of phraseological units.

Bo'lajak harbiy ofitserlarida umummadaniy kompetentsiyalarni shakllantirish bu O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar va kursantlar o'rtasidagi pedagogik o'zaro munosabatlarning maqsadli uyushgan jarayoni bo'lib, bu jarayonning maqsadi shaxsiy fazilatlarini, motivatsion omillar va qobiliyatlarni yaratish va rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashda faollikni ta'minlash, kelajakda kasbiy faoliyatda ijtimoiy aloqalar va hamkorlikning samaradorligi hamda ushbu jarayonda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish uchun asos bo'ladi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ta'lim tashkilotlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning samarali va maqsadli shartidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi va vazifalarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ta'lim tashkilotlarida bo'lajak harbiy ofitserlar o'rtasida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi yordamida umumiy madaniy kompetentsiyalarni shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model didaktik tizim bo'lib, uning ishlash maqsadi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarini tayyorlash yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ushbu turdagi kompetentsiyalarni shakllantirish hamda pedagogik faoliyatning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini aniqlash va chet tilini o'qitishda uning natijalarini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarini ilmiy asoslashdir. Model kelajakdagi harbiy ofitserlarida umummadaniy kompetentsiyalarni shakllantirishning maqsadli pedagogik jarayonining nazariy g'oyasini, ushbu jarayon elementlarining tizim sifatida tuzilishini, ular o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatini aks ettiradi va model nomida aks ettirilgan umumiy didaktik maqsadga erishish uchun o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlikda joylashgan maqsadli, mazmunli, texnologik, mezon-baholash va samarali bloklarni o'z ichiga oladi.

Maqsadli blokda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi va davlat ta'lim standartining "huquqni muhofaza qilish" yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonining natijasi sifatida umummadaniy kompetensiyalar ro'yxatiga qo'yiladigan talablari va ijtimoiy-gumanitar fanlar, xorijiy tillarni o'qitishning professional yo'naltirilgan texnologiyasining xususiyatlarini oldindan belgilab beradigan maqsad va vazifalar

ko'rsatilgan. Ushbu blok professor-o'qituvchilarni kelajakdagi mutaxassislikning kompetensiyaviy modeliga yo'naltiradi.

Tarkib bloki o'quv fanining maqsadi va vazifalariga muvofiq maxsus shakllangan bilimlar tizimini birlashtiradi va ijtimoiy-gumanitar fanlar, xorijiy til bo'yicha ta'lim mashg'ulotlarida umummadaniy kompetensiyalarni samarali shakllantirishni ta'minlaydigan tarkibiy qismlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bularga motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyat va reflektiv komponentlar kiradi.

Texnologik blok bu professor-o'qituvchi va kursnat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. U bo'lajak harbiy ofitserlarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini amalga oshirishda o'quv jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlarini bosqichma-bosqich ochib beradi. Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini amalga oshirishning dastlabki bosqichida o'quv intizomi doirasida umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlar, xorijiy tillar bo'yicha bilimlarni qayd etish va to'plash bo'yicha ishlar olib boriladi.

Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi orqali umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy bosqichida asosiy e'tibor o'quv intizomi doirasidagi ma'lumotlarga qaratiladi, bu uning kelajakdagi kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati uchun ahamiyatini anglashga yordam beradi, shuningdek harbiy ofitserlik kasbining qadriyatlarga xos-semantik mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Uchinchi, yakuniy bosqichda pedagogik harakatlar bo'lajak harbiy ofitserning o'zini o'zi tarbiyalashi, o'zini rivojlantirish va ijodiy o'sishini rag'batlantirishga qaratiladi. Shunday qilib, kompleksda o'quv jarayonida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini izchil amalga oshirish kelajakdagi harbiy ofitserlarida xorijiy tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Mezon-baholash bloki kelajakdagi harbiy ofitserlarida baholash mezonlari, baholash ko'rsatkichlari va umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish darajalarining xususiyatlarini birlashtiradi. Bo'lajak harbiy ofitserlarda umummadaniy kompetensiyalarning shakllanishini baholash uchun mezon-baholash apparati motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyat va aks ettiruvchi mezonlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri ko'rsatkichlar tizimida namoyon bo'ladi. Bo'lajak harbiy ofitserlarda umumiy madaniy kompetensiyalarning shakllanishini baholash maxsus yarim tarkibiy qismlarga ega kompetensiyalarni baholash kartalari asosida amalga oshiriladi va past, o'rta va yuqori darajalarni o'z ichiga oladi. Nazariy modelning samaradorlikni aniqlash bloki kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi orqali

shakllangan pedagogik amaliyotda modelni amalga oshirish natijasining aksi sifatida kompetensiyalarni shakllantirish darajalarining empirik ahamiyatini o'z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qismlarning har birining mazmuni kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasining modeli va amalga oshirilishiga muvofiq ishning har qanday bosqichida pedagogik faoliyat shakllari va usullarini diagnostika qilish va o'z vaqtida sozlash imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talablarga javob beradigan ofitser-kadrlarni tayyorlash masalalarini hal qilish harbiy xizmatchilarda funksional majburiyatlari va harbiy xizmatning turli vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan va olingan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligiga asoslangan harbiy-kasbiy innovatsion faoliyatda tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2024. 15 yanvar.
2. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
3. Мальцева О.А. Психологическая подготовка сотрудников полиции. – Орёл: ОрЮИ МВД России имени В. В. Лукьянова, 2015. – 98 с.
4. Михайлова Т.Н. Формирование общекультурной компетентности курсантов вузов МВД России в процессе их само актуализации: автореферат дисс. ...к.пед.н. – Улан-Удэ, 2018. – 28 с.
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz

САН ЕСІМ ЖАЙЛЫ ТҮСІНІК

Эрежебова Ақерке Үсен Қызы

Шыршық Мемлекеттік Педагогика Университеті
Қазақ тілі және әдебиет бағыты II курс студенті

Анарбекова Гулжан Азизбековна

Ғылыми жетекшісі:

Электрон почта: erezhebovaaqerke@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Қазақ тілі негізінен үш салаға бөлінеді. Фонетика, лексика, грамматика. Сол салалар ішіндегі мен тоқталатыным, лексикаға кіретін - сан есім жайлы мәлімет беріп өтем. Қазақ тілінде сөз таптары санаулы ғана. Бірақ әр қайсысының өзіне тән ерекшеліктері бар. Бірін бөліп жарып тастап кетуге болмайды. Өйткені әр сөз табының өз орны бар.

Кіліт сөздер: Фонетика, лексика, грамматика, ерекшелік, кіретін, ғалым, мағына, білдіру.

ABSTRACT

The Kazakh language is mainly divided into three branches. Phonetics, vocabulary, grammar. Among those areas, I will focus on the number nouns included in the vocabulary. There are only a few word classes in the Kazakh language. But each of them has its own characteristics. One cannot be torn apart and thrown away. Because each word class has its place.

Keywords: Phonetics, lexicon, grammar, feature, input, scientist, meaning, expression.

Сан есім — есімдер тобына жататын сөз таптарының бірі. Өзінің мағынасы мен қызметі жағынан сан есім өзге сөз таптарына қарағанда, сын есімге біршама жақын. Бірақ сын есім заттың сапасын, сипатын, қасиетін, түр-түсін т.б. сыр-сипаттарын білдіретін сөз табы болса, сан есім — заттың сан мөлшерін, ретін, шамасын білдіретін лексика- грамматикалық сөз табы. Мысалы: ақ орамал, жақсы көйлек, жуан ағаш деген тіркестердегі, ақ, жақсы, жуан деген сын есімдер мен екі, бес, жиырма деген сан есімдерді бір дәрежеде қарауға болмайды. Өйткені мұндағы ақ, жақсы, жуан сөздері орамал, көйлек, ағаш сияқты заттардың бойына тән әр қилы сындық қасиеттерді (сынын, түрін, белгісін) көрсетіп тұрса,

екі, бес, жиырма сөздері сол заттардың ондай сыр- сипаттарының бірін де көрсете алмайды, тек сандық, мөлшерлік жағын ғана, демек, олардың сан жағынан қанша екендігін ғана анықтайды.

Сан есімнің лексика-семантикалық өзгешелігі. Сан есімдер басқа сөздерге (зат есімдерге) тіркестірілмей жеке-дара айтылғанда, тек абстракт сандық ұғымдардың атаулары ретінде қолданылады. Олардың нақты мағыналары өзге сөздермен (зат есімдермен) қарым-қатынасқа түсіп айтылғанда ғана айқындалып отырады. Мысалы: Төрт аяғым тең жорғамын (Қазақ эпосы); Өтегелді сегіз қанат үйдің кермесінің тұсында тұр екен (М.Әуезов); Екі айдың алпыс күнде жүзі болар (Айман-Шолпан) деген сөйлемдерден төрт, сегіз, екі, алпыс деген сан есімдер аяқ, қанат, ай, күн сияқты зат есімдермен қарым-қатынасқа түсіп, соларды сан жағынан анықтау үшін қолданылған. Осындағы сан есімдердің нақтылы мағыналары да белгілі-белгілі ұғымдарға тіркесу арқасында ғана айқындалып, соның арқасында күннің алпыс екендігі нақтыланып тұр. Ал егер осы төрт, сегіз, екі, алпыс сөздерін өзге сөздермен қарым-қатынасқа түсірмей, контекстен тыс, жеке-дара айтатын болсақ, олар ондай нақтылықтан айрылып, тек жалпылама түрде ғана берілетін абстракт мағынаға ауысып кетер еді де, төрт дегеннен, әйтеуір, бір төрт жайындағы ұғым, сегіз дегеннен, әйтеуір, бір сегіз туралы ұғым, екі дегеннен, әйтеуір, бір алпыс жайындағы ұғым ғана аңғарылады.

Қазіргі қазақ тілінде сан есімдер сияқты мөлшерлік мағынада қолданылатын бір алуан сөздер бар. Олар құрамына қарай жеке-дара сөздер түрінде де, сөз тіркестері түрінде де бола береді. Мысалы: жарым, жарты сөздері бөлшектік ұғымдардың, центнер, килограмм, тонна, қадақ, батпан сөздері салмақ өлшемдерінің, гектар, кубометр сөздері көлемдік өлшемдердің, адым, қарыс, кез, метр, шақырым, ат шаптырым, қозы көш (жер) сөздері аралық өлшемдердің және ет асым, қас қаққанша, қас пен көздің арасында, әу дегенше сияқты уақыт, мерзім өлшемдерінің атаулары есебінде қолданылады. Бірақ мұндай сөздер мен сөз тіркестері қаншалықты мөлшерлік мағынада қолданылғанымен, сан есімдер қатарына жатпайды. Бұларды сан есімдерге жуықтастыратын таяныш — тек олардың біршама мөлшерлік мағынада қолданылатын семантикалық белгілері ғана. Шындығында, жоғарыда аталған сөздердің бәрі де — сан есімнен табиғаты мүлде басқа- басқа сөздер. Олай дейтін себебіміз: жарым, жарты, жалқы, сыңар, дара, қос, егіз сөздері — сын есімдер, центнер, қадақ, батпан, килограмм, тонна, гектар, кубометр, адым, қарыс, кез, метр, шақырым сөздері — зат есімдер; сол сияқты, ат шаптырым, қозы көш (жер), ет асым, қас қаққанша, қас пен көздің арасында, әу дегенше — қызметіне қарай әр түрлі сөз таптарына телінетін

тұрақты фразалық тіркестер. Сондықтан бұлардың күрделі сан есімдермен ешқандай жақындығы жоқ.

Сан есімнің морфологиялық өзгешелігі. Морфологиялық сипаттары жағынан да сан есімдердің өзіне тән, өзге сөз таптарына ұқсамайтын ерекшеліктері бар. Сан есімнің негізгі функциясы анықтау қызметі болғандықтан, ол үнемі анықтайтын сөздерінен бұрын қолданылады, бірақ ешқандай да морфологиялық өзгеріске түспейді. Демек, сан есімдер өздерінің әрі табиғи, әрі негізгі функциясы болып есептелетін сандық, сан-мөлшер мағыналарында қолданылғанда, тек атау формасында ғана айтылады да, ешбір өзгеріске түспейді.

Сан есімдер тек субстантивтенген (заттану) жағдайда ғана түрленіп, әр алуан өзгеріске түседі, демек, көптеліп те, тәуелденіп те, септеліп те және жіктеліп те қолданыла береді.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ: (REFERENCES)

1. Аманжолов С. Қазақ тілі грамматикасы. Алматы. 1996.
2. Аманжолов С. Қазақ әдеби тілі синтаксисінің қысқаша курсы. Алматы. 1994.
3. Әміров Р., Әмірова Ж. Жай сөйлем синтаксисі. Алматы. 1996.
4. Байқабылов Ө., Дуйсебаева Д. Қазіргі қазақ әдеби тілі. Ташкент. 2013.

SIYOSIY-HUQUQIY TAFAKKUR – JAMIYATNING HUQUQIY ONGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xidirov Xoshim Ibodullaevich

Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi, falsafa fanlari
doktori, (PhD) dotsent.

E-mail: xidirovxoshim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida sifatida insonlarning siyosiy-huquqiy tafaakurini yanada oshirish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, davlat, siyosiy tafakkur, huquqiy tafakkur, ong, sud, prokuratura, advakatura, jazoni ijro etuvchi idoralar va h.k.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены мнения по вопросам повышения политико-правового мышления людей в рамках борьбы с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, государство, политическое мышление, правопонимание, сознание, суд, обвинение, пропаганда, правоохранительная деятельность и т.д.

ABSTRACT

This article presents opinions on the issues of increasing the political and legal thinking of people as part of the fight against corruption.

Keywords: Corruption, state, political thinking, legal thinking, consciousness, court, prosecution, advocacy, law enforcement, etc.

Azal-azaldan bir haqiqat borki, huquqini bilgan inson – qudratli inson. Zero, bunday shaxs o‘z huquqi paymol bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, adolatsizlik, qonunbuzarlikka qarshi kurasha oladi, ayni paytda o‘z zimmasidagi mas’uliyat va burchni ham chuqur his etadi. Demak bunday shaxslarning ko‘pligi har qanday jamiyatning boyligidir.

Biz bugun shiddat ila kechayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Ulkan o‘zgarishlar, mahobatli o‘zgarishlar bizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda. Bu jarayonda jamiyat o‘zgarishlari ba’zan inson ong-tafakkurini ham ortda qoldirib ketayotganday terroristik harakatlar, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya shiddat ila

kuchayib borayotganday bir holatlarga duch kelmoqdamiz. Korrupsiya davlatchilikning demokratik tizimiga xavf solgan bir paytda biz insonlarda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni va qonun ustuvorligini keng ko‘lamda kuchaytirmog‘imiz darkor. O‘zbekiston Respublikasi xalqi istiqlolning dastlabki kunlaridanoq kelajakda, mamlakatda demokratik fuqarolik jamiyati qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi va Respublikaning siyosati ana shu maqsadni amalga oshirishga qaratildi. “Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustivor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquqi va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi”¹. Respublikada qonunning ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolik jamiyati qurish uchun zamin tayyorlash, avvalo, o‘z huquq, majburiyat va erkinliklarini anglay va ularga og‘ishmay amal qilishga qodir barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishini talab etadi. SHu ma’noda ta‘lim, ayniqsa huquqiy ta‘lim korrupsiyani ildizini qirqishda muhim qalqon bo‘lib hizmat qilishi shart. Huquq va huquqiy tafakkur bir-biri bilan bog‘liq tushunchalardir. Huquqiy tafakkur bu jamiyat ko‘zgidir. Agar jamiyatda har bir fuqaro huquqqa, qonunga hurmat bilan munosabatda bo‘lsa, huquq va qonunchilikning ustuvorligini tan olsa, davlatda tartib o‘rnatiladi.

Huquqiy tafakkur fuqarolar va mamlakatlar o‘rtasidagi mulkiy, iqtisodiy, ommaviy, milliy, shaxsiy va boshqa munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar, normalar, qoidalar majmuasidir. Agar inson ularni o‘zlashtirib, o‘z hayotiy faoliyatida ularni ongli ravishda qo‘llay olsa, uning huquqiy tafakkuri shunchalik yuqori bo‘ladi, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya esa shunchalik darajada kamayib, yo‘qolib boradi. Huquqiy tafakkur davlat sud, prokuratura, advakatura, jazoni ijro etuvchi idoralarga tayanadi va u jamiyatda adolat, osoyishtalik, tinchlikni ta‘minlashga hizmat qiladi.

Kishilarning hozirgi kunda huquqiy ongi o‘shish uchun eng muhim omil bo‘lgan mulkka munosabatning, o‘zgarishdir. Bu hol mamlakatga va mulkka egalik hissini rivojlantiradi, ishlab chiqarish intizomiga, yuridik va jismoniy shahslar orasidagi huquqiy mehnat munosabatlariga javobgarlik tuyg‘usini hosil qiladi. Ijtimoiy jarayonning o‘zi ham mulk egasi oldida huquqiy malaka va bilimga ega bo‘lish talabini qo‘ymoqda. Rivojlangan huquqiy tafakkur qishloqda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohatlar uchun eng yaxshi asos hisoblanadi. SHu sababli huquqiy islohotlar, aholining har bir qatlamiga xos hususiyatlarni inobatga olgan holda, izchil amalga oshirilmog‘i kerak. Huquqiy tafakkur tushunchasini aniqlashda uning qaysi sub’ektga nisbatan qo‘llanilayotganligi (jamiyat, sinf, qatlam, ijtimoiy guruh ayrim shaxslar)

¹ Каримов И.. "Ўзбекистон XXI- аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқорорлик шартлари ва тароққиёт кафолатлари" асари 173 бет.

huquqiy faoliyatining shakl va turlari, shart sharoitlarini nazarda tutish lozim. Chunki odamlarning hayoti turli xildagi turli faoliyatlar majmuidan iborat. Bu majmuaning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy tomonlari bor. Ma'lumki, inson faoliyati uning manfaatlaridan kelib chiqadi. Demak, huquqiy tafakkur, faoliyat shaxs manfaatlaridan kelib chiqar ekan, huquqning odamlar hayot faoliyatining harakatlantiruvchi kuch sifatida shakllanishi va harakatlanishi qonuniyatlarini bilish qishloq aholisi huquqiy tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolarning huquqiy tafakkurini oshirish orqali, har bir yurtdoshimiz o'z haq-huquqini anglab olmas ekan, qonun asosida yashamas ekan korrupsiyadek illatni yo'qotishdek maqsadga erishish qiyin kechadi. Biroq, aholi fuqarolarimiz ongida eski tuzum asoratlari-qonun talablariga loqayd munosabat o'z haq-huquqini yaxshi bilmaslik, o'zgalarning huquqini hurmat qilmaslik kabi illatlar butunlay barham topgan emas. Xalq ongida eskilik asoratlari saqlanib qolayotganining sabablaridan biri, mavjud kamchiliklarni ochiq-oshkor aytib yashash ko'nikmasinig yo'qligidir. Bu borada matbuot namuna bo'lishi va oshkoralik har bir fuqaroning turmush-tarziga aylanishi lozim. "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki demokratik odil jamiyat barpo etish maqsadidamizdir. SHunday ekan, demokratik odil jamiyatning muhim shartlaridan biri qonun ustuvorligi, adolat tantanasidir. Qonunli jamiyat qurishga kirishgan ekanmiz, har kim u kim bo'lmasin, jamiyatda qonun ustuvor bo'lishiga o'z hissasini qo'shishi qonun asosida yashashi, turmush kechirishi, demokratik huquqiy hayot kechirishishi lozim"¹. Lo'nda qilib aytganda, amaliyotda biz ko'proq eski kayfiyatda, ya'ni ko'proq davlat manfaatini ko'zlab, davlat manfaatini qo'riqlab ish tutmoqdamiz. Inson manfaatlari huquqiy tajribamizda eng yuksak va eng ustun qadriyat bo'lishini barchamizning ongimizga singdirish juda-juda og'ir kechmoqda. Axir, davlat degan tushuncha nima uchun kerak? Avvalombor, inson manfaatlari va huquqlari, uning tinch totuv hayoti va kelajagini tashkil etish va himoyalash kabi ulug'vor maqsadlarga xizmat qilish uchun emasmi? Agarkim, ijtimoiy va siyosiy, kerak bo'lsa, iqtisodiy hayotimizga ko'ndalang qo'yayotgan mana shu masalani zamon talablariga, demokratik tamoyillarga qarab to'g'ri hal qilmasak, kundalik faoliyatimizga tadbiiq etmasak barcha balandparvoz gaplarning va shiorlarning ma'nosi o'z-o'zidan yo'qoladi. Taassuflar bo'lsinkim, ba'zan qonun chiqaruvchilarning o'zi, uni himoya qiluvchilarning o'zi qonunlarni nazar-pisand qilmasdan, ularni oyoq osti qilsa, bu albatta, hal-ning, oddiy fuqarolarning ham

¹ Каримов И.. "Мақсадимиз - тинчлик, Барқарорлик, ҳамкорлик". Ўзбекистон телевидениеси, мухбирининг саволларига жавоблар 1995 йил 27 октябрь, "Бунёдкорлик йўлидан", 4 том, Тошкент, Ўзбекистон - нашриёти 1996 йил, 79 бет.

etirozlari va qahrgʻazablariga sabab boʻladi”¹. SHu oʻrinda korrupsiyaga keng yoʻl ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.. "Oʻzbekiston XXI- asr boʻsagʻasida, xavfsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taroqqiyot kafolatlari"asari 173 bet.
2. Karimov I.. “Maqsadimiz - tinchlik, Barqororlik, hamkorlik”. Oʻzbekiston televideniesi, muxbirining savollariga javoblar 1995 yil 27 oktyabr, “Bunyodkorlik yoʻlidan”, 4 tom, Toshkent, Oʻzbekiston - nashriyoti 1996 yil, 79 bet.
3. Karimov I.. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz T. 7-tom 249-250betlar
4. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. JournalNX, 234-236.
5. Xidirov, X., & Obilkoshimov, M. (2021). Kambagʻ allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yoʻllari, usullari va mazmun-mohiyati. *Obщestvo i innovatsii*, 2(11/S), 97-104.
6. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, genesis, evolution and survival trends. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 1(5), 409-413.
7. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. *Scientific progress*, 2(1), 121-124.

¹ Каримов И.. Биз келажэгимизни ўз қўлимиз билан қурамиз Т. 7-том 249-250бетлар

UDK: 636.32

QORAKO‘L QO‘YLARINING GUL SIFATI KO‘RSATKICHLARI

Nazarova Mohira Azamatovna

Isaqulova Komila Farxod qizi

Mamarahimova Zuxra Ergash qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada qorako‘l qo‘zilarni rangining ifodalanishi va tekisligining turli tipli qo‘zilarda turli darajada namoyon bo‘lishi ushbu xususiyatlar qo‘zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma-xilligidan ham kelib chiqishi bilan taqqoslanganli to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gul tipi, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, qorako‘l qo‘zilari, qalamgul.

Ключевие слова. Плоский, ягнят, полукруглый, ребристый, кавказский.

Qorako‘l qo‘ylari zot strukturasi turli rang, rangbaranglik, gul tipi, konstitutsiya tiplari va boshqa kategoriyalarning ko‘pligi ularning irsiy imkoniyatlaridan foydalanishning samarali yo‘llarini topishni toqazo etadi. Bunga ushbu imkoniyatlardan to‘laroq foydalanishni ta‘minlovchi urchitish usullarini aniqlash va keng qo‘llash orqali erishiladi.

Bu yo‘nalishda tanlash ishlari, asosan gullarning tip va shakllari, uzunligi, eni, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi muhim seleksion belgilar bo‘yicha olib boriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar qanchalik yuqori darajada namoyon bo‘lsa qo‘ylarning nasliy qimmatligi shunchalik ortadi.

Gullarning uzunligi va kengligi (eni). Ushbu ko‘rsatkichlar barcha rangli qorako‘l qo‘ylarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Gullarning uzun va o‘rta kenglikda bo‘lishi (5-9 mm) qo‘ylarning qimmatligini oshiradi. Ushbu ko‘rsatkichlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval
Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul uzunligi
bo‘yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul uzunligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)		
		uzun	o‘rta uzun	kalta
Yassi	62	55,4±6,22	28,6±5,67	14,2±4,42
Yarim doira qalamgul	72	53,4±5,97	34,4±5,63	14,4±4,18
Qovurg‘a-simon	50	62,4±6,97	28,2±6,85	11,4±4,41
O‘siqgul	42	-	46,9±7,46	51,1±7,44

X- $R < 0,05$

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, turli gul tipiga mansub qo‘zilar gullarning uzunligi va kengligi bo‘yicha ma’lum farqlanish va o‘zgaruvchanlikka ega. Gullarning uzunligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, uzun gulli avlodlar chiqimi bo‘yicha qovurg‘asimon tipli qo‘zilarning yuqori (62,4±6,97%) ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich yassi tipli qo‘zilarda ham etarli darajada yuqori (54,4±6,24) ekanligi aniqlandi. Yarim doira qalamgul tipli qo‘zilarda uning 53,4±5,97 foizni tashkil etganligi qayd etildi.

Bu borada etarli nasliy qimmatlikni ko‘rsatuvchi gullarning o‘rta uzunligiga ega qo‘zilar salmog‘i yassi tipida 28,6± 5,67 foizni, yarim doira qalamgul tipida 34,4±5,64 foizni, qovurg‘asimon tipida 28,2±6,85 foizni tashkil etganligi aniqlandi. O‘siqgul tipli qo‘zilar asosan kalta (51,1±7,44 %) va o‘rta uzunlikdagi (46,9±7,46 %) gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. O‘rta uzunlikdagi gullar bo‘yicha birinchi uch tipdagi qo‘zilar ko‘rsatkichining o‘siqgul tipi ko‘rsatkichidan statistik ishonchli ($R < 0,05$) ustunligi qayd etildi.

2-jadval

Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul kengligi
bo‘yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul kengligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)		
		uzun	O‘rta	kalta
Yassi	50	-	72,4±5,68 ^x	28,6±5,69
Yarim doira qalamgul	50	12,7±3,98	72,4±5,40 ^x	15,9±4,37
Qovurg‘a-simon	50	-	75,0±6,25 ^x	25,1±6,25
O‘siqgul	50	17,8±5,70	46,6±7,44	35,6±7,14

X- $R < 0,05$

Zotdorlikni xarakterlovchi muhim seleksion ko'rsatkichlardan biri hisoblangan gullarning kengligini o'rganish natijalari yassi va qovurg'asimon tiplariga gullarning o'rta (72,4-75,0 %) va kalta (25,1-28,6 %) kengligi, yarim doira qalamgul tipiga mayda ($12,7 \pm 3,98$ %) va o'rta ($71,4 \pm 5,40$ %) kengligi, o'siqgul tipiga qisman mayda ($17,8 \pm 5,70$ %), asosan o'rta ($46,6 \pm 7,44$ %) va kalta ($35,6 \pm 7,14$ %) kengligi xosligini ko'rsatdi. O'rta kenglikdagi gullar bo'yicha tahlillar bu ko'rsatkichning yarim doira qalamgul tipida 5-7 millimetрни, yassi va qovurg'asimon tiplarida 7-9 millimetрни, o'siqgul tipida esa 6-9 millimetрни tashkil etganligini ko'rsatdiki, bu borada yarim doira qalamgul tipi eng optimal, qolgan tiplar esa nisbatan yirikroq gullar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mamatov B. Sur qorako'l qo'zilarida rang va rangbaranglikning gul tiplari bilan bog'liqligi. CHo'l yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy – amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019, -49-51
2. YU. S. Yusupov S. YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako'l qo'ylar xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi. «CHo'l – yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari” QCHEIT Institutning 85 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh. 2015 y. 222 bet.
3. Azamatovna, N. M., & Nayimovich, X. J. (2023). Sur rangli qorako'l qo'ylarini gul tiplariga taqsimlanishi. QISHLOQ XO'JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI, 125-131.
4. Nazarova, M. A. (2023). Turli xil gul tipiga mansub sur rangli qo'zilarining terisida gul uzunligi va kengligi ko'rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 92-93.
5. Nazarova, M. (2023). Sur rangli qorako'l qo'ylarining jun-tola qoplami ko'rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 94-96.
6. Nazarova, M. A. (2023, January). QORAKO'L QO'ZILARNI TIRIK VAZN KO'RSATKICHLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 602-605).
7. Nazarova, M. A., & Shinayeva, G. H. (2023). QO'YLARNING MUTLAQ VA NISBIY O'SISH KO'RSATKICHLARIGA ETOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI. Scientific Impulse, 1(9), 430-434.
8. Nazarova, I. B. (2022). A NATIONAL POP ACTOR AND HIS SPEAKING SKILLS. MEJDUNARODNYY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA, 5(4).

UDK: 636.32

QO'ZILARNING JUN-TOLA QOPLAMINING SIFATIIY VA O'LCHAMLI KO'RSATKICHLARI

Nazarova Mohira Azamatovna, Xursandova Shohsanam O'ktam qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada qorako'l qo'zilarni rangining ifodalanishi va tekisligining turli tipli qo'zilarda turli darajada namoyon bo'lishi ushbu xususiyatlar qo'zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma-xilligidan ham kelib chiqishi bilan taqqoslanganli to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gul tipi, yassi, qovurg'asimon, yarim doira, qorako'l qo'zilari, qalamgul.

Ключевие слова: Плоский, ягнят, полукруглый, ребристый, кавказский.

Jun tolalarining ipaksimonligi, yaltiroqligi, uzunligi va zichligi kabi seleksion ko'rsatkichlar qo'zilarni baholashda inobatga olinadigan muhim belgilar hisoblanadi.

Jun tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqlik darajalari, optimal uzunlikka ega bo'lishi va teri sathida zich bo'lishi qorako'l mahsulotining sifatini, gullarning qimmatliligini, mustahkamligini belgilaydi. SHu bilan bir qatorda ushbu ko'rsatkichlarning optimal va maksimal darajalarda namoyon bo'lishi qo'ylarning nasliy qimmatliligini va ular bilan olib boriladigan seleksiya-naslchilik hamda urchitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

Ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu ko'rsatkichlarning turli gul tipiga mansub qo'zilarda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, farqlanish va o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi kuzatilgan.

Jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi. Bu borada yassi gul tipiga mansub qo'zilarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish xususiyatlari boshqa tipli qo'zilar ko'rsatkichlari bilan qiyosiy o'rganildi.

Jadval ma'lumotlarida olingan natijalar jun-tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqligi bo'yicha yassi tipli qo'zilar ko'rsatkichlarining sezilarli yuqoriligini ko'rsatadi. Kuchli va me'yorli ipaksimonlik va yaltiroqlikning yarim doira qalamgul hamda qovurg'asimon tiplari ko'rsatkichlari bilan deyarli bir xilligi sharoitida bo'lib, (85,3-88,6%) yassi tipli qo'zilarda kuchli ipaksimonlikka ega qo'zilar

salmog‘ining 9,7-14,3 foizga, kuchli yaltiroqlikka ega qo‘zilar salmog‘ining 13,8-15,6 foizga yuqoriligi fikrni isbotlay oladi.

1-jadval


Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning jun – tola sifati

Gul tipi	n	Jun – tola ipaksimonligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{X}$)		
		Kuchli	Me‘yorli	Etarsiz
Yassi	52	41,4±6,21 ^{x)}	41,7±6,28	11,5±4,02 ^{x)}
Yarim doira qalamgul	48	31,7±5,56 ^{x)}	55,6±5,94	12,7±3,98 ^{x)}
Qovurg‘asimon	48	7,1±5,96 ^{x)}	58,3±7,12	14,6±5,10 ^{x)}
O‘siqgul	50	8,9±4,22	53,3±7,44	37,8±7,23

X- R<0,05;

O‘siqgul tipli qo‘zilar ko‘rsatkichining qolgan tiplar ko‘rsatkichlaridan statistik ishonchli (R<0,05;0,001) ravishda pastligi aniqlandi.

Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning jun – tola sifati



1-rasm.

Jun–tola uzunligi va zichligi. Ma‘lumki, qorako‘lchilikda hayvonlarning nasl qimmatlari ularda 30 ga yaqin seleksion belgilarning namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Ularning yuqori darajada namoyon bo‘lishi nasliy qimmatlikni oshiradi, past darajada namoyon bo‘lishi esa kamaytiradi.

Ko‘pchilik seleksion ko‘rsatkichning namoyon bo‘lishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri–bu jun tolalarining uzunligi va zichligidir. Shu nuqtai nazardan ushbu belgilarga seleksiya jarayonida doimiy e‘tibor qaratiladi.

Ushbu belgilarning irsiylanishi, naslga berilishi, turli sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va uning seleksion ahamiyati ko‘rsatib borilgan.

Belgining o‘zgaruvchanlik xususiyatlari unga doimiy e‘tiborni talab qiladi. Shu jihatdan ularni seleksiya jarayonida doimo nazoratda ushlab, uning namoyon bo‘lishini boshqarib turish yo‘llarini aniqlash qorako‘lchilikda dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotlarda turli gul tipidagi qo‘zilarga xos jun–tola uzunligini va uning o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini hamda qoplami zichligini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Ma’lumotlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Bobokulov N.A., Yuldoshov N., Fazilov U.T., Xakimov O‘.N. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent.:2015.31 b
2. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Fazilov U.T., Mamatov B., Boltaev A., “Qorako‘l qo‘zilarida seleksion belgilarni paydo bo‘lish xususiyatlari. Zootsiyeneriya j.Toshkent №6. 2016, 34-34 b.
3. Yusupov S. YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako‘l qo‘ylar xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi. «CHO‘L – yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari” QCHEITInstitutning 85 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh. 2015 y. 222 bet.
4. Azamatovna, N. M., & Nayimovich, X. J. (2023). Sur rangli qorako‘l qo‘ylarini gul tiplariga taqsimlanishi. QISHLOQ XO‘JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI, 125-131.
5. Nazarova, M. A. (2023). Turli xil gul tipiga mansub sur rangli qo‘zilarining terisida gul uzunligi va kengligi ko‘rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 92-93.
6. Nazarova, M. (2023). Sur rangli qorako‘l qo‘ylarining jun-tola qoplami ko‘rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 94-96.
7. Nazarova, M. A. (2023, January). QORAKO‘L QO‘ZILARNI TIRIK VAZN KO‘RSATKICHLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 602-605).
8. Nazarova, M. A., & Shinayeva, G. H. (2023). QO‘YLARNING MUTLAQ VA NISBIY O‘SISH KO‘RSATKICHLARIGA ETOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA‘SIRI. Scientific Impulse, 1(9), 430-434.
9. Nazarova, I. B. (2022). A NATIONAL POP ACTOR AND HIS SPEAKING SKILLS. MEJDUNARODNYY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA, 5(4).

THE CONSTITUTION IS A STRONG LEGAL FOUNDATION OF THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN

Aliyeva Zuhra Bahodir qizi

Gulistan State University, Faculty of Natural Sciences,

Department of Biology, 1st year student.

E-mail: aliyevazuhra44@gmail.com

ABSTRACT

This article details the results of the referendum, how many voters participated, and the changes and additions to the Constitution.

Keywords: Constitution, referendum, ballot, Central election commission, etc.

INTRODUCTION

According to the results of the referendum, the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan entered into force on May 1, 2023.

Until then, since 1992, the constitution has been amended 15 times. This time, due to the large scale of changes, a new version of the document was adopted.

RESULTS AND DISCUSSION

As a result of the update, the number of items in the main dictionary increased from 128 to 155, and the norms in it increased from 275 to 434. In general, according to official data, the constitution has been updated by 65 percent.

1. Uzbekistan is a legal, social and secular state

The sentence "Uzbekistan is a sovereign democratic republic" in Article 1 of the Constitution is being changed as follows:

- Uzbekistan is a sovereign, democratic, legal, social and secular state with a republican form of government.

2. The Constitution is directly applicable

Article 15 is amended as follows:

- The Constitution of the Republic of Uzbekistan has supreme legal force in the entire territory of the country, is directly applicable and forms the basis of a single legal space.

3. Privileges do not need to be written down in law

Article 19 of the new constitution (formerly Article 18) is about equality of citizens before the law, regardless of gender, nationality, status, etc. Part 2 of this article is amended as follows:

- Old: Privileges can only be established by law and must be consistent with the principles of social justice.

- New: Privileges must be established only in accordance with the law and must be consistent with the principles of social justice.

4. All uncertainty is in favor of man

According to the new version of the Constitution:

- All conflicts and ambiguities in the legislation that arise in the interaction between a person and state bodies are interpreted in favor of a person.

5. Human rights may be restricted in order to maintain social morality and public order

The issue of restriction of rights and freedoms was regulated by the following two norms in the previous constitution²:

- Human rights and freedoms enshrined in the constitution and laws are inviolable and no one has the right to deprive or limit them without a court decision.

- Citizens must not harm the legitimate interests, rights and freedoms of other persons, the state and society while exercising their rights and freedoms.

In the new version of the Constitution, the above two norms were kept almost unchanged. At the same time, a new norm has been added as follows:

- Human rights and freedoms may be limited only in accordance with the law and only in the scope necessary to protect the constitutional system, public health, social morality, rights and freedoms of other persons, public safety and public order.

6. Special recognition for teachers

A new article about teachers was added to the Constitution. It consists of two clauses;

- In the Republic of Uzbekistan, the teacher's work is recognized as the basis for the development of society and the state, the formation and upbringing of a healthy, mature generation, the preservation and enrichment of the nation's spiritual and cultural potential.

- The state takes care of protecting the honor and dignity of teachers, their social and material well-being, and professional growth.

7. Land can be private property

Privatization of non-agricultural land plots has started in Uzbekistan since 2022.

8. Obstruction of media activity is a cause of responsibility

The chapter "Media" of the previous constitution consisted of one article. It said: "The media is free and operates in accordance with the law. They are responsible for the correctness of the information. Censorship is not allowed."

According to the new constitution, this chapter consisted of two articles:

- Mass media are free and operate in accordance with the law. The state guarantees the freedom of media activity, their rights to seek, receive, use and disseminate information. Mass media are responsible for the reliability of the information they provide.

- No censorship allowed. Obstructing or interfering with the activities of the mass media is a cause of liability in accordance with the law.

9. Changes in public administration. The term of office of the President was 7 years

According to the new constitution of Uzbekistan:

- The term of office of the President was extended from 5 to 7 years. The status of the president as "head of state", the fact that the same person cannot be president for more than two terms, the text of the president's oath and most other norms related to the president were left unchanged. For information, the term of office of the president was extended from 5 to 7 years in 2003, and in 2011 it was reduced from 7 to 5 years.

- The candidate for the prime minister is now presented by the president. It was decided that the president will hold consultations with the factions of all the parties that entered the parliament before presenting the candidate for the prime minister.

CONCLUSION

Let us remind you that the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, spoke about the constitutional reform for the first time on November 6, 2021, in his speech at the inauguration ceremony of his second presidential term.

In December of the same year, on the eve of the holiday dedicated to the 29th anniversary of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the head of state emphasized the need to "think seventy times, not seven times, when solving the extremely important and strategic task of renewing the constitution."

In May 2022, a constitutional commission was formed and the process of updating the document began.

According to official information, December 8, 1992 will still be recognized as the date of adoption of the constitution, December 8 - the date of the holiday will not change.

REFERENCES:

1. <https://kun.uz/news/2023/05/01/referendunning-dastlabki-nitijalari-elon-qilindi>;
2. <https://kun.uz/news/2021/12/07/yetmish-marta-oylab-qaror-qilish-kerak-shavkat-mirziyoyev-asosiy-komusni-yangilash-togrisida>;
3. <https://lex.uz/docs/20596>;
4. <https://kun.uz/>;
5. <https://kun.uz/99310234>;
6. <https://kun.uz/31534502>

TOSH-SHAG‘ALLI TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA NO-TILL TEXNOLOGIYASI HAQIDA

Aminjonova Navruzaxon Ne‘matjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, magistrant

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda tuproq unumdorligining pasayishi va yerlarning qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsiz holatga kelgani sir emas. Bu borada tuproq holatini yaxshilash uchun bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Qishloq xo‘jaligida sifatli mahsulotlarni yetishtirish uchun bir qancha zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Kalit so‘zlar: Unumdorlik, tabiiy sharoit, organik tarkib, dehqonchilik, sugorish, meloratsiyalash, no-till texnologiya, dukakli o‘simliklar.

Tuproq unumdorligi deganda uning o‘simliklarni suv va oziq moddalar bilan ta‘minlash qobiliyati tushuniladi.

Tuproq unumdorligi yerga oqilona ta‘sir etganda yaxshilanib boradi, noto‘g‘ri ishlov berilganda esa aksincha pasayib boradi. Tuproq unumdorligi tabiiy va sun‘iy turlarga bo‘linadi. Tabiiy unumdorlik tabiiy omillar ta‘sirida paydo bo‘ladi. Hali inson qo‘li tegmagan bo‘z yerlar tabiiy unumdorlikka ega. Bunday unumdorlik tabiiy sharoit va tuproq paydo bo‘lish jarayonidagi omillarga hamda tuproqning organik va mineral tarkibiga, fizikaviy, kimyoviy, biologik xossalariga bog‘liq holda yuqori yoki past bo‘lishi mumkin. Sun‘iy unumdorlik inson tomonidan yaratiladi. Dehqonchilikda qo‘llaniladigan yerni ishlash, sug‘orish, o‘g‘itlash, zaxini qochirish, sho‘rini yuvish, almashlab ekish kabi agrotexnik tadbirlar su‘niy unumdorlikni vujudga keltiradi. Insonning xo‘jalik faoliyati ta‘sirida unumdorlik ma‘lum darajada o‘zgarishga yuz tutadi, unumdorlikning darajasi dehqonchilik madaniyati bilan bevosita bog‘liq.

Tuproq unumdorligi potentsial va samarali unumdorlikka ham bo‘linadi. Potentsial unumdorlik tuproqdagi oziq elementlarining umumiy miqdorini ko‘rsatadi. Bunga o‘simliklar o‘zlashtira olmaydigan va oson o‘zlashtira oladigan shakldagi oziq moddalarning barchasi kiradi. Samarali unumdorlik tuproqdagi o‘simlik o‘zlashtira oladigan oziq moddalar miqdori bilan belgilanadi. Tuproqqa ilmiy asosda ishlov berish, o‘g‘itlash, melioratsiyalash orqali tuproq xossalarini tubdan yaxshilash, zararli tuzlarni yuvish, ortiqcha suvni qochirish, namlik yetishmaganda sug‘orish, ortiqcha ishqoriylik yoki kislotalikni neytrallash eroziya jarayonini oldini olish kabi tadbirlar potentsial unumdorlikni samarali unumdorlikka o‘tishiga olib keladi.

Endilikda tuproqqa ishlov berishning yangi, innovatsion usullari joriy etilmoqdaki, ular FAO bo'yicha conservation agriculture, rus tilida "resursosberegayushie selskoe xozyaestvo" yoki nol ishlov berish texnologiyasi deb nom oldi. Bunday texnologiyalar yordamida tuproq o'zining dastlabki tabiiy, g'ovak, hollatiga qaytadi. Ushbu texnologiyalarda ag'darib haydalmagani uchun tuproqqa kuchli mexanik ta'sir berilmaydi. Bunda tuproqqa minimal darajada, faqat yuza qatlamgagina ishlov berib haydaladi.

Shuningdek, keng tarqalgan, an'anaviy ag'darib haydash usulida tuproq ustki qismi o'simlik qoldiqlaridan tozalansa, resurs tejamkor texnologiyalarda, aksincha, ular tuproq ustki qatlamida mulcha sifatida saqlanib qoladi. Bu holat tuproqning issiqlik, suv rejimi, suv tartiboti va yana eng ahamiyatlisi, eroziyadan saqlab, xususan suv va shamol ta'siridagi yemirilish jarayonini nivelirlaydi, ya'ni keskin kamaytiradi.

1871-yilda rus olim-agronomi Evgeniy Ovsinskiy ushbu texnologiyalarni qo'llash va shu orqali qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashda tuproq tabiiy holatini saqlab qolishni taklif etadi. Uning o'zi o'sha yili ushbu texnologiyalarni qo'llagan. Lekin, samara kutilganidek bo'lishiga qaramasdan, tuproqni begona o'tlar bosib ketishi tufayli umumiy natija to'la yaxshi bo'lmagan. Lekin, ikkinchi tomondan o'sha davrda gerbitsidlar qo'llash yo'lga qo'yilmagan edi.

AQSH va Kanadada ushbu texnologiyalar (no-till) kechroq, 1931-1935 yillarda tadbiiq etila boshlandi. Bu davrda shimoliy amerikadagi changli qo'ng'ir tuproqlar o'zlashtirilgan, xususiy fermalar tijorat yo'nalishida umuman foydalanilmagan tuproqqa urug' qadovchi seyalkalarni tajribadan o'tkazishib, ushbu texnologiyalarni ommaviylashib ketishiga olib keldilar.

1950-yillarda Qozog'istonning qumli qo'ng'ir tuproqlarida o'tkazilgan tajribalar "Nol" xarakterda bo'lsada, harqalay, ag'darmay yuza yumshatuvchi kultivatorlar qo'llash orqali amalga oshirildi.

G'arb fermerlari esa innovatsiya ular uchun kam harajat va yuqori daromad ekanligini darrov tushundilar va uni ishlab chiqarishga tadbiiq etdilar.

Respublikamizda ham tuproq unumdorligini no-till texnologiyasi asosida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Xususan kuzgi bug'doydan bo'shagan yerlarni no-till texnologiyasi asoslanib takroriy ekinlar ekib tuproq unumdorligini sezilarli darajada oshirish yo'lga qo'yilgan. Bunda bug'doydan bo'shagan yerlardagi begona o't va qoldiq somon poyalarini maydalab mulchallash, pushta egatlariga takroriy ekin urug'larini ekish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Takroriy ekin sifatida dukkakli o'simliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bu texnologiya shamol va suv erroziyasi rivojlangan, sho'rlanmagan maydonlarda o'tkazish yuqori samara beradi va uning maydonini kengaytirish zamon talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T. «Iqtisod-moliya», 2006.
2. afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "o'zbekiston" - T.: 1998.
3. Qo'ziev R. "o'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam. Samarqand-2002 y.
4. www.Agrochim.bis.2004.
5. www.Herba.msu.Ru.2004.
6. www.Peola.ru.glosari.2004

TOSH - SHAG'ALLI TUPROQLARNING SHO'RLANISHI SABABLARI VA UNI OLDINI OLISH VA BOSHQARISH

Aminjonova Navruzaxon Ne'matjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, magistrant

ANNOTATSIYA

Hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bu tuproq sho'rlanishi hisoblanadi. Tuproq sho'rlanishining asosiy omili bu inson omilidir. Yani mineral o'g'itlarni noto'g'ri qo'llash, radioaktiv moddalarning tuproqda to'planishi, tuproq holatini og'ir mexanik holatga kelishi tuproq holatini tubdan yomonlashtirmoqda. Bu muammoni yechish uchun bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: Tuproq, suv, sho'rlanish, tuz, antropogen omil, quruq iqlim, o'simlik holati, bug'lanish, namlik, eroziya, dehqonchilik, fauna.

Tuproqning sho'rlanishi o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va erning degradatsiyasiga olib keladi. Sho'rlangan erlar qishloq xo'jaligi unumdorligini pasaytiradi, fermerlar farovonligini va mintaqadagi iqtisodiy vaziyatni yomonlashtiradi. Erta bosqichlarda tuproq sho'rlanishini boshqarish uni qaytarishga yordam beradi. Biroq, kuchli ifloslanish qishloq xo'jaligi erlarining to'liq yo'qolishiga va sho'rlanishning tuproq xususiyatlariga salbiy ta'siri tufayli cho'llanishga olib keladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti universiteti 2014-yildan boshlab 1990-yillardan buyon sho'rlanish tufayli butun dunyoda har kuni 5000 akr ga yaqin maydon yo'qolganini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan muammo zudlik bilan hal qilishni talab qiladi. Tuproqning sho'rlanishi suvda eriydigan tuzlarning ortiqcha to'planishidir. Odatda, bu osh tuzi NaCl. Ro'yxat ancha kengroq va natriy, kaliy, kaltsiy, magniy, sulfatlar, xloridlar, uglevodlar va bikarbonatlarning turli birikmalarini o'z ichiga oladi. Umuman olganda, tuz bilan ta'sirlangan erlar tarkibiga ko'ra sho'r, sodali va sho'r-sodiklarga bo'linadi. Tuproq sho'rlanishining o'simliklarning o'sishiga asosiy ta'siri suvning emilishini buzishdir. Tuproq namligi etarli bo'lsa ham, ekinlar etarli miqdorda suv ololmaganligi sababli o'ladi va o'ladi. Biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlari bo'yicha hukumatlararo ilmiy-siyosat platformasi (IPBES) 2018 yilgi hisobotiga ko'ra global miqyosda:

taxminan 190 million akr butunlay yo'qolgan; 150 million akr zarar ko'rgan;

2,5 milliard gektar maydon sho'rlanishdan ta'sirlangan.

Tuproqning sho'rlanishiga nima sabab bo'ladi?

Tuproqning shoʻrlanishi eruvchan tuzlar erda saqlanib qolganda sodir boʻladi. Bu tabiiy ravishda yoki notoʻgʻri antropogen harakatlar, xususan, dehqonchilik amaliyoti tufayli sodir boʻladi. Bundan tashqari, baʼzi erlar tuzning kam erishi va olib tashlanishi tufayli dastlab shoʻrlangan. Tuproqning shoʻrlanishiga quyidagilar kiradi:

haddan tashqari tuzlar erdan yuvilmaganda quruq iqlim va kam yogʻingarchilik;
tuproq yuzasiga tuzlar qoʻshadigan yuqori bugʻlanish tezligi;
dengiz tuzlari quyi erlarga singib ketganda dengiz sathining koʻtarilishi;
qirgʻoqboʻyi hududlarida shoʻr havo massalarini yaqin atrofdagi hududlarga esib turadigan shabadalar;

dengiz suvining choʻkib ketishi, keyin tuzning bugʻlanishi;
ortiqcha nitrifikatsiya tuproqning shoʻrlanishini tezlashtirganda oʻgʻitlarni notoʻgʻri qoʻllash.

Tuproqning shoʻrlanish koʻrsatkichlari

Tuproq yuzasini, suvning kirib borish tezligini va oʻsimlik holatini tahlil qilish orqali shoʻrlanishni vizual tarzda sezish mumkin. Shoʻrlanish davom etar ekan, belgilar kuchayadi. Masalan, sirdagi engil oqartirish aniq tuz kristallariga aylanadi

Tuproqning shoʻrlanishini oʻlchash

Vizual baholashdan tashqari, tuproqning shoʻrlanishini oʻlchashning ishonchli usullari mavjud, masalan, maxsus qurilmalar yordamida erning elektr oʻtkazuvchanligini baholash. Eritmadagi tuz konsentratsiyasining oshishi bilan uning oʻtkazuvchanligi ham ortadi. Tuproqning shoʻrlanishini tekshirishning boshqa turlari natriyning almashinadigan foizini yoki natriyning soʻrilish nisbatini aniqlaydi. Laboratoriya tekshiruvlaridan tashqari, shoʻrlanish qishloq xoʻjaligi erlarida yoki masofadan turib baholanadi. Shoʻrlanish datchiklari dalada tuproq yuzasi shoʻrlanishini kuzatish uchun ishlatiladi. Sunʼiy yoʻldoshlar SWIR va NIR diapazonlari yordamida suvning soʻrilishini va uning shoʻrlanish bilan bogʻliqligini masofadan zondlash tahlili uchun maʼlumotlarni oladi. Tuproqning shoʻrlanishining oqibatlari ijobiy emas, ekologiya va inson hayotining koʻp jihatlarini qamrab oladi. Bu oʻsimlikchilik va suv taʼminoti tarmoqlariga taʼsir qiladi, suv toshqini va tuproq eroziyasi xavfini keltirib chiqaradi va biologik xilma-xillikni kamaytiradi. Shoʻrlanmagan tuproqlar ekinlarga taʼsir qilmasa-da, kuchli shoʻrlanganlar faqat shoʻrga chidamli turlar va galofitlar uchun mos keladi. Shunday qilib, shoʻrlanish ekotizim navlarini kamaytiradi va ularning normal sharoitlari mavjudligiga tahdid soladi. Oʻsimlik dunyosi xilma-xilligining qisqarishi muqarrar ravishda faunaning qisqarishiga, shuningdek oziq-ovqat zanjirlari va yashash joylarining qisqarishiga olib keladi. Shoʻrlanish daryolar yoki chuchuk suvli koʻllardagi biologik xilma-xillikni kamaytiradi, suv populyatsiyalarini faqat tuzga chidamli turlarga qisqartiradi. Tuproqning shoʻrlanishi taʼsiri ekinlarning xilma-xilligiga va shunga mos ravishda

oziq-ovqat xilma-xilligiga taalluqlidir, chunki fermerlar sho‘r yerlarda yashay oladigan o‘simliklarni etishtirishga majbur bo‘ladilar.

Tuproq eroziyasi

Tuproqning sho‘rlanishining o‘zi jiddiy muammodir, lekin u kamdan-kam hollarda yolg‘iz qoladi. Sho‘rlanish yer yuzasining doimiy namlanishiga va o‘simliklarning yomon sharoitlari tufayli qoplarning etishmasligiga olib keladi. Bu yerlarni eroziyaga juda moyil qiladi. Sho‘rlanish natijasida suv sathining ko‘tarilishi erning suv infiltratsiyasi qobiliyatini pasaytiradi. Kuchli yog‘ingarchilik yoki daryo toshqini bilan tuproq ko‘p miqdorda suv oqimiga dosh bera olmaydi. Shunday qilib, so‘rilishning etarli emasligi suv va toshqinlarga olib keladi. Kuchli suv oqimlari inshootlarni buzadi, qishloq xo‘jaligi erlariga zarar etkazadi, cho‘kindilarni ko‘paytiradi va suv havzalarini ifloslantiradi.

Tuproq sho‘rlanishini nazorat qilish va oldini olish

Tuproqning sho‘rlanishi bilan kurashishning eng yaxshi usuli - bu sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Agar shunday bo‘lsa, muammoni yo‘q qilish juda muhim - oqibatlar juda og‘ir bo‘lishidan oldin, qanchalik tezroq bo‘lsa, shuncha yaxshi.

XULOSA

Shunday qilib, tuproq sho‘rlanishining oldini olish va boshqarish bilan bog‘liq. Tuproqning sho‘rlanishining oldini olish asoslari tuzning haddan tashqari kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. O‘simliklarning rivojlanishi uchun ma‘lum miqdorda tuz kerak bo‘lsa ham, ularning ehtiyojlari sho‘rlangan tuproqdagi tarkibga nisbatan kichikdir. Tuproqning sho‘rlanishini oldini olishning bir necha tipik usullari bor. Sug‘orishni optimallashtirish (sho‘r suvdan foydalanishni kamaytiring, tomchilatib sug‘orishni amalga oshiring, tuzsizlangan, qayta ishlangan, yomg‘irdan yig‘ib olingan suvdan foydalaning va ortiqcha sug‘ormang). Namlikni ushlab turish va sug‘orishni kamaytirish uchun organik moddalar va go‘ng qo‘shing. Tuproq tuzlarini sho‘rlanishni keltirib chiqaradigan ildiz zonasiga o‘tkazmaslik uchun chuqur ishlov berishdan / og‘ir texnikadan saqlaning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyoy asoslari. T. «Iqtisodmoliya», 2006.
2. G'afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "o'zbekiston" - T.: 1998.
3. Qo'ziev R. "o'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam Samarqand-2002 y.
4. www.Agrochim.bis.2004.
5. www.Herba.msu.Ru.2004.
6. www.Peola.ru.glosari.2004

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI LOYIHALASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK, ERGONOMIK TALABLAR

Eshdavlatova Qunduz Eshpulatovna
Qarshi davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashtirishga qo‘yiladigan pedagogik, psixologik, ergonomik talablar haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim tizimi, pedagogika, axborot texnologiyalari, dasturiy vositalar, psixologik talablar, ergonomik talablar.

Jahon ta‘lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanib borayotganligining guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Shu bois ham olimlarimiz, XXI asrni axborot texnologiyalar asri deb bejiz aytishmagan. Zamonaviy va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani jumladan, ta‘lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an‘anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta‘lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta‘minlash rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining yutuqlarini shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi bilan bejiz bog‘lamaydilar. Buning sababi axborot texnologiyalarining maxsuli bo‘lgan dasturiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi natijasida ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta‘minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda pedagogik loyihalashtirish amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda metodik loyihalashtirish bajariladi.

Uchinchi bosqichda pedagogik dasturiy vositalarni shakllantirish uchun zarur dasturiy vositalar yaratiladi yoki tanlanadi.

To'rtinchi bosqichda pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga pedagogik texnologiyalar elementlari kiritiladi.

Beshinchi bosqichda berilgan pedagogik xossalarga ega pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqiladi.

Oltinchi bosqichda yaratilgan pedagogik dasturiy vositalar o'quv jarayoniga tatbiq etiladi, ularning dasturiy va metodik tarkibiy qismlariga zarur o'zgartirish va tuzatishlar kiritiladi. Pedagogik dasturiy vositalarning joriy etilishi natijalari tahlil qilinadi, pedagogik imkoniyatlari aniqlashtiriladi.

Barcha pedagogik dasturiy vositalarni ikki guruhga ajratish mumkin: an'anaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi vositalar; "O'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" uch elementli pedagogik tizim texnologiyalari. Birinchi guruh pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan tizim talablari pedagogning samarali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan bog'liq vazifalaridan kelib chiqadi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratiladi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik; tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash; uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi); izchillik; muammolilik; ko'rgazmalilik; faollashtiruvchi (o'qitish mustaqilligi hamda faollik xususiyatining mavjudligi); o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi; muloqotning interfaolliigi; tarbiyalash; rivojlantirish; amaliyotning yaxlit birligi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur(tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyligi, boshqa narsa yoki ob'ektga qaratilishi), motivatsiya (ishlashning faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida talabalarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvur, yosh va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish(egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasining talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish va foydalanishga qo'yilgan umumiy talablarni hisobga olish bilan bir qatorda, uni yaratishning muvaffaqiyatliliigi va sifatiga

ta'sir qiluvchi bir qator psixologik talablar ham qo'yiladi. Quyida pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan psixologik talablar keltirilgan:

1. Pedagogik dasturiy vositalarda o'quv materialini namoyish qilish nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi kerak. Pedagogik dasturiy vositalar qabul qilish, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, xotirada saqlash kabi psixologik jarayonlar xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

2. Pedagogik dasturiy vositalardagi o'quv materiali ta'lim oluvchilarning yoshini, tayanch bilimlarini inobatga olib tuzilishi kerak.

3. Pedagogik dasturiy vositalar obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik dasturiy vositalarning tuzilmasi va mazmuni o'quv materialini chuqur o'rganishga mo'ljallangan bo'lishi bilan bir vaqtda o'rganilayotgan fanning o'quv dasturiga mos kelishi kerak. Ta'lim tizimi uchun yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi umumiy talablarni ham qanoatlantirishi kerak:

- pedagogik dasturiy vositalarning mazmuni va tarkibi ta'lim standartining talablariga mos kelishi kerak;

- pedagogik dasturiy vositalar o'zida muammoli va izlanish topshiriqlarining tizimi intellektual xarakterga ega bo'lishi kerak;

- pedagogik dasturiy vositalar o'quv faoliyatining izlash, yig'ish, saqlash, tahlil, ishlov berish kabi ko'rinishlarni avtomatlashtirishni; hisoblashlarni, loyihalash va konstruksiyalashni, tajriba, eksperimentning natijalariga ishlov berishni, nazorat topshiriqlarni, axborotli ishlov berishni avtomatlashtirishni ko'zda tutishi kerak;

- pedagogik dasturiy vositalar murakkab ob'ektlar (mashina, uskuna, apparat, moslama va x.q.) ishining imitatsiyasini, turli xildagi jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida namoyish etish vositalarini tarkibida saqlashi kerak;

- pedagogik dasturiy vositalari ta'lim oluvchini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bog'liq holda virtual muhitda tayyorlashni amalga oshirishi kerak;

- pedagogik dasturiy vositalarda barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochiq tizimiga ega bo'lishi, o'rganiladigan o'zgaruvchan ob'ektlar yoki jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi lozim.

Pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishda mos ravishdagi auditoriya talabalarining intellektual darajasi, motivatsiyasi, funksional holati hamda ishchanlik darajasi e'tiborga olinishi lozim.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda amal qilinishi zarur bo'lgan tamoyillar (kvantlashtirish, to'liqligi, ko'rgazmaliligi, tarmoqlashuvi, boshqarish, moslashtirish, kompyuterli ta'minot, to'planuvchanligi) hisobga olinib, ularni yaratish texnologiyasini loyihalashtirish bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytaganda shuni aytishimiz joizki, hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish ancha ustunliklarni yuzaga keltirmoqda. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda ko'plab ya'ni - didaktik, metodik, psixologik, texnik, tarmoq, estetik, ergonomik va maxsus talablar qo'yiladi. Hamda PDVlarni yaratishda foydalanuvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axir bu yaratilayotgan vositalarning barchasi shaxs uchun xizmat qiladi. Ta'limda PDVlarning ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Н. А. Каюмова, Б. М. Сурупов Психолого-педагогические аспекты в процессе обучения информационно-коммуникационные технологии //Интернаука. – 2019. – №. 28. – с. 66-67.
2. <https://www.britishcouncil.uz/english/mooc/how-does-it-.-> Что такое MOOC и как это функционирует?
3. Каюмова Н.А. Методика проектирования информационных систем. Экономика и социум. Журнал. <https://www.iupr.ru/1-104-2023>
4. Kayumova N. A. Oliy ta'limda elektron ta'lim muhitini tashkil etishda yangi texnologiyalar //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 2 (99). – С. 64-73
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –Т.: Tafakkur, 2021. -226 b

UDK:550.812

UGLEVODOROD (UV) GENERATSIYALANISH O‘CHOQLARINI ANIQLASH

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

dotsent vazifasini bajaruvchi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

E-mail: quvonch_uz2@mail.ru


ANNOTATSIYA

Cho‘kindi havzada neftgaz hosil bo‘lish o‘chog‘i, qachonki to‘plangan “ona” qalinliklardan birinchisi (quyi) neft hosil bo‘lishining asosiy zonasi yoki gaz hosil bo‘lishining asosiy zonasiga mos keladigan, qulay termobarik sharoitlarga ega bo‘lgan chuqurlikka tushganda vujudga keladi. Keyinchalik cho‘kish va cho‘kma to‘planishi bilan neftgaz hosil bo‘lish o‘chog‘ining holati va konfiguratsiyasi o‘zgaradi, ularga kiradigan yotqiziqning hajmi, generatsiyalanish jadalligi va UVlarning migratsiyalanishi ham o‘zgaradi.

Kalit so‘zlar: Cho‘kindi havza, neft, gaz, kimyo-bituminologik, petrografik, organik moddalar, katagenez, izoterma, generatsiya, migratsiya, flyuid.

Cho‘kindi havza kesimining neftgaz hosil bo‘lishini asosiy zonasini holati va uning o‘chog‘ini zamonaviy yuqori chegarasi kimyo-bituminologik, petrografik va neftgaz hosil qiluvchi jinslarni o‘rganishning boshqa usullari bilan yetarli darajada ishonchli aniqlanadi. Hosil bo‘lish boshlanishini aniqlash va bu jarayonning eng katta jadallik davrini ajratish, neftgaz hosil bo‘lish o‘chog‘ining fazoviy holatini (maydon va chuqurlik bo‘yicha) o‘zgarishini kuzatish muhim. Buning uchun neft hosil qiluvchi qalinliklarning cho‘kish tarixini oddiy informativ tahlil qiladigan “qizish modeli” usulidan foydalaniladi. Bu usul asosiy neft hosil qilish (asosiy gaz hosil qilish) zonasida joylashgan cho‘kindi kesimning oralig‘ini nafaqat bashoratlash, balki neftgaz hosil bo‘lishi uchun qulay sharoitlarda har bir “ona” neftgazli qatlam qalinligining cho‘kish davomiyligini aniqlash imkonini ham beradi. “Qizish modeli”ni tuzish uchun ordinata o‘qini hosil qiladigan aniq quduq kesimidan foydalaniladi. Absissa o‘qida kesimni tashkil etuvchi jinslarning geologik yoshiga mos keladigan million yillardagi vaqt qo‘yiladi. So‘ngra grafikka “ona” neftgaz qalinliklarni o‘z ichiga oladigan alohida stratigrafik komplekslarning yotish chuqurligini ular hosil bo‘lishidan boshlab zamonaviygacha tobora o‘zgarishini aks ettiradigan paleotektonik egri chiziqlar tushiriladi (1-rasm). Shunday yo‘l bilan turli chuqurliklar oraliqlari va turli haroratli

zonalarining aniq “ona” neftgaz qalinliklari bilan o‘tish ketma-ketligini asl kartinasi tiklanadi. Grafikda ordinatalar o‘qi bo‘yicha asosiy neft hosil qilish zonasiga mos keladigan harorat oralig‘i aniqlanadi. Buning uchun quduqda o‘lchangan zamonaviy harorat ma’lumotlari va paleoharoratlar haqidagi barcha ma’lum ma’lumotlardan foydalaniladi. Asosiy gaz hosil bo‘lish zonasini korrektirovka qilish uchun quduq kesimini o‘rganish jarayonida tog‘ jinslari va organik moddalar katagenezining mavjud geokimyoviy, petrografik, litologik va boshqa ko‘rsatkichlarini hisobga olish lozim. Aniqlanganki, kaynozoy cho‘kindi to‘planish oblastlarida paleoharoratlar va organik moddalarning katagenetik zonalligi zamonaviy haroratlarga mos keladi. Mezozoy va kaynozoy cho‘kish oblastlarida kesim bo‘ylab haroratning zamonaviy tarqalishi organik moddalarning katagenetik zonalligiga mos kelmaydi, paleoharorat zamonaviydan yuqori.



1-rasm. “Ona” qalinliklarning qizish modelini tuzish namunasi.

Bunda, cho‘kish qancha qadimiy bo‘lsa, zamonaviy va paleoharorat orasidagi farq shuncha katta bo‘ladi. Grafikda asosiy neft hosil bo‘lish zonasining yuqori chegarasi mos keladigan izoterma bilan ajratiladi (60 °C, bu boshqa ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda 2 km atrofidagi chuqurlikka mos keladi). Bu izotermadan pastda joylashgan “ona” qalinliklar neftgaz hosil qilish o‘chog‘ida bo‘ladi. “Qizish modeli” bo‘yicha “ona” neftgaz jinslarning neftgaz hosil bo‘lish o‘chog‘iga kirishi boshlanganini aniqlash mumkin. Ishlab chiqaruvchi svitaning ustki yuzasiga mos keluvchi egri chiziqni quyi izoterma bilan (150 °C) kesishish nuqtasi svitaning asosiy

neft hosil qilish zonasidan chiqish vaqtini qayd qiladi, shuning o‘zi bilan havzaning aniq uchastkasida jadal neft generatsiyalanishining vaqt oralig‘i aniqlanadi.

Neftgaz hosil qiluvchi o‘choqqa kiradigan va qadimiy o‘chog‘da joylashgan “ona” qalinlikning maydonini aniqlashda burg‘ilash va seysmik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha amalga oshiriladigan paleotektonik qayta tiklashning barcha mavjud ma‘lumotlarini tadqiq qilish lozim. Neftgaz hosil qiluvchi maydonni havzaning o‘rganilayotgan rivojlanish bosqichi uchun paleotektonik profillar seriyasi, xususan yuqori va quyi izotermalar tushiriladigan har bir neft hosil qiluvchi qatlamning ustki va ostki yuzasini paleostrukturaviy xaritasi bo‘lgandagina aniqlash mumkin.

Neft yaratuvchi jinslarning ustki va ostki yuzasi paleostrukturaviy xaritalari birlashtirilganda asosiy neft hosil qilish zonasiga hali kirmagan, unda joylashgan yoki asosiy gaz hosil qilish zonasiga tushib bo‘lgan uchastkalar ajratiladi. Bu aniqlashlarni nazorat qilish quduqlar va ochilmalarda olingan jinslarning organik moddalarini katagenez yoki uglefikatsiyalanish bosqichlarining darajasi natijalari bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

O‘tkazilgan paleotektonik va paleogeotermik qayta tiklashlar asosida havzaning har bir rivojlanish bosqichida muayyan “ona” svitaning neftgaz hosil qilish o‘chog‘idagi holatini kuzatish mumkin bo‘lgan ketma-ketlikdagi qator sxemalar yaratiladi. Cho‘kindi havza kesimida “ona” qalinliklar bir nechta bo‘lishi mumkinligi sababli sxemalarning bunday ketma-ket qatori har bir qalinlik uchun izopaxit uchburchagi usuli bo‘yicha tuziladi, sxemalar qatori esa evolyutsion uchburchak deyiladi.

“Isish modeli”ni qo‘llash faqatgina organik moddalarning katagenetik o‘zgarishi me‘yordagi geotermik maydon ta’siri ostida bo‘lib o‘tgan va bo‘layotgan havzalar yoki ularning bir qismi uchun qonuniy bo‘ladi. Tahlildan quyidagilarni ajratish lozim:

- organik moddalarning katagenez darajasi faqatgina harorat bilan emas, bir nechta omillar majmuasi bilan aniqlanadigan, jadal burmalanish oblastlariga yaqin zonalar;

- neftgaz “ona” qalinlikning cho‘kish va qizish dinamikasini qayta tiklash qiyin bo‘lgan, cho‘kindi qalinlikda cho‘kindi to‘planishida uzoq va ko‘p marta tanaffuslar mavjud bo‘lgan zonalar.

Aksariyat tadqiqotchilar shuni qayd qilishganki, asosiy neftgaz hosil bo‘lish zonasining harorati va chuqurlik oraliqlari cho‘kindi to‘planishining ahamiyatli (kuchli) tezligida (>100 m/mln. yil), cho‘kindi qatlamda yuqori gidrostatik bosimlar bo‘lganda kengayadi. Binobarin, neft generatsiyalanishining kritik chuqurligi va uning gaz fazaga o‘tishi bu oblastlarda 4 dan 7 km gacha chuqurlik oralig‘ida joylashadi, harorat chegarasi esa 180-200 °C oralig‘ida baholanadi. Bu haqda Kaspiy oldi, Kaliforniya, Kavkaz oldi va boshqa havzalarda ochilgan neft uyumlari dalolat beradi.

Neftgaz to'plamlarining yuzaga kelishi neftgaz to'planishi mumkin bo'lgan zonalar va neftgaz hosil bo'lish o'choqlarining nisbati bilan aniqlanadi. Ularning fazoviy nisbatining uch turi ajratiladi: birlashgan – zonalar o'choqning ichida joylashgan, chetdagi – zonalar o'choqning chekka qismlarida joylashgan, ajralgan – zona o'choqda joylashmagan. Bu nisbatlar bilan tutqichlarning bir tomonlama yoki har tomonlama ta'minoti aniqlanadi.

Neftgaz to'planishi mumkin bo'lgan zonalar jadal UV hosil bo'lishi boshlangunga qadar, UV generatsiyalanishi bilan bir vaqtda yoki neft hosil qiluvchi qalinliklarda generatsiya to'xtagandan keyin yuzaga kelishi mumkin. Zonal va lokal tutqichlar hosil bo'lgunga qadar va u bilan bir vaqtda yuzaga kelgan birlashgan turdagi neftgaz hosil bo'lish zonalari neftgazga istiqbollilik nuqtai nazaridan katta qiziqishga ega.

Konlar o'choq chegarasida yoki bevosita uning ustida guruhlanadi. UV to'plamlari o'choqqa intiladi, ularning holati, shakli va o'lchamlariga tektonik omil asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. To'plamlarning yuzaga kelishini tarixiy-genetik sharoiti maksimal neftgazli bo'lishi mumkin bo'lgan kesimning stratigrafik hajmi va maydonini aniqlash, flyuidlarning fazoviy holatini alohida bashoratlashni asoslash, izlov-qidiruv ishlarining birinchi navbat ob'yektlarini tavsiya qilish imkonini beradi.

Uglevodorodlarni “ona” jinslardan o'tkazuvchan qatlamlar bo'ylab to'planish joylariga migratsiyalanishi aksariyat ishlarda batafsil yoritilgan (A.A. Bakirov, I.O. Brod, I.V. Visotskiy va b.).

Birlamchi migratsiya (emigratsiya) “ona” qalinlikka, harorat va bosimning suvdagi ion yoki kolloid eritmalar hamda gaz fazasi ko'rinishidagi ta'siri ostida amalga oshadi. UVning suvda eruvchanligi 70-180 °C harorat zonasi diapazonida 100-1000 g/sm³ ni tashkil etadi. Shu oraliqning o'zida suvning UV bilan “ona” qalinlikdan maksimal siqib chiqarilishi kuzatiladi. Gaz migratsiyasi 3,5-4 km chuqurlikdan boshlanadi.

Agar suvning siqib chiqarilishi UVning jadal generatsiyalanishigacha bo'lib o'tsa, u holda bu ularning “ona” qalinlikdan qiyin migratsiyalanishiga olib keladi.

UVlarning migratsiyalanishi uchun kesimning tuzilishi katta ahamiyatga ega, ayniqsa “ona” qalinliklarning kollektor jinslar bilan qatlamlanish xarakteri. Migratsiyalanish uchun qulay sharoit pastdan yuqoriga tomon neft ishlab chiqaradigan, kollektor va qoplama qalinliklarni ketma-ket yotishi hisoblanadi. Boshqa ketma-ketlik generatsiyalovchi qalinliklardan UVlarning birlamchi migratsiyasini yoki qiyinlashtiradi, yoki mutloqo yo'l qo'ymaydi. Ammo katta qalinlikdagi gil qatlamlarida atrofdagi gilli jinslarga nisbatan yuqori g'ovakligi va o'tkazuvchanligi bilan tavsiflanadigan anomal zichlashmagan gil qatlamlari ajraladi, ular noan'anaviy kollektorlar hisoblanadi.

Rezervuar ichi migratsiyasi (ikkilamchi) ularning to'planish joyiga migratsiyalanish yo'llarining mavjudligi bilan aniqlanadi. Vertikal va lateral migratsiya ajratiladi. Vertikal migratsiya qatlamlanishga ko'ndalang darzliklar va qatlamlarning buzilish zonalari bo'ylab bo'lib o'tadi. Lateral migratsiyada harakatlanish yo'llari kollektor qalinliklar hisoblanadi. UVlarning migratsiyalanish sharoitlari ko'pincha kollektorlarning g'ovakligi va o'tkazuvchanligi bilan belgilanadi. Ularning kattaligi gorizontlarning kollektor jinslarini birlamchi (mineral tarkibi, to'planishining fatsial sharoiti, g'ovak suvlarining pH ko'rsatkichi, strukturaviy va teksturaviy xususiyatlari va b.) va keyingi (ikkilamchi) xarakteristikalari, kollektorlarda bo'lib o'tadigan o'zgarishlarning xarakteri va darajasini belgilovchi, litogeneznining turli omillarini ta'siriga bog'liq.

Cho'kindi qalinlikning vertikal kesimida kollektorlarning uchta zonasi ajratiladi: yuqori, o'rta va quyi.

Yuqori zonada sedimento- va diagenoz bosqichlarida shakllangan, ahamiyatli maydonlarga o'zgarmaydigan, birlamchi hajmiy-sizdirish xossalariga (HSX) ega bo'lgan jinslar asosiy o'rin tutadi, bu flyuidlarning lateral siljishi uchun imkoniyatni ta'minlaydi.

O'rta zonada katagenetik o'zgarishlar jarayonida (erish, almashinish, sementlanish) ikkilamchi yuqori g'ovak va o'tkazuvchan uchastkalar yuzaga keladi hamda lateral, har turlilik tufayli HSX saqlanadi yoki ayrim uchastkalarda hatto yaxshilanadi, boshqalarida esa yomonlashadi, bu lateral migratsiyani qiyinlashtiradi va vertikal migratsiya asosiy bo'lib qoladi.

Quyi zonada litogeneznining boshlanish sharoitlarida darzlikning keng rivojlanishi natijasida HSX yaxshilanadi, bu flyuidlarning tanlab vertikal migratsiyalanishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Абидов А.А., Эргашев Й., Қодиров М. Нефть ва газ геологияси. Русча-ўзбекча изоҳли луғат. Тошкент. “Шарқ” 2000 й.
2. Абидов А.А. Современные основы прогноза и поисков нефти и газа. Ташкент. “Фан” 2012 г.
3. Дьяконов А.И., Соколов Б.А., Бурлин Ю.К. «Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа». Учебник. Ухта-2002 г.
4. Бурцев М.И. «Поиски и разведка месторождений нефти и газа». Учебное пособие. Москва-2006 г.
5. Бакиров А.А., Бакиров Э.А., Мелик-Пашаев, Юдин В.С. Теоретические основы и методы поисков и разведки скоплений нефти и газа. Учебник 3-е изд. М.Высшая школа, 1987 г.
6. Yarboboyev T.N., Hayitov O.G'. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari. Darslik. Qarshi-2018 y.

11-12 YOSHDAGI YOSH FUTBOLCHILARNI TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

S.A. Abdumalikov, K.M. Mirzayev, A. Safarov
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchilari

ANNOTATSIYA

Yosh futbolchilarning tayyorgarligini oshirish va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon qilish, qolaversa har turli xil metodlardan foydalanib tayyorgarlik olib borilishi natijasida yosh futbolchilarda samarali uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jismoniy tayyorgarlik o‘quv–trenirovka jarayonining muhim bo‘limi hisoblanadi. Jismoniy tayyorgarlik organizmning funktsional imkoniyatlari umumiy darajasini oshirish, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, sog‘liqni mustahkamlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash jarayonidir. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus tayyorgarlikka bo‘linadi. O‘quv-trenirovka ishida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vazifalari uzviy bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: nazariy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, musabaqa va o‘yin tayyorgarlik, individual, guruhli va jamoaviy tayyorgarlik.

ABSTRACT

As a result of improving the training of young players and clearly demonstrating their unique characteristics, as well as conducting training using various methods, effective harmony is manifested in young players. Physical training is an important part of the training process. Physical training is the process of training physical abilities that are inextricably linked with increasing the overall level of the body’s functional capabilities, all-round physical development, and strengthening health. Physical training is divided into general and special training. In training work, general and special physical training tasks are inextricably linked.

Keywords: Theoretical training, Physical training, technical training, tactical training, psychological training, competitive and play training, individual, group and collective training.

Tadqiqot dolzarbligi: Sport mashg‘ulotlarini davriyligini hisobga olgan holda shuni ta’kidlashimiz joizki, futbol sport turi bo‘yicha sport mashg‘ulotlarining davlat standartiga muvofiq, 10 yosh - bu mashg‘ulot bosqichiga (sport ixtisoslashuvi

bosqichiga) qabul qilish uchun yetarli yosh hisoblanmaydi. Ushbu bosqich dastlabki tayyorgarlik bosqichidan keyin amalga oshiriladi.

Davlat standartida ta'kidlanganidek, mashg'ulot bosqichida sport mashg'ulotlari dasturi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- umumiy va maxsus jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish;

- futbol sporti bo'yicha rasmiy sport musobaqalarida tajriba orttirish va barqarorlikka erishish;

- sport motivatsiyasini shakllantirish;

- sportchilarning sog'lig'ini mustahkamlash.

Sport faoliyatida sportchi eng yuqori natijalarga erishganda, u o'zining imkoniyatlarini maksimal darajada jismoniy, psixologik, ma'naviy va axloqiy fazilatlarini namoyish etadi. Buning uchun sportchi bor kuchini sarf qilishi kerak. Sport mashg'ulotlari jarayoni yoshni, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini, sport talablarini hisobga olgan holda quriladi. 11-12 yoshda, A.V.Petuxov ta'kidlaganidek, koordinatsion qobiliyatlar va kuch - chidamlilik yuqori va maksimal o'sish sur'atlari bilan rivojlanadi. Yugurish tezligi va umumiy chidamlilik tez sur'atlarda rivojlanadi. Harakat tezligi va tezlik - chidamlilik kabi sifatlar past o'sish sur'atlari bilan tavsiflanadi.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi tarkibiy qismlarini rivojlantirish uchun qulay davrlarni hisobga olgan holda, A.V.Petuxov sensitiv davrga xos bo'lgan eng yuqori o'sish sur'atlari mushaklarning kuchini tabaqalashtirishda kuzatilishini ta'kidlaydi. Texnikaga o'rgatishda aniqlik, tezkorlik va sezgirlik hamda maxsus epchillik tez rivojlanadi. Sekin o'sish sur'atlari kuch, chidamlilik va kinezmetik sezgirlikda namoyon bo'ladi.

A.V.Petuxov taktik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari haqida gapirar ekan, 10-11 yosh operativ fikrlash tezligini rivojlantirish, diqqatni almashtirish va taqsimlash uchun sensitiv davr ekanligini ta'kidlaydi. 12 yoshdan boshlab operativ fikrlashning aniqligi, diqqatning hajmi va barqarorligini maksimal darajada oshirish boshlanadi. Sensorimotor reaksiya va bashorat qiluvchi reaksiya bu yoshda juda tez o'sadi, bu 11-13 yoshdagi maksimal o'sish sur'atlarini ko'rsatadi. Operatsion fikrlashning aniqligi, diqqatning hajmi va barqarorligi, axborotni qabul qilish va qayta ishlash tezligi va harakatlanayotgan ob'ektga reaksiyasi 10-11 yoshdagi o'sishning past ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonini hisobga olgan holda, rejalashtirish ushbu yaxlit jarayonni har xil turlarga bo'lishidan foydalanishini ko'rish mumkin. Qoida tariqasida, ushbu bo'linish asosan shartli amalga oshiriladi va rejalashtirish jarayonini yengillashtirish uchun ishlatiladi. Sport maktablari uchun futbol dasturlarida

yosh futbolchilarni tayyorlashning quyidagi turlari ajratilgan: nazariy, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik (1-jadval). Soat taqsimotining o'xshash me'yorlari sport tayyorgarligining davlat standartida keltirilgan. Shu bilan birga, futbolchilarning integral tayyorgarligi texnik va taktik jihatdan ko'rib chiqiladi, 11-12 yoshdagi yosh futbolchilar mashg'ulot olib boradigan sport ixtisosligi, bu mashg'ulotlar umumiy hajmining 25-36 % ni tashkil qiladi.

1-jadval

Ta'lim turlarining bosqichlar va yillar bo'yicha nisbati,% da

№	Tayyorgarlik bosqichlari	Integral	Texnik	Taktik	MJT	UJT	Musobaqalar	Jami
1	Sport sog'lomlashtirish	20	45	5	30	100		100
2	Boshlang'ich tayyorgarlik	25	40	10	5	15	5	100
3	O'quv mashg'lot bosqichi	Dastlabki ixtisoslik	30	30	10	10	5	100
4	Chuqurlashtirilgan ixtisoslik	35	20	10	10	15	10	100
5	Sportni takomillashuvi bosqichi	40	15	15	10	5	15	100
6	Sport mahorati bosqichi	45	10	10	15	5	15	100

Futbolchilarning sport tayyorgarligi - bu barcha zarur vositalar, usullar, shartsharoitlar to'plamidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan uzoq muddatli maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon. Sport tayyorgarligining maqsad va vazifalari ta'lim, tarbiya va mashg'ulotlar jarayonida hal etiladi. Futbolchilarni tayyorlashdan maqsad jahon futbolining zamonaviy talablariga javob beradigan va yuqori sport natijalariga erishishga qodir yuqori malakali sportchilarni tarbiyalashdir. Tayyorgarlik maqsadi asosida ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

- yuksak axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalash.
- sog'likni mustahkamlash, har tomonlama jismoniy rivojlanish.
- yuqori darajadagi asosiy jismoniy sifatlarga erishish va o'yin texnikasi va taktikasini mukammal o'zlashtirish.
- individual va jamoaviy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishish va ularni musobaqada amalga oshirish uchun ko'nikmalarni egallash.
- yuqori umumiy va maxsus ish qobiliyatlarga erishish va ularni uzoq muddatli saqlash.

- o'qitishning uslublari, rejalashtirish, nazorat qilish, tiklash, hakamlik qilish, musobaqalarni tashkil qilish va h.k.larda chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash.

Ko'rgazmalilik tamoyili asosan o'rganilayotgan harakatning tabiiy ko'rinishida amalga oshiriladi. Biroq, kerakli parametrlarda, muhim detallarga urg'u berib, uni qayta-qayta ko'rsatish har doim ham mumkin emas. Namoyishni eng yaxshi uslubiy qabul qilish - bu tabiiy namoyishlarning foto va kinematogrammalar, kino va video materiallarni tahlil qilish bilan birlashtirilishi. Harakatni bo'laklarga ajratish bilan o'rgatish va o'qitishni individuallashtirish tamoyili o'rganilayotgan materialning, uni ishlab chiqish vositalari va usullarining, mashg'ulotni tashkil etish shakllarining shug'ullanuvchilarning yosh xususiyatlariga, ularning imkoniyatlariga va tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini talab qiladi.

O'quv yuklamasining kattaligi va yo'nalishi aniq vazifalarga, maxsus fazilatlarning rivojlanish darajasiga va mashg'ulotning ob'ektiv shartlariga mos kelishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, ortiqcha yuklamalar mashg'ulotlarga qiziqishni kamaytiradi, jismoniy tayyorgarlikka va pirovardida sport natijalariga yomon ta'sir ko'rsatadi. Biroq, harakatni bo'laklarga ajratish bilan o'rgatish va o'qitishni individuallashtirish tamoyili maksimal jismoniy va irodaviy kuchlarni talab qiladigan va sezilarli charchoqni keltirib chiqaradigan mashqlarni bajarish zarurligini istisno etmaydi. Talablarni asta-sekinlik bilan oshirish tamoyili bosqichma-bosqich murakkab vazifalarni shakllantirish

va hal qilishni, tegishli yuklarning hajmi va intensivligini oshirishni ta'minlaydi. Amaldagi mashg'ulotlar vositalarini maqsadga muvofiq ravishda kengaytirish, yanada murakkab yangi vazifalarni amalga oshirish zarur texnika va taktik harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Sport mashg'ulotlari jarayoni, ayniqsa yosh sportchilar bilan yoshni, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Ushbu bosqichning asosiy vazifalaridan biri bu texnik va taktik tayyorgarlik darajasini oshirishdir. 11-12 yoshdagi yosh davriyligi ikkinchi bolalikni anglatadi. Bu tayyorlanish davr, rivojlanishda keskin o'zgarishlar bo'lmaydi. Jismoniy sifatlarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning rivojlanishi notekis va geteroxron tarzda sodir bo'lishini ta'kidlash lozim.

Turli xil sifatlar turli davrlarda rivojlanadi. 11-12 yoshlarda aniqlik, tezkorlik va sezgirlik, shuningdek o'rgatish texnikasidagi maxsus epchillik, operativ fikrlash tezligi, e'tiborni almashtirish va taqsimlash tez rivojlanadi. Sekin o'sish sur'atlari kuch, chidamlilik va kinezmetik sezgirliklarda namoyon bo'ladi.

Yosh futbolchilarni tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishda nazariy, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va integral tayyorgarliklarga taqsimlash qo'llaniladi. Futbolchilarning sport tayyorgarligi - bu barcha zarur vositalar, usullar, shart-sharoitlar to'plamidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan ko'p yillik maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. 14 Годик, М. А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок / М. А. Годик. – М. : Физкультура и спорт, 2003. – 136 с.
2. Аверин, В. А. Психология детей и подростков / В. А. Аверин. – М.: Издательство Михайлова В. А., 1998. – 379 с.
3. Akramov J.A Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. G'G' Fan-sporga №1 -2007 y.
4. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. Toshkent.2011.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIAT VA INSON O‘RTASIDA MUVOZANAT QAYTA TIKLANISHI

B.Omonov

Ilmiy rahbar: falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Sodiqov Jahongir

SHahrisabiz davlat pedagogika institute Ijtimoiy gumanitar fanlar o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat) magestranti

ANNOTATSIYA

Maqolada, tabiat-jamiyat-inson munosabatlarida ekologik ahloqiy qarashlarning namoyon bo‘lishi, tabiatga nisbatan yangicha yondashuvning tarixiy asoslari, rivojlanish jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Yangi Uzbekistonda ekologik muommolar tahlili va ularning yechimi hamda amaliy takliflar aytib o‘tilgan, mahalliy sharoitdan kelib chiqib ekologik muxutni hamda aholi madaniyatini oshirish borasida amaliy takliflar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik axloq, yashil makon, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik bilim, ekologik norma, ekologik muhit, ekologik madaniyat, sanetar holat, ekoturizim, kosmosturizim Yangi Uzbekiston.

KIRISH

Kecha bugun va kelajak bu so‘zlar zamirida albatta tabiat inson o‘rtasida tajriba rivojlanib brogan bog‘liqlikni ko‘rib his eta olishimizga yana bir marotaba eslatib qo‘ymoqda ona tabiat. Hayot falsafasida olish va berish qonuni amal qiladi, insoniyatning istemol ehtiyojlarining oshib borishi o‘z navbatida berish qonuniga amal qilmasligini bir nechta misollar bilan ko‘rib o‘tdik. Bugungi yangi davrda yangi muomolar bilan yuzlashishga majbur bo‘lmoqdamiz, albatta Yangi O‘zbekistonda bu muomolarni birgalikda hal etamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekologik munosabatlarda axloqiy qarashlarning ustuvlashuvini aniqlashtirishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Zamonaviy Mutafakkirlarning ekologik axloq haqidagi qarashlari hamda Shavkat Mirziyoyevning nutqlari o‘zaro solishtirilib, qiyosiy tahlil qilingan

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, Barchani etiborini ekologik vaziyatning inson omili tufayli izdan chiqib borayotganini so‘ngi 3 yil ichida ro‘y bergan talofatlar bularga (Korona verus, o‘rmon

yongʻinlari, Turkiyada roʻy bergan zilzila va iqlimning isib borishi muzliklarning ortga siljishi va misollar koʻp ammo yechim haqida BMT membarida nutq soʻzlagan davlatimiz rahbari barchani oʻylantirib qoʻyishga majbur etdi. Biz bugun bilan emas kelajak bilan yashashimiz, bizdan keying avlodlar uchun yangicha yonashuv va yechimlar taklif eta olamiz. Tabiatning bebaho nematlari qachondir tugaydi degan qarash bilan emas balki davlar siyosating ustuvor masalasida koʻrilayotganini koʻrishimiz mumkin.

Davlat rahbari oʻz nutqida ichimlik suvi va yashil makon dasturi haqida atrof muhutni asrab avaylashimiz, qayta tiklanuchi manbalardan kerakli miqdorda olishi va suv tejamkorligi uchun har bir oilada suv sarfini oʻlchayidan uskunalar oʻrnatilmoqda shu qatorda chiqindi palegonlarid holati suv omborlaridan ungacha boʻlgan ariqlar betonlar yotqizilmoqda bu islohatlar natijasini tez orada oʻz samarasini beradi. Barchamizda dastlabki bilimlar oiladan beriladi. Axloqiy madaniyat bu yerda yotgan axlatni chiqindi qutisiga solgan jamiyatda koʻrinadi. Shu qatorda uy muziylar faoliyati va ijtimoiy roliklar yoshlar ongida bu mumkin bu esa mumkin emas degan aqidani shakilanishida yordam beradi. Oʻzbekiston hududida koʻplab yechimi kutayotgan ekologik muomolar bor. Har bahorda koʻchat ekish va umumxalq xashari milliy qadiriyatlar asosida oʻtqazib boriladi. Ekoturizm va Ziyorat turizmi va qoʻshimcha qilib Kapsula va kionot turizimni rivojlanishi boʻycha bir qator yetuk zamonaviy Olimlar oʻz izlanishlarini olib bormoqda. SHu holatda meni oʻylantirgan narsa ehtiyojlar imkoniyatlarimizdan ortishi.

Isteʼmol madaniyatining zayiflashuvi ananalarga xos boʻlgan udumlar bular endi ortda qolmoqda har bir narsaning hisob kitobi bor eko birlashmalar koʻnggilli volontorlar kichik clublar davra suhbatida qayta tiklanmas vositalrdan bosqichma bosqich voz kechilmoqda .Oʻzbekiston sharoitida yerlarning melotariv holatlarining yomonlashuvi va 3- 4dalali almashuv ekinlarini va tomchilab sugʻorish suvsizlik holatiga chidamli mahsulotlarni yaratish borasida qator ishlar olib borilmoqda.darhaqiqat ,Oʻzbekistonda ilm-fanni yangi darajaga koʻtarishga yoʻnaltirilgan gʻoya-takliflar davlatni yanada yuksaltirish nuqtayi nazaridan juda katta ahamiyatga ega.

Xalq oʻzining tarixi, madaniyati hamda anʼanalarini bilmogʻi muhim. Aks holda, u milliylikdan mosuvo boʻladi. Agar mamlakatlar bir-birining tarixini chuqur bilsa, bugungi globallashgan dunyoda tinchlik va hamkorlik mustahkamlanadi. Oʻz-oʻzidan ayonki, bilimlar almashuvini olib borish, boshqa mamlakatlar, xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan qoʻshma tadqiqot hamda loyihalarni hayotga tatbiq etish juda muhimdir deb takidlab oʻtgan xorijlik olim **Antonio Alonso Markos**.

Tabiatni sevish – vatanparvarlik tarbiyasining asoslaridan biri boʻlib, muhim axloqiy fazilat hisoblanadi. Tabiatni sevish oiladan boshlanadi. Ayniqsa, shahardan

tashqaridagi oilaviy sayohatlar sizlarda tabiatni sevish va unga g'amxo'rlik ko'rsatish uchun o'ziga xos maktab bo'ladi. Beruniyning "Agar insonlar global ekologik muammolarning bundan ming yil oldin bashorat qilinganini ko'rsatadi. Hozirda tabiiy jarayonlar murakkab kechayotgani uchun u jamiyat yetuklikni talab qiladi. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab- quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi beshinchi ustuni bo'ladilar Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar deb takidlab o'tdi o'z murojatida.

XULOSA

Tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatni o'zida mujassam etadi. Inson hayotini tabiiy va moddiy boyliklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu bois ota-bobolarimiz qadim-qadimdan bu ne'matlarni huda-behuda isrof qilmaslikni, ulardan hamisha tejab-tergab foydalanish lozimligini, aks holda, bir kunmas-bir kun uvoliga qolishimiz muqarrarligini bot-bot uqtirib kelishgan.

"Tejog'li ish – bejog'li ish", "Toma-toma ko'l bo'lar, birin-ketin ming bo'lar" degan maqollarni ham aynan shu ma'noda yaratishgan. Yer yuzida jadallik bilan kamayib borayotgan resurslar bor. Bular – toza suv zaxirasi, o'rmonlar, qazib olinadigan yoqilg'i va minerallar. Agar ulardan biri tugab qolsa, nima bo'ladi? Odamlar uning muqobilini izlay boshlaydilar. Ayni paytda biz ana shu ish bilan mashg'ulmiz. Tasavvur qiling, agar sayyoramizda yoqilg'i yoki gaz tugab qolsa, nima qilamiz? Tejamkorlik orqaligina biz sayyoramizdagi hayotning barqarorligiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

Марфенин Н.Н. Гуманизм и экология. Журнал "Экология и жизнь" (избранные статьи). Стр. 6. <http://www.ecolife.ru/jornal/echo/2000-5-1.shtml>

Antonio Alonso Markos nutqi San Pablo-Madrid universiteti professori

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi

BO‘LAJAK HARBIY PEDAGOGLARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVINI TA’MINLASH MEXANIZMI

Karimov Bobur Bagadirovich

O‘R QK Akademiyasi ilmiy tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqola harbiy pedagoglarning kasbiy bilim va shaxsiy sifatlariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘lajak harbiy pedagoglarni tayyorlashga oid ta‘lim mazmunini takomillashtirish, o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vosstalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirish masalalarini yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, ijtimoiylashuv, mexanizm, pedagog ijtimoiylashuvi, pedagogika, psixologik.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена освещению современных требований к профессиональным знаниям и личностным качествам военных педагогов, совершенствованию содержания образования, касающегося подготовки будущих военных педагогов, формированию необходимости широкого внедрения в практику инновационных форм и методов обучения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, социализация, механизм, социализация педагога, педагогика.

ABSTRACT

The article is devoted to highlighting modern requirements for professional knowledge and personal qualities of military lectures, improving the content of education related to the training of future military lectures, forming the need for widespread implementation of innovative forms and methods of teaching.

Keywords: professional competence, socialization, mechanism, teacher’s socialization, pedagogical.

“Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz xam bekor o‘tmasin!
Yoshlik-umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan,
hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni
Sh.M. Mirziyoev

Jahonda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida bo'lajak harbiy pedagoglarning kasbiy ijtimoiylashuvi rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda harbiylarning kasbiy ijtimoiylashuvi darajasini rivojlantirish va baholash strategik ahamiyat kasb etib, harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiylashuv zamonaviy pedagogika tushunchalari tizimida shaxsni voqelikning eng muhim jihatlari, rivojlanish asoslari bilan tanishtirish bo'yicha keng ko'lamli muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlar sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimi shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim ijtimoiy institutidir. Maqsadli ta'lim va tarbiya jarayonida ma'lum xulq-atvor qoliplari, sifatlari va shaxs xususiyatlari shakllanadi. A.A.Rean ta'kidlaganidek, ta'lim mohiyatan boshqariladigan va maqsadli ijtimoiylashuv jarayonidir. Shu bilan birga, ijtimoiylashuv mexanizmining o'zi ijtimoiy ta'sir obyekti pozitsiyasidan faol subyekt pozitsiya-siga bosqichma-bosqich o'tish bilan bog'liq. Shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi ijtimoiy faollikni va natijada psixikaning o'zgarishini rag'batlantiradi.

B.G.Ananievning tadqiqotlariga ko'ra ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayon sifatida: shaxsning shaxs sifatida va faoliyat subyekti sifatida shakllanishini anglatadi. Bunday ijtimoiylashuvning yakuniy maqsadi individuallikni shakllantirishdir.

Zamonaviy psixologiya ijtimoiylashish shaxsning tug'ma xususiyati sifatida ko'rib faol-moslashuvchan komponentni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, "ijtimoiy rivojlanayotgan" deb ta'riflanishi bilan xususiyatlanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonining o'zi aniq maqsadni ifodalasa-da, ushbu jarayon insonning butun ontogenezi bilan bog'liqligi sababli yakuniy natijani oldindan bilish mumkin emas. Shaxsning ijtimoiylashuvi har bir avlodni ijtimoiy-madaniy vaziyatni hisobga olgan holda hayotga tayyorlash orqali amalga oshiriladigan maqsadli tarbiya jarayonida yuz beradi. Ma'lumki, fanda evolyutsion-biologik va psixologik nazariyalar qoidalariga asoslanib, ta'lim jarayonining kelib chiqishining ikkita kontseptsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin.

Evolyutsion-biologik nazariya vakillari (S.Letourneau, J Simpson, A.Espinas) zamonaviy odamlarning ta'limiy faoliyatini ibtidoiy odamlarning faoliyati bilan taqqoslaydilar. Ushbu nuqtai nazarga qarama-qarshi bo'lgan psixologik nazariya (P. Monro) tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligini bolalarning kattalar xatti-harakatlarini takrorlashidan iborat taqlid instinkti bilan bog'laydilar. Ta'lim jarayonining ijtimoiy

ma'nosini talqin qilishda ma'lum farqlarga qaramay, har ikkala ijtimoiy-pedagogik nazariya vakillari ibtidoiy ta'limni yosh avlodning mavjud narsalar tartibiga bosqichma-bosqich moslashishi deb hisoblashlari xarakterlidir.

Ijtimoiylashuv mexanizmi ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillarining shaxs psixikasiga ta'siri darajasiga ham bilan bog'liq. Biroq, shaxs rivojlanish jarayonida ijtimoiy munosabatlarning subyektiga aylanadi, ijtimoiy obyekt sifatida boshqa shaxsga ham, o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi va ushbu ta'sirlar ijtimoiylashuv hisoblanmasligiga qaramay, ular shaxsiyat rivojlanishining asosini tashkil qilishi mumkin. Aynan shu munosabat bilan "ijtimoiylashuv", "psixikaning rivojlanishi" va "shaxsning rivojlanishi" tushunchalari bir-biriga yaqindir.

Ijtimoiylashtirish, o'z navbatida, fan asoslari haqidagi bilimlarni uzatish bilan cheklanib qolmaydi, balki ma'lum ma'noda quyidagi tarkibiy qismlarning o'zaro ta'sir jarayoni sifatida izohlandi: ta'lim oluvchining intellektual sohasini rivojlantirish; hissiy va axloqiy sohani rivojlantirish; o'ziga ishonch va boshqalarga nisbatan bag'rikenglikni rivojlantirish; jamiyatga ijobiy munosabatni rivojlantirish; faoliyatda va qarorlar qabul qilishda mustaqillikni rivojlantirish; motivatsiyani rivojlantirish; o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiylashuv insonni ta'lim va tarbiya obyektidan ijtimoiy rivojlanish subyektiga, keyinchalik o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishning faol subyektiga o'tkazishning eng muhim funksiyasini bajaradi.

Tadqiqot ishimiz doirasida ijtimoiylashuvning mexanizmlarini tahlil etishni lozim deb hisoblaymiz. P.C.Nemov ijtimoiylashuvning quyidagi ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga e'tibor qaratadi:

1) identifikatsiya - bu boshqalarga xos bo'lgan xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishga imkon beradigan ijtimoiy guruhlar, aniq shaxslar bilan identifikatsiya qilish;

2) taqlid qilish - bu shaxs tomonidan ongli yoki ongsiz ravishda xulq-atvor modelini, boshqa odamlar tajribasini takrorlash;

3) tavsiya (ko'rsatma) - shaxs atrofidagi odamlarning ichki tajribasi, fikrlari, his-tuyg'ulari va ruhiy holatining shaxs tomonidan ongsiz ravishda takrorlash jarayoni;

4) ijtimoiy fasilitatsiya - ba'zi odamlar avlodining boshqalarning faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'siri, buning natijasida ikkinchisining faoliyati yanada erkin va jadalroq davom etadi;

5) konformlik - xulq-atvorda amalga oshiriladigan, boshqalar bilan tashqi kelishuv natijasida shaxsning o'zgarishi.

Bizning fikrimizcha, sotsializatsiya yo'nalishlari inson hayotining xulq-atvor, hissiy-sezgi, kognitiv, shaxslararo munosabatlar kabi asosiy sohalariga mos keladi.

Shunday qilib, kundalik psixologiya nuqtai nazaridan, sotsializatsiya inson yashaydigan va rivojlanadigan (birinchi navbatda, ta'lim va ta'lim natijasida) sharoitlar yig'indisining ta'sirining kengayishi sifatida tushuniladi, shuningdek, uning shaxs-ga aylanish jarayoni sifatida, jumladan, o'z-o'zini anglash va faol hayotiy pozi-tsiyani ham anglatadi.

Umumiy pedagogik tamoyillar nuqtai nazaridan, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil qilishda zarur bo'lgan turli xil tahlil turlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- psixologik va pedagogik - ijtimoiylashuv subyektining tabaqalashtirilgan va to'liq psixologik holati va portretini, uning obyektiv va subyektiv tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda tavsiflashlanadi.

- ijtimoiy-psixologik - shaxs rivojlanishining ijtimoiy holatining eng muhim omillarini (ijtimoiy g'oyalar tizimi, ijtimoiy guruhlariga mansubligi va boshqalar) baholashni o'z ichiga olgan tahlil;

- ko'p o'lchovli diagnostikaga asoslangan yo'naltirish - bu shaxsning zaif refleksivligi va konstruktiv "men-kontseptsiya"ni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillarni faollashtirishga yordam beradi (o'z-o'zini idrok etishga qiziqish, o'zini o'zi anglash va boshqalar).

Ijtimoiylashuvning psixologik asoslarini tahlil qilish ijtimoiylashuvning mazmuni, bosqichlari va mexanizmlarini aniqlashni talab qiladi va bu jarayon tarixiy xususiyatga ega ekanligini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadigan va ijtimoiy munosabatlar majmuini o'z ichiga olganligini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Psixologik asoslar nuqtai nazaridan ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayon bo'lib, u bir tomondan, ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, me'yorlar va munosabatlarni o'zlashtirish orqali shaxsning jamiyatga moslashishini o'z ichiga olsa, boshqa tomondan, bu o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash jarayoni bo'lib, uning davomida nafaqat ijtimoiy aloqalar tizimini va shaxs tomonidan orttirilgan tajribani aktuallashtirish hamda yangilarini yaratish ham sodir bo'ladi.

Ijtimoiylashtirishning tashkiliy va uslubiy asoslari ijtimoiy-demografik hamjamiyat sifatida inson hayotining uchta asosiy sohasining (faoliyat, muloqot, o'z-o'zini anglash) o'zaro bog'liqligini qamrab oluvchi vazifalarni tahlil qilish bilan bog'liq:

- tabiiy-madaniy - harbiy ta'lim jamiyatiga xos kognitiv, axloqiy va qadriyat-semantik tushunchalarni rivojlantirish;

- ijtimoiy-madaniy - harbiy va o'quv amaliyotidan, odatlar, urf-odatlar, psixologik stereotiplardan shuningdek, kursantning shakllanayotgan shaxsi tomonidan idrok etilgan munosabatlar tizimini qabul qilish;

ijtimoiy-psixologik - kursant - bo'lajak ofitserning o'zini o'zi anglashini shakllantirish, uning hozirgi hayotda va kelajakda o'zini o'zi belgilashini anglatadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra, harbiy-professional shaxsni ijtimoiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini va harbiy ta'lim jamiyatida ushbu jarayonning samaradorligini belgilaydigan psixologik-pedagogik sharoitlar va vositalarni tahlil qilish nazariy-uslubiy va tashkiliy-uslubiy jihatlariga e'tibor qaratishni talab etadi.

Ijtimoiylashuv jarayonining o'zi aniq maqsadni ifodalasada, ushbu jarayon insonning butun ontogenezi bilan bog'liqligi sababli yakuniy natijani oldindan bilish mumkin emas. Shaxsning ijtimoiylashuvi har bir avlodni ijtimoiy-madaniy vaziyatni hisobga olgan holda hayotga tayyorlash orqali amalga oshiriladigan maqsadli tarbiya jarayonida yuz beradi.

Ijtimoiylashuv mexanizmi ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillarining shaxs psixikasiga ta'siri darajasiga ham bilan bog'liq. Biroq, shaxs rivojlanish jarayonida ijtimoiy munosabatlarning subyektiga aylanadi, ijtimoiy obyekt sifatida boshqa shaxsga ham, o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi va ushbu ta'sirlar ijtimoiylashuv hisoblanmasligiga qaramay, ular shaxsiyat rivojlanishining asosini tashkil qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2024. 15 yanvar.
2. Болтыков О.В. Педагогическое обеспечение социального становления курсантов военного вуза, социального взросления курсантов: автореф. дис. ... канд. пед. наук / О.В. Болтыков. – Кострома, 2010.
3. Дигин С.Н. Профессиональная социализация курсантов в военном вузе в современных условиях: социологический анализ: Автореф. дис. ... канд. соц. наук. Екатеринбург, 2009.
4. Реан А.А., Коломинский Я. Л. Социальная педагогическая психология. СПб.: Питер, 1999.
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz

INTERACTIVE METHODS USED TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF ELEMENTARY SCHOOL READING LESSONS

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li

Teacher of the Department of Pedagogy of Termiz University
of Economics and Service

E-mail: zjavohir6@gmail.com

ABSTRACT

Today, we will present our ideas about the methods used to improve the effectiveness of primary school reading classes, advanced pedagogic and new information technologies from the teacher.

Keywords: Primary teacher, lesson, pedagogy, education, interactivity, interactive, educational method, methodology, method, content of the lesson, creativity.

The student is faced with reading the text correctly, quickly, with understanding, mastering its content for the first time in the reading classes. Through the reading classes, the way is opened for students to acquire the educational skills and knowledge that are expected to be acquired by the students according to the requirements of the State Education Standard (DTS). In the reading classes, a person’s desire to understand himself, and also the world, is stimulated. For this purpose, the "Reading Book" textbooks are designed to provide comprehensive understanding of various topics such as mother nature, the world around us, the history and current image of our country, the life of adults and children, hard work, independence and national-spiritual values, friendship of peoples and peace. , moral-educational, popular scientific works are included[1].

Pedagogical technology is a systematic method of creating, applying and defining technical and personal resources and their relationship, which sets the task of increasing the effectiveness of educational forms in the entire process of teaching and knowledge acquisition[2]. Opening a wide path to modern knowledge, effective use of pedagogical technologies in improving education is one of the most important requirements of today. It is aimed at organizing the reform of the continuous education system in our independent Uzbekistan based on the new state education standards. Currently, special attention is paid to the activity of the teacher and his pedagogical skills. Recommendations regarding the use of pedagogical technology in the course of

the lesson, which have begun to take place in the pedagogical thinking of teachers working in the educational process, are very necessary for teachers[3].

General methodological recommendations for the use of interactive methods:

1. Preparing the place for work. The class should be prepared in such a way that the participants should be comfortable to work in small or large groups.
2. Taking process and regulation seriously. All listeners should be tolerant of all viewpoints and respect freedom of expression.
3. Pay close attention to the division of the audience into groups.
4. All listeners should be involved in the work to one degree or another.
5. Helping the listeners to mentally prepare for training.
6. The number of learners in the group should not be large when training is conducted based on interactive methods. Effective work can be done in small groups of 4-6 people[4].

Reading classes of primary classes have a special place in the educational system according to their essence, goals and tasks. Because the foundations of literacy and moral-educational education are based on it. Therefore, the education of other subjects cannot be imagined without the education of reading. Today, the most effective and modern methods of teaching are widely used in the educational process. By applying such methods and using modern technologies, the knowledge potential of students is growing[5]

“Brainstorming” method - this method is widely used in solving problems related to a specific topic, and it encourages the participants of the training to acquire certain skills and abilities to think broadly and comprehensively about the problem, as well as to use their imaginations and ideas in a positive way. In the course of training organized using this method, there is an opportunity to find some original solutions to arbitrary problems. The “Brainstorming” method creates conditions for identifying certain values within the selected topics, and at the same time for choosing ideas that are alternative to them[6-7].

When using the “Brainstorming” method during training, it is necessary to follow several rules. These rules are as follows:

1. To encourage the participants of the training to think broadly within the framework of the problem, to achieve the expression of unexpected logical ideas by them.
2. The number of opinions or ideas expressed by each student is encouraged. This allows you to choose the most appropriate from among the opinions expressed. In addition, stimulation of thoughts leads to the birth of new thoughts or ideas.

3. Each student can base their own opinion or ideas and change them. Summarizing, categorizing, or changing previously expressed opinions prepares the ground for the formation of scientifically based opinions.

4. Controlling any activities of students during classes based on standard requirements does not allow to evaluate the opinions expressed by them. If their opinions are evaluated and evaluated, students will focus on protecting their personal opinions, and as a result, they will not come up with new ideas[8].

Keeping in mind that the main goal of using this method is to encourage learners to think broadly and deeply about the problem, it is advisable to abandon any method of evaluating their activities.

“Cluster” method - the word “Cluster” means “bud, bundle” in Latin. It gives rise to new ideas in the process of expressing existing knowledge and thinking about a specific topic. A key concept included in a cluster, identifying important connections between ideas, develops broad thinking. It teaches to look around differently[9].

It is best to use clustering before you have thoroughly studied the topic. A cluster is a group of adjectives related to the concept, subject, word or sentence under discussion.

Clustering sequence:

Write the main concept, "key" word or phrase of the topic being discussed on the board or a piece of paper. Write down the words or phrases that you think are related to that topic, concept, or "keyword." Make appropriate connections between written concepts and ideas.

Try to write as many options, ideas, and thoughts as you can. Write down everything you remember.

The FSMU method is a method of teaching and practicing that during the discussion of the topic studied in the training, students express their opinions on the issues related to it, show the reasons justifying these opinions, give examples that confirm them, and finally draw general conclusions.

This method teaches students to think freely, to defend their opinion and to convey their opinion to others, to argue openly, to develop a culture of debate, as well as to analyze the knowledge acquired by students in the educational process, and to determine and evaluate the level of mastery. The general scheme of the FSMU method:

F – state your opinion;

S – give a reason justifying your opinion;

M – give an example confirming your reason;

U- Summarize your opinion.

The teacher prepares handouts with tasks like the following in advance and distributes them to small groups or individual students during the lesson.

When studying the texts, it is necessary to take into account the characteristics of primary school students, to divide them into classes, taking into account the development of their thoughts, memory, cognitive ability, sensory organs, and the level of complexity of the taught materials. Using interactive methods to teach historical topics in reading classes increases students' interest in education and broadens their worldview[10].

The knowledge given to schoolchildren will be remembered for a long time if it is acquired based on the direct participation of the student, various impressions and mental experiences. Accordingly, in the study of historical topics, along with the effective use of methods related to the student's activity, the teacher should guide the student's activity based on the specifics of each taught topic and help him when it becomes necessary.

REFERENCES:

1. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS' MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. *Academic research in modern science*, 1(9), 344-348.
2. O'g'li, Z. J. G. (2022). O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(3), 124-129.
3. O'g'li, Z. J. G. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASTER METODLARIDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 76-79.
4. Zokirov, J. G. O. (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU conference 3), 90-96.
5. Зокиров, Д. (2022). Она тили ва о'qish sav odxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 288-291.
6. Zokirov, J. (2023). SIFATLI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING ROLI. *Interpretation and researches*, 2(1).

7. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). 1-3-Sinf O 'Quvchilariga Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 161-163.
8. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Boshlang'ich Sinf Ona Tili Va OQish Savodxonligi O'rgatish Usullari. Innovatsiyalar, ijodkorlik va san'at jurnali , 2 (2), 164-168.
9. ZOKIROV, J. (2022). BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARIDA MASHQLARNING XUSUSIYATLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(2).
10. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Ona Tili Va OQish Savodxonligi Darslarida QoLlaniladigan Metodlarning Tasnifi. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 180-184.

USING THE SPIRITUAL HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC EDUCATION IN STUDENTS

Temirova Matluba Karim kizi

Termiz State Pedagogical Institute Teacher of the Department
of Primary Education Methodology

E-mail: matlubatemirova95@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the role of the spiritual heritage of Eastern thinkers in the development of aesthetic education among elementary school students, that is, how important the spiritual heritage of our ancestors is in the process of improving aesthetic education among elementary school students, is the subject of the article. tried to reveal it as a problem.

Keywords: Elementary class, aesthetics, Eastern thinkers, Alisher Navoi, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Al-Khorazmi, Al-Farghani, Abu Ali Ibn Sina, aesthetic education, spiritual heritage.

Spirituality in a broad sense includes the concepts of enlightenment and culture. The words morality, behavior and behavior are also Arabic words derived from the basic meaning of spirituality, and they are also used in the Uzbek language in their own sense. Morality actively influences our life and consciousness, determines the acceptable and unacceptable, prohibited and prohibited actions in human relations between good and evil, justice and injustice, love and oppression[1].

Spiritual - moral and aesthetic education is a criterion that shows the degree to which an individual has mastered all the spiritual and intellectual blessings created by society and using them to improve his morals.

We, teachers, play an important role in educating the young generation. Every nation ensures its great future by raising the young generation to maturity. For this, it is a requirement of the present time that every person should realize himself, know the path of perfection, the melodies of our heritage of world importance, have imagination, argue, and deeply understand that it is a necessary factor of our spiritual needs.

Analysis of literature on the topic; In fact, the concepts and teachings about the improvement and evaluation of natural phenomena and the improvement of aesthetic education are in the works of our scholars such as Al Khorazimi, Abu Rayhan Beruni, Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Mirza Ulugbek, Zahiriddin Muhammed Babur. expressed.[2] The works of these thinkers became the scientific basis for the

development of sciences such as astronomy, mathematics, geology, logic, music, metrology, ethics, medicine and medicine.

Determining the place of the heritage of Eastern thinkers in the formation of aesthetic education in elementary school students:

Abu Abdullah al-Khorazmi (783-850) Abu Abdullah Muhammad ibn Musa al-Khorazmi is one of the Central Asian scientists who is one of the founders of world mathematics. Kasir al-Farghani begins to manage the “Ma'mun Academy” (Bayt ul Hikmat) with Abbas ibn Jawhari [3].

The caliph of Baghdad entrusted Ma'mun al-Khwarizmi to manage the creation of the “Map of the Earth and Heaven”. Scientists have been researching the map for 84 years. Khorezmi summarized these studies and wrote the work “Image of the Earth” and laid the foundation for the science of geography[4]. This work covers the whole world, continents, oceans, poles, equator, deserts, lakes, forests, all countries, territories, animal and plant life there, other natural raw materials, population, their distribution characteristics, containing information about customs, trades, density.

Khorezmi made a great contribution to the creation of the world's first geographical atlas (set of maps). Khorezm also did a lot of work in the field of astronomy. Based on his observations, he comprehensively analyzed Indian astronomical tables and compiled new astronomical tables. In order to determine the size of the globe, one degree of the Earth's meridian was measured. Khorezmi's works on astronomy, his ideas about the size of the Earth, made a great contribution to the development of the science of astronomy in the Middle East and Europe.

The famous Uzbek mathematician Musa al-Khorazmi is considered the “father” of modern algebra and the field of “Algorithm”. “Algebra” is derived from the work of “Al Jabr”, and “Algorithm” derives its name from al-Khwarizmi[5].

Abu Rayhan Beruni (973-1048) Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad al-Berani is a great Uzbek encyclopedist, a mature thinker of the Middle Ages and beyond.

Beruni was born in 973 in Qiyat (now Berani) of Khorezm. In 1004, Beruni wrote a work dedicated to Qabus ibn Vushmagir called “Relics of Ancient Nations”.

Beruni's works contain a lot of information about nature. For example, information about the mineral resources (medicinal plants, animals) of Central Asia, India and Afghanistan and their useful properties is provided. Berani's scientific views are widely covered in such works as “Mineralogy”, “India”, “Relics of Ancient Nations”, “Geodesy”, “Masud's Law”[6].

In his book “Relics of Ancient Peoples”, Berani describes the tropical flora and fauna common in northern Iran. Berani's work “Kitab al-Saydana-fit-tibbi” (“Medicine in nature”) was found in one of the libraries in Bursa, Turkey in 1927. This book

contains information about more than 250 doctors, pharmacists, chemists, naturalists, historians, philosophers, and tourists.

Berani's thoughts on natural and artificial selection are also noteworthy. "If the Earth is completely covered by one tree or one animal, then there will be no room for the reproduction of animals and trees, and for the growth of trees," said the scholar[7].

The classification of medicinal plants is also given in Beruni's work "Pharmacology in Nature". Beraniy laid the foundation for the history of natural science with his works.

Abu Abbas al-Farghani. Astronomer, geographer, one of the founders of mathematics and spherical geometry, a great thinker scientist who led the construction of observatories in Baghdad and Damascus, predicted solar eclipses, scientifically proved that the earth is spherical, calculated the length of the meridian, made an instrument for measuring the water of the Nile River.

Abu Ali ibn Sina (980-1037 AD). The great scholar Abu Ali Ibn Sina, who made a great contribution to the development of world scientific thinking, left a huge scientific legacy. Along with the deep study of the works of Eastern thinkers who passed before him, he diligently studied the ancient Greek medical-scientific and philosophical heritage, in particular, the works of Aristotle, Ptolemy, Galen, Hippocrates, Pythagoras. Ibn Sina's book "Kitab al-qanun fittib" (Laws of Medicine) consists of five large books and was published in its entirety in Russian and Uzbek in 1956 and 1962. These books describe the theoretical sciences of medicine, such as human anatomy, physiology, and hygiene, as well as internal diseases, surgery, pharmacology, and infectious diseases. For 600 years, this book has been the main reference for doctors all over the world, and much of the information in it is still relevant today. It has been reprinted 36 times. Ibn Sina pointed out that polluted water and air play a big role in the origin and spread of various infectious diseases, and recommended boiling or filtering water to consume. He expressed his opinion 800 years before L. Pasteur about various natural objects in the external environment, invisible "small animals" that spread diseases through air and water, i.e. microbes. He expressed his views about the need to follow the rules of external protection, personal and social hygiene in the prevention of diseases 1000 years ago[8].

Abu Nasr al-Farabi (873-950). Abu Nasr ibn Uzlug ibn Tarkhan Farabi was born in 873 in the family of a servant in Farab, which is located in the north-west of Tashkent, later became famous in history as Otrar. Farobi was a great medical theoretician of his time. He created dozens of scientific works in this field. The total number of his works is more than 160, and they cover the fields of astronomy, philosophy, history, logic, psychology, music, natural history, medicine, and chemistry.

Farabi's works on natural science are of special importance, they extensively covered human and animal body parts, similarities of their activities, and a number of other scientific aspects.

Farabi showed that the human body and its activities consist of a whole and integrated system, and that diseases are mainly related to eating disorders.

Farabi laid a scientific foundation for the development of the primary and secondary signal system, which is the fundamental basis of the science of physiology, 1000 years before the European scientists, in particular, the Russian physiologist I.M. Sechenov. In his works, Farabi was the first in the world to describe the natural (without human intervention) plant and animal species, as well as the artificial (man-made) species emergence, and he discussed this issue 1000 years before Charles Darwin. had decided.

In conclusion, it can be said that in the development of aesthetic education among primary school students, it is reflected in the ability to apply the knowledge, skills and qualifications acquired by Eastern thinkers on the role of spiritual heritage at a high level in practice. One of the main directions of the development of the education system in modern society is the organization of purposeful and independent activities of a person in various fields. Therefore, it will be possible to achieve more effective results in education by paying special attention to the motivational, social, informative-content, active, didactic factors of the formation of aesthetic education in elementary school students.

REFERENCES:

1. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNI ESTETIK QARASHLARINI O'STIRISHDA TABIATNING O'RNI. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 1, No. 2, pp. 27-34).
2. XX, P. M. (2022). The Importance of Developing the Spiritual Thinking and Capacity of Primary School Students. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 1(2), 6-12.
3. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI ESTETIK QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 1, No. 2, pp. 26-31).
4. Boymatovna, M. M. T. (2023). O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 30-33.

5. Qizi, T. M. K. (2023). ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ. ТА’ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 56-60.
6. Temirova Matluba Karim Qizi. (2022). 1-4-SINFDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 1(2), 179–185.
7. Norbutayev H.B. Knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.- P.1032-1040.
8. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASI VA UNING TAKTIK YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Nasriddinov Fazliddin Nasriddinovich

TDIU Mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi bosqichda soliq siyosatidagi keng ko'lamli o'zgarishlar va bugungi kunga qadar soliq siyosatidagi evolyutsion rivojlanish bosqichlariga chuqur to'xtalib o'tilgan. Xususan, soliq siyosatining samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqish jarayonida uning tarkibiy qismlari alohida tahlil qilingan va YaIM hamda soliq yuki ko'rsatkichlari ta'sir dinamikasi birgalikda o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq yuki, YaIM, soliq qarzi, soliq tushumi, soliqlarning elastiklik koeffitsienti.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan beri nisbatan qisqa tarixiy davr mobaynida jiddiy sinovlardan o'tdi, shakllanish va rivojlanishning bir qator bosqichlarini bosib o'tdi, jamiyatning barcha sohalarida ko'plab o'zgarishlar va keng ko'lamli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliq siyosati keskin o'zgarishlarga duch keldi va shu bilan soliq tizimining o'ziga ham, iqtisodiy jarayonlariga va umuman iqtisodiyotga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston soliq siyosatining evolyutsion rivojlanishining uch bosqichining retrospektiv tahlili eng og'ir iqtisodiy sharoitda va amalda noldan boshlab soliq siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirish mamlakatning to'laqonli va adekvat soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishga sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositalaridan biri bu soliq siyosati bo'lib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi har bir aniq davrda obyektiv ravishda paydo bo'lgan voqelikni hisobga olgan holda soliq sohasini takomillashtirishga qaratilgan davlat hukumat organlari va turli ekspert jamoalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muvofiqlashtirilgan va o'zaro bog'liq jarayoni natijasini o'zida namoyon etadi. Shu munosabat bilan soliq siyosatining samaradorligini, shartlarini baholash hamda soliq munosabatlarining murakkab va qarama-qarshi xususiyati tufayli ilmiy jamoatchilikda yagona uslubiy yondashuvning yo'qligi masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Davlat soliq siyosatining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning soliq siyosati bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilishda maxsus ishlab chiqilgan matematik, mantiqiy va statistik vositalarga tayanadigan iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash orqali baholanadi. Maqsadga yo'naltirilgan ushbu yondashuv soliq siyosati samaradorligini baholash mezon sifatida belgilangan maqsadlar va amaldagi natijalar o'rtasidagi tafovutlarni minimallashtirishga qaratilgan. Ushbu baholashda soliq siyosatining turli darajalardagi ta'siri, jumladan, makroiqtisodiy jarayonlar (makrodaraja), sohaga xos ta'sirlar (mezo-daraja), alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun natijalar (mikrodaraja) va asosiy parametrlarga erishish hisobga olinadi. soliq tizimi doirasida (ixtisoslashtirilgan yondashuv). Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu baholashlar ba'zan maqsadlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin, chunki soliq siyosati bir nuqtayi nazardan samarali va boshqa nuqtayi nazardan samarasiz deb hisoblanishi mumkin.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha **ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi**, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasi (alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlari bo'yicha);
- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat budjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;
- soliq risklarini kamaytirish;
- resurs yondashuvidan foydalanish hamda maqsadli yondashuv (olingan natijalarning rejalashtirilgan natijalarga nisbati) orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish;
- yig'ilgan soliqlarni boshqarish va minimal soliq xarajatlari bilan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishni ta'minlash uchun xarajatlar darajasi (tranzaksiya xarajatlari - mehnat, vaqt va boshqalar);
- investitsion jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligining o'zgarishi (shu jumladan iqtisodiyotda iste'mol va jamg'arish jarayonlariga ta'siri);
- innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ITTKI, "yashil iqtisodiyot" va boshqalar;
- jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarining mavjudligi va aholi farovonligining o'sishi sifati (shaxsiy daromad, yashash minimumining yetarililigi, shaxsiy daromadlarga soliq solishning adolatliligi va boshqalar.);

Ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlarni umumlashtirish mantiqiy mazmunining xususiyatlari asosida samaradorlik ko'rsatkichlarini muallif tomonidan guruhlarni shakllantirishga imkon berdi (2.5-jadvalga qarang).

2.5-jadval.

Soliq siyosati samaradorligini baholashning asosiy tarkibiy qismlari¹

Nomi	Ko'rsatkichning tavsifi
Fiskal tarkibiy qismi	Soliqlarning umumiy miqdorining YAIM (YAHM)dagi ulushi - soliq yuki darajasi dir. Soliq tushumlarining o'sishi, bevosita va bilvosita soliqlar nisbati. Soliq yig'ish darajasi. Soliq qarzi. Soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti. Soliqlarni hisoblash va to'lashning qulayligi darajasi (soliq xizmatlari, AKT, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish). Majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarish (soliq madaniyati) darajasi. Soliq to'lovchilarga davlat subsidiyalarini berish darajasi (imtiyozlar va preferensiyalar). Tadbirkorlik subyektlarining omon qolish darajasi.
Ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qism	Makroiqtisodiy va ijtimoiy parametrlar dinamikasi: - investitsiyalar va kapital qo'yilmalar hajmi; - YAIMga nisbatan budjet taqchilligi darajasi; - inflyatsiya darajasi; - ishsizlik darajasi; - ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini oshirish; - aholi farovonligi va daromadlarining o'sishi (shu jumladan barcha soliqlar to'langanidan keyin) va boshqalar.


Bu yerda shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, har qaysi mamlakatning soliq siyosatining samaradorligini baholash, bir tomondan, xalqaro miqyosida tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan ko'rsatkichlar (mezonlar)ga asoslansa, o'z navbatida milliy iqtisodiyotning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy ko'rsatkichlar (mezonlar)ga asolanib baholanadi. Biz quyida respublikamiz soliq siyosatining strategiyasida belgilab olingan taktik yo'nalishlar samaradorligini baholash uslubiyoti va unga asoslangan holda baholashni amalga oshiramiz, bunda o'zimizning ayrim mualliflik uslubiy yondashuvlarimizni ham keltirib o'tamiz.

Bunday ko'rsatkichlardan biri bu "Soliqlar umumiy miqdorining YAIM (YAHM)dagi ulushi - **soliq yuki darajasi**"dir.

Mustaqillikdan beri soliq siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayonida davlat budjetiga to'lovlarning haqiqiy tushumlari bo'yicha YAIMga soliq yuki ko'rsatkichlarining dinamikasi soliq stavkalarini uslubiy pasaytirish, bir qator soliqlarni bekor qilish, imtiyozlarni berish, maxsus soliqni joriy etish va soliq

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ma'muriyatining biznes jarayonlarini takomillashtirish hisobiga 3 baravar, ya'ni 70,5% dan 23,4% gacha kamaydi.



2.20-rasm. 1993-2022-yillarda soliq yukining pasayishi va YAIM o'sishi dinamikasi¹


Soliq yukini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi YAIMning 11,6 barobarga 6,9 mlrd.doll.dan 79,8 mlrd.doll.gacha o'sishiga hamda ushbu ko'rsatkichning sifat jihatidan yaxshilanishiga xizmat qildi. XVF ma'lumotlariga ko'ra, 1992-2021-yillarda O'zbekiston nominal YAIM qiymati 4,7 barobar oshgan, bu asosiy 16 ta hamkor davlatning xuddi shu ko'rsatkichiga nisbatan 12-o'ringa to'g'ri keladi. Shunday qilib, ushbu ko'rsatkichning o'sishi bo'yicha Xitoy birinchi o'rinda – 42,3 barobar, Ozarbayjon – 9,9 barobar va Qozog'iston – 8,6 barobar (1-ilovaga qarang).

Shu bilan birga, davlat budjetining soliq tushumlari 1991-yilda 18,2 mlrd.so'mdan 2022-yil oxiriga kelib kutilgan 209 030,1 mlrd.so'mgacha oshdi.

Keyingi muhim ko'rsatkichlardan biri bu – "Soliq tushumlarining o'sishi, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlarning nisbati" ko'rsatkichidir.

Soliq siyosatining vositalaridan biri bo'lgan budjetning soliq tushumlari tarkibi ikkilamchi multiplikativ ta'sirlarning namoyon bo'lish lagni hisobga olgan holda makroiqtisodiy talabni tartibga solish uchun o'rnatilgan stabilizatorlardan foydalanishga asoslangan. O'zbekiston budjeti daromadlari tarkibida 2022-yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning ulushi qariyb 30,8 foizni, bilvosita soliqlar – 35,2 foizni, resurs soliqlari – 11,5 foizni va boshqa soliqlar – 22,4 foizni tashkil etdi.

¹ Moliya vazirligi va Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



2.21-rasm. 1993-2022-yillarda soliq daromadlari tarkibi dinamikasi¹.

Soliqlarning ulushini tuzatish davlatga tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste'molchilarining daromadlari yoki xarajatlari o'sishini rag'batlantirish, ya'ni bilvosita soliqlarning hissalarini tufayli makroiqtisodiy talab va inflyatsiya sur'atlarini tartibga solish imkonini beradi. Shunday qilib, ba'zi yillarda, to'g'ridan-to'g'ri soliqlar ulushi 1995-yilda 38,6%dan 2018-yilda 19,5% gacha, bilvosita soliqlar - 1991-yilda 33,5%dan 2003-yilda 57,8%gacha, resurs soliqlari - 1992-yilda 0,6%dan 2006-yilda 17,4 %gacha tebranib turgan.

“Soliqlarni yig'ish darajasi” ko'rsatkichi.

Soliq daromadlarini safarbar qilish va soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat soliq xizmatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Beqarorlik davrida bu masalaning dolzarbligi yanada oshadi. Ilmiy hamjamiyatda umume'tirof etilgan soliq yig'ish darajasini baholashning umumlashtirilgan yondashuvi soliq ma'muriyati samaradorligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, chunki u bir xil soliq bazasidan budjetga soliq to'lovlarini olib qo'yishning haqiqiy va potensial darajasi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Hisobot moliya yili uchun soliq qarzi (kamomadi) o'sishini hisobga olish asosida soliq yig'ish darajasini hisoblash quyidagi metodika bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

$$U_{sn} = S_{fnp} / (S_{fnp} + P_{nz} + P_{pn}), \text{ bu yerda:}$$

S_{fnp} – haqiqiy soliq tushumlari miqdori, mlrd.so'm;

P_{nz} – soliq qarzi (kamomadi) oshishi, mlrd.so'm;

P_{pn} – soliqlarning ortiqcha miqdorining oshishi, mlrd.so'm.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliqlarning yig'ilish darajasi ancha yuqori darajada saqlanib qolmoqda, uning o'rtacha qiymati 2016-2022-yillarda

¹ Moliya vazirligi va Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

99,8% ni tashkil etadi va 2017-yilda minimal qiymat 90,8 %dan 2022 yilda maksimal 101,7% gacha tebranib turgan.

2.6-jadval.

2016-2022-yillarda soliqlarning yig‘ilish darajasining dinamikasi¹


(mlrd so‘mda)

t/r	Ko‘rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
1.	Davlat budjetiga haqiqatda tushgan	32 015,5	37 750,9	54 202,8	83 356,3	103 566,4	127970,4
2.	Soliq qarzi oshishi miqdori	162,1	3298,7	-1141,1	-1572,2	739,0	1218,0
3.	Soliqlarning ortiqcha miqdorining oshishi	69,9	527,4	1 030,0	1 337,6	3 308,4	-3 377,8
4.	Soliqlarni yig‘ish darajasi %da	99,3	90,8	100,2	100,3	96,2	101,7

Soliqlarni yig‘ishning yuqori darajasini saqlab qolishning ijobiy tendensiyasi, soliq qarzi darajasini pasaytirishga qaratilgan soliq siyosati, shu jumladan Prezidentning 09.09.2022-yildagi “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”gi PF-218-sonli Farmoni doirasidagi chora-tadbirlari majmui amalga oshirilganligi, shuningdek soliq sohasini isloh qilish jarayonida biznes uchun qulay shart-sharoitlari yaratilganligi natijasi hisoblanadi.

“Soliq qarzi” ko‘rsatkichi. Davlat budjeti daromad qismining daromadini shakllantirish masalalari eng dolzarb bo‘lib qolmoqda. Budjetni shakllantirishning asosiy manbai soliq tushumlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan soliq to‘lovchilarning soliq va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarmaganligi ularning soliq qarzi shakllanishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan, ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi sifatida e’tirof etiladi.

¹ DSQ ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.



2.22-rasm. 2017-2022-yillarda soliq qarzlari va haqiqiy soliq tushumlarining o'sish dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, foizlarda)¹

2017-2022-yillarda soliq qarzi va haqiqiy soliq tushumlari o'sishining umumiy ko'rsatkichlari dinamikasining qiyosiy tahlili 2016-yilda boshlangan soliq tizimini isloh qilish bo'yicha soliq siyosati choralari amalga oshirishi bilan soliq tushumlari o'sishi ko'rsatkichlarining sezilarli darajada ko'payganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil qilingan davrda soliq qarzlari to'lash bo'yicha soliq siyosati choralari natijalarini qoniqarli deb hisoblash mumkin.

Biroq, yillik ko'rsatkichlarning kuzatilgan yuqori o'zgaruvchanligi tartibga solish va soliq qarzi kamayishi masalalarida tizimli yondashuvlar yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

"Soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti" ko'rsatkichi. Soliq siyosati samaradorligini baholashning muhim tahliliy ko'rsatkichlaridan biri bu "soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti" bo'lib, u iqtisodiy ko'rsatkich (YAIM)ning bir bandga o'zgarganda soliq tushumlari qanday o'zgarishini ko'rsatadi, bu erkli (U – haqiqatda to'langan soliqlar) va omilli ($X - YAIM$) qiymatlari oshishi tezligini nisbatini quyidagi formulaga muvofiq aniqlash lozim deb hisoblaymiz:

$$E = ((Y_1 - Y_0) / Y_0) / ((X_1 - X_0) / X_0), \text{ bu yerda}$$

E - elastiklik koeffitsiyenti,


U – haqiqatda to'langan soliqlar, mlrd.so'mda,

X – YAIM, mlrd.so'mda.

¹ DSQ ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

Agar olingan elastiklik koeffitsiyentining moduli 1 dan katta bo'lsa ($Ye > 1$), bu funksiya elastik ekanligini ko'rsatadi, ya'ni soliq tushumlari YAIM o'sishiga qaraganda tezroq o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, yangi soliq siyosati boshlanishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan keng ko'lamli islohotlar doirasida, bu soliq siyosatining sifati va samaradorligini baholash uchun bir qator yangi va ilgari foydalanilmagan vositalarni amaliyotga joriy etish uchun turtki bo'ldi. Elastiklik koeffitsiyenti dinamikasining retrospektiv tahlili 2016-yilda boshlangan yangi soliq siyosati boshlanishi bilan uning qiymatining sezilarli o'zgarishini ko'rsatadi.



2.23-rasm. 2017-2022-yillarda soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti dinamikasi¹.

Shunday qilib, islohotlarning dastlabki bosqichida elastiklik koeffitsiyentining qiymati 1 (0,76) dan kam edi, bu soliq tizimining passiv rolini anglatadi, buning natijasida soliq tushumlari YAIM o'sishidan past sur'atlarda o'sdi. 2018-yildan boshlab koeffitsiyentning o'rtacha qiymati doimiy ravishda 1 dan oshdi, bu soliq siyosatining faol rolini ko'rsatadi, buning natijasida soliq tushumlari YAIM o'sishiga qaraganda yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yil oxiriga ko'ra soliqlarning elastiklik koeffitsiyentining qiymati ham birdan ortiq bo'ladi va 1,05 ni tashkil qiladi.

“Soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish darajasi(soliq madaniyati darajasi)” ko'rsatkichi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarida, soliq majburiyatlarini bajarish shaklida biznes javobgarligida ifodalangan davlat, soliq organlari, jamiyatning o'zaro munosabatlarida ijtimoiy

¹ Muallif tomonidan Moliya vazirligi va DSQ ma'lumotlari asosida tuzilgan.

javobgarlikning ajralmas qismi bo'lgan soliq madaniyatini oshirish zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda umummilliy madaniyatning bir qismi bilan bog'liq bo'lgan "soliq madaniyati" atamasining juda keng talqini mavjud bo'lib, u soliq munosabatlari ishtirokchilarining faoliyati, bilim darajasi va soliq qonunchiligiga vijdonan rioya qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalar soliq to'lovchilarga qulay raqamli xizmatlarni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochdi, bu soliq munosabatlari ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini sezilarli darajada soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish, hisobotdagi xatolarni kamaytirish, shuningdek, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soyalardan chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитасининг ахборотномаси.
2. <http://www.Soloq.uz>-(Давлат солиқ қўмитаси сайти)
3. <http://www.mf.uz>- (Молия вазирлиги сайти)
4. <http://www.stat.uz>-(Давлат статистика қўмитаси сайти)
5. <https://www.sciencedirect.com>
6. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – бизнес юритиш лойиҳаси).
7. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – бир нечта манбалардан тузилган батафсил мамлакат статистикаси, диаграммалар ва хариталарни ўз ичига олган сайт).
8. <https://taxfoundation.org> – (Солиқ фонди – Вашингтондаги таҳлил маркази).
9. <https://www.nalog.gov.ru> – (Россия Федерациясининг Федерал солиқ хизмати).
10. <https://davreestr.uz> – (Кўчмас мулк объектларига бўлган ҳуқуқларнинг давлат реестри).
11. <https://kadastr.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги сайти).

O‘ZBEK TILIDAGI KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLARNI FRANSUZ TILIGA TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI

Kuvondikova Gavhar Isomiddinovna

O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi
amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

To‘rayeva Shahina

O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ko‘chma ma’no tushunchasi haqida fikr yuritilib, so‘zlarning ko‘chish usullari yoritib berilgan. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi har bir tilga xosligi inobatga olinib, ko‘chma ma’noli so‘zlarni fransuz tiliga tarjima masalasiga alohida to‘xtalgan va tarjima jarayonida bir nech ausullar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chma ma’no, metafora, metonimiya, uslubiyat, badiiy tarjima, birikma.

ABSTRACT

This article discusses the concept of portable meaning and explains how words move. Taking into account the peculiarities of the use of words in the figurative sense of each language, the issue of translating words with a figurative meaning into French was discussed separately, and several methods were considered in the process of translation.

Keywords: figurative meaning, metaphor, metonymy, methodology, literary translation, combination.

So‘nggi yillarda fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan bir qatorda o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilishga alohida e’tibor berila boshlandi. Bu o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi hamda tilga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, shuningdek, bevosita tarjimaga katta ahamiyat berilishi bilan izohlanadi.

Tilshunoslikda so‘zlarning ko‘chma ma’nosi uning leksikologiya va stilistika bo‘limlarida fanning maxsus ob’yekti sifatida o‘rganiladi. O‘z ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarni tarjima qilish muayyan muommolar yaratadi. Agar bu muommolar sirasiga ko‘chma ma’noli so‘zlarni tarjima qilishni kiritsak, ularni tarjima qo‘ilishdagi qiyinchiliklar darajasi bir necha marta ortib ketadi.

Ko'chma ma'noli so'zlarni tarjima qilish masalasiga to'xtalishdan oldin "ko'chma ma'no" tushunchasi nimani anglatishi va uning turlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlilga tortilgan ko'chma ma'no tushunchasi tilshunoslikda keng qo'llaniladigan til hodisasi hisoblanadi. Leksikologiyada so'zlarning ko'chma ma'nosi semantik o'zgarishlar munosabati bilan o'rganiladi. So'zlarning assosativ munosabatlarga asoslangan va ko'chma ma'noda qo'llanadigan so'zlar sirasiga metofora va metonimiya kiradi kiradi. Stilistikada esa bunday so'zlar sirasiga metofora, metonimiya, sinekdoxa va funksional ko'chish kiradi. Bunday so'zlarning kontekstda lug'atda qayd etilmagan qo'shimcha leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni kontekstual ma'nolari hisobga olinadi. So'zning kontekstual ma'nosi uning lug'aviy ma'nosidan shunchalik uzoqlashib ketadiki, natijada u so'zning birinchi ma'nosiga butunlay zid keladigan ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ayni mana shu holatda biz so'zning ko'chma ma'nosiga duch kelamiz.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ko'pincha boshqa "semantik maydon" ga o'tadi. Ko'p ma'noli so'zlarning har bir ma'nosi boshqa so'zlarning ma'nolari bilan aloqaga chiqadi. So'zlar bir-biriga o'xshashligi, yaqinligi va nutq vaziyatida (kontekstda) ishlatilishiga ko'ra ma'nolarini o'zgartirishi mumkin. So'zning ko'chma ma'nolarda ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So'z ma'nosining ko'chish usuli to'rt xil bo'ladi: metofora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chish.

Ko'chma ma'no ikki leksik ma'noning, ya'ni so'zning lug'aviy va kontekstual ma'nolarining o'zaro munosabatlari natijasida paydo bo'ladigan hodisa hisoblanadi. So'zlar turli xil ma'nolarga ega bo'ladi. O'zbek tili leksikasida ekspressiv-emotsional rangdorlik bilan bogliq bo'lgan so'zlar ko'p. So'zlarning ekspressiv-emotsional ma'no xususiyatida kontekstda reallashadi. Kontekstual ma'no muayyan darajada so'zning lug'aviy ma'nosiga asoslanadi. So'zning bu ma'nolarining o'rtasidagi aloqaning uzoqlashishi so'zning mantiqiy ma'nosidagi o'zgarishga ham sabab bo'lishi mumkin. So'z ma'nosining bu tariqa o'zgarishi stilistik usulning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, ya'ni so'z stilistik ma'noga ega bo'lishi uchun uning ikkita ma'nosi bir paytning o'zida o'zaro munosabatda bo'lishini taqazo etadi. So'zlarning ko'chma ma'nolari yozma yoki og'zaki nutqda qanchalik ko'p qo'llansa, ular shunchalik ma'lum bo'ladi va ular lug'atlarga kiritiladi. Lug'atlarda qayd etilgan ko'chma ma'noga asoslangan so'zlar til boyligiga aylanadi, biroq ularning nutqda qayta-qayta ishlatilishi ularning ma'nolarini sayqallanishiga olib keladi va ular yorqin va ifodali leksik stilistik usullari siarsidan chiqib, oddiy so'zlarga aylanib qolishi mumkin. Ikkinchi turdagi ko'chma ma'noga asoslangan leksik stilistik usullar birinchidan, birinchidan, lug'atda qayd etilmaganligidan, ikkinchidan faqat muayyan mualliflar asarlarida, tilida qo'llanishi bois ular ifodali, ekspressiv va yorqin stilistik usul sifatida qabul qilinadi. Ko'chma ma'noli so'zlarni o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilish

haqida gap borganda, o'zbek tili ko'chma ma'noli so'zlarga boyligini alohida qayd etish lozim. Ko'chma ma'noli so'zlarning yuqorida tilga olib o'tilgan turlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hamda vazifalarini hisobga olish bunday so'zlarni tarjima qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zlarning ko'chma ma'nosi asosan badiiy tarjima hamda publisistikada keng qo'llaniladi. Badiiy asarlardagi ko'chma ma'noli so'zlarni, amaliyotning ko'rsatishicha, tarjima qilishning bir necha usuli mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ko'chma ma'noli so'z bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ko'chma ma'noga ega bo'lmagan so'z bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjiamda so'z birikmasi bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada frezeologik birikma bilan berish (bunda frazeologik birikmani tashkil etuvchi so'zlardan biri yoki hammasi ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin);

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ekvivalenti bilan berish;

Endi misollarga murojaat qilamiz. O'zbek tilida yuqorida aytib o'tkanimizdek, deyarli har bir so'zni ko'chma ma'noda qo'llash imkoniyati mavjud. Masalan, o'zbek tilidagi ko'chma ma'noga ega bo'lgan quyidagi leksik birlikning tarjimasini ko'rib chiqsak.

O'zbek tilidagi "U mening ko'zimning oq-u qorasi" gapida "oq-u qora" birikmasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan, chunki birikmadagi har bir so'z o'z ma'nosida faqat muayyan, ya'ni "oq" va "qora" ranglarni ifodalaydi.

Yuqoridagi gapni fransuz tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, gapning ma'nosi buziladi va gap tarjimasini g'aliz bo'ladi. Mavjud o'zbekcha- inglizcha lug'atda "oq" so'zining "blanc" "qora" so'zining "noir" ma'nolarini topamiz. Fransuz tilida mazkur ranglar ko'chma ma'noda qo'llanadi, biroq ularning ma'nosi o'zbek tilidagi "oq-u qorasi" birikmasining mazmunini bermaydi. Tajribadan ma'lumki, o'zbek tilidagi "ko'zimning oq-u qorasi" fransuz tilida "La lumière de mes yeux." iborasi bilan tog'ri keladi. Bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, "Ko'zlardagi yorug'lik" iborasi paydo bo'ladi. Bunday ibora o'zbek tiliga xos bo'lgan "ko'zining oq-u qorasi" birikmasiga ekvivalent bo'lolmaydi.

Shuning uchun o'zbek tilidagi "ko'zimning oq-u qorasi" iborasini fransuz tiliga

"La lumière de mes yeux." deb tarjima qilish uslubga, gapning mazmuniga va o'zbekcha iboraning ekvivalentiga to'g'ri keladi. Bu yerda har bir tilning o'ziga xos xususiyati yaqqol ko'rinib turibdi. O'zbeklar uchun ko'zning oqligi va qoraligi muhim bo'lsa, fransuz uchun uning olmaga o'xshab dumaloqligi alohida ahamiyatga ega

hisoblanadi. Soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi universal harakterga ega boʻlishi bilan bir qatorda uning qoʻllanishi oʻziga xos xususiyatga ega boʻlishi mumkin.

Keyingi misoldagi leksik birlikni tahlil qilaylik. “Maqolaning koʻpigi koʻp”. Mazkur gapda tarjimon eʼtiborini tartadigan va koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz “koʻpik” dir. Bu gapdagi “koʻpik ” soʻzini fransuz tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish soʻz ,maʼnosini toʻliq berish imkonini bermaydi, chunki ushbu soʻz oʻz maʼnosiga ega emas, balki koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Buni fransuz tiliga tarjima qilgan gapimizni oʻzbek tiliga , yaʼni teskari tarjima orqali aniqlashimiz mumkin. Il y a beaucoup de mousse dans l’article yoki Il y a l’article contenir beaucoup mousse. Oʻzbekcha gapning ikkalasida ham “koʻpik” soʻzining tarjimasini talabga javob bermaydi.

Demak fransuz tilida oʻzbek tilidagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan “koʻpik” soʻzining ekvivalentini topish lozim. Fransuz tilida bu maʼnoda “eau” soʻzi oʻzbek tilidagi “koʻpik” soʻziga mos keladi. Shunday qilib, oʻzbek tilidagi gapni fransuz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq boʻladi: “The article contains much eau”.

Tarjimada soʻzlarning turli xususiyatlari inobatga olinishi lozim va soʻzlar koʻchma maʼnolarining berilishi matn mazmunining toʻgʻri berilishi hamda tarjima sifatining yuqori boʻlishini taʼminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7. B-52
2. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68. B-177.
3. Begmatov E.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan 1985. B-98.
4. Galperin I.R. stylistics. Moscow: High School, 2003. B-197.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGILIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Qurbanova Ziyodaxon Komiljon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Insituti 1-bosqich magistranti

E-mail: ziyodaxonqurbanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Davlat ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga bugungi kunda, ingliz tili fanining o'qitish metodikasi o'zgarib turibdi va o'qituvchilar o'quvchilarni qiziqtirish, o'zlarining ma'lumotlarini oshirish va o'zlashtirish uchun multimedia vositalaridan foydalanishadi. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, axborot texnologiyasi, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o'qituvchi, ovozlari.

USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY CLASS STUDENTS

Kurbanova Ziyodakhan

Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: ziyodakhanqurbanova@gmail.com

ABSTRACT

Today, the teaching methodology of English language is changing for primary school students of public educational institutions, and teachers use multimedia to interest students, increase their knowledge and master them. they use tools. In this article, you can learn about meaningful and interesting ways to teach English to children.

Keywords: elementary school, English, children, teaching, fun, song, activities, explanation, information technology, quick and easy, young children, mental, physical, teacher, voices.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Курбанова Зиёдахан

Наманганский государственный педагогический институт

E-mail: ziyodakhanqurbanova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Сегодня методика преподавания английского языка для учащихся младших классов государственных образовательных учреждений меняется, и для того, чтобы заинтересовать учащихся, повысить их знания и освоить их, преподаватели используют мультимедиа, используют инструменты. В этой статье вы узнаете о содержательных и интересных способах преподавания английского языка детям.

Ключевые слова: начальная школа, английский язык, дети, обучение, веселье, песня, занятия, объяснение, информационные технологии, быстро и легко, дети младшего возраста, умственные, физические, учитель, голоса.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili savodxonligini oshirishda multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha ko'plab adabiyotlar mavjud. Bu adabiyotlar orqali, ingliz tili fanini o'quvchilarning tushunishini oshirishga yordam bersa-da, ular ingliz tili fanidan junatishga muhim hissa qoshadi. Quyidagi adabiyotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaxshi ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin:

1. Interfaol ta'lim: Ta'lim veb-saytlari, interaktiv dasturiy ta'minot va o'quv ilovalari kabi axborot texnologiyalari vositalari talabalar uchun qiziqarli va chuqur o'rganish tajribasini taqdim etadi. Ular ingliz tilini o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladigan multimedia kontenti, interaktiv o'yinlar va viktorinalardan foydalanishlari mumkin.

2. Onlayn manbalar: Internet ingliz tilini o'rgatish uchun ko'plab resurslarni, jumladan, onlayn lug'atlar, grammatik qo'llanmalar, o'qish materiallari va audiovizual kontentni taklif etadi. O'qituvchilar ushbu manbalardan o'z darslarini to'ldirish, yangi lug'at bilan tanishtirish yoki qo'shimcha mashqlarni bajarish uchun foydalanishlari mumkin

3. Til o'rganish ilovalari: Duolingo yoki Rosetta Stone kabi ko'plab til o'rganish ilovalari mavjud bo'lib, ularni planshetlar yoki smartfonlarga yuklab olish mumkin. Ushbu ilovalar qiziqarli va interaktiv tarzda o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini mashq qilish uchun interaktiv platformani taqdim etadi.

4. Raqamli hikoyalar: Axborot texnologiyalari talabalarga hikoya qilish ilovalari, raqamli kitob yaratuvchilari yoki video tahrirlash dasturlari kabi vositalar yordamida raqamli hikoyalar yaratish imkonini beradi. Bu ularga ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga ingliz tilidagi ko'nikmalarini amalda qo'llashga yordam beradi.

TADVIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi. Amaliy mashg'ulotlar(mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, gullarni hidlab ko'rish); Bu jumlaning bir amaliyotchi psixologning fikrlari bilan izohlash mumkin: " Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnatilgan qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va, hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashirishga harakat qilishi kerak». Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta'mi shirin(tasty) yoki katta(big), kichik(small)shakli haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi. - imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O'qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), kitobni och(open the book), turing(stand up), doskaga qarang(look at the blackboard) kabi gaplarda imoishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan

foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o‘rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to‘g‘ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko‘plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyatallomaning dunyo ilm- fanini o‘rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo‘lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Til bilgan — el biladi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. John Adams || Analysis of retirement age in different countries of the world. London 2017.
2. —Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son)||Xalq so‘zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
3. J. Jalolov . —ingliz tilini o‘qitish metodlari|| —O‘qituvchil nashiryoti Toshkent To‘xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA’NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146
4. Yuldashev U.Yu. Boqiev R.R. Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. «Talqin» 2004.

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA SPAMNI ANIQLASH JARAYONI

Normatov Ibroximali Xolmamatovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti "Axborot hafsizligi"
kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori

Atajonov Muzaffar Ne'matjon o'g'li

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey aniq fanlar qism boshlig'i
E-mail: muzaffar19910627@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sun'iy intellektni machine learning (mashinani o'rganish) usuli yordamida ma'lumotlarni spamdan himoya qilish jarayonlari keltirilgan bo'lib, shu bilan birga machine learning algoritmlari tahlil qilingan. Maqola so'nggida machine learning yordamida spamlarni aniqlashning bir necha usullaridan namunalar keltirilgan hamda ularni taqqoslab baholangan.


Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, machine learning, preprocessing, model choice, decision trees, random forests, support vector machines, neural networks.

KIRISH

Bugungi kunda kelib barcha soxalarda sun'iy intellektga bo'lgan talab ortib bormoqda. Sun'iy intellekt fan va texnika, qishloq ho'jaligi va boshqa barcha fan atrmoqlarida actual yo'nalishlardan biri bo'lib, IT tarmoqlarining barcha murakkab tizimdagi masalalarni ochib berishda, jumladan sun'iy intellekt yordamida davlat va jamiyatning standart ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Aktual masalalrdan kelib chiqqan holda ushbu maqolada sun'iy intellekt yordamida spamlarni aniqlash hamda ma'lumotlarni spamlardan himoyalash jarayonlari keltirilgan.

ASOSIY QISM

Uchta atamani qaraymiz. Bular mashinali o'rganish ya'ni machine learning (ML), sun'iy intellekt ya'ni artificial intelligence (SI) va chuqur o'rganish ya'ni deep learning (DL). Bularni bir biridan farqini quyidagi Venn diagrammasi yordamida tushintiramiz:



1-rasm. MLni SI va DLdan farqi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki ML metodi sun‘iy intellektning bir qismi ekan. O‘z navbatida DL ham sun‘iy intellektni bir qismi va ML ni ham aynan bir qismi ekan.

Sun‘iy intellekt (SI) – hisoblash mashinalari (HM) ning insonlarga intellektli bo‘lib ko‘rinadigan narsalarni qilishiga imkon beradigan kontseptsiyalar haqidagi fan.

Mashinali o‘qitish – bu kompyuter uchun dasturlashtirilmagan narsalarni chiqarish yoki bajarish qobiliyati. Mashinali o‘qitish kelajak haqida bashorat qilishni ta’kidlasada, sun‘iy intellekt odatda qaror qabul qilish uchun kompyuterlarni dasturlashga e’tibor beradi. Agar siz odamga o‘xshash xatti-harakatlarni o‘z ichiga olgan aqlli dasturdan foydalansangiz, bu sun‘iy intellekt bo‘lishi mumkin. Biroq, agar parametrlar ma’lumotlardan avtomatik ravishda o‘rganilmasa (yoki olinmasa), bu mashinani o‘rganish emas.

Ma’lumotlarni qayta ishlashda ishlatiladigan elektron pochta spamini aniqlashning keng tarqalgan usullari:

1. Preprocessing: bu ma’lumotlarni tozalash va normallashtirish, to‘xtash so‘zlarini yo‘q qilish va ma’lumotlarning o‘lchovlilikini kamaytirish va modellarning aniqligini oshirish uchun so‘zlarni to‘xtatish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi.

2. Identifying and extracting pertinent elements: Ma’lumotlardan jo‘natuvchining elektron pochta manzili, mavzu satri va xabar mazmuni kabi tegishli elementlarni aniqlash va ajratib olish. Keyinchalik, ushbu atributlar yordamida mashinani o‘rganish modellarini o‘rgatish mumkin.

3. Model training (modelni o‘rgatish): Ushbu bosqichda decision trees (qaror daraxtlari), random forests (tasodifiy o‘rmonlar), support vector machines (qo‘llab-quvvatlovchi vektor mashinalari) yoki neural networks (neyron tarmoqlar) kabi mashinalarni o‘rganish modellari olingan xususiyatlardan foydalangan holda o‘qitiladi. Odatda, modellarni o‘rgatish uchun spam yoki haqiqiy deb tasniflangan elektron pochta xabarlarining katta ma’lumotlar to‘plamidan foydalaniladi.

4. Modelni baholash: Ushbu bosqichda trening davomida ishlatilmagan boshqa ma’lumotlar to‘plamidan etiketlangan elektron pochta xabarlarini o‘qitilgan

modellarning aniqligini sinash uchun ishlatiladi. Bu modellar elektron pochta xabarlarini haqiqiy yoki spam sifatida to‘g‘ri aniqlashiga ishonch hosil qiladi.

Umuman olganda, ma’lumotlarni qayta ishlash elektron pochta orqali spamni aniqlashning muhim bosqichidir, chunki bu aniqlikni yaratishga imkon beradi.

Quyidagi jadval orqali mavjud bo‘lgan ba’zi texnik va usullarni ko‘rsatamiz:

1-jadval.

Existing Techniques	Existing Methods
<ul style="list-style-type: none"> • <input type="checkbox"/> Syntactical • <input type="checkbox"/> ELM - Extreme Learning Machine • <input type="checkbox"/> SLFN - Single Hidden FeedForward Neural Networks • <input type="checkbox"/> SVM - Support Vector Machine • <input type="checkbox"/> BRR- Burst Review Ratio 	<ul style="list-style-type: none"> • <input type="checkbox"/> Texical • <input type="checkbox"/> Amalgam • <input type="checkbox"/> Stylometric • <input type="checkbox"/> N-grams model • <input type="checkbox"/> RAVP - Ratio of Amazon Verified Purchase • <input type="checkbox"/> RD - Rating Deviation • <input type="checkbox"/> RCS - Review Content Similarity

Spam tasnifiga kiruvchi xabarlar belgilari va xususiyatlarni topish uchun elektron pochta orqali spamni aniqlashda ma’lumotlarni yig‘ish elektron pochta xabarlariga ulangan ma’lumotlarni olish va tahlil qilish lozim. Yuboruvchining elektron pochta manzili, xabarning mazmuni, mavzu satri va har qanday havolalar yoki qo‘shimchalar ushbu ma’lumotlarga kiritilishi mumkin.

Mashinani o‘rganish algoritmlari nonspam spam-xabarlarini muvaffaqiyatli aniqlash uchun har bir xabar turining xususiyatlarini tushunish uchun spam va nonspam elektron pochta xabarlarining ulkan ma’lumotlar to‘plamida tez-tez o‘qitiladi. Ma’lumot yig‘ish jarayoni algoritmlarga spam va qonuniy elektron pochta xabarlarini aniqroq farqlash va yangi spam-strategiyalarga moslashish imkonini berganligi sababli, spamni aniq va muvaffaqiyatli aniqlash tizimlarini yaratish juda muhimdir.

Sun‘iy intellekt va mashinani o‘rganish (Machine learning) yordamida elektron pochta orqali spamni aniqlash modelini tayyorlashda odatda quyidagi qadamlar ishtirok etadi:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash (Data gathering and preparation): modelni o‘rgatish uchun spam va qonuniy elektron pochta xabarlarining katta va xilma-xil ma’lumotlar to‘plami talab qilinadi. Ma’lumotlar to‘plami yig‘ilgandan so‘ng, begona yoki ortiqcha ma’lumotlardan xalos bo‘lish uchun uni tozalash va qayta ishlash kerak bo‘lishi mumkin.

2. **Xususiyatlarni ajratib olish (Feature extraction):** ma'lumotlar to'plangan va tayyorlangandan so'ng, modelni o'rgatish uchun ishlatiladigan xususiyatlar har bir elektron pochta olinishi kerak. Bunga jo'natuvchining elektron pochta manzili, xabarning mazmuni va mavzu satri, xabarning asosiy qismi va birlashtirilgan har qanday fayl yoki havolalar kabi ma'lumotlar kirishi mumkin.

3. **Model tanlovi (Model choice):** elektron pochta spamini aniqlash uchun qaror daraxtlari (decision trees), tasodifiy o'rmonlar (random forests), qo'llab-quvvatlovchi vektorli mashinalar (support vector machines) yoki neyron tarmoqlar (neural networks) kabi turli xil mashinalarni o'rganish usullari va modellaridan foydalanish mumkin. Shaxsiy loyiha ehtiyojlari va ma'lumotlar to'plamining xususiyatlari qaysi model ishlatilishini aniqlaydi.

4. **Namunaviy trening (Model training):** elektron pochtalardan olingan xususiyatlarning etiketli ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, tanlangan model keyinchalik o'qitiladi. Maqsad yangi, ko'rinmaydigan elektron pochta xabarlarini spam yoki qonuniy deb ajratish uchun modelni aniq o'rgatishdir.

5. **Modelni baholash (Model evaluation):** model o'qitilgandan so'ng, uning qanchalik yaxshi ishlashi va qanchalik aniqligini ko'rish uchun uni baholash kerak.

Natija va xulosa: Endi baholash parametrlarini o'rganamiz. Bular quyidagicha bo'ladi:

True Negative Rate = True Negative / True Negative + False Positive

False Negative Rate = False Negative / False Negative + True Positive

False Positive Rate = False Positive / False Positive + True Negative.

Precision Formula: True Positive / True Positive + False Positive

Recall Formula: True Positive / True Positive + False Negative

F- Measure Formula = Precision.Recall / Precision + Recall

Accuracy Formula (aniqlik formulasi) = True Positive Rate + True Negative Rate / True Positive Rate + True Negative Rate False Positive Rate + False Negative Rate.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. **T.A. Xo'jaqulov, N.T.Malikova** «Sun'iy intellekt». Toshkent-2019. 4-8 betlar.
2. **I.N.Normatov, M.N.Atajonov** «Logistik regressiya usuli yordamida spam xabarlarini aniqlash». Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati nomli ilmiy konferensiya, Guliston, 2022-yil.
3. **Dr. P.Selvarani, A. Kanagalashmi, M. Keerthika** «**A survey of email spam detection using artificial intelligence**». Journal of Emerging Technologies and Innovative Research, 2023-yil.
4. **M.N.Atajonov**, «Machine learning metodi yordamida elektron pochta spamni aniqlash». O'zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi, Toshkent, 2022-yil.
5. www.ziyonet.uz

INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI XATOLAR VA TIL O'QITISHDAGI SAMARALI ZAMONAVIY USULLAR

Xayitova Nilufar Murodillo qizi

O'ZDJTU tarjimonlik fakulteti, 1-kurs magistiri

E-mail: khayitvanilufar@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi yoshlarning chet tili o'rganishdagi asosiy xatolari, shu bilan birgalikda ingliz tilini samarali o'rgatishdagi zamonaviy metodlari hamda qo'llaniladigan ba'zi ta'lim texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Chet tili, ingliz tili, metod, tilni qiyoslab o'rganish, interaktiv metodlar, kreativlik, ta'lim texnologiyalari, kommunikativ metod.

АННОТАЦИЯ

В этой статье указаны наиболее распространенные ошибки при изучении английского языка среди нынешних учащихся и наиболее эффективный способ его преподавания с помощью современных методов. Дополнительно дается информация об образовательных технологиях.

Ключевые слова: иностранный язык, английский язык, метод, изучение языка методом сравнения, интерактивный метод, творчество, образовательные технологии, коммуникативный метод.

ABSTRACT

This article indicates the most common mistakes of learning English among current learners and the most efficient way of teaching through modern methods. Additionally, it gives information about educational technologies.

Keywords: foreign language, English, method, learning a language by comparison, interactive method, creativity, educational technologies, communicative method.

21-asrga kelib ingliz tilining ahamiyati har qachongidanda o'sdi. Insonlarda til o'rganish uchun turli sabablar bo'lib, ulardan eng keng tarqalgani biznes hamkorlik, sayohat, yaxshi ish faoliyatini yo'lga qo'yish va chet davlatlarida istiqomat qilish va tahsil olishdir. Shu sababli ko'pchilik til o'rganuvchilar oson va tez usullarga aldanib turli muammolarga duch kelmoqdalar. ulardan eng keng tarqalgani ingliz tili gramatikasiga ko'p e'tibor qaratishdir. Shubhasiz, gramatika ingliz tilida so'z

yasalishida muhim hisoblanadi, ammo shu bilan bir qatorda o'rganuvchilar tilni emas, ko'proq terminlarga ahamiyat berib, turli anglashmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Eng asosiy muammolardan yana biri bu ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi sababli, gramatik so'z tuzishdagi ega, kesim, to'ldiruvchining o'rni boshqa tilda mos kelmasligidir. Afsuski, "grammar-translation" metodidan ya'ni matnni o'qib uni faqat tarjima qilish usulidan O'zbekistonda 90-yillarda keng foydalanilgan va afsuski hozirda hali ham ba'zi o'rganuvchilar bu xatoni qilishmoqda. Mening fikrimcha zamonaviy qo'shiqlardan tilni o'rganish ham aynan tilni sayoz va samarasiz o'rganishdagi xatolik hisoblanadi, chunki qo'shiqlarda ohangni moslash uchun talaffuz va gramatik meyorlar buziladi masalan: "I am love you yoki I is" kabilar, bu esa tilni noto'g'ri usullarda o'rganishga sabab bo'lmoqda. Til o'rganishda yangi so'zlar muhimdir, ammo ularni passiv holda yodlash kutilgan natija bermaydi, samarali usulda esa ularni "context" bilan ya'ni matnda birgalikda yodlash samaraliroq masalan :cheeks emas, chubby cheeks ya'ni so'z birikma holda yodlash ularni aktiv holda qo'llashda yordam beradi. Zamon rivojlangani sayin ingliz tilini o'rgatadigan ilovalar ham ko'paymoqda, ammo bu qulay bo'lishi bilan bir qatorda boshlang'ich til o'rganuvchilari uchun biroz samarasizdir, chunki ularda haqiqiy va noto'g'ri ma'lumotni ajratish qobiliyati yetishmasligi mumkin. Eng keng tarqalgan xatolardan biri bu o'rganuvchilarning 'google translater' ga ya'ni online tarjima vositalariga bog'lanib qolishganidir, mening fikrimcha, bu insonlarning ingliz tilida fikrlash va kreativlik qobiliyatini so'nishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi asosiy xatolarni qilmaslik uchun albatta tilni o'rgatishdagi murabbiylar uchun asosiy samarali usullar ham mavjud. 1970-1980- yillarda "total physical response", "the silent way", "suggestopedia" va "community language learning" kabilar samarali usul sifatida paydo bo'ldi. O'sha yillarda bu metodlar bo'lmagani sababli, kichik to'g'irlanish zarur edi.¹ Hozirgi kunda ham bu metodlarga ta'lab yuqori.

1. The silent way.

Bu usul nomidan ma'lumki, tinch o'qitish usuli hisoblanadi, u Caleb Gattegno tomonidan 1963-yilda yaratilgan. Mazkur yangi metod o'sha davrlardagi o'qitish usullarining eng yaxshi muqobili edi.² Bu metodning samaradorligi shundaki, ustozlar dars davomida jim bo'lib, ko'proq o'rganuvchilar gapirishi, o'z xulosalarini bera olishi va o'zlari bilim olishlari uchun bor kuchlarini ishlata olishlariga qaratilgan. Ular xato qilgan holatda, ustoz bu xatoligini bildirishi uchun turli imo ishoralardan foydalanishi mumkin.

¹ Richards and Rodgers. Approaches and Methods in language Teaching, Cambridge university press-2001. Page 7.

² Caleb Gattegno . Teaching Foreign Languages in schools, Educational Solutions -1986. Page 104.

2. Suggestopedia.

Bu chet tili o'qitishdagi keyingi samarali usullardan biridir. Ko'pchilik til o'rganuvchilarda ruhiy zo'riqish, uyat va ustoz hamda omma oldida so'zga chiqish, nutq so'zlash, yangi so'zlarni talaffuz qilishdagi qo'rquvlar mavjud. Bularni oldini olishda bu usul juda foydalidir. Asosiy qoidalardan biri ustoz til o'rganuvchi bilan sherik bolishi, shu bilan birga o'yinlar va turli mashqlar bilan mavzuni o'zlashtirishga harakat qilishdir. Asosiy maqsad esa tilni zavq bilan yangicha jabhada o'rganishdir.

3. Community language learning.(CLL)

Bu usul jamoaviy qiziqishlarga bog'liqdir, bu yerdagi asosiy qoida ustoz mentorlik qilishi, talabalar esa asosiy suhbatdosh bo'lishi lozim. Bu metod o'rganuvchilarda ko'proq so'zlashuv qobiliyatini rivojlantirishga hamda ustoz va o'rganuvchi orasida ko'proq muloqot ta'sirini kuchaytiradi.

4. Total physical response.

Harakatlar bilan bog'liq bu usul asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida keng va samarali ishlatiladi. Metodga ko'ra ustoz biror so'zni ko'rsatish orqali bolalarga o'rgatishi lozim va bu bir xillikni oldini oladi deb o'ylayman. Masalan ustoz "I brush my teeth" deb harakatlar orqali tishini yuvayotganini ko'rsatishi kerak. Tabiiyki, yosh bolalarga harakatlar orqali bo'lgan har qanday holat qiziq bo'ladi va ingliz tilidagi yangi so'zlarni tez eslab qolishlarini ta'minlaydi.

5. The Audio-lingual method.

Til o'rganuvchilari bu usulga ko'ra tayyor ingliz tilidagi so'z birikmalarni, frazeologik birliklarni gapdagi misollar bilan hamda biror gramatik mavzudagi tilga tayyor misollarni yodlab olish orqali avtomatik o'rganishdir. Bularni ular kinodagi, kitobdagi, intervyulardagi parchalardan olib, ularni o'z dialoglariga tayyor holda qo'shishlari mumkin bo'ladi.

6. Direct method.

Bu usul ham chet el tajribalarida juda keng foydalanilgan hisoblanadi. Ustozlar va talabalar o'rganish jarayonida sherikchilik qiladilar. Mazkur metodning maqsadi chet tilini hech qanday tarjima va gramatikalarsiz o'rganishdir. Uning To'g'ridan to'g'ri o'rganish metodi deyilishiga sabab ham aynan til o'rganuvchilar ingliz tili muhitiga o'z ona tillarini ishlatmagan holda sho'ng'ishlaridir. Savollar tug'ilgan holatda, ustozlar gapning ma'nosini chet tilida ta'rif bergan holatda yoki ko'rsatishlar orqali yetqazib berishlari lozimdir.

XULOS

Bu maqolada men yoritmoqchi bo'lgan narsalar aynan men kuzatgan ingliz tili o'rganuvchilari orasidagi asosiy xatolardir. Va albatta, ularga tilni o'rgatishda uztozlarning ham aynan katta hissalar bor. Bunda ularga yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy metodlar yordam beradi degan umiddaman. Maktab darslarini

kuzatishlarim natijasida shuni ko'rdimki, hali ham darslar "target language" da ya'ni ingliz tilida to'liq o'tilmasligi, ko'pchilik ustozlar hali ham eski metodlardan ya'ni "grammar translation method"dan aktiv foydalanayotgani achinarlidir. Shu bilan birgalikda, darslar "student centered" bo'lishi darkor, ya'ni darslarda talabalar koproq aktiv bolishi lozimdir. Men sanab o'tgan samarali metodlar aynan ularga qo'l keladi va darslar qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. M. Xodjayev, M.Qahhorova, (2001)ChET TIL O'QITISH METODIKASI, Toshkent.
2. Xaydarova,(2021) Ingliz tilini mustaqil o'rganish
3. Hasanboy Rasulov, (2017) Ingliz tili metodikasi
4. Jack C. Richards and Theodore S. Rodgers, Approaches and methods in language teaching, Cambridge language teaching library.
5. <https://tefl-toolkit.com/blogs/the-tefl-toolkit-blog/english-language-teaching-approaches-methods-and-techniques>

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING AHAMIYATI VA UNDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING TUTGAN O‘RNI

Allamberganov X.A.

Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot” mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada diversifikatsiyalash tushunchasining mohiyati ochib berilgan, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalashning dolzarbligi, ushbu maqsadga erishishda tashqi savdo aylanmasining tutgan o‘rni tahlil qilingan va ushbu masala yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, tashqi savdo, eksport, import, YaIM.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida sanoatni tarmog‘ini diversifikatsiyalash jarayonlari jadal sur‘atlarda amalga oshirilmoqda. “Bugungi kunda AQSh, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi kabi rivojlangan davlatlarning mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash strategiyalarini amalga oshirish asosida barqaror iqtisodiy o‘shir sur‘atiga erishmoqda. AQShda 2022-yilning 4 choragida sanoatda yaratilayotgan YaIMning xususiy mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlari 4.0 foizga, xususiy-servis sanoati 2.3 foizga oshgan”¹. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiy jarayonlarini diversifikatsiya qilish strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, diversifikatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish xususiyatlari va ta‘sirini aniqlash mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olib, iqtisodiy jarayonlarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hududlarda diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirishning dastlabki shartlarini aniqlash, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarni o‘rganish va takomillashtirish, diversifikatsiyani kontseptual yondoshuvlarini ishlab chiqish, diversifikatsiya jarayonlarini ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirish va prognoz qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

¹ <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>, <https://www.bea.gov/data/gdp/gdp-industry>

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda diversifikatsiya soʻziga koʻplab taʼriflar keltirilgan. Biroq, muammoli tarafi shundaki, diversifikatsiya shunday bir tushunchaki aniq bir taʼrif berish qiyinchilik tugʻdiradi. Diversifikatsiya lotincha “diversificatio” atamasidan olingan boʻlib, “oʻzgarish”, “kengaytirish” degan maʼnoni anglatadi. Diversifikatsiya - bu korxonalarining mahsulot va xizmatlar turlarini kengaytirish va yangilash hisoblanadi. Diversifikatsiyaga yuqori mahsuldorlik va yuqori rentabellik, bankrotlikni bartaraf etish va boshqa maqsadlar orqali erishiladi. Oʻtmishda, birinchi navbatda rentabelli tarmoqlarni diversifikatsiya qilish yaʼni ishlab chiqarish sohalarini kengaytirish ularni iqtisodiy faoliyatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Tarmoqlarni diversifikatsiya qilish jarayoni XX asrning 2 yarmidan boshlangan. Avvalo, AQSh, Yaponiya va Gʻarbiy Yevropa sanoat, transport sohasi, qurilish va moliya sohalarini diversifikatsiyalash jarayonini tajribadan oʻtgazdilar. Shuning uchun diversifikatsiya harakati ushbu mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bir qatorda boshqa davlatlarga tegishli umumiy omillar (ilmiy-texnik inqilob, yuqori foyda uchun kurash, raqobat kurashi, texnika taraqqiyoti va boshqalar) bilan belgilanadi. Rossiyalik mashhur olimlardan biri I.Ansoff taʼkidlaydiki, diversifikatsiya - bu korxonada mavjud boʻlgan resurslarni avvalgisidan sezilarli darajada farq qiladigan boshqa faoliyat sohalarida qayta taqsimlash jarayoniga oʻtgazishdir [1]. Bundan tashqari, bu jarayon, birinchi navbatda, kompaniyaning ilgari hech qanday aloqasi boʻlmagan yangi texnologiyalar, ilm fan yutuqlari, bozorlar va tarmoqlarga oʻtishga tegishli; shuningdek, korxonaning oʻzi ham butunlay yangi boʻlishi kerak. I. Ansoff asosan diversifikatsiyalash orqali yangi mahsulotlar bilan yangi bozorlarga chiqadigan yangi firmalarga eʼtibor qaratgan. Bir qator taʼriflarga asoslanib, biz diversifikatsiyani yangi tarmoqlarni rivojlantirish va uning bozor ulushini kengaytirish asosida korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirish jarayoni sifatida tushunamiz [2].

Diversifikatsiyani oʻtkazish zaruriyatini aniqlashning asosiy maqsadi u boshqarishning asos soluvchi biznes-jarayoni hisoblanishi hamda korporatsiyaga tashkilot samaradorligini oshirishning asosiy usulini aniqlashda yordam berishidan iborat. Ushbu holatda har bir tarmoqda va har bir kompaniyada maqsad qoʻyish jarayonining oʻzi oʻzining dastlabki maʼlumotlari, yaʼni faqat oʻzida qayd qilingan va individual xarakterga ega boʻlgan shart-sharoitlar asosida amalga oshadi [3].

T.Kono taʼrifiga koʻra, diversifikatsiyaning asosiy maqsadi “ishlab chiqarishning yoki hayot siklining dastlabki bosqichida turgan mahsulotning tez oʻsishi sharoitida, mahsulot yoki xizmatni tanlash yoʻli bilan oʻsish imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatidir”. Kompaniyalar qoʻyilgan maqsadlarga erishish uchun boshqa usullar batamom ishlatib boʻlingan yoki imkoni yoʻqligida diversifikatsiya strategiyasini

qo‘llaydilar [4]. I. Ansoff fikriga ko‘ra, “diversifikatsiya maqsadi kompaniya miqyosi yoki kattaligining o‘shishi, rentabelligining oshishi, firma strategik to‘plamining muvozanatda bo‘lishidan iborat”. Ikkala nuqtai nazarni ko‘rib chiqib, xulosa qilish mumkinki, divesifikatsiya strategiyasini amalga oshirish kompaniyani optimallashtirishiga va uning raqobatbardoshligining oshishiga, shuningdek uning moliyaviy barqarorligiga olib keladi hamda, umuman olganda, rivojlanish va boshqavruv samaradorligining oshishiga yo‘naltirilgan. Diversifikatsiya maqsadlariga quyidagilar kiritiladi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash maqsadlari.¹

Biznesning yuqori raqobatbardosh tovarlar lineykasini ishlab chiqarishda o‘z o‘rnini topish istagi juda aniq. Bunda ba‘zi kompaniyalar buni “tirik qolish” uchun, boshqalari esa barqaror foyda olishni saqlab qolish nuqtai nazardan, yana ba‘zi muvaffaqiyatli rivojlanayotganlari esa bozorning yangi bo‘lagini zabt etish va iqtisodiy ekspansiyani davom ettirish maqsadida qiladilar [5].

ASOSIY QISM

O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti olib borilayotgan islohatlar natijasida bir qancha yutuqlarga erishdi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti o‘shish suratlari saqlab qolmoqda, axolining tabiiy o‘shish darajasi yuqori hisoblanadi, oltin valyuta zahiralari ham ko‘paymoqda va mamlakatimiz dunyo mamlakatlari bilan yuqori darajada hamkorlik aloqalarini o‘rnatmoqda va dunyo iqtisodiyotiga integratsiya qilmoqda. Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan mamlakatimizning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkun (1-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2022-yil).¹

Yillar	YaIM (trln so‘m)	YaIM o‘shish suratlari (foiz)	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd dollar)	
			Eksport	Import
2022	888.341.7	5.7	19.3	30.7
2021	738.425.2	7.4	16.7	25.5
2020	605.514.9	2.0	15.1	21.1
2019	532.712.5	6.0	17.4	24.3

Manba: Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarda 888 341,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o‘tdi. YaIM deflyator indeksi 2021-yildagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasida 2022- yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi joriy narxlarda 24 919,7 ming so‘mni (yoki 2 254,9 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan davrlarga nisbatan o‘shishni qayd qilganini ko‘rishimiz mumkin.

2022-yilda mamlakat tashqi savdosiga manfiy saldo kuzatilgan, eksport 19.3 mlrd dollar va import 30.7 mlrd dollarni tashkil qilgan. YaIM o‘shish suratlari 2021- yilga nisbatan 5.7 foizni tashkil qilgan. Tashqi savdoning tarkibiy xususiyatlari iqtisodiyot sog‘lomligi, barqarorligi va xavfsizligi nuqtayi nazaridan muhim ekanini ko‘rdik. Ayniqsa, turli milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayib borayotgan hozirgi davrda bu masalaning dolzarbligi bir necha marta ortib bormoqda. Bu holatda eng ma‘qul chora tashqi savdo aloqalarida bir turdagi mahsulot yoki bir mamlakat va mintaqaga bog‘lanib qolinishini oldini olish sanaladi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida albatta tashqi savdo muhim o‘rin egallaydi, respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi 2022-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 50,0 mlrd. AQSH dollariga yetishini va 2021-yilga nisbatan 7,8 mlrd. AQSH dollariga yoki 18,6 % ga oshishini ta‘minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etildi.

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi

O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

Mamlakatimizning tashqi savdoda asosiy hamkor davlatlari yildan yilga ortib bormoqda, jumlada so‘ngi yillarda yirik savdo hamkorlarimiz qatoriga bir nechta davlatlar kiritildi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo hamkorlari (2022-yil)

Mamlakatlar	Tashqi savdo hajmi (mlrd AQSh dollarda)	Eksport hajmi (mlrd AQSh dollarda)	Import hajmi (mlrd AQSh dollarda)
Rossiya Federatsiyasi	9279.7	3066.9	6212.8
Xitoy Xalq Respublikasi	8923.8	2519.0	6404.8
Qozog‘iston	4621.0	1379.7	3241.2
Turkiya	3223.9	1507.4	1716.5
Koreya Respublikasi	2340.6	48.1	2292.5
Qirg‘iz Respublikasi	1260.0	979.3	280.7
Germaniya	1159.3	88.9	1070.4
Turkmaniston	926.3	194.8	731.5
Afg‘oniston	759.9	750.6	9.3
Hindiston	690.5	35.6	654.9

Manba: Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (18,6 %), XXRda (17,8 %), Qozog‘istonda (9,2 %), Turkiyada (6,4 %), Koreya Respublikasida (4,7 %), Qirg‘iz Respublikasi (2,5 %) va Germaniyada (2,3 %) qayd etilgan. Bundan tashqari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarning mustahkamlanishi, ushbu mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat va madaniy sohalarda munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar olib borilayotgani qayd etilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da ham tashqi savdo bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlar va maqsadlar belgilab olingan. Ushbu strategiya 7 ta yo‘nalishdan iborat bo‘lib 3-yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish su‘ratlarini

ta'minlash" deb nomlangan bo'lib 21-36 maqsadlarni o'z ichiga olgan va ushbu maqsadlarda quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish;

- Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish;

- Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish;

- Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish;

- Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish;

Yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishishda albatta iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi tarmoq va sohalarni rivojlantirish, tashqi savdoda musbat saldog'a erishish orqali mamlakat hududiga xorijiy valyuta oqimini yaxshilash muhim ahamiyat kasb qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublika eksport salohiyati tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar kompleksini, ya'ni O'zbekiston mintaqalarini bir-biri bilan taqqoslash imkonini beruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Bu mintaqaning tashqi iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi shundan kelib chiqqan holda:

-mintaqa eksport salohiyatini sharxlashda asosiy omil tabiiy-resurs salohiyatidir. Shu sababli, eksport salohiyatini rivojlantirish bevosita mintaqaning tabiiy resurslariga bog'liq hisoblanadi;

-tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yangi tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarining vujudga kelishi bilan bog'liq mintaqqa eksport salohiyatining tadrijiyligi eksport salohiyatini muntazam monitoring qilib borish dolzarb vazifaligini anglatadi.

-respublika viloyat va shaharlarini eksport salohiyatini oshirishda avvalo hududlarning mavjud tabiiy resurslar salohiyatini tahlil qilish va nisbiy, mutloq ustunliklaridan kelib chiqqan holda istiqbollarni belgilash muhim hisoblanadi.

Umuman olganda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar yaqin yillarda viloyatning eksport salohiyatini oshirish,

import tovorlarini o'rnini bosuvchi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.www.lex.uz.
2. Abulqosimov H.P., Vaxabov A.V, Raximova D. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari.-T.:2001.-109 b.
3. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the game//word Link.1992. July/August.No 5.P.24-25.
4. Turobjonov S.O'zbekiston Respublikasi sanoati: qisqacha tarixi, rivojlanish ishtiqlari. vummolari-T.:Fan va texnologiya, 2014.-460 b.
5. Fayziyeva Sh.Yuldasheva N. The role of livestock research in the development of the countrys economy. ACADEMICIA: An International multidisciplinary research Jurnal.<https://saarj.com> ISSN:2249-7137vol.11. Issue 2.February 2021; 122-b.

CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP)

Fazildinova Sevara Nematovna

Teacher, Fergana Polytechnical Institute

E-mail: sevarafazildinova6@gmail.com

ABSTRACT

This thesis explores the effective teaching methodologies and strategies for English for Specific Purposes (ESP). ESP is a specialized branch of English language teaching that focuses on developing language proficiency in specific domains such as business, medicine, engineering, and tourism. The study investigates the theoretical foundations, pedagogical approaches, and practical implications of teaching ESP. By examining relevant literature and studies, this thesis aims to provide educators with valuable insights and recommendations for designing ESP courses and enhancing students' language proficiency in their respective fields.

Keywords: teaching, teaching methods, analysis, special needs, target field, authentic materials, motivation, professional development.

Teaching English for Specific Purposes (ESP) poses unique challenges for educators due to its specialized nature. Some of the key challenges in teaching ESP include:

Needs Analysis: Conducting a thorough needs analysis to identify learners' specific language requirements and goals can be challenging. ESP teachers need to understand the learners' professional or academic contexts, their language needs, and the specific skills and knowledge they need to acquire.

Access to Authentic Materials: Finding authentic and up-to-date materials that reflect the target field or industry can be a challenge. ESP teachers often need to invest time and effort in sourcing or creating materials that are relevant and engaging for their learners.

Expertise in the Target Field: ESP teachers need to have a solid understanding of the target field or industry they are teaching. This requires continuous professional development and staying updated with the latest developments in the field. Acquiring this expertise can be a challenge, particularly for teachers who do not have a background in the specific field.

Balancing Language and Content: ESP courses aim to develop both language proficiency and subject-specific knowledge. Finding the right balance between teaching language skills and imparting domain-specific content can be a challenge.

Teachers need to ensure that learners are equipped with the necessary language skills while also addressing the content knowledge required for their specific purposes.

Limited Resources: ESP courses often have limited resources, including time, materials, and technological tools. Teachers may face constraints in terms of class hours, access to technology, and funding for specialized resources. Managing these limitations and optimizing available resources can be a challenge.

Assessment and Evaluation: Assessing and evaluating ESP learners' progress can be challenging. Traditional assessment methods may not always capture learners' ability to apply language skills in authentic professional or academic contexts. Designing appropriate assessment tasks and criteria that align with learners' specific purposes can be a complex task.

Professional Development: ESP is a dynamic field, and teachers need to continuously update their knowledge and pedagogical skills. However, access to specialized training and professional development opportunities in ESP may be limited. Teachers need to actively seek out relevant workshops, conferences, and online resources to enhance their expertise.

Integrating Language and Content: ESP courses aim to develop both language skills and subject-specific knowledge. Integrating language instruction with the relevant content can be challenging. ESP teachers need to strike a balance between teaching language skills and conveying specialized information. This can be achieved through task-based activities, authentic communication tasks, and the use of discipline-specific vocabulary and discourse patterns.

When teaching English for Specific Purposes (ESP), the ultimate goal is to equip learners with the necessary language skills and domain-specific knowledge to succeed in their professional or academic contexts. Here are some potential results that can be achieved through effective ESP instruction:

Markaziy Farg‘onaning sizot suvlarida, tuproqlarida, ona jinsida magniyning anamal miqdorlari, singdirilgan asoslar tarkibidagi miqdorlari bu maydonda alohida magniyli kimyoviy provinsiya mavjudligidan dalolat beradi. Markaziy Farg‘onadagi bu xususiyatga o‘z vaqtida P.N.Besedin, K.Sh.Shodmanov G‘.Yuldashev (1979) yili e‘tibor bergan edilar.

Suv olingan joy	PH	KK	HCO ₃	Cl	SO ₄	NO ₃	Fe ⁺² +Fe ⁺³	F
1	2	3	4	5	6	7	8	9
14 zovur	8.0	1182	43.0	428.6	222.7	0.70	0.01	0.54
79 zovur	8.0	515	43.0	183.8	130.3	0.30	0.005	0.50
3 zovur	7.9	406	26.2	8.21	126.6	0.60	-	0.04
8 zovur	8.1	343	24.4	9.63	149.2	1.80	0.03	0.10

Shunga qaramasdan, tuproq va gruntning granulometrik tarkibiga bog‘liq ravishda ba’zi ma’lumotlar aniqlandi, jumladan, yengil va qumloq granulometrik tarkibga ega bo‘lgan maydondagi til zovur suvida nitratlar miqdori boshqalarga nisbatan ko‘p.

Sizot suvlarining mineralizatsiya darajasini kamaytiradi, sifatini o'zgartiradi. Bu ishlar natijasida yangidan sug'oriladigan yerlarda agrotexnika qoidalari saqlangan holda g'ozadan 20-25 sr/ga, eskidan sug'oriladigan yerlarda 30-33,3 sr/ga hosil olingan.

Xulosa qilib aytganda, sizot, zovur suvlarining kimyoviy tarkibini o'zgarishini ulardagi anionlar, kationlar, ayniqsa mikroelementlar, zaharli ximikatlar migratsiyasini tizimli ravishda o'rganishga da'vat etadi. Jumladan, nitratlarning migratsiyasini boshqarish, ularni yerga solish me'yori, vaqtni boshqarish bilan birga kuchsiz migratsiyalanadigan shakllaridan foydalanish yo'llarini ham izlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T. «Iqtisod-moliya», 2006.
2. afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "o'zbekiston" - T.: 1998.
3. Qo'ziev R. "o'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam.
4. Yuldashev.G' Meliorativ tuproqshunoslik. Toshkent "Universitet" 2008 Samarqand-2002 y.
4. www.Agrochim.bis.2004.
5. www.Herba.msu.Ru.2004.
6. www.Peola.ru.glosari.2004

MARKAZIY FARG‘ONANING TURLI DARAJADA SHO‘RLANGAN TUPROQLARINING FIZIK XOSSALARI

Nosirov Yosin Soyibjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, magistrant

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda Markaziy Farg‘onaning tuproqlari turli darajada sho‘rlangan. Ushbu sho‘rlangan tuproqlar o‘ziga xos fizik xossalarga ega. Bunda tuproqlarning mexanik va agregat tarkibi, hajm massasi, solishtirma massasi, g‘ovovakligi, gigroskopikligi, kapilyar namlik va boshqa xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Sho‘r tuproqlar, mexanik va agregat tarkib, hajm massa, solishtirma massa, g‘ovaklik, gigroskopiklik, kapilyar namlik.

Markaziy Farg‘onada sho‘r tuproqlar asosan bo‘z tuproqlar kamari va cho‘l mintaqalarda tarqalgan bo‘lib murakkab mexanik tarkibga ega bo‘z tuproqlar mintaqasidagi tuproq tog‘ oldi tekisliklarida daryolarning yuqori terrasalarida lyoss va lyossimon jinslar ustida shakllangan shu bois ular sho‘rlanmagan lekin kuchsiz sho‘rlangan guruhlari ham xususiy hollarda uchraydi. Kamdan-kam hollardagina kuchli sho‘rlangan bo‘ladi.

Bo‘z tuproqlar mintaqasidagi lyosslar uchun xarakterli xususiyat, ularda yirik changlar (0,05-0,01mm) miqdorining 45-65 % bo‘lishi, qunning bo‘lmasligi yoki juda kam bo‘lishi, hamda 5-12 % miqdorda il zarrachalarining mavjudligi hisoblanadi.

Lyoss yotqiziqlari bir tekisda katta katta maydonlarda tarqalgan bo‘ladi, lekin hayotda tog‘lik va adirliklarni kesib o‘tuvchi soylar ularni qirqib o‘tgan. Bu soylar o‘zlarining yo‘llarida, ya‘ni konus yoyilmalarida prolyuvial va prolyuvial-allyuvial yotqiziqlarni hosil qiladilar. Konus yoyilmalariga xos xususiyat esa tog‘ jinslarning tabaqalanishidir. Bu tabaqalanish uzunasiga va yon tomonga qarab sodir bo‘ladi, ko‘pincha yon va uzoq tomonlar, oxirgi maydonlar sho‘rlanadi. Bunga So‘x, Shohimardonsoy, Isfayramsoy konus yoyilmalarini keltirish mumkin.

Ko‘llar va dengizlar sohillarida, daryolarning eski, ya‘ni qoldiq o‘zanlarida umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, minerallashgan va harakatsiz yoki kuchsiz harakatlanuvchi sizot suvlari ustida arid iqlimli o‘lkalarda shug‘ullangan tuproqlar shakllanadi va ularning fizik suv xususiyatlari sho‘r emas tuproqqa nisbatan o‘zgacha bo‘ladi.

Ma‘lumki, sho‘r tuproqlarning fizik xususiyatlari sho‘r bo‘lmagan tuproqlardan farq qiladi.

Tuproqlarning shoʻrlanish jarayonlari, shoʻrlik darajasi, ularning agregat holati, suv xossalari, kapillyarligi va boshqalarga bogʻliq boʻladi.

Markaziy Osiyoning tekislik qismlaridagi tuproqlar kam gumusli ekanliklari tufayli ularning struktura holatini nisbatan yomon. Bu struktura boʻlakchalarining suvga chidamliligi ham past. Tuproqlarning strukturaliligi boʻz tuproqlardan choʻl mintaqasidagi tuproqlar tomon yomonlashib boradi.

Har ikkala mintaqadagi gidromorf tuproqlarning struktura holati avtomorf tuproqlarga nisbatan yaxshiroq. Sugʻoriladigan maydonlarda suvga chidamli struktura boʻlakchalarining miqdori keskin kamayadi. Tuproq struktura holatiga oʻsimlik turlari ham taʼsir qiladi.

Beda ekilishi hamma tuproqlarning ham struktura holatini yaxshilab, agregatlarni suvga chidamliligini oshiradi.

Jadvaldan maʼlum boʻlishicha, tipik boʻz tuproqlarda oʻlchami 0.25 mm dan katta boʻlgan struktura boʻlakchalari 23 %ni tashkil qiladi. Shu tuproqlarning sugʻoriladigan guruhlarida esa agregatlar miqdori 15 %. Shunga oʻxshash jarayonlarni boshqa tuproqlar misolida ham koʻrish mumkin.

Tuproqlar	Qoʻriq	Sugʻoriladigan
Tipik boʻz tuproqlar	23	15
Och tusli boʻz tuproqlar	15	9
Oʻtloqi (boʻz tuproq mintaqasida)	40	14
Taqirsimon tuproq	16	4
Taqir	14	4
Oʻtloqi saz	33	12

Agregat oʻlchami qancha kichik boʻlsa va miqdori kam boʻlsa tuproqlarning shoʻrlanishga moyilligi shuncha yuqori boʻladi. Shu nuqtai nazardan taqir va taqirsimon shoʻrlanishga moyilligi boʻz va oʻtloqi tuproqlardan yuqori.

Tuproqlarning shoʻrlanishida ularning solishtirma va hajm masalari, gʻovakligi ham alohida oʻrin egallaydi. Koʻpchilik tuproqlarning solishtirma massasi 2,6-2,74 g/sm³ atrofida joylashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T. «Iqtisodmoliya», 2006.
2. afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "o'zbekiston" - T.: 1998.
3. Qo'ziev R. "o'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam. Samarqand-2002 y.
4. www.Agrochim.bis.2004.
5. www.Herba.msu.Ru.2004.
6. www.Peola.ru.glosari.2004

BETULINNING TABIATDA UCHRASHI VA INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI

Ibrohimova Risqiya Usmonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: risqiyaibrohimova@gmail.com

ANNOTASIYA

Betulin tabiiy besh halqali lupan tuzilishga ega bo'lgan triterpenoid hisoblanadi. Ular anti-virus, antibakterial, turli o'simalarga qarshi va boshqa bir qator farmakologik faolliklarga ega. Betulin qayin daraxtlarining po'stlogidan olinadigan va oq kristalli kukun shaklida bo'lgan moddadir. Betulin – etanol, efir, xloroform va benzolda hamda sovuq suvda va boshqa organik erituvchilarda eriydi. Hozirda betulinni ahamiyati o'rganilgach, ularni solventli reflyuks ekstraksiyasi va kristallanishdan tozalash yordamida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: *Aldus subcordata* L, *Ziziphus jujuba* M, *Atractylis carduus* L, *Ziziphus vulgaris*, *Trochodendron aralioides*, *Asparagus*, *Punica*, *Ocimum*, *Betula davurica* Pall, *Betula pendula* Roth, *Betula verrucosa* Ehrh, *Betula pubescens* Ehrh.

TADQIQOT MAQSADI

So'nggi yillardagi olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra bu birikmalar metabolitik, infeksiyon, yurak qon-tomir va nevrologik kasalliklarni davolashda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, dorilar prolongatsiyasi, ularning biologik yaroqliligini oshirish kabi xususiyatlari tufayli betulinni o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan yilga oshib bormoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Betulin turli nav va oilalarga mansub 20 xil o'simlik xil o'simlik xillarida aniqlangan. Masalan: betulin, olma daraxti (*Aldus subcordata* L), oq terak, chinor daraxtlari po'stlog'idan, *Ziziphus jujuba* M, qushqo'nmas (*Atractylis carduus* L) ning yuqori qismlaridan, *Ziziphus vulgaris*, *Trochodendron aralioides* (troxondendron) *Asparagus*, *Punica*, *Ocimum* kabi o'simliklardan xam olingan. Betulin tabiatda asosan oq qayin oilasiga mansub (*Betula alba* L, *Betula pendula* Roth, *Betula verrucosa* Ehrh, *Betula pubescens* Ehrh, *Betula davurica* Pall.) kabi daraxtlarning po'stlog'i tarkibida uchraydi. Qayin daraxti turi, bargi, o'sish sharoiti, daraxtning yoshi va boshqa omillarga bog'liq holda po'stloqning tashqi qismidagi betulin tarkibi 10-40% oralig'ida o'zgaradi. Ichki po'stlog'i 2% dan kam betulin aniqlangan. O'simlik

tarkibidagi betulinning miqdori o‘simlik turiga, iqlimga, yil fasliga, daraxt yoshiga va tuproq tarkibiga qarab turlicha bo‘ladi.(1-jadval).

Betulin miqdorining o‘simlik turiga va yoshiga bog‘liqligi

№	Po‘stloq turi	Ekstrakt	Betulin	Lupeol	Boshq.
1	Sanoat chqindisi	34.7	25.7	2.2	6.8
2	Betula pendula Roth. 60 yosh	36.2	22.3	2.2	11.7
3	Betula pendula Roth. 15 yosh (0-60sm)	43.0	25.6	1.9	15.5
4	Betula pendula Roth. 15 yosh (60-130sm)	44.7	26.2	2.0	16.5
5	Betula pendula Roth. 15 yosh (130-210sm)	43.4	27.1	2.1	14.2
6	Betula pubescens Ehrh. 60 yosh	36.0	22.9	0.8	12.3
7	Betula pubescens Ehrh. 15 yosh (0-60sm)	43.1	27.7	0.6	14.8
8	Betula pubescens Ehrh. 15 yosh (60-130sm)	37.1	25.7	0.6	10.8
9	Betula pubescens Ehrh. 15yosh (130-210sm)	36.4	23.3	0.5	12.6

Betulin daraxt po‘stlog‘i tarkibida o‘simlikni tashqi muhitning zararli omillari ta‘siridan himoyalash funksiyasini bajaradi, jumladan, radiatsiya, bakteriyalar, patogen zamburug‘lar, viruslar, shuningdek zararkunanda hasharotlardan saqlaydi.

Betulin-[3β,28-digidroksi-20,(29)-lupen] yoki [lup-20(29)-en 3β,28-diol], betulinol, betulin sporting, qayin kamforasi, lupendiol(C₃₀H₅₀O₂) [15; 929-95 b] oq qayin daraxtida po‘stloq to‘qimasi bo‘shlig‘ini to‘ldirib turuvchi va po‘stloqqa oq rangdagi tus beruvchi, kimyoviy tuzilishiga ko‘ra triterpen qatoriga kiruvchi spirt hisoblanadi.

Ular asosan qutbli organik erituvchilar (xloroform, atseton,piridin, tetragidrofuran, dimetilsulfooksid, issiq etanol)da yaxshi eriydi, boshqa organik erituvchilarda kam eriydi. Ularning eruvchanligi organik erituvchilarda o‘rtacha 10g/l, bo‘lib, erituvchi tabiatiga va haroratga bog‘liq bo‘ladi(2-jadval).

Turli erituvchilar va haroratdagi betulinning eruvchanligi

№	Erituvchi	Harorat °C	Eruvchanlik(g/100gr erituvchi)
1	Atseton	5	0.425
2	Atseton	15	0.662
3	Atseton	25	1.207
4	Atseton	35	1.74
5	Xloroform	5	0.967
6	Xloroform	15	1.26
7	Xloroform	25	1.63
8	Xloroform	35	1.905
9	Etanol	5	0.558
10	Etanol	15	0.634
11	Etanol	25	0.863
12	Etanol	35	1.09
13	Etanol	78	5.44
14	Benzol	80	Eriydi
15	Siklogeksan	10	0.00885
16	Siklogeksan	15	0.0143
17	Siklogeksan	25	0.0334
18	Siklogeksan	35	0.086
19	Propanol 1	5	0.0837
20	Propanol 1	15	0.941
21	Propanol 1	25	1.08
22	Propanol 1	35	1.18
23	Butanol 1	5	1.08
24	Butanol 1	15	1.28
25	Butanol 1	25	1.43
26	Butanol 1	35	1.63

Biologik vosita sifatida betulin va uning hosilalarga OIV va Saratov kasalligini davolashda katta imkoniyatlarga ega. Ular virusning hayot aylanishining keyingi bosqichiga aralashish orqali ishlaydi va virusning kirib borishi va o'sishi bilan bog'liq. Betulin, shuningdek, parhezga asoslangan semirib ketishni kamaytirishi, sarum va to'qimalarda lipid miqdorini kamaytirishi va insulin sezgirligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, betulin yuqori konsentratsiyada yengil yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Betulinning inson tanasiga kirishi sterolning tartibga soluvchi elementi bilan bog'langan oqsillarni kamaytiradi va shu bilan xolesterin va yog' kislotalarining biosintezini kamaytiradi.

Bundan tashqari, betulin yallig'lanishga qarshi, virusga qarshi ta'sirga ega, soch tolalarida oqsilning tarqalishini nazorat qiladi, shikastlangan sochlarning porlashini yaxshilaydi, sochlarning o'sishiga yordam beradi va shu kabi narsalar oziq – ovqat, kosmetika va farmatsevtika sanoatida qo'llanilishi mumkin.

XULOSA

Betulin qayin daraxti po'stlog'i tarkibida ko'p miqdorda uchraganligi sababli qayin daraxti po'stlog'i tarkibida yetarlicha darajada making va shu bilan birgalikda, chirish ta'siriga chidamli hisoblanadi. Qayin po'stlog'ining tashqi muhit ta'sirlariga chidamliligini uning tuproq qatlamida deyarli ming yillab saqlanishi bo'yicha mavjud faktlar ham tasdiqlaydi. Shularni hisobga olgan holda, bugungi kunda betulinga (qayin daraxtlariga) bo'lgan e'tiborni kuchayganligini ko'rishimiz mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. SHayan Amiri, Sanaz Dastghaib , Mazaher Ahmadi and others. Betulin and it's derivatives as novel compounds with different pharmacological effects// Biotechnology Advances.№ 38.2020. 107409
2. Rainer Ekman. The suberin monomers and triterpenoids from the outer bark of *Betula verrucosa* Ehrh// Hokforschung №37.1983.205-211.
3. Kuznetsova S.A., Skvortsova G.P., Maliar I.N., Skurydina E.S., Veselova O.F. Extraction of Betulin from Birch Bark and Study of Its Physico Chemical and Pharmacological Properties// Russian Journal of Bioorganic Chemistry. Vol.40,№7.2014.P 742-747.
4. Pazhe A ., Zandersons J., Rizhikovs J., Doble G., Spince B., Jurkjane V., Tardenaka A. Impact of the solvent on the yield of silver Birch (*Betula Pendula* Roth) outer bark extractives// In: Proceedings of the 8 th Meeting of the Northern European Network for Wood Material Science &Engineering 2012.P.100-108.
5. Салихова Г.Г.Перспективы применения бетулина в пищевой промышленности//Теория и практика повременной аграрной науки. Сборник 4-национальной (всероссийской) научной конференции с международным участием. Новосибирский государственный аграрный университет. С: 815-817. Новосибирск 2021.
6. S.W.Pelletier, N.V.Mody, R.S.Sawhney , J.Bhattacharyya, Heterocycles, 7, 327(1977).
7. Tang W and Eisenbrand C, Chinese Drugs of Pland Origen (2013).
8. Flora of Uzbekista,. Vol. 2, Tashkent, [in Russian], 447-460 (1953).
9. Даниленко В.С. Родионов П.В. Острые отравления растениями. Киев:Здоровья. 1981.104с.
10. Гречаный И.А. Большой иллюстрированный справочник лекарственных растений. 600 рецептов и секретов потомственного травника. Белгород. 2015.544с., ил.
11. Советский энциклопедический словарь. Гл.ред. А.М. Прохоров. 3-е изд М:Сов.энциклопедия , 1985.1600с.,ил.

HORIZONTAL AND VERTICAL LOOPS GEOTHERMAL HEATING SYSTEM

O.S. Komilov, S.S. Sayfulloev

ABSTRACT

This article provides a detailed exploration of two fundamental configurations in geothermal heat pump systems—horizontal loops and vertical loops. Offering insights into their distinct layouts, efficiencies, and applications, the content provides a comparative analysis to guide readers in choosing between the two configurations. With a focus on practical considerations and benefits, this article equips readers with valuable knowledge to make informed decisions when implementing geothermal heating and cooling systems.

Keywords: heat pump, water heating, closed loops, open loops, horizontal loops, vertical loops, distribution subsystem.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлено подробное исследование двух основных конфигураций систем геотермальных тепловых насосов: горизонтальных и вертикальных контуров. Предлагая информацию об их различных компоновках, эффективности и применении, контент предоставляет сравнительный анализ, который поможет читателям сделать выбор между двумя конфигурациями. Эта статья, в которой основное внимание уделяется практическим соображениям и преимуществам, дает читателям ценные знания, необходимые для принятия обоснованных решений при внедрении геотермальных систем отопления и охлаждения.

Ключевые слова. тепловой насос, нагрев воды, замкнутые контуры, открытые контуры, горизонтальные контуры, вертикальные контуры, подсистема распределения.

ВВЕДЕНИЕ

Геотермальные системы отопления и охлаждения обеспечивают кондиционирование помещений — отопление, охлаждение и контроль влажности. Они также могут обеспечивать нагрев воды — в качестве дополнения или замены обычных водонагревателей.

Геотермальные системы отопления и охлаждения работают за счет перемещения тепла, а не за счет преобразования химической энергии в тепло,

как в печи. Каждая геотермальная система отопления и охлаждения состоит из трех основных подсистем или частей: геотермального теплового насоса для перемещения тепла между зданием и жидкостью в заземляющем соединении, заземляющего соединения для передачи тепла между жидкостью и землей и распределительной подсистемы для доставки тепла. отопление или охлаждение здания. Каждая система может также иметь пароохладитель в дополнение к водонагревателю здания или водонагреватель полной мощности для удовлетворения всех потребностей здания в горячей воде.

Геотермальный тепловой насос упакован в один шкаф и включает в себя компрессор, теплообменник контура-хладагента и элементы управления. Системы, которые распределяют тепло с помощью канального воздуха, также включают в себя систему обработки воздуха, канальный вентилятор, фильтр, теплообменник хладагент-воздух и систему удаления конденсата для кондиционирования воздуха. При установке в домашних условиях шкаф с геотермальным тепловым насосом обычно располагается в подвале, на чердаке или в чулане. В коммерческих установках его можно подвешивать над подвесным потолком или устанавливать как автономную консоль.

Подсистема распределения.

В большинстве жилых геотермальных систем используются обычные воздуховоды для распределения горячего или холодного воздуха и обеспечения контроля влажности. (В некоторых системах используются тепловые насосы «вода-вода» с одним или несколькими фанкойлами, радиаторами на плинтусе или циркуляционными трубами под полом.) Для поддержания эффективности системы необходимы воздуховоды правильного размера, конструкции и герметизации. Воздуховоды должны быть хорошо изолированы и, по возможности, располагаться внутри тепловой оболочки здания (кондиционируемого помещения).

Геотермальные системы отопления и охлаждения для крупных коммерческих зданий, таких как школы и офисы, часто используют другую схему. Несколько тепловых насосов (возможно, по одному на каждый класс или офис) подключаются к одному и тому же заземлению с помощью петли внутри здания. Таким образом, каждую зону здания можно контролировать индивидуально. Тепловые насосы на солнечной стороне здания могут обеспечивать охлаждение, а те, что на теневой стороне, обеспечивают тепло. Такое расположение очень экономично, поскольку тепло просто передается из одной части здания в другую, а заземление служит источником тепла или радиатором только для разницы между потребностями в отоплении и охлаждении здания.

Многие системы жилого назначения, установленные сегодня, оснащены пароохладителями для обеспечения горячей водой для бытового потребления, когда система обеспечивает отопление или кондиционирование воздуха. Пароохладитель представляет собой небольшой вспомогательный теплообменник на выходе компрессора. Он передает избыточное тепло от сжатого газа в водопровод, по которому вода циркулирует в резервуар для горячей воды дома. Летом, когда кондиционер работает часто, пароохладитель может обеспечить всю горячую воду, необходимую для домашнего хозяйства. Он может обеспечить от четырех до восьми галлонов горячей воды на тонну охлаждающей мощности каждый час работы. Пароохладитель обеспечивает меньше горячей воды зимой, а весной и осенью, когда система не работает. Поскольку тепловой насос намного более эффективен, чем другие средства нагрева воды, производители начинают предлагать системы «тройной функции», «полной конденсации» или «полного спроса», в которых используется отдельный теплообменник для обеспечения всего горячего водоснабжения дома. потребности в воде. Эти устройства экономически эффективно обеспечивают горячую воду так же быстро, как и любая конкурирующая система.

Система нагрева воды, установленная в Институте Фингер-Лейкс, работает по требованию. Эта система обеспечивает горячую воду, как только в ней возникает потребность. Использование системы этого типа устраняет необходимость нагрева накопленной воды, как это требуется в обычном резервуаре для горячей воды. Геотермальные системы используют землю в качестве источника тепла и теплоотвода. Ряд труб, обычно называемых «петлей», несут жидкость, используемую для соединения теплового насоса геотермальной системы с землей.

Замкнутые и открытые петли

Существует два основных типа петель: закрытые и открытые. Системы с открытым контуром являются самыми простыми. Успешно используемая в течение десятилетий грунтовая вода забирается из водоносного горизонта через одну скважину, проходит через теплообменник теплового насоса и сбрасывается в тот же водоносный горизонт через вторую скважину, расположенную на расстоянии от первой. Обычно для эффективного теплообмена необходимо от двух до трех галлонов в минуту на тонну производительности. Поскольку температура грунтовых вод практически постоянна в течение всего года, открытые контуры являются популярным вариантом в тех районах, где они разрешены. Системы с открытым контуром имеют некоторые сопутствующие проблемы:

Некоторые химические условия местных грунтовых вод могут привести к загрязнению теплообменника теплового насоса. В таких ситуациях могут потребоваться меры предосторожности, чтобы углекислый газ и другие газы оставались в растворе в воде. Другие варианты включают использование медно-никелевых теплообменников и теплообменников, которые можно очищать без внесения химикатов в грунтовые воды. Растущие экологические проблемы означают, что необходимо консультироваться с местными властями, чтобы обеспечить соблюдение правил, касающихся использования воды и приемлемых методов сброса воды. Например, сброс в канализационную систему редко является приемлемым.


В Институте Фингер-Лейкс используется система замкнутого цикла. Системы замкнутого цикла становятся наиболее распространенными. При правильной установке они экономичны, эффективны и надежны. Вода (или раствор воды и антифриза) циркулирует по непрерывному подземному трубопроводу. Система замкнутого цикла экологически безопасна, поскольку вода в контуре предотвращает загрязнение внешней среды.

Длина петлевого трубопровода варьируется в зависимости от температуры грунта, теплопроводности грунта, влажности почвы и конструкции системы. (Некоторые тепловые насосы хорошо работают при больших колебаниях температуры на входе, что позволяет использовать контуры немного меньшего размера).

Горизонтальные петли

Интеграция горизонтальных петель в системы геотермальных тепловых насосов означает решающий прогресс в технологиях устойчивого отопления и охлаждения. Эти петли, обычно устанавливаемые на плоской широкой площадке под поверхностью Земли, используют постоянную температуру земли для облегчения обмена энергией. Горизонтальные петли особенно хорошо подходят для жилых и коммерческих помещений, где имеется обширная земля.

Одним из заметных преимуществ горизонтальных петель является их экономичность при монтаже. Горизонтальная компоновка позволяет легко прокладывать траншеи или земляные работы, сокращая первоначальные затраты по сравнению с




вертикальным бурением. Это делает их привлекательным вариантом для проектов с ограниченным бюджетом.

Горизонтальные установки с замкнутым контуром, как правило, наиболее эффективны с точки зрения затрат для небольших установок, особенно для нового строительства, где имеется достаточная земельная площадь. Эти установки включают закапывание труб в траншеи, вырытые с помощью экскаваторов или цепных траншеекопателей. В каждой траншее закапывают до шести труб, обычно соединенных параллельно, с минимальным расстоянием в фут между трубами и от десяти до пятнадцати футов между траншеями.

Вертикальные петли

Вертикальные контуры в системах геотермальных тепловых насосов представляют собой инновационный и универсальный подход к использованию тепловой энергии Земли для устойчивого отопления и охлаждения. В отличие от горизонтальных петель, вертикальные петли предполагают бурение глубоких скважин для достижения стабильных температур, наблюдаемых на больших глубинах под поверхностью. Одним из отличительных преимуществ вертикальных петель является их адаптируемость к объектам с ограниченным горизонтальным пространством. Это делает их особенно подходящими для городских или густонаселенных районов, где большие площади недоступны. Вертикальная ориентация этих петель также сводит к минимуму воздействие на существующий ландшафт, что делает их эстетически привлекательным вариантом.



Вертикальные замкнутые контуры предпочтительнее во многих ситуациях. Например, в большинстве крупных коммерческих зданий и школ используются вертикальные петли, поскольку площадь земли, необходимая для горизонтальных петель, будет непомерно высокой. Вертикальные петли также используются там, где почва слишком мелкая для рытья траншей. Вертикальные петли также сводят к минимуму нарушение существующего ландшафта.

Для вертикальных систем с замкнутым контуром U-образная трубка (реже две U-образные трубки) устанавливается в скважину, пробуренную на глубину от 100 до 400 футов. Поскольку условия в земле могут сильно различаться, длина контура может варьироваться от 130 до 300 футов на тонну теплообмена. Для большинства установок, где трубы обычно соединяются параллельно или последовательно-параллельно, требуется несколько отверстий.

Поле вертикальных петлевых скважин, используемое в Институте Фингер-Лейкс, состоит из 20 скважин, пробуренных на глубину 100 футов. Имеется 5 (группы) из 4 колодцев, расположенных на расстоянии примерно 12 футов в центре. Глубина и количество колодцев определялись расчетной тепловой и охлаждающей нагрузкой, необходимой для поддержания комфортной среды для жителей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение, исследование горизонтальных и вертикальных петель в системах геотермальных тепловых насосов показывает тонкое понимание этих важнейших компонентов. Обе конфигурации предлагают уникальные преимущества и особенности, делая выбор зависимым от конкретных требований проекта. Сравнительный анализ горизонтальных и вертикальных циклов подчеркивает важность принятия обоснованных решений. Такие факторы, как масштаб проекта, геологические условия и доступное пространство, играют решающую роль в определении оптимальной конфигурации. Эта статья служит ценным руководством для читателей, предлагая практические идеи, которые помогут разобраться в этих соображениях и сделать осознанный выбор при внедрении геотермальных систем отопления и охлаждения. По сути, исследование горизонтальных и вертикальных петель означает решающий шаг на пути к использованию всего потенциала геотермальной энергии устойчивым и эффективным образом.

REFERENCES:

1. Energy efficiencies of Heat Pumps in Residential Buildings/ I.G. Ingersoll, D.K. Arasteh // Energy and Buildings. – 1983.
2. Bakema, G., 2001. Well and Borehole Failures and Solutions in Underground Thermal Energy Storage.
3. Gjengedal, S., Ramstad, R.K., Hilmo, B.O., Frengstad, B.S., 2018. Video inspection of wells in open loop ground source heat pump systems in Norway. IGSHPA Research Track, Stockholm. Oklahoma State University, Sweden. Stillwater.
4. Геотермальные тепловые насосы. Обзор рынка / Л. Милова // Тепловые насосы – 2013.
5. Ground water heat pumps – the second wave / S. Harlburt // Water Wheel Journal. – 1988.
6. Метод расчета и анализ совместной работы контура циркуляции грунтовых теплообменников и теплового насоса / С.О. Филатов, В.И. Володин // Труды БГТУ. – 2013.
7. Тепловой насос: эффективно и экономно / Л.А. Кривов, В.В. Суров // Жилищное и коммунальное хозяйство. – 1988.
8. qizi Latipova, S. S. (2023). KASR TARTIBLI HOSILA TUSHUNCHASI. SCHOLAR, 1(31), 263-269.
9. qizi Latipova, S. S. (2023). HEAT PHYSICAL MEANING AND ORIGIN OF DIFFUSION EQUATIONS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
10. Latipova, S. S. (2023). SOLVING THE INVERSE PROBLEM OF FINDING THE SOURCE FUNCTION IN FRACTIONAL ORDER EQUATIONS. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(10), 13-23.
11. daughter Latipova, S. S. (2023). HEAT PHYSICAL MEANING AND ORIGIN OF DIFFUSION EQUATIONS. World of Scientific news in Science, 1(2), 163-176.
12. qizi Latipova, S. S. (2024). CAPUTO MA'NOSIDAGI KASR TARTIBLI TENGLAMALARDA MANBA FUNKSIYANI ANIQLASH BO 'YICHA TO 'G 'RI MASALALAR. GOLDEN BRAIN, 2(1), 375-382.
13. qizi Latipova, S. S. (2024). KASR TARTIBLI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. GOLDEN BRAIN, 2(1), 383-390.
14. qizi Latipova, S. S. (2023). MITTAG-LIFFLER FUNKSIYASI VA UNI HISOBLASH USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 238-244.

15. qizi Latipova, S. S. (2023). RIMAN-LUIVILL KASR TARTIBLI INTEGRALI VA HOSILASIGA OID AYRIM MASALALARNING ISHLANISHI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 216-220.
16. qizi Latipova, S. S. (2023). BETA FUNKSIYA XOSSALARI VA BU FUNKSIYA YORDAMIDA TURLI MASALALARNI YECHISH. GOLDEN BRAIN, 1(34), 66-76.
17. qizi Latipova, S. S. (2023). SOLVING THE INVERSE PROBLEM OF FINDING THE SOURCE FUNCTION IN FRACTIONAL ORDER EQUATIONS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
18. Shahnoza, L. (2023, March). KASR TARTIBLI TENGLAMALARDA MANBA VA BOSHLANG'ICH FUNKSIYANI ANIQLASH BO'YICHA TESKARI MASALALAR. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 3, pp. 8-10).
19. Latipova, S. S. qizi . (2024). GAMMA FUNKSIYA. GOLDEN BRAIN, 2(1), 391–399.

RAUF PARFI SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nomozova Dilobar Suyun qizi

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti, 2-kurs magistranti

E-mail: dilobarxonnomozova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodiga xos tun ramziy obrazining mohiyatiga diqqat qaratilgan. Shuningdek shoir she'rlaridagi tabiat tasvirlari ortidagi mazmun ochiqlangan. Buyuk rassomlarning shoir ijodiga ta'siri ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tun tasviri, so'fiylik, tabiat tasviri, ramziylik, rassomlardan ilhomlanish.

ABSTRACT

This article focuses on Rauf Parfi's work. The nature of the poet's poems is also revealed. To the poetic works of great artists.

Keywords: Night image, Sufism, nature image, symbolism, inspiration from artists.

KIRISH

Bugungi o'zbek she'riyatida modernizm o'zining o'rnini tobora chuqurroq egallamoqda. Bir qator yoshlarning bu yo'nalishda qalam tebratayotgani fikrimiz dalilidir. Modernizmning haqiqiy yo'l boshchilaridan biri sifatida buyuk ijodkor Rauf Parfi nomi ta'kidlab o'tiladi. O'zining ruhdor, o'tli she'riyati bilan shoir erk tushunchasi, Turkiston birligi, haqiqat tug'ini himoya qilib jadidlarning haqiqiy davomchisi o'laroq yashab ijod etdi deya ayta olamiz. Shuningdek shoir she'riyatida lirik qahramonning ruhiy talotuplarini mahorat bilan, o'zgacha tashbehlar bilan ifodalay olganligining guvohi bo'lamiz. Rauf Parfi ijodidagi noan'anaviy modernistik so'z obrazlar deya YOMG'IR, SHAMOL, QUSHCHA, CHIROQ, DARAXT, NAY, NUR, YAPROQ, XAZON, KECHA, KUNDUZ, OS(I)MON, QUYOSH, OY, TONG, SO'Z kabilar sanab o'tiladi [1Dedaxanova M. Avtoreferat.2021, 22-bet] Ushbu so'z obrazlarning o'ziga yuklatilgan ma'lum bir vazifasi bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA

Shoir she'rlarida tun tasvirini juda ko'p uchramiz. Ba'zan tun yomg'irli tarzda ifodalanadi. Shoir she'rlarida quyidagicha tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, qorong'u tunlar, xayrli tun, tun yaqin, yomg'irli tunda, go'zal tushlar tilayman, tunda

keldim uzoq safardan, yoz kechasi, og‘ir tun, mudrar yarim kecha uyquda, men haqimni olurman tundan, quyosh tark etti osmonni, yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi, hayhotdek tun ichra bir o‘zim. Shu singari boshlanmali she‘rlar Rauf Parfi ijodida ko‘proq 60-70-yillardagi she‘riyatida uchraydi. Taniqli olim va shoirning yaqin do‘sti B.Isabek shoirning ayrim she‘rlarini tahlil etayotganda tasavvufiy yondashish lozimligini ham ta‘kidlab o‘tadi. Chunki shoirning o‘zi ko‘p bora ta‘kidlagandek, ilk va butun umrlik unutilmas saboq bergan ustoz Abdurahmon Vodiliy so‘fiysifat inson bo‘lganlar va Rauf Parfi to‘rt yoshdaligidan boshlab shu insonning ta‘limini olgan. Sirojiddin Ibrohim bilan bo‘lgan intervyusida shoir o‘z maslagidan bir muddat chekinganligini va yana 1962-yildan keyin cherkaslarning qonli o‘ldirilishi sabab qaytganligini bayon etadi. Aynan shu davrdan keyingi bir qator she‘rlarining mohiyatini erk, ozodlik singari orzu-istaklar qamrab olgan.

Haybatli tun bilan boshlanadigan yana bir asar hazrat Navoiyning Xamsasi tarkibiga kiruvchi, ilohiy ishq tarannum etiluvchi „Layli va Majnun“ dostonidir. „Asarning „Ul tun mahobati ta‘rifi“ nomli 9-bobini o‘ziga xos navoiyona bir uslub bilan tun va hotif (g‘aybdan ovoz beruvchi) obrazlari vositasida „Ma‘nisi daquq lafzi shirin“, „dard-u so‘zi ko‘prak“ bo‘lishi nazarda tutilgan dostonning asosiy voqealari tasviriga kirishadi. Tun, chaqin, yomg‘ir timsollari va ishqqa berilgan ta‘rif-u tavsiflar orqali ulug‘ shoirning tayanch muddaosi asar qahramonlari ruhiy kechinmalarining jozibador tasvirini anglashilib turadi.[5Vohidov R., vaboshq. 2006. 351-bet] Yani ayta olamizki, shoir she‘rlaridagi tun tasvirlari lirik qahramonning o‘zini, o‘zligini topishga intilganligini, bu yo‘lda mashaqqat chekayotganligini ko‘rsatadi. O‘sha davr nuqtayi nazaridan Navoiyning „Layli va Majnun“ dostoni tasavvufiy, ilohiy ishq vasf etilgan asar deya baholanmagan tabiiy. Ammo yosh shoir uning botinini so‘fiy ustoz ko‘magida teran anglagan. Ya‘ni yuqoridagi singari tun tasvirlari bejizga keltirilmagan: bir muddatli adashishlardan, yo‘lini yo‘qotishlardan so‘ng, o‘ziga, o‘zligiga qaytish, o‘zligini qidirish jarayoni tasviri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shoir hech bir so‘zni behuda sarf etmaydi, qaariga chuqur, falsafiy mazmun yuklaydi. Ayniqsa oddiy tabiat tasvirlarni shunchaki yuzaki tahlil qilib bo‘lmaydi. Bu xususida shoirning o‘zi: “Inson huquqi- she‘riyat huquqi. Inson va tabiat uyg‘unligi abadiy, tabiat tartiboti o‘zgarmas, ammo inson tabiati o‘zgaruvchandir,”[3 Rauf Parfi. 2022. 221-bet] deydi. Shoir she‘rlarida tabiat tasviridek ko‘ringan parchalarida insonni, inson ruhiyatini, o‘zining davrga, siyosatga qarashlarini ham ifodalaydi. Quyida shunday she‘rlaridan birini tahlil qilamiz.

SHIVIRLAYDI OYOG‘IMDA YASHAB O‘TGAN XAZONLAR,

Ko‘zlarimga igna yanglig‘ sanchilmoqda mezonlar.

Huvillagan qishloq uzra quyuuq tuman cho‘kmoqda,

Yiroqlarda nay ko‘nglini so‘nggi bora to‘kmoqda. [2 Rauf Parfi.2022. 159-bet]

She'r yozilgan sana 1965-yil. Zamonaviy she'riyatda xazon, kuz tasviri mahzunlik ayriliq, umrning so'nggi damlarini ifoda etadi. Mumtoz she'rlarda esa yoridan ayro tushgan oshiqqa mengzash ko'p kuzatiladi. Huvillagan qishloq va nay ramziy obraz sifatida qo'llanilgan. Nay tasavvufda ilohiy ishqqa oshufta, oshiq ma'nolarida keladi. Huvillagan qishloq– shoirning huvillagan qalbi deya olamiz. Ya'ni, qalbi bo'm-bo'sh, ishqdan ayro, turli xil ikir-chikir tashvishlar girdobidagi qahramon, qachonlardir chinakam oshiq edi. Hotirotning olis dashtlaridan u haliyam eshitiladi. Keyingi misralarda shoirning dardi yanada oydinlashgandek bo'ladi:

Dala bo'm-bo'sh ko'milgandek unga ko'hna savollar,
Faqatgina kezib yurar izg'ib yurar shamollar
Faqatgina ko'rinadi kuygan daraxt mung'ayib
Qayda qoldi mangu bahor, qayga bo'lding sen g'oyib?

Shamol obrazini ham Rauf Parfi she'riyatida ko'p uchratamiz. Shamollar turlicha bo'lishi mumkin: yoqimli, qattiq, izg'irinli... Izg'ib yurish odatda salbiy bo'yoqlar uchun qo'llaniladi. Shamol– hayotning tezkor maromi.[B. Behuda o'tayotgan umrga ishora. Bo'm-bo'sh dalaga ko'milgan savollar nima bo'lishi mumkin? Balki, aslini, kimligini, ajdodlari kim ekanligini bilish haqidagi savollardir. Ammo she'r yozilgan davrdan kelib chiqadigan bo'lsak, buning asl javobi bo'm-bo'shlik edi. So'nggi satrlarda mung'ayib turgan kuygan daraxt timsoli bor. Daraxtni yaxshiroq tanib olish uchun shoirning boshqa bir she'ridagi tasvirlarga to'xtalib o'tamiz. „Turkiston yodi” she'rining so'nggi satrlari quyidagicha yakunlanadi:

Yig'la, endi ko'zim, sen-da yig'lab ol,
To'ysin ko'z yoshingga bu turkiy sitam.
To'ysin, Vatan yodi chidar bemalol,
O, sabr daraxti–qutlug' Turkiston.

Demak, daraxt— ona vatan, Turkiston, Turon timsoli. Mustamlaka zulmi ostida yashayotgan elning yurak-bag'ri kuyuk. Bahor–ozodlik ramzi. Shoir necha-necha dovullarda yo'qolmagan mangu hurlikni so'roqlaydi. Ilk satrlardagi oshiq-nay, vatanini, ozodlikni sevgan, qumsayotgan lirik qahramondir.

Mashhur polvon va sport ustasi shoirning do'sti Tursun Ali Muhammad Rauf Parfi haqidagi yozar ekan, shoir har qanday bir so'zga mohirona she'r yoza olish qobiliyatiga ega ekanligi, ammo oxirida yozgan bitiklarini ruhi yo'q so'zlar deya yirtib tashlaganini bayon etadi. R. Parfining she'riyatida ilohiy so'z badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan zalvorli bitiklari ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Bejizga So'zning yonida ilohiy istilohini ishlatmadik. Chunki qodir egam birgina so'zning qudrati ila o'n sakkiz ming olamni yaratgan, olamlarning gultoji insonni yaratgan, ojiz bandalariga ruh ato etgan. Shoir oddiy bo'yoqdor so'zlarni ishlatishdan chekinib, ruhi bor so'zlarni, ular vositasidagi she'rlarigina tan olgan. Umaman shoir ijodida ona vatanni ozod ko'rish

orzusidagi, turkiy xalqlarni birlikka chaqiruvchi she'rlari bir talay. Turon, Turkiston deya tilga olingan, cheksiz og'riq, ichki tug'yonlar bilan bitilgan she'rlarni o'qish, uqish o'quvchidan ham ma'lum bir zo'riqish talab etadi.

Shoir ijodida shuningdek buyuk rassomlar ijodidan ilhomlanib yaratgan she'rlari ham bor. Mikelanjelo, Van Gog, Pol Verlen singari botishning mashhur musavvirlariga bag'ishlangan bitiklari shular jumlasidandir. Bundan tushunish mumkinki, so'z va rasm o'rtasidagi nozik bog'liqlikni, san'at asari hisoblangan suratlarni ijodkor teran o'qiy olgan, his qila olgan. Jumladan, "Van Gog" deya nomlangan she'rini tushunish uchun o'quvchi rassomning asarlari bilan tanish bo'lishi kerak.

Buyuk sevgi rangin izlab yurardi,

Yozar moviylikka rangin qasida

deya boshlanadigan she'ri Van Gogning o'sha mashhur „Yulduzli tun“ asaridan ilhomlanib yozganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yuqoridagi misralarda rangin so'zi tajnisni hosil qilmoqda. Birinchi misradagi so'z ranglarini, ikkinchi misradagi so'z rang-baranglik, turfa ranglilik ma'nolarida qo'llanmoqda. Aynan moviylikka so'zidan she'r quyidagi suratdan ilhomlanib yozganligini anglaymiz.



XULOSA

Rauf Parfi shuningdek, o'zbek adabiyotida yangicha janrlar olib kira olgan, rivojlantira olgan ijodkordir. Yapon xokku va tankalarini ilk bora o'zbek adabiyotiga olib kirdi. Ushbu janrlarda o'zi go'zal namunalar yaratdi

Sovet sotsial realizmi adabiyotimizda hukumron davrda "askar shoirlar ijodida yillik paxta tayyorlash rejasining bajarilishi, yo fazo kemasining uchirilishi, kimningdir ko'kragiga davlat nishonining taqilishi, yo biror tarixiy sananing nishonlanishiga

bag‘ishlangan she‘rlar oz emas”[7.Каримов Н., ва бошк. 1999. 519-бэт] Ammo Rauf Parfi bunday yo‘ldan yurmadi. Uning o‘z zamonasi uchun yangilik bo‘lgan, keyingi avlod vakillari uchun ham katta maktab vazifasini o‘tagan inson ruhiyatining qoliplanishiga qarshi, erkning bo‘g‘ilishiga qarshi isyonkor she‘rlari qarigan qarashlarni parchalay oldi. Va to umrining so‘ngiga qadar shoir ilk modern ruhidagi she‘riyatiga sodiq qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Dedaxanova M. Modern she‘riyatda ma‘no ko‘chishining lingvokognitiv aspekti.(Rauf Parfi ijodi misolida) Avtoreferat. T.2021 Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)
2. Rauf Parfi. Saylanma 1-jild. T.: Muharrir. 2021. -159 b
3. Rauf Parfi. Saylanma 2-jild. T.: Muharrir. 2021. -212 b
4. Fazliddinov B., Rauf Parfi ijodida shamol obrazi. <https://dergipark/org.tr>. 2018. 1-Temmuz.
- 5.
6. Vohidov R., Eshonqulov H., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi.Adabiyot jamg‘armasi 2006. -351b
7. Каримов Н., Мамажонов С., ва бошкалар. XX аср узбек адабиети тарихи. Т. Укитувчи., 1999. -519 б

CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISHNING ANIQ USULLARI VA TADBIQLARI

Imomova Shafolat Mahmudovna

Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash
texnologiyalari kafedrasida dotsenti
E-mail: s.m.imomova@buxdu.uz

Mardonova Maftunabonu Abrorovna

Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika
(sohalar bo'yicha) mutaxassisligi magistri.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy hisoblash matematikasi bizga hodisalarni o'rganish va ularni boshqarish usullarini ishlab chiqish uchun atrofimizdagi haqiqatning matematik modellarini o'rganishga yordam beradi. Matematik modellar - matematik belgilar va ular ustida amallar yordamida o'rganilayotgan hodisaning soddalashtirilgan tavsifidir. Matematik modellar real jarayonlarga nisbatan to'g'rilik va adekvatlikka muvofiq, lekin, qoida tariqasida, ularni texnik jihatdan amalga oshirishning soddaligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Chiziqli tenglamalar sistemalarini yechish hisoblash matematikasining keng tarqalgan muhim muammolaridan biridir. Chunki ko'plab chiziqsiz xarakterga ega bo'lgan amaliy masalalar, differensial tenglamalar va yana bir qator masalalarni yechimlarini topishda masala chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishga olib kelinadi. Aynan shu maqsadda ushbu maqolada chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishning aniq usullari va tadbirlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Hisoblash matematikasi, chiziqli algebraik tenglamalar sistemi, matritsa, xos matritsa xosmas matritsa, determinant, xatolik, qoldiq, Kremer qoidasi, Gauss usuli, matematik model, teskari matritsa, yechim, taqribiy yechim.

Hisoblash texnologiyasining jadal rivojlanishi amaliy muhandislik va ilmiy muammolarni hal qilishda hisoblash matematikasi va dasturlashni birinchi o'ringa olib chiqdi. Hisoblash matematikasi tegishli matematik modellarni amalga oshirish orqali matematik muammolarni hal qilishning texnik bajarilishini ta'minlaydi. Chiziqli algebraik tenglamalar sistemalarini (ChATS)ni yechish usullarini ko'rib chiqamiz.

Asosiy tushunchalar va ta'riflar

n tartibli chiziqli algebraik tenglamalar sistemi (ChATS) quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\sum_{j=1}^n a_{ij}x_j = b_i; \quad i = \overline{1, n}$$

Yoki kengaytirilgan (2.1) shaklida yoki yoziladi.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{2n}x_n = b_2 \\ \dots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + a_{nn}x_n = b_n \end{cases} \quad (2.1)$$

$$Ax = b, \quad (2.2)$$

ChATSni (2.2) vektor shaklida yozish ham mumkin va bu yerda

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}; \quad x = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \vdots \\ x_n \end{pmatrix}; \quad b = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \vdots \\ b_n \end{pmatrix}$$

bo'ladi.

A matritsa tenglamalar sistemasining asosiy matritsasi, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)^T$ noma'lumlardan iborat vektor, $b = (b_1, b_2, \dots, b_n)^T$ - ozod hadlardan iborat vektor hisoblanadi.

n tartibli A matritsaning determinanti $D(\det A)$ soniga, ya'ni

$$|A| = D = \det A = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = \sum (-1)^k a_{1\alpha} a_{2\beta} \dots a_{n\omega}$$

ga teng.

Bu yerda $\alpha, \beta, \dots, \omega$ indekslar $1, 2, \dots, n$ raqamlarining barcha mumkin bo'lgan $n!$ ta almashtirishlari orqali ifodalanadi. k - bu almashtirishlardagi inversiyalar soni.

(2.1) ChATSni yechishning dastlabki bosqichida A matritsasining ko'rinishini va (2.2) dagi b ozod hadlardan iborat vektorini tahlil qilishdan iborat.

Agar barcha ozod hadlar nolga teng bo'lsa, ya'ni $b = 0$ bo'lsa, u holda

$$Ax = 0$$

(2.2) tenglamalar sistema bir jinsli deyiladi.

Agar $b \neq 0$ yoki kamida bitta $b_i \neq 0$ ($i = \overline{1, n}$), bo'lsa, u holda (2.2) tenglamalar sistemasini bir jinsli emas deb ataladi.

Agar A kvadrat matritsaning determinanti noldan farqli bo'lsa u xosmas matritsa deyiladi. Bunday holda, (2.1) sistema yagona yechimga ega.

Agar A matritsaning determinanti nolga teng bo'lsa u xos matritsa deyiladi.

Agar A matritsa determinantining qiymati nolga yaqin bo'lsa, u holda (2.1) tenglamalar sistemasi yomon shartlangan deb ataladi, ya'ni tenglamalar sistemasi yechimi sistema koeffitsientlarining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi.

(2.2) tenglamalar sistemaning yechimi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)^T$ vektorini topishdan iborat.

Topilgan yechimning aniq yechimdan farqini tavsiflovchi ikkita kattalik mavjud bo'lib, ular yaxlitlash va kompyuterning hisoblashdagi cheklavlari orqali paydo bo'ladi. Bular ε - xato va r - qoldiqlar deb ataladi.

$$\begin{cases} \varepsilon = x - x^*; \\ r = B - Ax^*; \end{cases} \quad (2.3)$$

Bu yerda x^* - yechimni vektor ko'rinishida ifodalanishi. x no'malumlardan iborat vektor.

Agar ε xatolik nolga yaqin bo'lsa, r qoldiq ham nolga yaqin ekanligi isbotlangan. Buni teskarisi esa doim ham to'g'ri emas. Agar tenglamalar sistema yomon shartlanmagan bo'lsa, yechim qiymatini baholash uchun r qoldiq ishlatiladi.

ChATS ni yechish usullari ikki guruhga bo'linadi: to'g'ri (aniq) usullar va iteratsion (yaqinlashuvchi) usullar.

Aniq usullarga hisob-kitoblar yaxlitlashsiz amalga oshiriladi va noma'lumlarning aniq qiymatlarini olish imkonini beradigan usullar kiradi. Bu usullar oddiy, universal hisoblanib va tenglamalar sistemasining keng sinfi uchun ishlatiladi. Biroq aniq usullar katta xatoliklarni keltirib chiqaradigan yuqori tartibli va yomon shartlangan tenglamalar sistemasiga to'g'ri kelmaydi. Aniq usullarga Kramer qoidasi, teskari matritsani topish usuli, Gauss usuli, kvadrat ildizlar usuli va boshqalar kiradi.

Yaqinlashuvchi usullarga hisob-kitoblar yaxlitlashsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lganda ham, tenglamalar sistemasini yechimini ma'lum bir aniqlik bilan olish imkonini beradigan usullar kiradi. Bu iteratsion usullar hisoblanib ketma-ket yaqinlashish usullari deyiladi. Iteratsion usullar oddiy iteratsiya va Zeydel usullari kiradi.

ChATSni yechishning aniq usullari

Kramer qoidasi

Keling, (2.1) tenglamalar sistemasini Kramer qoidasi bo'yicha yechishni ko'rib chiqaylik. Yuqorida aytib o'tilganidek, agar bu sistemaning determinanti noldan farqli bo'lsa, u holda u yagona yechimga ega bo'ladi. Kramer qoidasi bo'yicha yechim quyidagi

$$x_k = \frac{D_k}{D}, k = \overline{1, n},$$

formulalari yordamida topiladi, bu yerda D_k - D determinantning k ustunining $a_{1k}, a_{2k}, \dots, a_{nk}$ elementlarini mos ravishda (2.1) dagi b_1, b_2, \dots, b_n ozod hadlar bilan almashtirish orqali olingan determinant. Yoki

$$D_k = \sum_{i=1}^n A_{ik} b_i, k = \overline{1, \dots, n},$$

bu yerda A_{ik} - D determinantning a_{ik} elementining algebraik to'ldiruvchisi.

Bu yerda yuqori tartibli determinantlarni hisoblashda muhim muammo mavjud.

Teskari matritsa usuli

(2.2) sistemani yechimini topish talab qilingan bo'lsin. Bu tenglikning chap va o'ng tomonlarini A^{-1} teskari matritsaga ko'paytiramiz:

$$A^{-1}Ax = A^{-1}b.$$

U holda yechimni

$$x = A^{-1}b$$

formula yordamida topamiz.

Bu usulni amalga oshirishda esa A^{-1} teskari matritsasini topish, uni aniqlashning tejamlil sxemasini tanlash va yetarli aniqlikka erishish muammosi mavjud.

Gauss usuli.

Gauss usuli ChATSni yechishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. U noma'lumlarni ketma-ket yo'qotish g'oyasiga asoslanadi. Bunda dastlabki sistema diagonal dan pastdagi barcha koeffitsientlar nolga teng bo'lgan uchburchakli sistemaga olib kelinadi. Bu usulni amalga oshiradigan turli xil hisoblash sxemalari mavjud. Eng keng tarqalgani bosh elementni satr, ustun yoki butun matritsa bo'yicha tanlash sxemasidir.

Endi usulning mohiyatini ko'rib chiqaylik.

(2.1) chiziqli tenglamalar sistemaning birinchi tenglamasi yordamida x_1 o'zgaruvchi qolgan keyingi tenglamalardan chiqarib tashlanadi. Keyin, ikkinchi tenglama orqali x_2 keying qolgan tenglamalardan chiqarib tashlanadi. Shu tartibda davom ettiriladi. Bu jarayon Gauss usulining to'g'ri yo'li deb ataladi. Noma'lumlarni yo'q qilish chiziqli tenglamalar sistemaning oxirgi n - tenglamasining chap tomonida bitta noma'lum x_n qolguncha takrorlanadi.

$$a'_{nn}x_n = b', \quad (2.4)$$

bu yerda a'_{nm} va b' chiziqli (ekvivalent) o'zgarishlar natijasida olingan koefitsientlar.

Gauss usulining to'g'ri yo'li quyidagi formulalariga muvofiq amalga oshiriladi:

$$a^*_{mi} = a_{mi} - a_{ki} \frac{a_{mk}}{a_{kk}}, \quad k = \overline{1, n-1}; \quad i = \overline{k, n};$$

$$b^*_m = b_m - b_k \frac{a_{mk}}{a_{kk}}, \quad m = \overline{k+1, n},$$

bu yerda $m - x_k$ chiqarib tashlangan tenglama raqami.

k - qolgan $(n - k)$ tenglamalaridan chiqarib tashlangan noma'lumlar raqami, shuningdek, uning yordamida x_k chiqarib tashlangan tenglama raqamini bildiradi;

i - dastlabki matritsaning ustun raqami;

a_{kk} - matritsaning bosh (yetakchi) elementi.

Hisoblash jarayonida $a_{kk} \neq 0$ bo'lishiga kerak. Aks holda matritsa satrlarini almashtirishga to'g'ri keladi. Gauss usulining teskarisi x_n, x_{n-1}, \dots, x_1 noma'lumlarni ketma-ket hisoblashdan iborat:

$$x_n = \frac{b'}{a'_{nm}}; \quad x_k = \frac{1}{a'_{kk}} \left(b'_k - \sum_{i=k+1}^n a'_{ki} x_i \right), \quad k = \overline{n-1, \dots, 1}.$$

Olingan yechimning aniqligi "qoldiq" bilan baholanadi. Va u

$$\|r\| = \|B - Ax^*\| < \varepsilon$$

formula yordamida baholanadi. Aks holda yechimni aniqlashtirish sxemasidan foydalaniladi.

Ildizni topish.

Gauss usuli bilan olingan ildizlarning taqribiy qiymatlari aniqlanishi mumkin.

Optimal soliq yuki - bu soliqlarning fiskal va tartibga solish funksiyalarining muvozanatli kombinatsiyasini ta'minlashga, davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining murosaga kelishiga imkon beradigan soliq undiruvlari darajasidir. Optimal soliq yukining (R_{opt}) hajmi 2.6-rasmdagi fiskal qarama-qarshiliklar zonalarining chap tomonida bo'lishi kerak, ya'ni $R_{opt} \leq R_1$ yukiga mos kelishi kerak, chunki R_1 nuqtasining o'ng tomonida qo'shimcha soliq tuzog'ining ta'siri paydo bo'ladi. Ushbu maqbul shart davlat soliq siyosatining asosi bo'lishi kerak. Yukni sezilarli darajada kamaytirish R_1 budjet uchun xavf tug'diradi, chunki egri chiziqdan pastga siljish budjet tushumining yanada pasayishini ta'minlaydi va yuqoriga siljish maqbul emas, chunki bu iqtisodiyot uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Optimal soliq yukini aniqlash muammosi Laffer nazariyasida o'z aksini topmasada, garchi 1 va 2-turdagi Laffer nuqtalarini yetarli miqdorda aniqlash muammosi hali ham dolzarb bo'lib qolsada, zamonaviy yondashuvlar ma'lum darajada bo'shliqni to'ldirishga imkon beradi. Natijada, soliq tizimining isloh qilinishi zarurligi to'g'risida signal bo'lishi kerak bo'lgan soliq yukining maksimal chegarasiga erishish belgilarini o'z vaqtida aniqlash zaruriyati yuzaga keladi.

Zamonaviy "ilmiy xulosalar soliq yukining yuqori chegara darajasiga yaqinlashishning quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- soliq stavkalarining o'sishi davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi;
- investitsiyalar, ish o'rinlari soni qisqaradi va umuman mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati pasayadi;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlash darajasi oshadi.

Iqtisodiy nazariya postulatiga ko‘ra, shaxsning soliq yukini baholashda soliq to‘lovlari miqdorini, shuningdek, deklaratsiyalar va hisob-kitoblarni topshirish, soliqlarni undirish, shuningdek boshqa bir qator belgilangan qoidalarni ta‘minlash uchun institutsional xarajatlarni hisobga olish kerak”¹

R. Krilavning so‘zlariga ko‘ra, “soliq yuki uning shaxslarning (yuridik shaxslar emas) farovonligiga ta‘siri bilan tavsiflanadi, chunki soliqlarni o‘tkazish ta‘siri tufayli yuridik shaxsning xarajatlari oxir-oqibat tovarlar va xizmatlar xaridorlariga o‘tkaziladi”².

Shuning uchun jismoniy shaxslarga soliq yukini hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$NB_{\text{absol.}} = N + I_T ;$$

$$NB_{\text{otnos.}} = \frac{N + I_T}{D}, \text{ bu yerda,}$$

NB_{absol} – soliq yukining mutlaq ko‘rsatkichi;

$NB_{\text{otnos.}}$ – soliq yukining nisbiy ko‘rsatkichi;

N - soliq to‘lovlari miqdori;

I_t - tranzaksion soliq xarajatlari;

D - daromad.

O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish va ochiqligi bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi bilan biznes geografiyasi va iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlari sezilarli darajada kengayishiga olib keldi.

“Zamonaviy rivojlanish sharoitida ko‘plab mamlakatlar soliq iqlimining o‘ziga xos afzalliklari va davlatning biznes va tadbirkorlik faoliyatiga sodiqligini ko‘rsatadigan ijobiy soliq imidjini shakllantirishga harakat qilmoqdalar”³. “O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ham davlat soliq xizmati organlarining ijobiy imidji va yagona uslubini yaratish asoslari yo‘lga qo‘yildi”⁴.


Globalashuv sharoitida milliy soliq tizimlari transformatsiyasi tashqi omillarning ikki guruhi ta‘siri ostida sodir bo‘ladi: global iqtisodiy omillar va xalqaro soliq muhiti omillari (3.4-rasmga qarang).

¹ Меркулова Т.В. Институт налога. Харьков, 2006. С. 56.

² Крилав Р. Концепции распределения налогового бремени // Пособие по налоговой политике. Вашингтон: МВФ, 1995. С. 43.

³ Чугунова А. А. Повышение имиджа и престижа работы в налоговых органах как важный элемент сильной системы налогообложения. Ж. Молодой ученый. 2019. - № 42 (280). – С. 136-138. электронный ресурс – URL: <https://moluch.ru/archive/280/63108/> (дата обращения: 11.01.2023).

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги “Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3802-сон қарори.



3.4-rasm. Milliy soliq tizimlariga tashqi omillar ta'siri.¹

Tashqi ta'sirlarga javob beradigan soliq jarayonlaridagi global tendensiyalar milliy soliq suverenitetidan tubdan uzoqlashishni keltirib chiqardi. Bu o'zgarish butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan mamlakatlar soliq tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu o'zgarishlarga duch kelgan davlatlar soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishga, ularni dolzarb ehtiyojlar va doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftga moslashtirishga chaqiriladi. Ushbu qayta baholash bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

-hamkor davlatlar soliq organlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni mustahkamlash;

-soliq turlarini, stavkalarini, soliq solish bazalarini va ular bilan bog'liq elementlarni tartibga solishni o'z ichiga olgan milliy soliq tizimlarini bosqichma-bosqich moslashtirish va soliqqa tortish tamoyillarini uyg'unlashtirish;

-soliq to'lovchilar o'rtasida moliyaviy va soliq hisobotlariga standartlashtirilgan yondashuvlarni takomillashtirish;

-o'zaro bog'liq bo'lgan global muhitimizning nozik tomonlari bilan kurashish uchun soliq masalalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Jahon iqtisodiy tizimidagi globallashuv jarayoni xalqaro soliq raqobati deb nomlanuvchi raqobatning alohida shaklini keltirib chiqardi. Ushbu raqobat, birinchi navbatda, qulay soliq stavkalari va soliq tizimini taklif qilish orqali xorijiy kapital, texnologik nou-xau va tajribani jalb qilishga qaratilgan. Yakuniy maqsad soliq tushumlarini oshirish, ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini

¹ Muallif tomonidan xorijiy tajribani o'rganish asosida tuzilgan.

oshirish, ish haqini oshirish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va pirovardida butun aholi farovonligini oshirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining axborotnomasi.
2. <http://www.Soloq.uz>-(Davlat solqi qo‘mitasi sayti)
3. <http://www.mf.uz>- (Moliya vazirligi sayti)
4. <http://www.stat.uz>-(Davlat statistika qo‘mitasi sayti)
5. <https://www.sciencedirect.com>
6. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – biznes yuritish loyihasi).
7. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – bir nechta manbalardan tuzilgan batafsil mamlakat statistikasi, diagrammalar va xaritalarni o‘z ichiga olgan sayt).
8. <https://taxfoundation.org> – (Soliq fondi – Vashingtondagi tahlil markazi).
9. <https://www.nalog.gov.ru> – (Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati).
10. <https://davreestr.uz> – (Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestri).

O‘ZBEK TILI HAMDA HUQUQ FANININI O‘QITISHDA ZARURIY BILIM HAMDA KO‘NIKMALARINI O‘QUVCHILAR ONGIDA SHAKLLANTIRISHNING MUHIMLIGI

Ismatova Munavvar Yunus qizi

Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi
Tarbiya va davlat huquqi asoslari fani o‘qituvchisi

Sobirova Guloyim Bahodirovna

Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi Ona tili fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maktab ta’limi tarixida nimani o‘qitish va qanday o‘qitish masalalari asosiy muammolardan biri bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qolmoqda. Bular garchi alohida-alohida masalalar sanalsa-da, ammo aslida bir-biri bilan chambarchas bog‘langandir. Ta’lim samaradorligi ma’lum darajada ana shu ikki masalaning o‘z yechimini to‘g‘ri topa olishi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiyni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni, Huquqshunoslik.

АННОТАЦИЯ

В истории школьного образования вопросы, чему и как учить, были и остаются одной из главных проблем. Хотя эти вопросы считаются отдельными, на самом деле они тесно связаны друг с другом. В определенной степени эффективность образования определяется умением найти решение этих двух проблем.

ABSTRACT

In the history of school education, the issues of what to teach and how to teach have been and remain one of the main problems. Although these are considered separate issues, they are in fact closely connected with each other. To a certain extent, the effectiveness of education is determined by the ability to find a solution to these two issues.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni

qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”¹, degan muhim vazifa qo‘yildi.

Yangilanish davrida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Davlatimiz rahbarining Farmon va Qarorlari o‘zbek tilini o‘rganish, uning davlat tili maqomini mustahkamlash, mamlakatimiz va jahonda keng targ‘ib qilish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim tarixiy qadam bo‘ldi. “Hamda buni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 29-oktabrda qabul qilingan qilindi.

Ma’lumki, 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’limning mazmuni va metodlarini yangilash muhim vazifa sifatida belgilangan.”²

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, umumta’lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

Ko‘p tillarni bilish, albatta, yaxshi, ammo ona tilini bilish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillarning eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Tilni rivojlantirish, jamiyatda undan foydalanishni qulaylashtirish, uni madaniyat, san’at va fan tiliga aylantirish boshqa ko‘plab muhim sohalarning o‘shida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shularni chuqur anglagan adibimiz Xurshid Davron o‘zbek tilining rivoji haqida kuyunib shularni yozgan edi: "... o‘zbek tilining kelajagi shu tilda so‘zlovchi xalq ijodiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

² 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

tafakkurining quvvatiga bog'liq. Bu tafakkur harakatda bo'lgandagina muvaffaqiyatga erishadi".

Huquqni o'qitish metodikasi o'z predmeti sifatida huquqni o'qitishning uslubiy usullari, vositalari, huquqiy sohada malaka va xulq-atvorni shakllantirishga ega. Bu maktabning "Huquq" fani uchun huquqiy material tanlab oladigan va umumiy didaktik nazariya asosida jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishning uslubiy vositalarini ishlab chiqadigan ilmiy fandır. Huquq fanini o'qitish metodikasi ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Kasbiy o'qituvchi o'z yutuqlaridan foydalanib, xatoga yo'l qo'ymaslik, jamiyat hayotida o'zining munosib o'rini egallaydigan chinakam savodli, bilimli kadrlarni tayyorlashi mumkin. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda biznesni muvaffaqiyatli yuritish, mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etish yoki oddiygina yaxshi daromadga ega bo'lish imkonini beruvchi yuridik bilimdir.

O'quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish, o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat. Umumiy o'rta ta'limi muassasalarida davlat va huquq asoslari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida huquqshunoslik fani bo'yicha ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini chuqur o'rganish muhim hisoblanadi.

"Shu o'rganish jarayonida o'quvchilarda:

- Huquqiy ongga ega bo'lish kompetensiyasi
- Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, o'dob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini;
- huquq va huquqqa zidlik haqida ma'lumot ;
- axloq va huquq qoidalarini;
- bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini;
- Jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma'lumot bera oladi;
- inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini ;
- hokimiyat va uning bo'linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;
- O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini, huquq sohalari haqida ma'lumotga, huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib bera oladi; kundalik faoliyatida vujudga

keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi".¹

So'nggi yillarda kichik yuridik xodimlar tayyoyorlashga, yuridik xizmatlarni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan yuridik kollejlarning ham texnikum darajasiga o'tkazilishi hamda mazkur yuridik texnikumlarda ham 2020-2021 o'quv yilidan o'qitishning modul tizimi joriy etilishi ta'limga innovatsion yondashuvlardan biri bo'ldi. "2020-yil 30-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hukumat 5987-sonli qarori⁷ qabul qilingan edi. Ushbu qarorda yuridik texnikumlarga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanib, unda texnikumlarga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish, kirish imtihonlarini o'tkazish tartibi, kirish imtihonlari natijasi bo'yicha berilgan apellatsiyalarni ko'rib chiqish hamda ularni o'qishga qabul qilish normativlari aniq ko'rsatib o'tilgan edi".²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
2. 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepiyasi"
3. Urumov A.V. "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o'qitishning didaktik tamoyillari / Urumov A. V. // Yuridik ta'lim va fan.-2010. - N 3.-S. 25-29.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 09/21/243/0388-son)

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 09/21/243/0388-son)

² Urumov A.V. "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o'qitishning didaktik tamoyillari / Urumov A. V. // Yuridik ta'lim va fan.-2010. - N 3.-S. 25-29.

SOLIQ SOHASINI TUBDAN ISLOH QILISH VA SOLIQ TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Raxmonov Norim Razzakovich

TDIU i.f.d., professori

Miraxmatov Mirrahim Mirzakarim o‘g‘li

TDIU Mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimiz mustaqillika erishgandan keyingi bosqichda soliq siyosatidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar va bugungi kunga qadar soliq siyosatidagi evolutsiyon rivojlanish bosqichlariga chuqur to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, soliq siyosatining samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqish jarayonida uning tarkibiy qismlari alohida tahlil qilingan va YaIM hamda soliq yuki ko‘rsatkichlari ta’sir dinamikasi birgalikda o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq yuki, YaIM, soliq qarzi, soliq tushumi, soliqlarning elastiklik koeffisienti.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategiyasini amalga oshirilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilishiga asos bo‘ldi. Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo‘ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to‘lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi.

Tovar aylanmasidan 3,2 foiz miqdorda olinadigan ajratmalar, Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i (8 foiz) bekor qilindi, mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga pasaytirildi, QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi.

Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari 25 foizdan 12 foizga tushirilishi, fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari (8 foiz) bekor qilinishi hamda daromad solig‘ini hisoblashning oshib boruvchi shkalasidan (eng yuqori stavkasi - 22,5 foiz) voz kechilib, qat’iy 12 foizga tushirilishi natijasida ish haqiga soliq yuki qariyb

2 baravar pasaydi. (Misol uchun: Yevropa davlatlari Shvetsiyada daromad solig‘i stavkasi – 56,9%, Angliyada 20-45%, Daniyada – 55,6%, Ispaniyada 45%, QQS stavkasi Daniya, Norvegiya, Shvetsiyada – 25 %, Finlyandiyada – 24%, Vengriyada – 27 %, Rossiya, Belarus va Ukrainada – 20 %). 2022-yilda ham soliq yukini pasaytirish izchil davom ettirilib, amortizatsiya foizlari va investitsiyaviy chegirmalari miqdori 2 baravarga oshirildi, uyali aloqa kompaniyalariga aksiz solig‘i stavkasi 15 foizdan 10 foizgacha, polietilen granulari aksiz solig‘i 20 foizdan 10 foizgacha pasaytirildi, ayrim hududlarga maxsus soliq rejimi joriy etilib, xususan aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilandi. Natijada, 2022-yildan ayrim stavkalarining pasaytirilishi natijasida tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida dastlabki tahlillar natijasi bilan 4,5 trln so‘m mablag‘ qoldi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan soliq idoralari oldiga qo‘ygan yangi vazifa – “Soliq idorasi – tadbirkorga ko‘makchi” tizimini qo‘llash tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatishdagi eng muhim ishlardan bo‘ldi. Shuningdek soliq organlarini xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga aylantirildi. “Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili asosida ishlarning tashkil etilishi natijasida birgina 2022-yilda: soliq hisobotlarini avtomatlashtirish orqali soliq hisobotlarini ixtiyoriy taqdim etish ko‘rsatkichi 99 foizga yetdi, kadastr agentligi ma‘lumotlari jamlanganligi hamda “Ye-imtiyoz” dasturi orqali respublika bo‘yicha 66,5 mingta noqishloq yer solig‘i to‘lovchilari hamda 61,9 mingta mol-mulk solig‘i to‘lovchilarning, aylanmadan olinadigan soliq hisoboti respublika bo‘yicha 359,4 mingta to‘lovchiga 100 foiz to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lsa, elektron hisobvaraqa-faktura, onlayn nazorat kassa texnikasi, “marketpleys” tizimi ma‘lumotlari hamda Bojxona qo‘mitasi bilan real vaqt rejimida ma‘lumot almashishni joriy etish orqali QQS hisoboti 173,9 mingta to‘lovchiga (86 foiz) avtomatlashtirildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha vujudga kelgan manfiy farq summalarining belgilangan tartibda qaytarib berilishi natijasida, 2022-yilda soliq to‘lovchilarga 20,1 trln so‘m qoplab berildi yoki 2021-yilga nisbatan qariyb 7,6 trln.so‘mga ko‘p mablag‘ qaytarildi. Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlariga hamda ushbu obyektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo‘llash bekor qilinib, 18,5 mingta obyekt mulkdorlariga 1,7 trln so‘m soliqlarni hisoblanishi to‘xtatildi hamda 20,5 mingta obyekt mulkdorlarga nisbatan ta’sirchan soliq mexanizmi qo‘llanilishi natijasidan hosil bo‘lgan 1,8 trln so‘mlik soliq qarzi hisobdan chiqarildi.

Xorijiy valyutadagi tushumni kechiktirish holati uchun qo‘llaniladigan moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirildi. 2022-yil davomida 2 507 ta xo‘jalik subyektlariga moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirilishi natijasida

752,9 mlrd so‘m miqdoridagi summa xo‘jalik subyektlari ixtiyorida qoldi. Debitor va kreditor qarzdorliklar muddatini o‘tkazib yuborganlik uchun ma‘muriy jarima qo‘llash bekor qilindi. Buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilindi. Eksport qilishdan olingan daromadlar hajmining ulushidan qat‘iy nazar, eksport qilingan tovarlar (xizmatlar) qismiga nisbatan foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq solinmasligi belgilandi.

Kichik va o‘rta biznes toifasiga kiruvchi tadbirkorlar uchun soliq to‘lovlarini 6 oyga foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi berildi.

Bundan tashqari, “Soliq” mobil ilovasi bilan soliq to‘lovlarini to‘lashda jismoniy shaxslarga oson va qulay to‘lash tizimi ishlab chiqildi. Bugungi kunda takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda. 2022-yilda (1-avgustidan 31-dekabr kuniga qadar) 59 995 ta soliq to‘lovchilar tomonidan 10,8 mlrd so‘m soliq to‘lovlari “Soliq” mobil ilovasi orqali amalga oshirildi. Natijada soliq to‘lovchilarga majburiyatlari bo‘yicha ya‘ni ortiqcha to‘lovga yo‘l qo‘ymasdan, xato to‘lanishini oldini olish hamda bir vaqtning o‘zida bitta jarayon (operatsiya) orqali barcha obyektlari bo‘yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyati hamda ularning shaxsiy hisobvarag‘iga bir daqiqa ichida hisobga olish tizimi yaratildi.

Televideniye va radio orqali 9,5 mingta, ijtimoiy tarmoqlar orqali berilgan axborotlar 35,7 mingtani tashkil etdi. Call markazi tomonidan 878,7 mingta qo‘ng‘iroqlar orqali tadbirkorlarga majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qaroriga muvofiq soliq xizmati organlarida 2019-yildan boshlab Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasini tashkil etilib, xizmat ko‘rsatishning markazlashgan tizimi sohalar bo‘yicha belgilandi va bugungi kunda 962 ta soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Inspeksiyaning tashkil etilishi bilan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, soliq ma‘murchiligining sifati oshishi natijasida budjetga tushadigan mablag‘lar miqdori 2022-yil yakuni bilan 88,3 trln so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan qariyb 2,5 barobarga ko‘p tushum ta‘minlandi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida soliq ma‘murchiligini markazlashgan holda hududiy soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi joriy etildi (5 yil davomida QQS to‘lovchilar soni 6,7 mingtadan 173,9 mingtaga yoki 26 barobarga, tushum 13,8 trln.so‘mdan 32,8 trln. so‘mga yoki 2,4 barobarga oshgan).

Soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashish maqsadida “Soliq-servis” davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Soliq to‘lovchilar faoliyati yuzasidan tashkil etiladigan tekshirishlar soni 13 tadan 3 taga qisqartirildi hamda

xalqaro amaliyotning muvaffaqiyatli tamoyillarini nazarda tutuvchi soliq tekshiruvini o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma tasdiqlandi. Soliq xavflarini inson omilisiz tahlil qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy etildi, bu soliq tavakkalchiligini baholash va ularni keyinchalik xavf segmentlariga taqsimlashning vijdonli mezonlari va xizmat ko'rsatish siyosatini tanlash asosida soliq to'lovchilarni aniqlash imkonini beradi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil - 400 ta mezon asosida "Avtokameral" tizimi joriy qilinib, soliq to'lovchilarga mezonlar oshkora ko'rinishining yo'lga qo'yilishi, soliq to'lovchilarga xato-kamchiliklarini mustaqil bartaraf qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi va ularda soliq tekshiruvlarini o'tkazilishining oldi olindi. Bu imkoniyatdan 49 723 ta soliq to'lovchilar samarali foydalanib, jami 2,3 trln so'm qo'shimcha hisoblab tuzatilgan qayta hisobotlarini taqdim qildilar. Natijada ushbu tadbirkorlik subyektlarida hech qanday soliq tekshiruvlari o'tkazilmadi hamda ularga nisbatan 1,1 trln so'm moliyaviy jarima qo'llanilishi oldi olindi.

Soliq islohotlarini amalga oshirilishi pirovardida: faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari soni 541,5 mingtaga yetib, 2018-yilga nisbatan 105,4 mingtaga (24%) ko'paydi, qo'shilgan qiymat solig'ining jami tushumdagi ulushi 2020-yilda 19,8 foizni, 2021-yilda 20 foizni va 2022-yilda 22,1 foizni tashkil etdi, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 2018-yilga nisbatan 11,0 trln so'mga yoki 1,8 barobarga, o'tgan yilga nisbatan 5,4 trln so'mga ko'payib, 24,3 trln so'mni tashkil etdi. Ma'lumot uchun qayd etish joizki, 2022-yil yakunlariga ko'ra, aholini rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tib qonuniy ishlaydigan qismi 5,1 mln kishini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 1,2 ming kishiga (31 foizga) oshdi.

Soliq organlarida axborot-texnologiyalari sohasida ham sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Oxirgi yillarda 41 ta avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etilib, interaktiv soliq xizmatlari soni 30 tadan 50 taga yetdi.

Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma'murchiligining yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraqq-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnoma tizimlari joriy etildi. EHF va elektron shartnomalar yo'nalishida 2022-yilda rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqq-fakturalar soni 38,1 mln tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,4 mln ta ko'paydi. Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 402,7 trln so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 252,6 trln so'mga (22 %) ortgan bo'lsa, QQS summasi 134,2 trln so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 21,0 trln so'mga (19 %) oshgan. Rasmiylashtirilgan elektron ishonchnomalar soni 2022-yilda 4,5 mln tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 805 376 taga (22 %) oshdi. Elektron shartnomalar o'tgan yilga nisbatan 1,1 mln taga yoki 5 baravarga oshib, 1,4 mln taga yetdi.

Onlayn-NKT yo‘nalishda onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanuvchilar soni 145 332 taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 24 983 taga (21%) ortdi. Ular foydalanayotgan ONKT soni 246 267 tani tashkil etib, o‘tgan davrga nisbatan 19 974 taga (9%) ko‘paygan bo‘lsa, ularda aks ettirilgan cheklar soni 720,8 mln taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 336,8 mln taga (88%) oshdi. E-Imtiyoz yunalishida 2022-yil davomida 130,6 mingta xo‘jalik subyektlari 72,9 trln so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalanib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 60 foizga o‘sgan. E-ijara yo‘nalishida 2022-yilda “E-ijara” interaktiv xizmatida ijaraga beruvchilar soni 186 219 tani, ro‘yxatga olingan shartnomalar soni 325 513 tani tashkil etdi. Ushbu shartnomalarning umumiy summasi 8,5 trln so‘mni, shartnoma summasiga nisbatan hisoblangan soliq summasi 486,1 mlrd so‘mni, shu jumladan daromad solig‘i 240 mlrd so‘mni tashkil etdi. Turar joy egalari bilan talabalar o‘rtasida 44 268 ta ijara shartnomasi tuzilib, ijaraga beruvchilarga 12,7 mlrd so‘mlik soliq imtiyozlari berildi.

Mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimidan foydalanuvchilar soni 2022-yilda 51 377 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 40 264 taga yoki 4,6 baravarga ortdi. Ular tomonidan markirovkalangan tovarlar miqdori 2,0 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 1,1 mln ta ko‘p yoki 2,2 baravarga ortdi. 2022-yil yakuni bilan mahsulot va xizmatlarning yagona milliy elektron katalogiga kiritilgan tovar va xizmatlar soni 255 683 taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 185 519 taga yoki 3,6 baravarga ortdi.

my.soliq.uz saytidagi interaktiv xizmatlar bo‘yicha 2022-yilda foydalanuvchilar soni 1,4 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 267 584 taga (23%) ko‘paydi. “SOLIQ” mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni 1,8 mln taga yetib, shundan shaxsi verifikatsiyadan o‘tgan foydalanuvchilar soni 835 300 tani tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4742-son qaroriga muvofiq 67 turdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga o‘zini-o‘zi band qilgan fuqaro sifatida ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat yuritish imkoniyati yaratildi (bugungi kunda o‘zini-o‘zi band qilish faoliyat turlari 102 tani tashkil etadi). Bunda, o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs o‘z faoliyati bo‘yicha olgan daromadlari soliqqa tortilmasligi belgilanib, ixtiyoriy ravishda BHM 0,5 baravarini to‘lagan holda mehnat staji hisobi yuritilishi joriy etildi. Mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi va yangi O‘zbekiston qurilishi bilan o‘sha paytda amalda bo‘lgan Soliq kodeksi yangi talablarga javob bermasligi va yangilanishi kerakligi aniq bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O‘RQ-599-son qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo‘lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat

sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat budjeti mustahkamligini ta'minlash va budjet daromadlarini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Bunga soliq qonunchiligini tartibga solish, soliqqa tortishni tartibga soluvchi qonunchilik doirasidagi nomuvofiqlik va nizolarni bartaraf etish, qonunga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish orqali erishiladi. Soliq kodeksini qayta ko'rib chiqish jarayonida soliqlarni, xususan, bir xil soliq solish bazalariga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish tartiblarini soddalashtirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni cheklashni nazarda tutuvchi sezilarli optimallashtirish amalga oshirildi. Umuman olganda, Soliq kodeksining yangi tahriri amalda tasdiqlangan soliqlarni yig'ish tamoyillari va yondashuvlariga, boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan. Xususan, XVF va JB kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ko'magida MDH mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalanilgan. Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi O'zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirishga, qonunga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilar huquqlarini yuqori darajada himoya qilishni ta'minlab, uni milliy va xorijiy investorlar uchun osonroq va tushunarli qilishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining axborotnomasi.
2. <http://www.Soloq.uz>-(Davlat soliqi qo'mitasi sayti)
3. <http://www.mf.uz>-(Moliya vazirligi sayti)
4. <http://www.stat.uz>-(Davlat statistika qo'mitasi sayti)
5. <https://www.sciencedirect.com>
6. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – biznes yuritish loyihasi).
7. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – bir nechta manbalardan tuzilgan batafsil mamlakat statistikasi, diagrammalar va xaritalarni o'z ichiga olgan sayt).
8. <https://taxfoundation.org> – (Soliq fondi – Vashingtondagi tahlil markazi).
9. <https://www.nalog.gov.ru> – (Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati).
10. <https://davreestr.uz> – (Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri).

ФИНАНСЫ И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРВАНИЯ

Хошбаков Баходир Абдулазизович

Агенство по работе махаллабай и развития предпринимательства

Сурхандарьинской области

E-mail: paren1989@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Данной статье рассматриваются проблемы финансирования инновационного развития государства. Так, в последние годы правительство Узбекистана начало активно рассматривать ускорение инновационной деятельности в качестве главного двигателя устойчивого экономического развития, выдвигая вопросы развития инновационных технологий и науки в число важнейших государственных приоритетов. Дается анализ основных факторов, влияющих на реализацию инновационного потенциала в системе государственного регулирования, и предоставляются предложения по совершенствованию данной деятельности.

Ключевые слова: инновации, инновационный потенциал, национальная инновационная система, инновационное развитие, наукоёмкие технологии, инновационные предприятия.

DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA MOLIYA VA INNOVATSION RIVOJLANISH

Xoshbakov Baxodir Abdilazizovich

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining

Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi

E-mail: paren1989@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlatning innovatsion rivojlanishini moliyalashtirish muammolari ko'rib chiqildi. Shunday qilib, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati innovatsion faoliyatni jadallashtirishni barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida faol ko'rib chiqqa boshladi, innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni rivojlantirish masalalarini eng muhim davlat ustuvorliklari qatoriga qo'ydi. Davlat tomonidan tartibga solish tizimida innovatsion salohiyatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi va ushbu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion salohiyat, milliy innovatsion tizim, innovatsion rivojlanish, yuqori unumli texnologiyalar, innovatsion tashkilotlar.

ВВЕДЕНИЕ

Процесс глобализации, занимающий в настоящее время в ряду современных социально – экономических тенденций особое место, выдвигает на первый план проблему конкурентоспособности национальной экономики, что требует выработки адекватной стратегии развития.

В современных условиях именно инновации определяют перспективы развития экономики страны и являются доминантой функционирования всех компонентов хозяйственного механизма. Инновационная деятельность должна стать основным фактором, способным обеспечить устойчивый экономический рост и развитие.

В новом Узбекистане уделяется пристальное внимание стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, созданию эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику, организации при высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских институтах научно-экспериментальных специализированных лабораторий, центров высоких технологий, технопарков.

В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, поставлена амбициозная цель - войти к 2030-му в состав 50 передовых стран мира по рейтингу Глобального инновационного индекса. Основа осуществления этой задачи - адаптация сферы науки к современным экономическим условиям, что в свою очередь должно привести к кардинальным изменениям в структурном, организационном, кадровом и финансовом обеспечении ее развития, регулируемым прочной нормативной правовой базой.[1]

Повышение инновационной активности всех хозяйствующих субъектов предполагает проведение эффективной инновационной политики государства, так как новые знания, обладая свойствами общественных благ, создают положительные экстерналии. Государственная поддержка необходима потому, что самой инновационной деятельности присущи высокая степень неопределенности и риска.

Степень изученности. Среди современных исследователей, исследующих влияние финансового развития на инновации заложены в трудах Джебом Кимом и Сяо Ян Чжу.[2] Авторы оценивали как финансовое развитие влияет на инновации в высокотехнологичных и в не высокотехнологичных отраслях экономики, где объясняют непропорциональной концентрации рынка, вызванной распределением средств.

Теоретические работы в области анализа влияния инноваций на развитие финансового состояния государства начались во второй половине 20 века с работы Р. Солоу, который ввел технологический прогресс в модель экономического роста. [3] В результате анализа, Солоу пришел к выводу, что только небольшая доля исходного прироста продукта может быть объяснена возросшими затратами труда и капитала. Он доказал, что $\frac{7}{8}$ роста американской экономики за период с 1909 года по 1949 годы объясняется благодаря техническому прогрессу и лишь $\frac{1}{8}$ – благодаря капиталовложениям.

Влияние инноваций на развитие финансового потенциала региона рассмотрены в трудах С.Худайкулова и Л.Бурановой которые рассматривали взаимозависимость инноваций и инновационных технологий с финансовым потенциалом региона. Ученые отметили, что: - «Чем меньше объем инноваций, внедряемых в регионах, тем больше потребность в наукоемкой продукции, основанная на научном потенциале и зависимости от импортной продукции. Это увеличит расходы бюджета и потребует межбюджетных трансфертов» [4].

Дальнейшие исследования шли по пути анализа влияния расходов на исследования и разработки на экономический рост. Этот анализ показал, что рост расходов на исследования и разработки на 1% приводил к увеличению выпуска на величину от 0,05% до 1%. Последние исследования экономического роста Ромера, Лукаса, Барро вводят инновации в саму систему, считая его эндогенным фактором. Эти работы рассматривают четыре основных вида инноваций: обучение на опыте, человеческий капитал, исследования и разработки и инфраструктура. Особенностью последних работ в области влияния инноваций на экономический рост является использование межстрановых сравнений.

МЕТОДОЛОГИЯ

В ходе исследования использовалась совокупность методов научного познания экономических явлений и процессов: анализ, синтез, индукция, дедукция. Сбор, обработка и обобщение фактического и статистического материала базировались на использовании метода сравнительного анализа.

Выявление тенденций развития и исследование взаимозависимостей в работе основывается на применении системного подхода, статистических и эконометрических методов, а также графического инструментария.

РЕЗУЛЬТАТЫ И АНАЛИЗ

Понятие инновации — это создание нового или усовершенствованного продукта или процесса в результате осуществления научных исследований и разработок, которое было внедрено в производство или в организационную деятельность и в случае продукта - выпущено на рынок [5].

В Республике Узбекистан национальная инновационная система определяется как сеть инструментов в государственном и частном секторе, чья деятельность и взаимоотношения инициирует, импортирует, модифицирует и распространяет новые технологии [6]. Схематическое представление научной инновационной системы, представленной в диаграмме -1 объединены в три группы с выделением роли финансовых инструментов стимулирования и коммерциализации инноваций.

Диаграмма-1

Национальная инновационная система Узбекистана



На основе диаграммы видно, что развитие и отдача от инноваций находятся в сильной взаимозависимости с благоприятным климатом по ведению бизнеса, легкость ведения деловой активности, наличие человеческого потенциала, развитость ИКТ а также доступ к финансированию.

Инновационное развитие предприятий и государства в целом измеряют с помощью показателей. Для межстрановой стандартизации измерения инновационной активности используются методологические указания международных организаций [7].

Основным показателем, измеряющим инновационную активность на микроуровне, является показатель наукоёмкости, рассчитываемый как отношение расходов на исследования и разработки к общему обороту организации. Показатель наукоёмкости может применяться также и на отраслевом уровне, как отношение затрат на исследования и разработки к выпуску отрасли. Критерий наукоёмкости используется и для деления отраслей по степени технологичности на низкотехнологичные (наукоёмкость меньше 1%), среднетехнологичные низкого уровня (наукоёмкость от 1% до 2,5%), среднетехнологичные высокого уровня (наукоёмкость от 2,5% до 7%),

высокотехнологичные (наукоемкость выше 7%). Среднетехнологичные высокого уровня и высокотехнологичные отрасли объединяются в высокотехнологичные виды экономической деятельности.

Показатели оценки на макроуровне анализируют уровень расходов на исследования и разработки всех субъектов экономической деятельности, структуру кадров на предприятиях, общее число инновационно – активных организаций, выдачу патентов, образовательный уровень. Инновационная политика в Республике Узбекистан определяется Президентом и Кабинетом Министров, и реализуется республиканскими органами государственного управления, органами местного управления в пределах и в соответствии с их полномочиями. Источниками финансирования инноваций являются:

1. Средства государственного бюджета
2. Фонд финансирования инновационной научно-технической деятельности
3. Фонд новых технологий и модернизации предприятий
4. Собственные средства организаций
5. Гранты и другие средства

Общая оценка уровня инновационной активности и конкурентоспособности страны проводится с использованием комплексных индексов: индекс экономики знаний (рассчитывается Всемирным банком), индекс глобальной конкурентоспособности (рассчитывается для Всемирного экономического форума в Давосе), индекс мировой конкурентоспособности Международного института развития менеджмента.

Индекс экономики знаний анализирует уровень инновационной активности в стране, распространение информационных технологий, систему образования в общей институциональной среде. Этот индекс больше применим для анализа национальной инновационной системы в узком смысле.

Индекс глобальной конкурентоспособности дает комплексную оценку конкурентоспособности страны на основе анализа макроэкономических показателей, инфраструктуры, развития человеческого капитала, системы образования, финансовых рынков, а также инновационного потенциала.

Реализация инновационного потенциала требует активного вмешательства правительства и принятия ряд мер устраняющие недостатки, сдерживающие его развитие.

1. В Узбекистане пока не сформирована деловая среда, которая стимулирует новаторов к предпринимательству, а предпринимателей к активному внедрению новшеств в производство. Среди причин есть, такие которые возникли ввиду ослабившейся связью непосредственно между наукой и производством, обусловленные переходным периодом, которые имеют место из-за

неадекватности системы стимулов и существующих различий барьеров, в частности, связанных с ведением бизнеса. Здесь, получение различного рода разрешений являются основными барьерами для внедрения инноваций: сложные процедуры получения разрешений, лицензий, сертификатов и стандартов к внедрению новой продукции, предназначенные для внутреннего и внешнего рынка.

2. В Узбекистане также продолжает применяться практика предоставления освобождений и льгот отдельным предприятиям, создавая неравные условия для ведения бизнеса, которые привели к снижению стимулов к инновациям и инвестициям. Существование неравных условий для ведения бизнеса ограничивает конкуренцию, создаёт барьеры для вступления в отрасль новых предприятий, и тем самым, ориентирует предпринимателей не на инновации, повышение производительности и снижение издержек производства, а на лоббирование своих интересов с целью сохранения и преумножения льгот и привилегий. Также существует ряд проблем в системе налогового администрирования. Хотя количество налоговых проверок в течении последних нескольких лет значительно снизилось, их результативность в плане объёма поступлений недоплаченных налогов в бюджет остаётся низкой.

3. В Узбекистане до сих пор не создан действенный механизм вывода инноваций на рынок или внедрения их в производство. Научно-исследовательские учреждения, обладающие потенциалом разработки инновационных проектов, сталкивается с трудностями как в получении финансирования, так и соблюдения всех разрешительных процедур, больше всего на этапе вывода разработок на рынок или в производство. Для малых инновационных предприятий или НИИ, в которых нет специальных служб, занимающихся подготовкой нормативной документации, разработка нормативных документов является проблемой и может занять 1-2 года, в связи с чем, отечественные производители остаются не осведомлёнными о наличии отечественных разработок.

4. В Узбекистане остаётся ограниченный доступ к финансированию инновационной деятельности, особенно государственных научно-исследовательских учреждений. Государственные учреждения оставаясь в собственности государства не могут использовать ни оборудование, ни здание в качестве залога. В этих условиях одним из выходов является оформление кредитного страхования или взятие Министерством финансов на себя кредитного обязательства. Однако, для страховых компаний предоставление кредитного страхования для государственных учреждений является не привлекательным, а оформление кредитного обязательства со стороны

Министерства финансов-сложным. В результате, научно-исследовательские учреждения испытывают недостаток финансовых средств, что сдерживает инновационную деятельность.

Диаграмма – 2

Факторы, сдерживающие развитие инновационной деятельности (%)



Анализ показателей инновационной активности позволяет сделать вывод, что наблюдается отставание нашей страны от передовых стран в области инновационного развития. Основными причинами такой ситуации выступает сложность в получении банковских кредитов на начало и расширение бизнеса, а также высокая стоимость кредитов.

Процентные ставки по коммерческим кредитам составляют 21-26 процентов на фоне инфляции в 7-12 процентов ежегодно.

Фондовый рынок на протяжении последних нескольких лет находится в состоянии стагнации. Акционирование как инструмент привлечения инвестиций для предприятий малого инновационного бизнеса в настоящее время практически не представляет интереса. Вследствие имеющихся проблем деловой среды, в международных рейтингах Узбекистан занимает очень низкие позиции.

ВЫВОДЫ

Доля затрат предприятий, организаций и государства на финансирование инноваций в масштабах экономики, говорит об уровне технологического

развития страны, её конкурентоспособности на мировых рынках и потенциале развития.

В Узбекистане значительна роль государства в развитии научно-технического потенциала, сферы научных исследований и разработок. Из общего объёма финансирования данной сферы 54,7% процента было направлено с государственного бюджета. Объём выделяемых высшим образовательным учреждениям средств для реализации фундаментальных, прикладных и инновационных исследований неуклонно растёт, но несмотря на это имеются определённые причины, делающие финансирование неэффективным.

1. Различия этапов финансирования научно-исследовательского цикла и ограничение участия частного сектора.

2. Направление механизма со-финансирования в основном на решение проблем крупных государственных предприятий.

3. Сдерживание, урезание объёмов финансовых средств финансовыми органами без учёта и понимания содержания финансируемого проекта.

Так, в нашей стране для развития инновационного потенциала необходимо совершенствовать меры государственного стимулирования инновационного процесса и использовать опыт предоставления финансовых ресурсов зарубежным странам.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г. № УП-60.
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-165 "Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы" 06.07.2022 г.
3. XIAOYANG ZHU, JAEBEOM KIM // Financial Development and Innovation: The Role of Market Structure // Journal of Money, Credit and Banking (JMCB) <https://doi.org/10.1111/jmcb.13125> -20 декабрь 2023г.
4. Solow, Robert M. A Contribution to the Theory of Economic Growth, The Quarterly Journal of Economics, Vol. 70, No. 1, Feb., 1956.
5. СК Худойкулов, ЛВ Буранова Худудларнинг молиявий салоҳиятига таъсир этувчи омилларнинг таснифи ва аҳамиятлилиги. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар Илмий электрон журнал, <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 2021
6. И.С.Джавадова Финансовое стимулирование инновационного развития в системе государственного регулирования. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук – Москва. -2011г.
7. Christopher Freeman. National Innovation Systems: Towards a Theory of innovation and interactive learning. Pinter. London 1992y
8. Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development - the Frascati Manual, OECD, 1994; OECD Proposed Guidelines for Collecting and Interpreting Technological Innovation Data – Oslo Manual , OECD, 2005

ZARAFSHON SUVINING SUG‘ORISHGA YAROQLILIGINI BAHOLASH

Yoshiyeva D.Y

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti satjyor-o‘qituvchisi

Suyunov Javohir, Eshonqulov Bunyod

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari

ANNOTATSIYA

В нашей жизни роль общения очень важна и значима. В ходе общения человек овладевает всем тем опытом, что создало человечество на протяжении веков. Значение общения в социальной жизни станет более понятным, если посмотреть, как складывалось общение человека с человеком и в процессе становления человечества, и в развитии каждой отдельной личности. Общение по своей сути - явление социальное и рождается только там, где есть общество. Для изучения общения важно рассмотрение множество наук, как философия, лингвистика, психолингвистика, педагогика, в связи их со многими другими, смежными с ними. Общение рассматривается с разных точек зрения на него, изучается в разных аспектах его существования (Б. Г. Ананьев, А. А. Бодалев, А. А. Брудный, И. А. Зимняя, М. С. Каган, А. А. Леонтьев, М. И. Лисина, Е.И. Пассов и др.). В работах большинства авторов понятие “общение” и “коммуникация” или “коммуникативная деятельность” используются как синонимы. Часто “коммуникация” передается тремя синонимами: “взаимосвязь, соединение и общение”. Философы и психологи эти два, на первый взгляд, понятия “общение” и “коммуникация” не отождествляют. Термин “коммуникация” намного шире, объемней и означает общение, как активный процесс, взаимодействие людей. “Общение есть процесс установления и поддержания целенаправленного, прямого или опосредованного теми или

иными средствами контакта между людьми...”[1]. Б. Г. Ананьев указывает, что межличностное общение определяется всегда системой общественных отношений, в которую оно включено, но, поскольку оно также постоянно выступает как межиндивидуальная связь и индивидуальная форма деятельности, в структуре и динамике общения невозможно отделить личное от общественного, провести резкую грань между ними. “Общение - столь же социальное, сколь и индивидуальное явление”. [2] Социальные потребности, определяющие интеракцию и общение, по мнению А. А. Леонтьева, можно разделить на три типа: потребности, ориентированные на объект и цель взаимодействия; потребности, ориентированные на интересы самого коммуникатора; потребности, ориентированные на интересы другого человека или общества в целом. Генетически исходным видом общения признается “предметноориентированное общение”, т.е. осуществляющееся в ходе совместной коммуникативной деятельности, обслуживая ее. Предметом подобного общения является взаимодействие, и направлено оно на “урегулирование совместной деятельности людей” [3]. “Чистое общение” представляет собой более сложный вид общения, который не включен в некомуникативную совместную деятельность - таковы ситуации социально-ориентированного и личностно-ориентированного общения. “Осуществление контакта между людьми позволяет либо изменять протекание коллективной (совместной) деятельности за счет согласования (рассогласования) “индивидуальных” деятельностей или, напротив, разделение функций (социально-ориентированное общение), либо осуществлять целенаправленное воздействие на формирование и изменение отдельной личности (или не ее поведение) в процессе коллективной или “индивидуальной”, но социально опосредованной деятельности (личностно-ориентированное общение)”. При исследовании вопросов общения представляется важной характеристика с точки зрения Леонтьева А. А. “семиотической специализации”. В зависимости от того, какие средства используются в общении, различаются материальное и знаковое общение. В свою очередь, знаковое общение представляя г следующие его варианты: - речевое общение; - общение при помощи знаковых систем, эквивалентных языку (первичных), например, при помощи “языка” жестов (в ситуациях, когда язык не функционирует, например, в спонтанной мимической речи детей с нарушениями слуха до начала систематического обучения); - общение при помощи вторичных знаковых систем с опорой на язык и многие другие. А. А. Леонтьевым выделяются психологические ситуации, в которых человек сталкивается с коммуникативной задачей. Основываясь на том, что «общение есть один из возможных путей или способов удовлетворения личных

потребностей наряду с некоммунитивными путями», автор объясняет условия выбора индивидом варианта общения наличием специфической мотивации. В одном случае доминирует неречевая мотивация (она управляет неречевой деятельностью), однако субъект оказывается не в состоянии удовлетворить свою потребность никаким другим способом, кроме вербального. В другом случае речевая коммуникация изначально ситуативно мотивирована, и вербальное общение дает возможность толкования чужих действий при необходимости их интерпретации. Первые две рассмотренные психологические ситуации касаются возникновения инициативной речи. Реактивная же речь, имеющая место в остальных случаях, мотивирована контекстуально. Последняя предполагает предшествующую обработку чужой речи и даже при допустимой нерасчлененности может быть воспринята адекватно. А. А. Леонтьев отмечает, что при наличии проблемной ситуации решение ее может последовать как речевое, так и неречевое: индивид вправе «прибегнуть и к другим способам общения, которые приведут к конечному результату». Средства коммуникации, которые используют индивиды для установления контакта друг с другом, общественные по своему происхождению и индивидуальны по употреблению. Такова речь - индивидуальное проявление важнейшего средства связи, созданного обществом, - языка. Таковы мимика и пантомимика, когда они начинают выполнять коммуникативную роль. Таковы и способы поведения каждого человека по отношению к другим людям. И. А. Зимняя выделяет кинетические, вербальные, изобразительные, символические формы общения. «Представляя собой высшую форму обобщающего опосредованного отражения действительности, вербальные средства являются универсальным орудием взаимодействия людей друг с другом» [4]. К невербальным средствам общения Е. И. Пассов относит паралингвистические (интонация, дыхание, дикция, темп, громкость, ритм и т.д.); экстралингвистические (стук в дверь, смех, плач, шумы и др.); кинетические (жесты, мимика, контакт глаз); проксемические (позы, телодвижения, дистанция, т.е. пространственно-временная организация общения)[4]. Некоторые авторы, например, Л. П. Якубинский (1923 г.), М. Н. Кожина (1974 г.) и др., жесты и мимику относили к паралингвистическим явлениям.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. - М., 1997 г.
2. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды, т. 2. - М., 1980 г.
3. Леонтьев А.А. Психология общения. - М., 1997 г. 13
4. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды, т. 2. - М., 1980 г 14

INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Axmedova Yulduz Sunatullaevna

Jizzax politexnika institute, "Iqtisodiyot va menejment kafedراسи assistant

ANNOTATSIYA

Milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda davlat va yakka tartibda yondashuvni ta'minlash, byurokratizm, rasmiyatchilik va sansolarlik faktlariga qat'iy chek qo'yish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investorlar, investitsion loyixa, samara, tashkiliy investitsion loyixa, texnik investitsion loyixa, iqtisodiy investitsion loyixa.

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.

Ахмедова Юлдуз Сунатуллаевна

Джизакский политехнический институт,
кафедра экономики и управления, ассистент

АННОТАЦИЯ

Освещены такие вопросы, как создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций в нашу национальную экономику, обеспечение государственного и индивидуального подхода к оценке финансово-экономической эффективности инвестиционных проектов, строгая ликвидация бюрократизма, формализма и порицания фактов.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, инвесторы, инвестиционный проект, эффективность, организационно-инвестиционный проект, технический инвестиционный проект, инвестиционно-экономический проект.

THE CONTENT AND ESSENCE OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF INVESTMENT PROJECTS

Akhmedova Yulduz Sunatullaevna

Jizzakh Polytechnic Institute, Department of Economics and Management, assistant

ABSTRACT

Issues such as creating favorable conditions for attracting foreign investments to our national economy, providing a state and individual approach to evaluating the financial and economic efficiency of investment projects, and strictly putting an end to bureaucratism, formalism, and censorious facts are highlighted.

Keywords: investment, foreign investments, investors, investment project, efficiency, organizational investment project, technical investment project, economic investment project.

Milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda davlat va yakka tartibda yondashuvni ta'minlash, byurokratizm, rasmiyatchilik va sansolarlik faktlariga qat'iy chek qo'yish, ekspertiza natijalari uchun mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Loyiha oldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida loyiha ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan.

Bundan tashqari kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarning samarali bajarilishiga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga g'ov bo'layotgan omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga to'sqinlik qilayotgan qator kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini

joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning qabul qilinganligi milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun investitsiya loyihalarining ahamiyati ustuvor ekanligini belgilaydi.

Professor D.G'ozibekovning fikricha, "...investitsiyalarning mohiyatini ta'riflayotganda ularning turli xil risklar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq kerak. Pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nimalarga sarflanishiga, ya'ni pulning qaerdan kelishi va nimalarga investitsiyalanishiga bog'liq. Binobarin, kapital manbalarining ishonchligi bilan mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi o'rtasida uzviy bog'liqlik kuzatiladi. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag' solishlardan farqlanib turadi".

Investitsion loyixaga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltirilgan bo'lib bizningcha investitsion loyiha-bu dastavval iqtisodiy foyda (daromad) olish maqsadida

yangidan yoki amal qilib turgan ishlab chiqarish (maxsulot ish xizmatlar ko'rsatish) faoliyatini modernizatsiyalash uchun loyixalash qurilish texnologiya va asbob-uskunalar olib kelish kadrlar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladigan kompleks tadbirlar rejasi hisoblanadi. Bu nafaqat biron-bir faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob hujjatlar tizimi balki aniq maqsadga erishish uchun uni amalga oshirishga mo'ljallangan tadbirlar majmui hisoblanadi.

Davlat, korxonalar va tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining mohiyati shundan iboratki, har xil xarajat birligiga (mehnat, moddiy, moliyaviy) ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar va foyda hamda milliy daromadni oshirishga erishish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, mikro va makro iqtisodiyot hamda ularning sektorlarida "samara" va "samaradorlik" degan atamalarni tez-tez uchratish mumkin. Ular o'zlarining iqtisodiy mohiyati va mazmuniga qarab bir-birlaridan farqlanadi. "Samara" tushunchasi o'zida iqtisodiy jarayonning qandaydir biror bo'lagida (bo'g'inida) qo'llanilgan tadbirlarning bergan natijasini (ijobiy natijaga erishishni) o'zida aks ettiradi. Samaradorlik – mutlaq ko'rsatkich bo'lib, u ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarini ko'rsatadi.

Korxonalar investitsion loyihalarini qabul qilishi ko'pchilik hollarda ularning o'z ichki mablag'lari etishmaydi. Shuning uchun tijorat banklaridan qarz mablag'lari jalb qilinadi. Investitsiya loyihadariga qanchalik ko'p mablag' sarflansa undan kutilayotgan foyda xam shunchalik kamayib boradi. Shu bilan birgabinvestitsiya loyahasiga sarflanadigan korxonalar ichki mablag'lari hisobiga kutilayotgan sof foyda me'yori xam shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib xarajatlar va foydalilikni taqqoslash orqali kutilayotgan sof foyda me'yori farz foizlari miqdori bilan tenglashgunga qadar investitsiya loyihalariga tegishli mablag'lar ajratiladi. SHunga ko'ra qarzlar bo'yicha foizlar miqdori o'zgarishi bilan investitsion xarajatlar o'zgaradi va turli xajmdagi investitsiyalarga kapital qo'yishda qarz foizlari miqdori xam belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq boshqa omillar xam borkiular investitsiya loyahasini moliyalashtirishga bo'lgan egri talab o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: investitsiya darajasi o'zgarib turishi; investitsiya loyihaga sarflanadigan xarajatlar; texnik xizmat ko'rsatishlar qiymati; texnologik o'zgarishlar; kapital qo'yilmalar va ishlab ishlab chiqarish qo'yilmalar va ishlab chiqarish quvvati zaxiralar; soliq siyosati omillaridir.

Ular ta'sirida sof foyda me'yori oshishi yoki kamayishi tufayli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga bo'lgan talab xam o'zgarib turadi.

Xozirgi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yangi, usuli sinditsirlashtirilag kreditlash (sindikatcha uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) paydo bo'ldi.

Demak, investor tomonidan safarbar qilinadigan kapital mablag'lari investorning manfaatiga xamda kapitaldan keladigan daromadga qarab yuqorida keltirilgan investitsiya loyihasi turlariga safarbar qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. - Т.: 2002. и.ф.д. дисс. Автореф. 11-14 б.
2. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" G'-T.: O'zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining mas'uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Jizxax haqiqati. 2019 yil 2 fevral
4. Ахмедова, Ю. С. (2023). Инвестициялар-Иқтисодиётни Модернизациялашнинг Бош Омили. Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(1), 226-229.
5. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
6. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
7. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Экономика и социум 5-1 (2021): 376-379.
8. Obidova, F. Ya. "GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET." Экономика и социум 10 (2020): 191-194.

YOSHLARDA MA'NAViy TARBIYA VA SIYOSiy MADANIYAT MASALASI

Obilqosimov Maxmatqobil

Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: obilqosimovmaxmatqobil@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish usullari va ularda siyosiy madaniyatni oshirish yo'llari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, yoshlar, davlat, siyosiy madaniyat, siyosiy tafakkur, siyosiy ong, ahloq, qadriyat va h.k.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены мнения о методах формирования духовного воспитания молодежи и путях повышения ее политической культуры.

Ключевые слова: Духовность, молодежь, государство, политическая культура, политическое мышление, политическое сознание, мораль, ценности и др.

ABSTRACT

This article presents opinions on the methods of forming spiritual education among young people and ways to increase their political culture.

Keywords: Spirituality, youth, state, political culture, political thinking, political consciousness, morality, value, etc.

Hozirgi ilmiy va diniy adabiyotlarda «ma'naviyat» (arabcha ma'no, ma'nolar majmui) tushunchasining 300 dan ortiq ta'rifi uchraydi, ammo ularning birontasi ham universal (umum e'tirof etgan) ta'rifga aylanmagan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "ma'naviyat" tushunchasiga keng qamrovli universal ta'rif berildi: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", "Ma'naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy mafkuraviy, ma'rifiy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi". Demak, ma'naviyat – insoniyat tomonidan yaratilgan hamda yaratuvchilikka

xizmat qiladigan yaxshiliklar, insoniy fazilatlaridir. Ma'naviy tarbiya –insonni axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va qonun izmida yashashga o'rgatadi.

Inson yaxshilik, ezgulik, erkinlikka intilib yashashi jarayonida axloq, din, san'at va ilm-fan kabi ma'naviy qadriyatlarni yaratadi. XX asrda ushbu qadriyatlar insonning kuch-qudrat manbaiga aylandi. Shu bois Islom Karimov “ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuchqudratidir” degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oya bugun O'zbekiston xalqining harakat dasturiga aylangan. Tinchlik, rivojlanish yo'li – ma'naviyatda. Ma'naviyatsizlik urushga olib boruvchi yo'l ekanligini insoniyat tarixi ko'p ming bora isbotlagan. Buni obiq Ittifoq hududlarida paydo bo'layotgan qarama-qarshiliklar, kecha yaqin do'st bo'lgan, bugun esa dushmanga aylanib, qonli urush vaziyatini vujudga keltirayotgan davlatlar misolida ko'rish mumkin.

Tarix – inson ma'naviyatining yaratuvchisi. Ma'naviyat uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar mahsulidir. Shu bois inson tarixni bilmasdan o'zligini anglay olmaydi. Bugun mafkuraviy poligonlarda biror-bir xalqni, insonni yengish, tobe qilish uchun uni tarixi, milliy qadriyatlari va ma'naviyatidan mahrum etishga harakat qilinmoqda. O'zbek xalqini tarixda hech kim yenga olmagan. Shuning uchun Prezidentimiz: “Biz ahil bo'lib, el-yurt manfaatlari yo'lida yashasak, ichimizdan sotqinlar chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”,– degan shioriy fikrni ilgari surgan. Ushbu fikrda tariximizning achchiq haqiqati ifodalangan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Insonning kuchi uning axloqidadir. Ma'lumki, axloq umuminsoniy qadriyat bo'lib, mehr-muruvvat, muhabbat, shafqat, qadr-qimmat, adolat, halollik, sadoqat, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi buyuk insoniy fazilatlarini qamrab oladi. Butun olam tortishish qonuni moddiy olamni birlashtirgani kabi yuqorida keltirilgan fazilatlar ham insonlarni, xalqlarni, davlatlarni birlashtiradi. Ular buyuk va yengilmas kuchdir. “Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar” degan xalq maqoli, Amir Temurning “Kuch – adolatda”, degan hikmati aynan ana shu qonuniyatni ifodalaydi. Bugun axloqsizlikni targ'ib etayotgan “ommaviy madaniyat”, ya'ni, axloqsizlik falsafasi esa odamlar, xalqlar, davlatlarni bir-biridan ajratish, ularni bo'lib tashlab, hukmronlik qilish maqsadiga xizmat qilmoqda. Ma'naviyatning arkonlaridan biri – din. Ma'lumki, vijdon, iymon, e'tiqod, barcha dinlarning negizini tashkil etadi. Hozir dunyoda uch mingdan ziyodroq din mavjud bo'lsa, ularning barchasi odamlarni iymon, e'tiqod, sabr-toqat, tinch-osoyishta yashashga chaqiradi.

Ma'naviyat ko'zgusi – san'atdir. Ma'lumki, san'at inson mehnatini ulug'lovchi, “odamiylik Mulki”ni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turidir. Inson ma'naviyatini rivojlantirishda, kinoning o'rni beqiyosdir. Dunyo miqyosida bir yilda 10 mingdan ziyod kinofilmlar ishlab chiqilmoqda. Ularning mingdan ziyodi Gollivud mahsulotlaridir. Ammo, ularning aksariyati axloq, din talablaridan chetga chiqib,

fahsh, zo‘ravonlik, janggarilikni targ‘ib qilayotgani achinarli holdir. Bunga aksariyat tomoshabinlarning ana shunday filmlarni ko‘rishni istayotgani sabab bo‘lmoqda. Shu bois, filmlarning g‘oyaviy saviyasi pasayib, ko‘proq “ommaviy madaniyat” kuychisiga aylanib qolmoqda. Bu masalaning yechimi ham, albatta, ma‘naviyatga borib taqaladi. Insonlarning estetik didini, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqaligina bu sohadagi ma‘naviy tahdidlarning oldini olish mumkin bo‘ladi. Fazilatlarining mazmunini anglagan holda ularga amal qilmaslik – vatanparvarlik, fidoyilik, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlarini bilgan holda ularga rioya etmaslik yoki buni xohlamaslik, tan olmaslikdir. Bunday hollarda ma‘naviyat kundalik hayotda namoyon bo‘lmay, faqat bilim, tushuncha yoxud tasavvur shaklida qolib ketishi mumkin.

Ma‘naviyatning gultoji ilm-fandir. Darhaqiqat, bilim – ma‘naviyatning harakatlantiruvchi kuchi. O‘z navbatida, ma‘naviyat bilimning boshqaruvchisi, chavandozidir. Bilim bo‘lsa-yu, ma‘naviyat bo‘lmasa, bunday bilim yaratuvchanlikka emas, aksincha, buzg‘unchilikka xizmat qiladi. Bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Inson yaratgan barcha narsalardan – kompyuter, mashinalar, Internet, atom energiyasidan yaxshilik yoki yomonlik yo‘lida foydalanish mumkin. Aynan ma‘naviyat bilimni yaratuvchanlikka yo‘naltiradi, inson xizmatiga safarbar etadi. Hatto hokimiyatning qanday bo‘lishi ham ma‘naviyatga bog‘liq. Tarixdan ma‘lumki, ma‘naviyatga suyangan davlatlar rivojlangan va, aksincha, ma‘naviyatga asoslanmagan davlatlar tanazzulga yuz tutgan.

XXI asrning fanda “intellektual industriya” asri deb atalishida ham ulkan ma‘no mujassam. Bugun agrar va sanoat industriyasi o‘z o‘rnini intellectual industriyaga bo‘shatib beryapti. Ilmning boylik yaratish manbaiga aylangani ham ayni haqiqat. XXI asr boshlarida dunyo miqyosida yaratilgan texnika va texnologiyalarning 70 foizi AQSHga, 17,6 foizi Yaponiyaga, 6,6 foizi Germaniyaga, 5,7 foizi Buyuk Britaniyaga, 5,1 foizi Fransiyaga, 1,6 foizi Xitoyga to‘g‘ri kelyapti. Yangi texnika va texnologiyalarning aksariyati AQSHda yaratilayotgani uchun ham u dunyoning eng kuchli davlatiga aylangan. Shu bois ayrim siyosiy kuchlar: “AQSH butun dunyoni boshqarishni o‘z qo‘liga olishi kerak, aks holda, vaqt boy beriladi”, – deya AQSH davlatini harbiy harakatlarga ham undamoqda. Biroq AQSHda texnika va texnologiya rivojlangan bo‘lsa-da, bugun u “ommaviy madaniyat”, terrorizmning nishoniga aylangan. 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir etilgan terrorchilik harakati fikrimizning dalilidir. Demografik, ekologik muammolar AQSH va Yevropa davlatlarini ham ma‘naviyatga “murojaat etishga” majbur etyapti. Shu bois G‘arb davlatlarida bugun “axloqqa qaytish” g‘oyalari ilgari surilib, ta‘lim tizimiga “odamiylik Mulki”ni o‘rgatuvchi fanlar kiritildi. Dunyoning rivojlangan demokratik davlatlari ma‘naviyat tomon yuz burayotgan bir paytda, rivojlanib kelayotgan ayrim yosh davlatlarning G‘arb voz kechayotgan illatlarni yangilik sifatida qabul qilishi

achinarli holatdir. Bu holatning sababi dunyoda sodir etilayotgan global muammolardan bexabarlikdir. Shunday ekan, inson, jamiyat va davlat o'z faoliyatini ma'naviyat asosida yuritsa, albatta, rivojlanadi.

Bugun biz yoshlar ongiga adolat, sadoqat, halollik, xalqqa xizmat qilish, xalqparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini kasbiy faoliyatga bog'lab singdirishimiz zarur. Yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Negaki, insonning shaxs sifatida shakllanishi, ma'naviyatini yuksaltirish jarayonlari oila bag'rida yuz beradi. Shuning uchun yosh avlodning ma'naviy kamol topishida oilaga muhim maskan sifatida qaraladi. Chunki bolaning yaxshi tarbiya topishi uning davomiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Farzandning atrof muhitga, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati ota-onasi bilan bo'ladigan tarbiyaviy, ma'naviy muloqotida o'z aksini topadi. Yoshlikda nosog'lom muhitda yashash natijasida bolada turli ijtimoiy illatlarga moyillik shakllanadi. Uni bunday g'oyalardan himoya qilish ota-onaning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Onaning bolani mehr-muhabbat bilan to'g'ri yo'lga sola olishi, otaning esa uni mardlik, jasurlikka o'rgatishi barkamol shaxs rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'kidlash joizki, hozirgi murakkab va notinch dunyoda hayotimizning barcha sohalarida, demokratik jamiyat qurish yo'lidagi intilishlarimizda bag'rikenglik nechog'lik muhim o'rin tutishini izohlab o'tirishga hojat yo'q. Xo'sh, yoshlar qalbida ma'naviy tarbiyaning o'rni nimalarda ko'rinadi? Avvalo, yoshlarning ma'naviy-axloqiy yuksalishida, dunyoqarashi kengayishida ta'lim tizimining o'rni va roli beqiyosdir.

Yoshlarda siyosiy ong, dunyoqarash va madaniyatni yuksaltirish masalasi ham bugungi kundagi muhim masalalardandir. Siyosiy madaniyat siyosiy harakatlarni belgilovchi e'tirof hamda tasavvurlar, demokratik barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlovchi qarashlar majmuidir. Siyosat, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishni, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashni, mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib oladi. Ma'naviyat va ma'rifatni ulug'lash, ilm-fanni yuksaltirish, yosh avlodning dunyoqarashini oshirish kabi taraqqiyparvar siyosat uning yo'nalishi hisoblanadi. Darhaqiqat, yoshlarning ma'naviyatga, siyosiy faollikka ega bo'lishi mamlakatning har tomonlama taraqqiy topishiga olib keladi. Davlatimiz siyosatining eng asosiy maqsadi – xalqimiz uchun, yurtimizda yashayotgan har bir inson uchun munosib hayot sharoitini yaratish, tinchosuda, farovon turmushimizni yanada mustahkamlashdir. Ma'lumki, to'laqonli va mukammal jamiyat ongli fuqarolarning siyosiy, huquqiy madaniyati evaziga quriladi. Fuqarolar siyosiy faolligining yuksalishi jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, fuqarolarda siyosiy madaniyat va mas'uliyat hissi qanchalik yuksak bo'lsa, ularning jamiyat ishi uchun javobgarligi shunchalik yuqori bo'ladi. Siyosiy faol va mas'uliyatli kishilar aholi orasida turli mafkuraviy xurujlarga

qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Siyosiy madaniyatni shakllantirishda dastlabki qadam sifatida yoshlarni siyosiy o‘zlikni anglashga o‘rgatish kerak.

Yoshlarda yurtga sadoqat, vatanparvarlik, ezgulik, bag‘rikenglik tuyg‘ularining yuksalishida siyosiy madaniyatning o‘rni benihoya katta. Agar yoshlar ongida siyosiy madaniyat rivojlantirilsa, ularda “Shu aziz Vatan barchamizniki”, “Vatanim taqdiri – mening taqdirim” kabi ezgu g‘oyalarga daxldorlik, yurt kelajagiga mas‘uliyat, muqaddas zaminimiz tinchligi va osoyishtaligini asrash, uning taraqqiy etishiga hissa qo‘shish tuyg‘ulari yanada keng qaror topadi hamda yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.. "O‘zbekiston XXI- asr bo‘sag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari 173 bet.
2. Karimov I.. “Maqsadimiz - tinchlik, Barqarorlik, hamkorlik”. O‘zbekiston televideniesi, muxbirining savollariga javoblar 1995 yil 27 oktyabr, “Bunyodkorlik yo‘lidan”, 4 tom, Toshkent, O‘zbekiston - nashriyoti 1996 yil, 79 bet.
3. Karimov I.. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz T. 7-tom 249-250betlar
4. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. JournalNX, 234-236.
5. Xidirov, X., & Obilkoshimov, M. (2021). Kambag‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo‘llari, usullari va mazmun-mohiyati. *Obshchestvo i innovatsii*, 2(11/S), 97-104.
6. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, genesis, evolution and survival trends. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 1(5), 409-413.
7. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. *Scientific progress*, 2(1), 121-124.

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR

Jabborova Z.M

JizPI katta o‘qituvchisi

Primqulova Z.F.

Servis fakulteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali, shuning bilan birga hozirgi paytda investitsiya jozibadorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, xorijiy investitsiya, investitsiyaviy jozibadorlik, raqamli iqtisodiyot.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о реализуемых в настоящее время мерах по повышению инвестиционной привлекательности Республики Узбекистан путем привлечения иностранных инвестиций в развитии экономики.

Ключевые слова: экономический рост, экономическая эффективность, инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, цифровая экономика.

ABSTRACT

The article provides information on measures currently being implemented to increase the investment attractiveness of the Republic of Uzbekistan by attracting foreign investment in economic development.

Keywords: economic growth, economic efficiency, investment, foreign investment, investment attractiveness, digital economy.

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat‘iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya—bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so'rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko'magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta'kidlash muhim ahamiyatga ega.

Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To'rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"2gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, mamlakatimizda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ta'lim sifatini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy maqsadlaridan biri bu –mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish dan iborat.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- siyosiy va iqtisodiy barqarorlik;
- investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy asos;
- rivojlangan mamlakatlarga qaraganda arzon ishchi kuchi;
- qulay investitsiyaviy muhit;
- boy mineral xom ashyo bazasi;
- qulay geografik joylashuv;
- arzon iqtisodiy resurslar;
- bozorning to'yinmaganligi;
- yashash uchun yaratilgan qulayliklar

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb

etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

Xorijiy investitsiyalarning shakllari

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud:

ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarini tashkil etish;

100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarini tashkil etish;

yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalarini va filiallarini tashkil etish;

konsessiya va lizing shartnomalari tuzish;

tenderlar e'lon qilish;

erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;

moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohaslariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'lami iqtisodiy, institutsional, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oldi.

Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi eng yorqin misol - bu 2020 yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo'lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog'liq muammolarni taxlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyekting muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Wirtschaftsbericht 2022. Usbekistan in Zahlen.

2. Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. –T.: BMA, 2008, 11 bet.

3. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2017 yil, 22 bet

4. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1998 yil 30 aprel. 3-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

6. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni

7. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Madina Muminova. "РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-8 (2019): 44-47.

8. www.stat.uz

9. www.data.worldbank.org

10. www.unctad.org

TABIY GAZDAN FOYDALANISH VA ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA CHIQINDI GAZLARNING ZAXARLILIGINI KAMAYTIRISH

Sultanov Azizbek Ismoiljon o'g'li
assistant

Sultanova Dilfuza Ulug'bek qizi
JDPU talabasi

ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda tabiiy gaz (metan) siqilgan shaklda (STG) eng ko'p qo'llaniladi. Ichki yonuv dvigatellarida kriogen metandan foydalanish tajribasi mavjud. Avtotransport vositalarini gazlashtirish iqtisodiy va ekologiya nuqtai nazaridan oqlanadi. Mavjud vaziyat kelgusi o'n besh yil ichida avtomobil va traktor dizel dvigatellarini takomillashtirish quyidagi yo'llar bilan hal qilinishi mumkinligini hisobga olishga imkon beradi:

Kalit so'zlar: neft yonilg'isi, atrof-muhit, ekologiya, zararli moddalar, neytralizatorlar, qurum filtrlari.

O'zbekistonning yirik shaharlarida harakatlanayotgan avtotransport vositalari sonining ko'payishi munosabati bilan keyingi yillarda suyuq neft yonilg'isini tejash va dizel yonilg'isining zaharliligini kamaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishini barqarorlashtirish va uni kamaytirish jarayoni ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob beradigan parametrlarga ega avtomobil va traktorlar ishlab ajralish va ushbu parametrlarni ma'lum diapazonda saqlash uchun shart-sharoitlarni, harakatlanuvchi tarkibning ishlash shartlarini yaratish. Avtomobil va traktor dvigatellari orasida dizel hali ham energiya tejaydigan issiqlik dvigateli xisoblanadi. Uning resursi va ishlashi yaxshilanishda davom etmoqda. Biroq, ekologiya va suyuq yonilg'ini gazsimon yonilg'i bilan almashtirish nuqtai nazaridan dizel yonilg'isiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Avtotransport vositalarini gazlashtirish iqtisodiy va ekologiya nuqtai nazaridan oqlanadi. Mavjud vaziyat kelgusi o'n besh yil ichida avtomobil va traktor dizel dvigatellarini takomillashtirish quyidagi yo'llar bilan hal qilinishi mumkinligini hisobga olishga imkon beradi:

- chiqindi gaz tarkibidagi zararli moddalar chiqindilarining ruxsat etilgan darajasini tartibga soluvchi davlat va tarmoq standartlarini joriy etish;

- kam zaharli gaz bilan ishlaydigan dizel dvigatelini yaratish;
- kelib chiqishi neft maxsuloti bo'lmish suyuq dizel yonilg'isini almashtirish imkonini beruvchi yangi turdagi yonilg'i va unga qo'shimchalarni izlash;
- mavjud turdagi dizel dvigatellarining (neytralizatorlar, qurum filtrlari, yondirgichlar va boshqalar) zaxarliligini kamaytirishga yordam beradigan zaxarlilikka qarshi vositalarni loyixalash va ishlab chiqish.

Ichki yonuv dvigatellarida gazsimon yonilg'idan foydalanishga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri suyuq neft yonilg'ilariga nisbatan arzonroq narx hisoblanadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi texnikalarining aksariyati dizel dvigatellariga ega va, albatta, bunday qo'llash imkoniyatiga ma'lum cheklovlar qo'yadi. Variantlardan biri asosiy dizel dvigatelni gaz-dizel yoki o't oldirish tizimli sof gazli dvigatelga aylantirishdir. Dizel avtomashinalarining katta parkini hisobga olgan holda, nafaqat qishloq xo'jaligida, asosiy dizellarni konvertatsiya qilish imkoniyati balki katta qayta jixozlash bozorini nazarda tutadi.

Avtomobil va traktorlarning dizel dvigatellarida tabiiy gazdan foydalanish, ularni gaz bilan ishlash jarayoniga o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Biroq, avtomobil va traktorlarni gaz yonilg'isiga o'tkazishning bunday jarayoni bilan birga keladigan qiyinchiliklarni - yuqori ishonchlilikni, maqbul ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni va dvigatel va transport vositalarining asosiy konstruksiyasi bilan maksimal darajada birlashtirilishini ta'minlash haqida gapirib bo'lmaydi. Tabiiy gazda ishlashga aylantirilgan dizel dvigatel gaz yonilg'isining afzalliklarini to'liqroq amalga oshirish imkonini beradi. Mamlakatimizda va xorijda yonilg'ini gazga almashtirish hisobiga yonilg'ini tejash imkonini beruvchi qator dvigatellar yaratildi.

Dizelni gazga aylantirish printsipi nazariy jihatdan oddiy bo'lsa-da, amalda uni amalga oshirish ko'rinadiganidan ko'ra qiyinroq. Transport gazli dvigatellarini yaratishdagi asosiy qiyinchiliklar transport dvigatellarining ish rejimlarining vaqt o'tishi bilan juda keng va tez o'zgarishi bilan bog'liq. Natijada, yuqori yonilg'i samaradorligi va zararli moddalarning kam emissiyasini hisobga olgan holda, havo va gazning eng qulay nisbatini, ularning samarali yonishini ta'minlash qiyin. Buning tasdig'i sifatida shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda dizelga asoslangan transport gaz dvigatellarining tasdiqlangan va umumiy konstruktsiyalari mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sultanov , A. I. o‘g‘li, & Sultanova , D. U. qizi. (2023). YONILG‘I TA‘MINOT TIZIMIDAGI NOSOZLIKLAR VA INJEKTORNING ISHDAN CHIQISH SABABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(18), 302–304.
2. Ismoiljon o‘g‘li S. A. et al. DVIGATEL KONSTRUKTSIYASI VA ISHCHI JARAYONLARINI BOSHQARISHNI MUKAMMALLASHTIRISH //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 536-542.
3. Ismoiljon o‘g‘li S. A., Axmatjonovich Q. B., Abdurauf o‘g‘li X. A. ISHLATILGAN GAZLARNI ZARARLILIGINI KAMAYTIRISHDA NEYTRALIZATOR VA KATALIZATORLARNI O‘RNI VA AHAMYATI //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 765-770.
4. Umirov I. I., Aslam o‘g‘li S. S. Evaluation of the Efficiency of the Universal Supply System of Gas Cylinder Vehicles //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – T. 23. – C. 28-31.
5. Boliqul o‘g M. U. et al. JAMOAT TRANSPORTLARI YO‘NALISHLARIDA HARAKAT MIQDORI VA TARKIBINI TADQIQ QILISH //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 793-798.

TIRIK TIZIMLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSYATLARI

Isroilov Shukhrat

teacher Samarkand branch of TUIT

Allayarov Fazliddin

master Samarkand branch of TUIT

ANNOTATSIYA

Bu maqolada biologiya va tibbiyotdagi ba’zi matematik modellar qaraladi. Hozirgi vaqtda butun jahon bo‘ylab matematika fanining biologiya faniga qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda. Shu munosabat bilan mazkur yo‘nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunga o‘zbek va xorijlik olimlarning hissalarini katta. Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda mazkur maqolada mualliflar tomonidan biologiya va tibbiyotdagi ba’zi matematik modellar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: matematik modellar, tibbiyotda informatika, tirik organizmlarni modellashtirish.

Insoniyat butun hayoti davomida tabiat uyg‘unligi bilan jamiyatning ma’naviy va texnikaviy taraqqiyotiga ilmiy-amaliy yondashuvlarni amalga oshirib kelgan va keladi. Har bir davlat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun ishlab chiqarishlarga yangi texnologiyalarni jalb etishlikni toqazo etadi. Davlatning iqtisodiy barqarorligi va barkamolligi uchun kichik va o‘rta bo‘g‘in ishlab chiqarishni – kichik va o‘rta biznesni rivojlantirilishi muhim qadam hisoblanadi. Hozirga paytda o‘rta ta’lim bo‘g‘ini texnikumlar o‘quvchi talabalarga kelajakda mohir kasb yoki hunar egasi bo‘lib-etuk mataxassis bo‘lishligiga u yerda o‘qitilayotgan tabiiy fanlar, jumladan matematika fanining roli va ahamiyati beqiyosdir. Tibbiyot texnikumlarlarida matematikaning nazariy bilimlarini amaliy bilimlari bilan tatqiq etish mulohaza va mushohada yuritish o‘ta muhimdir.

Bunga bir qancha sabablar bor, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini

rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son farmoni ijrosini ro'yobga chiqarish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Matematika, tabiiy fanlar va muhandislik fanlarining tibbiyotga tatbiq etilishi tobora kuchayib bormoqda, chunki bu hamkorlikning o'zaro manfaati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Oddiy va anomal sharoitlarda tirik tizimlarning funksional faolligini boshqarish va nazorat qilishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishda matematik modellashtirish usullari va hisoblash eksperimental vositalaridan foydalanish tirik tizimlar qonuniyatlarini miqdoriy tahlil qilish imkonini beradi.[1]

Tibbiyotga axborot inqilobi 40-yillarda boshlandi. Ilk bor radiotelefonlarning, signalizatsiya vositalarining qo'llanishi, tibbiy natijalarni statistik tahlil qilishda hisoblash texnologiyalaridan foydalanilgan. Bugungi kunda tibbiy informatika sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismiga aylangan va 4 ta asosiy yo'nalishlarga tayanadi[3]:

1. Biologik informatika.
2. Tasviriy informatika.
3. Klinik informatika.
4. Sog'liqni saqlash informatikasi.

Robert Shennon ta'rifiga ko'ra, "...simulyatsiya real tizim va sozlash modelini qurish jarayoni, tizimning xatti-harakatlarini tushunish yoki ushbu tizimning ishlashini ta'minlaydigan turli strategiyalarni baholash uchun model sifatida bo'yicha tajribalarni o'rganadi. Model quyidagi natijalarni o'rganishga imkon beradi:

- tirik tizimning xatti-harakatlarini tavsiflash;
- raqamli tajribalar natijalarini tushuntiruvchi gipotezalarni qurish;
- muayyan sharoitlarda tirik tizimning harakatini bashorat qilish[2].

Hozirda agar zarur ma'lumotlarni boshqacha tarzda olish mumkin bo'lmasa, biologik modellar oxirgi chora sifatida ko'rib chiqiladi. Hozirgi vaqtda yangi dori vositalarini yaratish asosan kompyuter modellari va biologik muhitlar yordamida amalga oshirilmoqda.

Biologik modellashtirish bilan bog'liq yana bir muammo shundaki, hatto diqqat bilan tanlangan hayvonlar ham bir-biridan fiziologik xususiyatlarga ko'ra farqlanadi, natijada modelda zaif boshqariladigan omil paydo bo'ladi, uning ta'siri juda muhim bo'lishi mumkin. Ishonchli natijalarga erishish uchun tadqiqot etikasi talablariga zid ravishda laboratoriya hayvonlari sonini ko'paytirish kerak.

Modellashtirishda biologik moddiy xarajatlarni hisobga olmaslik mumkin emas, chunki laboratoriya hayvonlarining narxi yuqori, ularni saqlash juda ko'p pul talab qiladi va namunalarni olish ko'pincha hayvon evtanizatsiya qilinganidan keyingina mumkin bo'ladi. Laboratoriya hayvonlaridan qayta foydalanish istisno qilinadi - "bitta

shaxs - bitta namuna", natijada tajribani takrorlash mumkin emas. Muhokama uchun alohida mavzu - bu biologik modellar xavfsizligi hisoblanadi.

Ma'lumki, biomateriallarning sizib chiqishi muammosiga hali to'liq texnik va tashkiliy yechim mavjud emas, shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda yuqumli kasalliklarning eng xavfli namunaviy tadqiqotlari harbiy shifokorlarga ishonib topshirilgan, chunki faqat "inson omili" ustidan qattiq nazorat o'rnatish orqali salbiy oqibatlarining oldini oladi.

Matematik model biologik modelning xarakterli kamchiliklaridan holi hisoblanadi. Siz xohlaganicha ko'p tajriba o'tkazishingiz, virtual biologik ob'ektni har qanday sharoitda joylashtirishingiz, uni ekstremal ta'sirlarga duchor qilishingiz mumkin. Matematik modellashtirishda sezilarli darajada soddalashtirilganligi tufayli bularning barchasiga erishiladi.

Biz bularni tushunish uchun biologik ob'ektlarni matematik modellashtirishda uchraydigan ba'zi muammolarni hamda modellashtirish uchun umumiy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Model - ob'ektning real mavjudlik shaklidan farq qiladigan qandaydir ko'rinishdagi tasviridir (R. Shannon). Masalan, protezlash vaqtida tish shifokori yasaydigan tish modeli.

Haqiqiy tish bir nechta biologik to'qimalardan iborat, model esa butunlay metall yoki maxsus plastmassadan qilingan. Haqiqiy tish faol ravishda qon bilan ta'minlanadi, ammo protez emas. Tirik tishning barcha funksiyalaridan protez faqat bittasini bajaradi, ya'ni - mexanik. Amaliy nuqtai nazardan, aynan shu narsa kerak.

Ushbu holatda model yo'qolgan biologik komponentni to'liq almashtiradi.

17. Исмоилова М.Н., Тураева Г.Х. (2021) [Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов](#) // Вестник Науки и образования. Стр. – 65-67.

Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Alisher qizi THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS// International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS. September. 10 - December. 15. 2020. San Francisco, California, USA. 95-97 p

ÚSH SEKTORLÍ EKONOMIKA TÚSINIGI HÁM ONÍN KEMSHILIKLERI

Uzakbaev K.K.

Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası assistent oqıtıwshısı

Jaksımuratov A.B.

Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları tálim bađdarı 2-kurs studentı

Turđanbaev D.N.

Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları tálim bađdarı 1-kurs studentı

ANNOTACIYA

bul ilimiy maqalada ekonomika xızmetiniń sektorlarǵa bóliniwi, bul bađdardađı teoriyalar analizi haqqında sóz baradı.

Tayanış túsinikler: K.Klark, J.Furastie, D.Bell, Jigirmanshı ásiridin ullı úmiti, birlenshi, ekilemshı, úshlemshı sektor, industrial, postindustrial, jalpı ishki ónim, sawda, transport, baylanıs, turizm, qarjı xızmeti, densawlıqtı saqlaw xızmetleri.

KIRISIW

Klassikalıq ekonomika xızmetiniń sektorlar hám podsektorlar boyınsha ajıratadı. Ónim túri boyınsha birlenshi, ekilemshı, úshlemshı sektorlar ajıralıp turadı. Olar, óz nábwetinde, podsektorlarǵa bólinedi. Francuz ekonomisti Jan Furastie Klarktiń gipotezasın elede jetilistirip, óziniń «Jigirmanshı ásiridin ullı úmiti» (1949) kitabında mámleketiń ekonomikalıq rawajlanıwın úsh sektor menen salıstırıw hám ekonomikası kem rawajlanǵan mámleketiń ekonomikalıq rawajlanıwın birlenshi sektorǵa, ortasha rawajlanǵan mámleketler ekilemshı hám rawajlanǵan mámleketler úshinshı sektorǵa kiredi degen pikirdi qollap-quwatlaydı.

Furastie mámleketiń ekonomikalıq rawajlanıwın hár bir sektorda bánt bolǵan jumısshı kúshi menen baylanıstıradı hám tómendegi kóz qarastı bildirdi. Mámleket ekonomikasınıń rawajlanıwı ushın miynetke jaramlı xalıqtıń 70 % úshinshı sektorda, 20 % ekinshı dárejeli sektorda hám 10 % birinshı sektorda bánt bolıwı kerek.

Tiykarǵı bólim. Ekonomika tarmaqları tiykarınan islep shıǵarılǵan ónimler túrine qarap qurıladı. Bul túrdegi sıpatlamaǵa múrájáát etken birinshı ekonomist

avstraliyalı Kolin Grant Klark edi. Ol óziniń «Ekonomikalıq rawajlanıwdıń shártleri» atlı fundamental jumısında (1940) hár túrli ekonomikalıq xızmet túrlerin ónim klasına qarap bóliw maqsetinde úsh sektordıń gipotezasın alǵa súrdi. Sonday-aq, Klark jalpı ishki ónimdi (JIÓ) milliy ekonomikanı analiz etiw ushın tiykar sıpatında isletken birinshi ilimpaz bolǵan. Solay etip, *birlemshi* (awıl xojalıǵı hám qazıp alıwshı taw-kán sanaatı), *ekilemshi* (islep shıǵarıwshı sanaat) hám *úshlemshi* (xızmetler tarawı) sektorlar ajıralıp turǵan. Bul sıpatlama keń tarqalǵan hám búgingi kúnde kóplegen ekonomistler tárepinen qollanıladı [13].

Klarktıń gipotezası boyınsha ekonomika tómendegi sektorlardan ibarat. Birlemshi sektor tómendegi bóleklerden quralǵan: awıl xojalıǵı, balıq awlaw, kán sanaatı, toǵay xojalıǵı. Ekilemshi sektor birlemshi ónimlerdi (shiyki zat) tutınıw tovarlarına ózgerledi hám aylandıradı. Ekilemshi tarmaqlar birlemshi tarmaqlar sıyaqlı podsektorlarǵa bólinedi: sanaat, qurılıs, qazıp shıǵarıw, energiya islep shıǵarıw. Úshinshi sektor yaki xızmetler tarawı materiallıq baylıq keltirmeydi, al xalıqtıń mıtájligin qanaatlandıırıw ushın xızmetlerdi usınadı. Bul sektor sawda, transport, baylanıs, turizm, qarjı xızmeti, densawlıqtı saqlaw xızmetlerin óz ishine alıwın aytıp ótedi.

Úshinshi sektordıń ósiwi nátiyjesinde onnan óz aldına kishi tarmaqlar ajıratılmaqta. Jigirmanshı ásirdeń 70-jıllarında D.Bell úsh sektordıń janında jáne eki sektordı ajıratadı: tórtlemshi (*quaternary*) hám beslemshi (*quinary*). Onıń usınısı boyınsha úshinshi sektor transport hám kommunal xızmetlerdi óz ishine alǵan halda, sawda, finans, qamsızlandırıw hám kóshpes múlk penen baylanıslı processler tórtlemshi sektorǵa kiritildi. Besinshi sektorǵa densawlıqtı saqlaw, bilimlendiriw, dem alıw, izertlew iskerligi hám mámleketlik shólkemleri kiritildi [14].

Ayırım ilimpazlar Kolin Klarktıń alǵa súrgen pikirin durıs esaplap, ekonomikanı úsh sektorǵa bólgen anıq hám tek ǵana ekonomistler emes, basqa taraw wákilleri de túsiniwge qolay dep esaplaydı.

Biz klassikalıq ekonomika xızmetin házirgi kúnde 5 sektorǵa bólgenin durıs dep esaplaymız. Sebebi XXI ásir xabar kommunikaciýalar rawajlanǵan ásirde xızmetler tarawın ózinde jámlegen úshinshi sektordıń dúzilisi júdá quramalı bolıp, D.Bell ajıratqanday jáne eki bólimge, al ekonomikanı bes sektorǵa bólgen durıs.

Ekonomikanıń úshinshi sektori xızmet kórsetiwde óz ishine alǵanı menen, xızmet kórsetiwde óz nábwetinde bir neshe bólimge bólinip ketken. XXI ásirde informacion texnologiyalar rawajlanıwı menen internet xızmetleri, internet arqalı bolsa internet magazinler, xızmet ónimi kózge kórinbeytuǵın elektron tarawlar rawajlandı. Sonıń ushın xızmetlerdi iskerlik xızmetine qaray sektorlarǵa bólgen durıs dep esaplaymız.

Juwmaqlaw. Juwmaqlap aytqanda, ekonomikanı sektorlarǵa bóliw máselesinde usınday qarama-qarsı pikirler júzege kelgen. Biraq, kópshilik ilimpazlar atap aytqanda D.Bellde ekonomikanı úsh sektorǵa bóliwde qollap-quwatlaydı.

Solay etip, úyrenilip atırǵan ilimiy baǵdar quramalı dúziliske iye bolıp, zamanagóy ekonomikalıq mákanda postindustriyadan keyingi ekonomikanı qalıplestiriwde tiykarǵı rol oynaydı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR: (REFERENCES)

1. Iskenderov A. B., Jaksimuratov A. B. ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍNDA SOCIALLIQ TARAWDÍ RAWAJLANDIRÍWDA ÁMELGE ASÍRÍP ATÍRǴAN IS-ILAJLAR // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 225-229.
2. Iskenderov, A. B., Uzaqbaev, Q. K., Sharibaev, A. M., & Djanabaev, I. B. (2019). Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba. *Nókis-2019*, 128.
3. Jaksimuratov A., Amidullaev B., Turdimuratova A. TURIZM GEOGRAFIYASING KELIB CHIQISH VA RIVOJLANISH TARIXI // *Научный Фокус*. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 389-392.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstanm ekonomikalıq ham sociallıq geografiyasi.
5. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN // *Экономика и социум*. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
6. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN // *Science and education in Karakalpakstan*. – 2020. – Т. 2. – С. 104-108.
7. Tursinbaevna, Gaypova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
8. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari." *Fan va jamiyat* (2022).
9. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Xaliqqa xizmet ko'rsetiw tarawları ekonomikasini'geografiya ilimindegi orni." *Fan va jamiyat* (2019).
10. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Geografiya boyinsha mag'liwmatnama." *NMPI baspaxanası* (2017).
11. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Qaraqalpaqstan Respublikasin ekonomikalıq rayonlastiriwdin'geografiyalıq tiykarları." *Fan va jamiyat* (2023).
12. Uzakbaev K.K., Baltabaev, O.O., Jaksimuratov, A.B., Eshiniyazov, B.A. GEOGRAPHICAL BACKGROUND OF ARAL GEO-ECOLOGICAL DISASTER //

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА И СОВРЕМЕННАЯ НАУКА. – 2023. – С. 3-7.

13. Анисимова В. В., Романова И. А., Некрасова М. Л. География сферы обслуживания (третичный сектор экономики): учебное пособие. – Scientific magazine" Kontsep, 2014.

14. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – 2004.

15. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.

16. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.

17. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.

18. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.

SIRLI ZA'FARON

Shayqulov Dilmurod O'ktam o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 3-bosqich 322-gruh talabasi

Xolmurodov Otamurod Berdimurod o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 3-bosqich 346-gruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada za'faron o'simligining foydali xususiyatlari, amaliy ahamiyatini o'rganish, shuningdek, uning xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda amaliy ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: "Qizil oltin", allergik reaksiya, buyrakdagi toshlar, bronxit, nevroz, antioksidant ta'sir, radiatsiya.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о полезных свойствах, практическом значении растения шафран, а также о его практическом значении в народной медицине и современной медицине.

Ключевые слова: "красное золото", аллергическая реакция, камни в почках, бронхит, невроз, антиоксидантное действие, радиация.

ABSTRACT

This article provides information on the beneficial properties of the saffron plant, the study of its practical significance, as well as its practical significance in folk medicine and modern tibbitot.

Keywords: "red gold", allergic reaction, kidney stones, bronchitis, neurosis, nntioxidant effect, radiation.



Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida tumanlar qizilmiya, za'faron, kavrak, lavanda, steviya, moychechak, na'matak, ravoch, mavrak, dalachoy, tog'rayhon, bo'yumadaron, kiyik o'ti, kovul, qalampir yalpiz va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida ixtisoslashtiriladi. Bunda, 2022-yildan 2026-yilgacha 36000 gektar maydonda yangi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladi. **Shavkat Mirziyoyev.**

Za'faron (*Crocus sativus* – lotin.) –safsarguldoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyozli o'simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni 2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'ondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7 mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel—avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90-100 ming dona za'faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi.

Sharqda ilgari u “qizil oltin” deb nomlangan. Za'faron qim-matbaholigining sababi ikkita: birinchidan, uni yetishtirish juda mashaq-qatli ish, ikkinchidan, xushbo'yli, ta'mi va davolash xususiyatlari bo'yicha za'faron ziravorlar orasida tengsizdir. Za'faron – yiliga bir marta 10-15 kun ommaviy gullaydigan, har bir gul ochilishining davomiyligi faqat 2-3 kun bo'lgan qirmizi “krokus” (lotincha nomi) onalik guli tumshuqlari-ning quritilganidir. Za'faron gullari va xususan onalik gullarini qayta ishlash faqat qo'l mehnati bilan amalga oshiriladi. Onalik gullari tumshug'i faqat gullarning birinchi ochilgan kuni qirqib olinishi lozim. Uning sifati terim va uni quritishning tezligi bilan bog'liqdir. Bir kilogramm za'faron yig'ish uchun tongda quyosh hali onalik gullarini quritib ulgurmasidan, 150 ming dona atrofida guli terib olinishi lozim. Bir gektar yer maydonidan terimchilarning mahorati va ob-havoning munosib sharoitiga qarab 8-12 kilogramm za'faron yig'ib olish mumkin.

Za'faronning kimyoviy tarkibi 10-12 % suv, 5-7 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mum, 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan.

Za'faronning shifobaxsh xossalari

Xalq tabobatida.

• Jigar faoliyatini me'yoriga keltirish va uni davolash maqsadida za'faron un kabi yanchilib, maydalanadi va ovqatlangandan 20 minut o'tkazib iste'mol qilinadi. **Uslubi:** choy qoshig'i uchidan til bilan yalab iste'mol qilinadi.

- Erkaklar quvvatini oshirish uchun za'faron, zanjabil dorivorlarini va qora muruchni sabzavotli, go'shtli yoki baliqli taomlar pishirilib tayyor bo'lgach, qo'shiladi.

- Yurak, buyrak, jigar kasalliklarini davolashda, kon'yunktivit, keratit va yiringli jarohatlarni davolashda za'faronning suvdagi aralashmasidan foydalaniladi. Buning uchun bir choy qoshig'i za'faron tolalari ustidan qaynab turgan bir stakan suv quyiladi, 20 minut tindiradi, 3 qavat dokadan o'tkazib, sovutiladi va kuniga uch mahal ovqatdan oldin 15 gramdan ichiladi yoki bu suvga doka ho'llab jarohatga qo'yiladi.

- Tomirlar xastaliklari, kataraktada, glaukomada, yurak qon tomir kasalliklarida va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda, buyrak toshlarini maydalashda za'faronning quritib maydalangan va asalga aralashtirilgan tolalari til tagiga qo'yib shimib iste'mol qilinadi.

- Za'faronni qaynoq sutga qo'shib ichish bosh miya to'qimalarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xotirani yaxshilaydi, aqliy faoliyat va sezgi organlari faoliyatini yaxshilaydi.

- Asablarni tinchlantirish va uyquni yaxshilash, shuningdek, peshob ajralishini yaxshilash uchun za'faron yog'ini iste'mol qilish yaxshi natija beradi.

- Bosh og'rig'idan forig' bo'lish uchun za'faronning 3 dona tolasini olib, 3-4 tomchi eritilgan (topleniy) yog'ga aralashiramiz. Yaxshilab aralashtirib burun kataklari ustidan surtamiz, qolganini burun ichiga tortamiz.

- Ichki qon ketishini davolashda. Bir choy qoshiq zarchavani 6-7 ta za'faron tolasini bilan aralashtirib, aralashmani qaynoq sutga solib ichamiz.

- Hayz siklini me'yoriga keltirish va og'riqni pasaytirish uchun kuniga 5-10 ta tola za'faron iste'mol qilinadi. Bunda tolalarni asta-sekin yalash yoki olmaga, asalga va choyga qo'shib iste'mol qilish mumkin.

- Jigar xastaliklarini va qonga oid kasalliklarni davolash maqsadida 10 dona mayiz, 3 ta tola za'faron va oqar suvdan olib tindirilgan 100 g suvdan foydalanamiz. Bu aralashmani 8-9 soat davomida tindiriladi. Bir yarim oy davomida har safar mazkur yo'sinda yangi tayyorlanib tindirilgan aralashmani ichiladi.

- Immun tizimini me'yoriga keltirish uchun choyga za'faron tolalarini qo'shib ichiladi. Buning uchun choynakka 7-15 ta tola za'faron solinadi va ustidan 200 g qaynoq suv quyiladi, olovga qo'yib yana 5 minut davomida qaynatiladi, yana 400 g qaynab turgan suv qo'shiladi, qaynab chiqishi bilan olovdan olinadi. Tolalar choynak tagiga cho'kkunicha tindirib, so'ng ichiladi. Bunday choy ikki oy davomida kuniga uch mahal ovqatlanishdan oldin ichiladi. Bitta damlangan za'faron tolalaridan ikki marta bunday choy damlanadi.

- Ko'zni davolash uchun maydalab un holiga keltirilgan 5 ta za'faron tolasini olib, shunga teng miqdorda atirgul suvi (gulob) aralashtirib, ko'zga surtiladi.

- Buyrakdagi toshlarni tushirish uchun unday yanchilgan 50 ta za'faron tolasini 100 g toza tabiiy asal bilan aralashtiriladi. Bu aralashmani ovqatlanishdan oldin kuniga 2 mahal yarim desert (choy qoshiq emas!) qoshiqdan iste'mol qilinadi.

- Bronxitni davolashda za'farondan 1 desert qoshiq olib, ustidan 1 stakan qaynoq suv quyib damlama tayyorlanadi. Damlamadan kuniga 3 mahal 30 g dan ichiladi.

- Peshob yo'llaridagi tosh kasalligini davolash uchun 1 desert qoshig'ida za'faron olib, ustidan 250-300 g qaynoq suv quyiladi. Damlama to'liq tindiriladi. Kuniga uch mahal ovqatdan oldin 15 g dan ichiladi.

- Salomatlikni umumiy mustahkamlovchi dori-vosita:buning uchun 7-15 dona za'faron ip tolasini olinib, qaynoq suvda chayiladi, so'ng ustidan 250 ml qaynoq suv quyiladi va past olovdagi konforkaga qo'yiladi. 3-5 minut o'tgach, ustidan 500 ml qaynoq suv quyib, qaynay deganda olinadi (dori qaynashi kerak emas). Sutkasiga 3 mahal 250 ml dan ovqatlanishdan yarim soat oldin ichiladi. Bu dorini tayyorlashda ishlatilgan za'faron tolalarini xuddi shu yo'sinda ikkinchi marta dori tayyorlash uchun ishlatish mumkin.

- Xotirani yaxshilash uchun:za'faronning yanchib maydalangan 3 dona tolasini 250 ml sutga aralashtirib ichiladi.

- Allergik reaksiyada:5 g maydalangan za'faron tolalari choy qoshig'ining 1/3 ida olingan yanchilgan zanjabil aralashtirib ustidan 500 ml qaynoq suv quyiladi. Sutkasiga 3-4 mahal 125 ml dan ichiladi. Davolanish muddati 1 oy, so'ng zarur bo'lsa, bir necha kun tanaffus qilib, muolaja yana takrorlanadi.

- Tushkunlikka tushish, xafaqonlikdan, zaiflashgan ko'rish qobiliyatini tiklash, qonni tozalash uchun shirin dori: 3-4 ta za'faron tolasiga2-3 dona yanchilmagan qora muruch va 15 dona mayiz olinadi, ustidan 1 stakan qaynoq suv quyiladi va nahorga ichiladi.

- Bronxitni davolash uchun 2 choy qoshiq za'faron tolalari 1 stakan qaynagan suvga aralashtirib, 15 minut davomida (manti qasqonda) bug'lanadi. Tayyor bo'lgan dorini dokadan o'tkazib, 2 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal ichiladi.

- Ichki qon ketishini to'xtatish uchun: 5-7 ta za'faron tolasini 1 stakan iliq sutga solib ichiladi. Bu dori ichdan qon ketishini to'xtatadi.

Uning damlamasi bilan qadimda kataraktani davolashgan, hozirgi vaqtda ham u ko'zga tomiziladigan dorilar tarkibiga qo'shiladi.

O'rta asrlarda za'faronni soxtalashtirgan kishi gulxan o'tida yoqilgan. Haqiqiy za'faron hech qachon arzon narxda sotilmagan. Pazandachilikda za'faron suyuq ovqatlar, baliq, go'shtli, sabzavotli taomlar va shirinliklar pishirishda ularga nozik ta'm, dorivor mazasi, chiroyli oltin rang berish uchun ishlatiladi. Za'faronni choy, kofe va alkogolsiz ichimliklarga qo'shilsa, insonni tinchlantirib, osoyishtalik bag'ishlaydi.

U pazandachilikda mislsiz vositadir. Uning kichkina tolasini qo‘shib pishirilsa, taom yoqimli oltin rangida tovlanib, o‘ziga xos xushbo‘y ta‘mga ega bo‘ladi va oson hazm bo‘ladi.

Za‘faronning xushbo‘y hidini hidlash insonni nafas olish organlariga ijobiy ta‘sir qilib tinchlantiradi va uyqusizlikdan qutilishga yordam beradi. Kuchli bosh og‘rig‘ida va quloq shamollaganida za‘faron suvida paxta yoki yumshoq matoni ho‘llab kasal a‘zoga bosilsa, og‘riqni qoldiradi. Bundan tashqari u qorin ochish hissini ham kamaytiradi.

Za‘faron me‘yorida oshirib ishlatilsa, sezgi organlarini qattiq zo‘riqishiga olib kelishi mumkin. Me‘yordan ko‘p ovqatga qo‘shilgan za‘faron taomni buzishdan tashqari insonni zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bir necha gram yangi uzilgan sifatli za‘faron iste‘mol qilinsa, o‘limga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy tibbiyotda.

• Onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o‘simtalariga qarshilik ko‘rsatadi va ularning hujayralari o‘sishini to‘xtatadi);

• Qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi);

• Miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to‘qimalarini o‘stiradi, xotirani yaxshilaydi);

• Nevrozdan forig‘ qiladi;

• Bosh og‘rig‘i va uyqusizlikdan xalos etadi;

• Oshqozon-ichak faoliyatini me‘yorga keltiradi;

• Ortiqcha o‘tdan xalos etadi;

• Buyrak va qovuqni davolaydi (asal aralashtirilgan za‘faron buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi);

• Antioksidant ta‘sirga ega (energetik modda almashinuvini yaxshilaydi, zararli moddalarni chiqarib yuboradi);

• Organizmni quvvatlaydi;

• Ko‘rish qobiliyatini tiklaydi, ko‘z to‘rpardasiidagi illatlarni davolaydi;

• Ereksiyani yaxshilaydi;

• Hayz siklida og‘riqni yengillashtiradi;

• Terining kuygan va shish paydo bo‘lish holatlarida ularni davolaydi;

• Allergiyadan xalos etadi;

• Ichkilikbozlik illatidan xalos etadi;

• Shamol va spazmalarni chiqarib yuboradi;

• Butun organizmni yoshartiradi;

• Organizmdagi radiatsiya darajasini pasaytiradi.

Ko‘z kasalliklari

Ushbu ajoyib ziravor tarkibidagi moddalar hujayralarga chuqur kirib, ulardagi yog ‘kislotalari bilan ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega ekanligi tufayli ular ko‘rish qobiliyatini pasayishiga va ko‘rlikka olib keladigan turli xil salbiy jarayonlarga ta’sir qilishi mumkin. Shu sabablarga ko‘ra za’faron ko‘zning to‘r pardasini davolaydigan va fotoreseptorlarni tiklaydigan dorilarni tayyorlashda ishlatiladi. Ushbu xususiyatlar tufayli za’faron ko‘rish sifatini saqlab qolish va ko‘z kasalliklarini davolashga yordam beradi.

Buyrak tosh hosil bo‘lishi

Za’faron buyrak toshlarini yorish va tozalash vositasi sifatida juda yaxshi tashkil etilgan. Dori-darmonlarni tayyorlash uchun 100 g suyuq asalarichilik asalida 2-3 kun davomida 50 ta safronni talab qilish kerak. Ushbu vositani har kuni ertalab och qoringa choy qoshig‘ida ichish kerak.... Natija darhol paydo bo‘lmaydi va bu qabul qilishning muntazamligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bronxit bilan

Krokus stigmalari kuchli yo‘tal bilan kurashishda juda samarali bo‘lib, bronxit va pnevmoniya paytida balg‘amni olib tashlashga yordam beradi. Uyda tayyorlangan dorivor ichimlikni tayyorlash uchun siz 500 ml qaynoq suvda 15 ta ipni pishirib olishingiz kerak. Birinchidan, iplar oz miqdordagi suv bilan quyiladi, isitiladi, so‘ngra qolgan barcha suv quyiladi. Bulyonni isitguncha olovda ushlab turish kerak va uni qaynatib yubormasdan olib tashlash kerak. Ichimlik soviganida va ziravorlar cho‘kib ketganda, uni ovqatdan bir kun oldin bir stakan ichishingiz mumkin. Bu nafaqat yuqori nafas yo‘llarining kasalliklarini engishga yordam beradi, balki butun tanani mustahkamlaydi.

Za’faron butun organizm hujayralarini oziqlantiradi, terini silliq qiladi, rangni tiniqlashtiradi, xotira va aqliy faoliyatni yaxshilaydi, kayfiyatni ko‘taradi. Za’faron 100 dan ortiq xastaliklarni davolovchi shifobaxsh xossalarga ega. Amalda har qandalik xastalik, u boshlanish bosqichidami yoki rivojlangan oxirgi bosqichidami, bundan qat’iy nazar, za’faron yordamida 85-87 % ga shifo topadi. Tadqiqotlar buni qayta-qayta isbotlagan. Za’faronning shifobaxsh xossalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Bundan tashqari, za’faron asabiylashishda, yurak-qon tomirlari, nafas yo‘llari kasalliklarida, siydik haydash va reproduktiv organlar muammolarida, immunitetni hamda ko‘z ko‘rishini yaxshilashda, og‘riqlarni qoldirishda juda foydalidir. Shuningdek, miya faoliyatini faollashtirishda, rak kasalining oldini olishda va insonlardagi mutagenlikni oshirishda keng qo‘llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ziravorlar sultoni va dorivor o‘simliklar ko‘rki bo‘lgan za’faron *crocus sativus* asrlar davomida insonlarga turli hastalıklarda

yordam berib kelgan. Bugungi kunga kelib prezidentimiz tasahbusi bilan ushbu noyob o'simlik kata plantatsiyalarga ko'chirib o'tkazilmoqda va mamlakatimiz aholisi salomatligini tiklashda keng qo'llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Amanpour, Asghar; Sonmezdag, A. Salih; Kelebek, Hasim; Selli, Serkan (2015). "GC–MS–olfactometric characterization of the most aroma-active components in a representative aromatic extract from Iranian saffron (*Crocus sativus* L.)". Food Chemistry.

2. Abdullaev 2002, p. 1

3. Sobirov J. X. O., Komiljanova E. U. Q., Sharifboyeva H. I. Q.

Internet saytlari.

1. Avitsenna.uz

2. [saron akademiyasi](http://saron.akademiyasi)

AVTOTRASPORT KORXONASIDA ISHCHILAR MEHNATINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jabborov Dilshod Baxromovich

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: dilshodj694@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada avtotransport korxonasida ishchilar mehnatini taqsimlanishi tushunchasining mohiyati talqin etilgan hamda uning amal qilish tamoyillari va rag‘batlantirish usullari o‘rganilgan. Mehnatni taqsimlash nuqtai nazaridan samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatni taqsimlanishi, mehnat intizomi tamoyillari, ijara va jamoaviy ish, ta‘mirlash ishlari, mehnat uchun rag‘batlantirish.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА РАБОЧИХ НА АВТОТРАНСПОРТНОМ ПРЕДПРИЯТИИ

Джаббаров Дилшод Бахромович

E-mail: dilshodj694@gmail.com

Старший преподаватель кафедры “Экономика и менеджмент”

Джизакского политехнического института

АННОТАЦИЯ

В статье трактуется сущность концепции разделения труда работников автотранспортного предприятия, а также изучаются принципы ее реализации и методы стимулирования. Разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности разделения труда.

Ключевые слова: разделение труда, принципы трудовой дисциплины, аренда и коллективный труд, ремонтные работы, стимулирование труда.

PECULIARITIES OF THE ORGANIZATION OF WORKERS’ LABOR AT THE AUTO TRANSPORT ENTERPRISE

Jabbarov Dilshod Bakhromovich

Senior lecturer of the “Economics and Management”

department of Jizzakh Polytechnic Institute

E-mail: dilshodj694@gmail.com

ABSTRACT

The essence of the concept of division of labor of workers in the auto transport enterprise is interpreted in the article, and the principles of its implementation and methods of promotion are studied. Scientific and practical suggestions for increasing efficiency in terms of division of labor have been developed.

Key words: division of labor, principles of labor discipline, rent and collective work, repair work, incentives for work.

Haydovchilarning mehnatini tashkillashtirish o'ziga xos uslublari keyingi paytlarda ilmiy izlanishlar doirasida e'tibordan chetda qolayotgan masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Haydovchilarning mehnatini tashkillashtirish o'ziga xos uslublari asosan mehnatni taqsimlash va har xil turdagi (ko'rinishdagi) jamoaviy usulni tashkillashtirishni rivojlantirish, kasb-korlarini keng miqyosida birga qo'shib olib borishdagi muammolar tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

Haydovchilarning mehnatini hamkorlashtirishning asosiy usuli brigadaviy uslubi-harakatdagi tarkibdan unumli foydalana olishiga imkon beradi. Tezkor rahbarlikni va ishiyuzasidan nazoratni ta'minlash darajasini oshiradi, ish jarayoni yaxshilaydi (ish vaqtdan tashqari ishlangan vaqtga haq to'lash), korxonada xizmat ko'rsatuvchilarning ishlovchilar bilan mehnatdagi hamkorligini (do'stligini) kengaytirdi.

Avtomobil transportida ijara va jamoaviy ish uslub keng tarqalgan bo'lib, ularning afzalligi quyidagicha ifodalanadi:

- avtotransport va ishlab chiqaruvchilar xizmatining foyda berishini oshirish;
- xo'jalik hisob-kitobini (hisobini) mustahkamlash haydovchilar mehnat jamoasini boshqaruvini yashilash;
- brigada mehnatini oxirgi natijasi uchun jamoaviy javobgarlikka shart-sharoit yaratish, qaysikim ishlab chiqarish jamoasi a'zolari bir-biri bilan o'zaro umumiy iqtisodiy va javobgarlik nuqtai nazari bilan uzviy bog'langan;
- mehnat kollektivlar barqarorligini, mustaqilligini oshirish;
- yosh haydovchilarning o'quvi va kasb mahoratini oshirishga sharoit yaratish.

Olimlarning fikricha "Mehnat intizomi to'rt jihatda huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi: mehnat huquqi tamoyillaridan biri sifatida, mehnat huquqi mustaqil instituti sifatida (ob'ektiv xususiyat), mehnat huquqiy munosabatlari unsuri sifatida (sub'ektiv xususiyat), haqiqiy xulq-atvorni huquqiy baholash sifatida [1,40].

Brigadalarni tuzishda asosiy muhim shartlardan biri ularni to'g'ri shakllantirish hisoblanadi. Brigada pudratini foydali qo'llanishida avtomobillar haydovchilari brigadasini albatta, aniq ko'rsatilgan ish ob'ektiga (ish joyiga) bog'lash zarur. Pudrat brigadalaridagi avtomobillar miqdori va haydovchilar soni rejalashtirilgan yuk tashish

hajmidan kelib chiqqan holda o'rgatiladi, avtomobillardan foydalanishning texnikaviy-ishlatish ko'rsatkichlari xizmat ko'rsatuvchi korxonada va tashkilotlarning ishining holati va shart-sharoitiga ko'ra hisobga olinadi, shuningdek ishning bajarish muddatiga ko'ra hisobga olinadi, shuningdek ishning bajarilish muddatlari ham e'tiborga olinadi. Sotsiologik (ijtimoiy) tekshiruvlar natijasi tavsiyasiga ko'ra haydovchilar brigadasini tuzish asosan ko'ngilli tarzda har xil (turli) yoshdagi xodimlar (ishlovchilar) va har xil ish (stajli (ish muddati) xodimlardan bo'lmog'i lozim. Bu o'z navbatida brigadada axloqiy-ishlab chiqarish iqlimini vujudga keltiradi, o'zaro yordam va o'zaro tushunishni durust tashkilotlarga olib keladi.

Pudrat shartnomasi tomonlarning shartnomaviy majburiyatlarga rioya qilinishiga javobgarlikni aniqlaydi va shart buzilganda sanksiya javobgarlikka tortish bera oladi, shuningdek barcha tomonlarning imzolangan shartnomasi asosida o'zaro hisob kitoblar tartibini belgilaydi. Haydovchilarga avtomobillarni to'da (gruppa) xurujida (variant) biriktirish (berkitish) asoslari va ularga qisqacha tavsiyalar quyidagi jadvalda keltiriladi (jadval 1).

Jadval 1

Haydovchilarga avtomobillarni to'da (gruppa) xurujida (variant) biriktirish (berkitish) asoslari va ularga qisqacha tavsiyalar

Avtomobillarning birkirilishi tizimi	Haydovchilarga avtomobillarni biriktirish (berkitish) varianti (guruhi)	Guruhga (variant) qisqacha tavsiya
Bittalik yoki yakka	Bir haydovchiga bitta avtomobil biriktirilgan (berkitish)	Haydovchi har kuni 1 smenada ishlaydi. Avtomobil faqat 1 smenada ishlatiladi.
Bir yarimtalik	Uchta haydovchiga 2 ta avtomobil biriktirilgan	Har bir haydovchi 1 smenada 2 kundan ishlaydi. Uchinchikun dam olish kuni. Avtomobil bir smenada foydalaniladi, xolos.
Ikkilantirilgan	Ikkita haydovchiga 1 ta avtomobil berkitilgan har bir uchta brigada haydovchilariga - bitta almashiruvchi (podsmensiya)	Har bir haydovchi har kuni yoki ertalabki, yoki qechqurungi smenada ishlaydi. Avtomobildan har kuni ikki smenada foydalaniladi.
Juftlik	Ikki haydovchiga bir avtomobil biriktirilgan	Har bir haydovchi bir smenada 11 soat davomida bir kun qo'yib bir kun ishlaydi. Avtomobildan har kuni 11 soat foydalaniladi.
Ikki yarimtalik	Beshta haydovchiga ikkita avtomobil berkitilgan	Har bir haydovchi to'rt kun davomida ertalabki yoki kechki smena (muddat)da ishlaydi, beshinchi (5) kun dam olish kuni, undan so'ng smenalar almashadi. Avtomobilda har kuni 2 (ikki) smenada foydalaniladi.

ATK (avtotransport korxonasi)dagi ta'mirlovchi ishchilarning asosiy ishlari qatoriga avtomobillar va ularning agregatlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek ehtiyoj qismlarni tayyorlash kiradi. Ta'mirlovchi ishchilarning asosiy va yordamchi ishlarga bo'linishi ATKning texnikaviy xizmat ko'rsatishida markazlashgan boshqaruv tizimini va yangi ko'rinishdagi (turdagi) ishchilarni vujudga keltiradi.

Mehnat intizomini tarbiyalash va mustahkamlash ishida mehnat jamoalari rolini oshirish va ularga berilgan huquqlardan sama rali foydalanish muhim yo'nalish bo'lishi kerak [2, 234 b].

Bular jamlovchi (komplektovanie) slesrarlar bo'lib ular yordamida ishlarni bajaradilar,0 ya'ni (zarur bo'lgan asbob uskunalarni omborxonadan ish joyiga etkazish, tayyor mahsulotlarni texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash joyidan omborxonaga olib borish, avtomobil agregatlarini, qismlarini, detallarini ta'mirlashga yuborishdan avval (oldin) yuvish va h.k.) Ta'mirlovchi ishchilarning mehnatini taqsimlashning va jamlashning (koopsratsiya) ifodali aniq uslubini tanlashda eng avvalo o'rganish va chuqur analiz qilish zarur: har xil texnologik ishlarni bajarilishini amalga oshirish safirlangan vaqt, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash darajasi, texnologik jarayonlardagi haqiqiy sermehnatlik.

Bizning fikrimizcha ATK doirasida ta'mirlash ishlari jamoaviy ijara pudrati asosida amalga oshiriladi. Bu borada pudrat asosida tuzilgan shartnoma shuningdek iqtisodiy javobgarlikni ortishini (o'sishini) va ushbu jamoalarning qiziqishini, avtomobillarning bir maromda ishlashini va ularni ish joylariga muddatida chiqarilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azizova S.X. Mehnat intizomi tushunchasi, tamoyillari va rag'batlantirilishi. Iqtisod va moliya / Экономика i finansы 2018, 8(116) - 40 b.
2. Маренков Л.И., Алимарина Е.А. «Управление трудовыми ресурсами» Серия высшее образование. Ростов на Дону: из-во «Феникс», 2004 - 234 с.
3. Kuryazov, D., Jabborov, D., & Khujamuratov, B. (2020, October). Towards decomposing monolithic applications into microservices. In 2020 IEEE 14th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT) (pp. 1-4). IEEE.
4. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215.

5. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
6. Yahyoyevna, Obidova Feruza. "FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION." World Economics and Finance Bulletin 18 (2023): 72-77.

AVTOTRANSPORT SOHASIDA MUNTAZAM YO‘NALISHIDA ISHLAYOTGAN HAYDOVCHILAR MEHNATIGA HAQ TO‘LASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Jabborov Dilshod Baxromovich

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi
E-mail: dilshodj694@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada yo‘lovchilarga xabari bor muntazam yo‘nalishida ishlayotgan haydovchilar mehnatiga haq to‘lash xususiyatlari talqin etilgan hamda uning amal qilish tamoyillari va rag‘batlantirish usullari o‘rganilgan haydovchilar mehnatiga haq to‘lash xususiyatlari nuqtai nazaridan samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarif, stavka, haydovchilarning asosiy ish haqi, mehnat uchun rag‘batlantirish, algoritm.

ПОВЫШЕНИЕ ОПЛАТЫ ТРУДА ВОДИТЕЛЕЙ, РАБОТАЮЩИХ В СФЕРЕ АВТОМОБИЛЬНОГО ТРАНСПОРТА

Джаббаров Дилшод Бахромович

Старший преподаватель кафедры “Экономика и менеджмент” Джизакского
политехнического института
E-mail: dilshodj694@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье разъясняются особенности оплаты труда водителей, работающих на регулярных маршрутах, осведомленных о пассажирах, а также разрабатываются научно-практические рекомендации по повышению ее эффективности с точки зрения особенностей оплаты труда водителей, изучения ее принципов и методов стимулирования.

Ключевые слова: тариф, ставка, базовая заработная плата водителей, поощрения за работу, алгоритм.

IMPROVEMENT OF REMUNERATION OF DRIVERS WORKING IN THE FIELD OF MOTOR TRANSPORT

Jabbarov Dilshod Bakhromovich

Senior lecturer of the “Economics and Management”
department of Jizzakh Polytechnic Institute
E-mail: dilshodj694@gmail.com

ABSTRACT

The article explains the features of remuneration for drivers working on regular routes, aware of passengers, and also develops scientific and practical recommendations for improving its effectiveness in terms of the characteristics of remuneration for drivers, studying its principles and methods of stimulation.

Keywords: tariff, rate, base salary of drivers, incentives for work, algorithm.

Mamlakatimizda transport xizmatlarini ko'rsatishning har tomonlama rivojlanishi, bu borada innovatsion mexanizmlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Unda aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish; yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash vazifasi belgilangan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.02.2019 yildagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan O'zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik transportning barcha turlarini yagona transport tarmog'iga integratsiyalashuvi va yangi samarali transport-logistika tizimlaridan foydalangan holda uyg'unlikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona davlat transport siyosatini ishlab chiqish va transport-logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning barcha toifadagi iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlash, shuningdek, sohaga investsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan transport sohasidagi yagona ta'rif siyosatini amalga oshirish va boshqa bu boradagi muhim vazifalarni bajarish ko'rsatilgan. Mazkur farmonda "Shahar, shahardan tashqari, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda avtomobil transportida yuk va yo'lovchilar tashishni amalga oshirish uchun litsenziya berish va ularning amal qilish muddatini uzaytirishdan tushadigan davlat boji mablag'alarining 40 foizi O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga Vazirlik va uning hududiy bo'linmalarini ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi belgilangan.

Shu o'rinda yo'lovchilarning xabari bor muntazam (regulyarniy) yo'nalishida ishlovchi avtotransport vositalari (avtobus, mitti avtobus) haydovchilari uchun qoidaga muvofiq mehnatga haq to'lash tizimida vaqtbay va ishbay mukofot to'lanishi qo'llaniladi. E'lon qilingan yo'nalish jadval bo'yicha ishlovchi haydovchilar uchun vaqtbay mukofot tizimi ishlangan soatlar uchun asosiy ish haqining soatbay tarif stavkasi bo'yicha to'lash hisoblanadi.

Bunday turkumdagi haydovchilar uchun qaysikim birlashgan, qo'shma davlat korxonalarining shahar (qishloq) boshqarmasiga qarashli shaxsiy mulkchilik turida tarifdagi maosh miqdori 7-8 tarif darajasida belgilanadi, bunda albatta ishchilarning mehnat faoliyatidagi malakalari va mutaxassislik sharoit hisobga olinadi (avtotransport vositalarining uzunlik o'lchovi, yo'nalishlaridagi mavjud tarmoqlarda yo'l harakatidagi tezlik). Avtotransport vositalarini boshlang'ich harakat manzillarida avtobus ishini to'ldirish uchun yo'nalish jadvali e'lon qilinmagan yo'nalishlarda ishlovchi haydovchilar uchun nisbiy-mukofot tizimi qo'llaniladi.

Ushbu yo'nalishdagi tartibni qo'llashda xaydovchilarning asosiy ish haqi avtotransport vositasi ichida yig'ilib, hisobga olingan vaqt mobaynida vujudga kelgan foydaning foizlarda ifodalangan miqdorida amalga oshiriladi. Haydovchilarning mehnatiga haq to'lashning belgilangan kattaligi ish beruvchilar va ular (haydovchilar) o'rtasidagi tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi, shuningdek ishlovchilar jamoaviy shartnoma va yakka holatdagi mehnat shartnomasini ham qayd qilinishiga erishishilari lozim. Yo'lovchi avtotransport korxonalarini haydovchi xodimlar bilan ta'minlanishi, asosan davlat korxonalarini yo'lovchilar tashishdagi doimiy yo'nalishdagi tahlili shuni ko'rsatdiki haydovchi xodimlar mehnatga haq to'lashning darajasi va tizimidan qoniqmasliklari ayon bo'lmoqda. Bu yo'nalishida mehnat bozorida haydovchi xodimlarga bo'lgan talab ularning takliflariga yoki taqdimlariga nisbatan ancha yuqoridan va bu boradagi talab faqat vaqtinchalik kelganlar bilan (ya'ni migrantlar bilan) asosan qoniqtiriladi. Yo'lovchilar xabari bor doimiy yo'nalishlarda ishlayotgan haydovchilarga haq to'lashning yuqoridagi notugal shaklining harakatdagi tizimini aniqlab beruvchi omillaridan biri hisoblanadi, bu esa o'z navbatida belgilangan haqiqiy amaldagi yo'nalishi tizimining va ularning mehnat faoliyatining murakkabligini hisobga olinmaganligidandir. Haq to'lashning harakatdagi tizimida faqat ikki turdagi omillar: texnikaviy (yo'lovchi avtotransport vositasining gabarit uzunligi va yo'lovchi sig'ira olish qobiliyati) va tashkiliy (yo'nalish bo'yicha harakat vaqtida amal qilish va jadval bo'yicha qatnovlarni bajarish) e'tiborga olinadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatilgan omillar guruhi yoki turi haydovchilarning haqiqiy yo'nalishidagi (marshurt) qiyinchiliklari katta farq bilan juda bo'sh ifodalangan.

Ko'pgina hollarda ko'rsatilgan qiyinchiliklar tashkiliy-harakat omillari turi (guruh)ga bog'liq (yo'l harakatidagi tezkorlik, yo'lning o'tkazish qobiliyati chorrahalaridagi svetoforni boshqaruvning oraliq vaqti(chastotasi) va to'xtash manzillari, to'xtash manzillarining o'tkazish qobiliyati, yo'nalishlardagi yo'lovchilar oqimi, yo'nalishning masofasiga va moslashishiga (konfiguratsiya)ning qaysikim mehnat haq to'lashning harakatdagi yo'nalishlarida amaliy tarzda e'tiborga olinmagan.

Algoritmning mehnat faoliyatini har tomonlama ishlab chiqilishining ketma-ketligi avtobus boshqaruvidan andozaviy harakatining (yoki shaklan harakatining) algoritmini tuzish imokniyatini vujudga keltiradi, ularni mantiqiy sharoitlarda bajarilishini (jadval 2). SHuningdek avtobusni boshqarishda algoritmnning muomilaviy xususiyatlarining shaklini yoki andozasini hayotga tatbiq etish lozimligini ko'rsatadi (jadval 1).

Jadval 1

Avtobus boshqaruvidagi muomala xususiyatlari

Tartib raqami	Avtobusni boshqarishdagi muomala ko'rishini
1.	To'g'ri chiziqli harakat
2.	Doimiy tezlek bilan harakatlanish
3.	Bekat joydagi "hozirjavoblik"ka almashib kiritilishi
4.	Bekat joyidagi "hozirjavoblik"dan "cho'ntakdan" chiqilishining almashinishi
5.	Bekat joyidan "hozirjavobsiz" "cho'ntaksiz" almashib turish
6.	O'ngga burilish
7.	CHapga burilish Joyidan qo'zg'alish
8.	Bekat joyidan "hozirjavoblik" bo'lgan holda siljish
9.	Bekatgacha to'xtamoq, sekinlatmoq
10.	Tezlikni oshirish, yuqori uzatishga o'tish
11.	Tezlikni pasaytirish, pastki uzatishga o'tish
12.	Qayta sarflanish
13.	O'ngga ravon, silliq burilish
14.	CHapga ravon, silliq burilish
15.	Pastlikka qarab harakat
16.	YUqoriga (do'nglik) qarab harakat
17.	Haydovchining bekat joyidagi (to'xtash manzili) faoliyati

Bizning fikrimizcha avtomobil transporti xizmati bozori holatini baholash, muntazam yo'nalishida ishlayotgan haydovchilar mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish, uning o'zgarish istiqbollari va tendensiyalarini tahlil etish bo'yicha tadqiqotlarni olib borish natijasida tarmoqning uzoq muddatli strategiyasi, uning joriy siyosatiga bevosita ta'sir etadi hamda moliyaviy, ish kuchi va moddiy-texnik resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga va uni rivojlantirishning strategik konsepsiyasini takomillashtirishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi». // Lex.uz.
2. Azizova S.X. Mehnat intizomi tushunchasi, tamoyillari va rag'batlantirilishi. Iqtisod va moliya / Экономика i finansы 2018, 8(116) - 40 b.
3. Маренков Л.И., Алимарина Е.А. «Управление трудовыми ресурсами» Серия высшее образование. Ростов на Дону: из-во «Феникс», 2004 - 234 с.
4. Kuryazov, D., Jabborov, D., & Khujamuratov, B. (2020, October). Towards decomposing monolithic applications into microservices. In 2020 IEEE 14th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT) (pp. 1-4). IEEE.
5. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215.
6. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.
6. Yahyoyevna, Obidova Feruza. "FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION." World Economics and Finance Bulletin 18 (2023): 72-77.

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I MIKROORGANIZMLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Boltayev Komiljon Sultonovich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Mikrobiologiya, virusologiya,
immunologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi Ph.D
E-mail: boltayevkomilsultonovich@gmail.com

Ibrohimova Risqiya Usmonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Mikrobiologiya, Virusologiya,
immunologiya kafedrasida 2-bosqich talabasi
E-mail: risqiyaibrohimova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Og‘iz bo‘shlig‘ida turli xil mikroorganizmlarning yashashi va ko‘payishi uchun optimal muhit, jumladan, oziq moddalar, harorat hamda kuchsiz ishqororiy muhit va hokazolar mavjud. Mikroorganizmlarning ko‘p qismi tish ostida bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘ida normal mikroflora bo‘lib, tabiiy sharoitda ular boshqa patogen mikroorganizmlardan himoya qiladi. *Lactobacillus acidophilus*, *T.macrodentium*, diplokokk, streptokokk, mikrokokk va boshqalar shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlar: *Lactobacillus acidophilus*, *T.macrodentium*, sulfanilamid, antibiotik, *S.salivarum*, *S.mutans*, *S.faecalis*, *S.mitis*, *P.asaccharalyticum*, *P.lanocolatus*, *A.naesluuqi*, *A.viscosus*, *Vasteriodes melaninogenicus*, *F.plauti*, *T.macrodentum*, *T.denticola*, *T.vincenti* *T.buccalis*, *Sampylobacter spotorum*.

TADQIQOT MAQSADI

Mikroorganizmlar og‘izga ovqat, suv, havo, qo‘l va boshqalar orqali tushishi, ayrim hollarda ular shartli patogen bo‘lishi mumkin. Normal mikroflora miqdori va sifati doimo bir xil bo‘lib turishida so‘lak muhim rol o‘ynaydi. U mikroorganizmlarning tishlarga putur yetkazishiga yo‘l qo‘ymaydi, ya‘ni tishni doimo tozalab turadi. So‘lak tarkibida lizotsim, laktoferrin, peroksidaza, nukleaza hamda maxsus sekretlar, immunoglobulin A bo‘lganligi uchun u mikroblarni o‘ldirish (bakteritsid) xususiyatiga ega.

TADQIQOT METODI

Kasallikning turiga va tekshirish maqsadiga ko‘ra so‘lak, tish qatlami, og‘iz shilliq qavati, tish yuzasi, gangrena bo‘lgan pulpalar va chirigan tishdan material olib ulardan surtma tayyorlanadi, Gramm yoki Romanovskiy-Gimza usuli bilan bo‘yaladi.

Spiroketalarni topish uchun surtmani bo'yamasdan qorong'latilgan ko'rish maydonida mikroskop ostida ko'riladi. Tekshirilishi lozim bo'lgan materialni maxsus elektiv va differensial -diagnostik muhitlarga ekib, aerob va anaerob sharoitlarda termostatda o'stiriladi. O'sib chiqqan ekmalardan sof kulturalarning patogenligi, antibiotik va boshqa sulfanilamid preparatlarga chidamliligi ham tekshiriladi. Bemorning immunologik holatini aniqlash uchun so'lakdagi lizotsim, fagositoz, sekretor JgA miqdori, organizmning turli allergenlarga nisbatan sezuvchanligi va boshqa ko'rsatkichlari aniqlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

XVII asrdan to XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan davrda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy himoyasiga doir ma'lumotlarni ana shu davrda yashagan ba'zi shoirlar, davlat, ilm-fan arboblarning asarlarida, shuningdek, tarixnavislik janridagi kitoblarda va boshqa tanqidiy-tavsifiy asarlarda uchratish mumkin. Jumladan, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Mahmud Ibn Valining "Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" ("Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi"), Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Abdulg'azi Bahodirxonning "Shajarai Turk", Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk", Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit ut-tavorix", Mullo Yunusjon Munshiyning "Amir lashkar Alimqul tarixi" asarlarida adolatli hukmdor siymolari va ularning aholining nochor qatlamlariga, xususan imkoniyati cheklanganlarga g'amxo'rlik munosabatlariga alohida to'xtalib o'tilgan [7:26].

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon hamjamiyatida ijtimoiy dunyoqarashning o'zgarishi natijasida inson omili ustuvor ahamiyat kasb etgan bir sharoitda imkoniyati cheklangan shaxslarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi.

Ushbu davrda 1948-yilda Angliyaning Stok-Mandevil reabilitatsiya gospitali vrachi Lyudvig Guttman tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun Parallimpiya sportiga asos solinishi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Dastlab "Stok Mandevil nogironlar aravachasi o'yinlari" o'tkazilib, keyinroq, 1976-yildan boshlab, ilk qishki va yozgi Paralimpiya o'yinlari tashkil etildi. Unda 40 ta mamlakatdan 1600 nafarga yaqin sportchilar qatnashdi. Shunday qilib, dastlab nogironlarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan musobaqa yuqori darajadagi sport tadbiriga aylandi. 1989-yilga kelib esa Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC) tashkil etildi. Lyudvig Guttman o'zining hayrli ishlari bois "imkoniyat cheklangan sportchilarning otasi" degan nom oldi [8].

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil qiladi, bugungi kunda ularning soni 1 milliardga yetgan [9].

Shuni ta'kidlash mumkinki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi (2006 yil 13-dekabr) Konvensiya dunyodagi nogironligi bo'lgan shaxslar Konstitutsiyasi sifatida e'tirof etilgan. Konvensiya asosida BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mita a'zolari 18 kishidan iborat. Bugungi kunga qadar konvensiyani BMTning 193 a'zo davlatidan 184 tasi ratifikatsiya qilgan [10].

Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalash, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan. Ushbu huquqlarni amalga oshirishning kafolatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda. Bu o'rinda Konstitutsiya, 40 dan ziyod qonun va 160 dan ortiq qonunosti hujjat ko'zda tutilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida himoya qilish asosida qanday vaziyat bo'lishidan qat'i nazar insonni, shu jumladan nogironligi borligi tufayli kamsitmaslik prinsipi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. https://ombudsman.uz/oz/docs/nogironligi-bolgan-shaxslarga-teng_imkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim.
2. Махмудова Г.Т., Арифханова С.М. Зардуштийлик фалсафаси, – Тошкент: 2014. – Б. 78-79.
3. Куръони карим (Алоуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 33
4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари.– Тошкент: Фан, 1990.–
5. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Иккинчи тўлдирилган, қайта ишланган нашри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 44.
6. Темур тузуклари. – Тошкент: Ғ.Ғулум нашриёти, 1991. – Б. 67
7. Ҳолиқулова Ҳ.Ю. Ўзбекистонда имконияти чекланган шахсларни ҳимоя қилиш сиёсати (1991-2014 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори. Дисс..2018.–Б.26.
8. <http://sports.uz>. > news > view >par.../Паралимпия ўйинлари тарихини биласизми? У аслида ҳарбийлар...
9. <http://nhrc.uz/oz/news/m8837/>Yangi O'zbekiston – har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan ijtimoiy davlat va adolatli jamiyatdir.
10. <http://uza.uz> > posts >dunyoda-1/Dunyoda 1 milliarddan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar

INKYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING ZARURIY SHARTI

Mahkamov Mahmudjon G'olibjon o'g'li

NamDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: mahmudjonmahkamov77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda bu sohada yaratilgan qonunchilik asoslari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan insonlar, Imkoniyati cheklangan yoshlar, ko'zi ojizlar kutubxonalari, brayil alifbosida darsliklar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие инклюзивного образования, этапы внедрения и развития инклюзивного образования в Республике Узбекистан, а также законодательная база, созданная в этой сфере.

Ключевые слова: инклюзивное образование, люди с ограниченными возможностями здоровья, молодежь с ограниченными возможностями здоровья, библиотеки для слабовидящих, учебники со шрифтом Брайля.

ABSTRACT

This article discusses the concept of inclusive education, the stages of introduction and development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan, and the legislative framework created in this area.

Key words: inclusive education, people with disabilities, youth with disabilities, libraries for the visually impaired, textbooks in braille.

Inklyuziv ta'lim jamiyat hayotining ajralmas bir qismiga aylangan. Buning boisi butun dunyo miqyosidagi imkoniyati cheklangan insonlarning sifatli ta'lim olishi va o'z tengqurlari qatorida bevosita jamiyatga daxldor fuqaro kabi erkin hayot kechirishida muhim rol o'ynashidadir. Ta'lim jarayonida ularning har biri bilan individual tarzda ish olib borish ham ularning ertangi kunga ishonchini orttiradi. Imkoniyati cheklangan shaxsga to'g'ri yo'l ko'rsatish, uning ertangi hayotiga zamin yaratib berish jamiyatning oldida turgan muhim hamda ustuvor vazifasi sanaladi.

Butun dunyoda qariyb 8 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilsa, bundan 1 milliardga yaqin qismini imkoniyati cheklangan shaxslar tashkil etadi. Bu esa inklyuziv ta'lim naqadar dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Xususan, 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 23-moddasida: "Ishtirokchi davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar",- deya ta'kidlangan.[1] Aynan inklyuziv ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Buning natijasi o'laroq imkoniyati cheklangan yoshlarning jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom shaxslardan ziyod darajada katta yutuqlarni qo'lga kiritayotganini bemalol aytish mumkin. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, inklyuziv ta'lim jarayoniga xalaqit beruvchi muammolar ham yo'q emas. Jumladan, ko'zi tug'ma ojiz bo'lgan yoshlar uchun maktab va oliy ta'lim muassasalarida brayil alifbosida darslik va o'quv qo'llanmalarining yetishmasligidir. Bugungi kunda O'zbekistonda 70 mingdan ortiq ko'zi ojizlar istiqomat qilmoqda. Ular orasida 3200 nafardan ortiq o'quvchilar bor. Ko'zi ojizlar uchun brayl yozuvida darsliklar va badiiy adabiyotlar, kitoblar nashr etuvchi bosmaxona esa yagona. Bugun bu bosmaxonaning moddiy-texnik bazasi tang ahvolda qolgan. Bugun ko'zi ojizlar tomonidan 70 nomdagi kitoblarga ehtiyoj bor. Respublikada yagona bo'lgan ko'zi ojizlar bosmaxonasi esa bu talabdan bor-yo'g'i 18 nomdagi kitob ehtiyojini qondira olgan, xolos. Bu o'z navbatida bu sohaga e'tibor qaratishlik qanchalar zarur ekanligidan dalolat beradi. Brayil yozuvidagi kitoblar soning ortishi, albatta, ular uchun imkoniyatlar kengayishiga yo'l ochib beradi. Xususan, O'zbekistonda ko'zi ojizlar kutubxonalari soni 2019 yilda 20 taga oshib, jami 123 taga yetdi. Bu kutubxonalarga o'tgan yil davomida Brayl yozuvidagi 11 nomdagi 1700dan ortiq kitoblar tarqatilgan. 2019 yil natijalariga ko'ra, respublika bo'yicha ko'zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qilgan.[2] Brayil yozuvidagi nashrlarning bu kabi ortib borishi ortidan imkoniyati cheklangan yoshlarning yetarlicha bilim olishlariga zamin yaratmoqda. Mamlakatimizda ko'zi ojizlar yildan yilga ortib bormoqda. Bunga asosiy sababi sifatida qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro nikoh munosabatlari, sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tiborning sustlashganligi hamda globallashtirish davrida yoshlarning internetga mukkasidan ketishi ortidan ko'z nurining pasayishi hatto butunlay ko'rmay qolishlikkacha olib kelayotganligini olishimiz mumkin. Ayniqsa, nogironlik xavfi Orolbo'yi mintaqasida keskin avj olgan. Bunga asosiy sababchi esa albatta insoniyatning o'zi. Uzoq vaqt mobaynida daryo suvidan oqilona foydalanganligimiz oqibatida Orol dengizi qurib bitdi va uning o'rnida faqat sho'rdan iborat bo'lgan tuzlar qoldi, oqibatda bugungi kun turli sohada imkoniyati cheklangan fuqarolarning katta

qismini ham aynan shu yer misolida keltirib o'tmoqdamiz. O'z navbatida ularning soni oshgani sayin ularga davlat siyosatida ham alohida e'tibor qaratilishiga olib keladi. Yorqin dalil sifatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'iga asosan "Ko'zi ojizlar jamiyatining o'quv-ishlab chiqarish tashkilotlari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida" maxsus qarori Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlandi. Ushbu qaror ko'zi ojizlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish uchun manba vazifasini o'taydi. Qaror doirasida keltirib o'tilgan alohida bandlar ko'zi ojizlar turmush darajasini yaxshilash hamda ularga zaruriy sharoitlar yaratish bilan bog'liq muammolarga chek qo'yadi. Imkoniyati cheklangan yoshlar nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo tomonidan alohida e'tiborga olinayotgan aholi qatlami sanaladi. jamiyki davlatlar aholisining ma'lum bir qismini bevosita nogironlar tashkil etadi deya bemalol aytishimiz mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 13-noyabr sanasini "Xalqaro ko'zi ojizlar" kuni deb belgilanishining o'zi ham butun dunyo hamjamiyati befarq emasligidan dalolat demakdir. Imkoniyati cheklangan yoshlar orasida nafaqat ko'zi ojizlar, balki eshitish, so'zlash hamda jismoniy jihatdan nuqsonlari mavjud bo'lgan yoshlar ham tashkil etadi. Ular uchun ham barcha zaruriy sharoitlar yaratib berilgan. Xususan, nutqi hali to'la shakllanmagan bolalar bilan ishlash bo'yicha asosiy ishchi qo'llanma yaratilgan bo'lib, mutaxassis-logopedlar ular bilan individual tarzda ixtisoslashgan maktabgacha va maktab ta'limida sifatli ish olib bormoqdalar. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, o'tkan yil holatiga ko'ra, yurtimizda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ular yurtimizning turli hududlarida, turli sharoitlarda yashaydilar. Eng achinarlisi, ularning atigi 10%i oliy ma'lumotli. Ta'lim bilan qamrab olinmagan nogiron yoshlar qancha... Umuman, tizimga ichkari kirib borsangiz, yechimini kutayotgan muammolar talaygina.[3] Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda bugungi kunda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nogironligi bo'lgan yoshlar uchun davlat o'liy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlariga qo'shimcha imtiyozlar ajratilmoqda. Albatta, buning natijasi o'laroq imtixon jarayonlarida ularga ancha yengillik yaratilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, imkoniyati cheklangan, maxsus ta'limga ehtiyoj sezgan yoshlarga ta'limda tenglik tamoyiliga amal qilgan holda imkoniyatlar yaratib berilishi zarur. Chunki ularning ham o'z tengqurlari qatorida erkin holatda yashash va ilm olish niyatlari qalblarining tub-tubida yotadi, garchi buni doimiy ravishda oshkora qilmasalar-da. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida amaldagi Konstitutsiyada "nogironlik", "nogironligi bo'lgan shaxslar" atamaları umuman ishlatilmagan. O'zgartirilayotgan Konstitutsiyaga nogironligi bor kishilar huquqlarini himoya qilishni kiritish ilgari surilyapti. Prezidentning Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha

bergan takliflari orasida nogironligi bor shaxslar huquqlarini himoya qilish, ularga shart-sharoit yaratib berish bo'yicha ham bandlar ko'rsatilgan.¹ Bu orqali hech bir shaxs e'tibordan chetda emasligini baralla aytish mumkin. Zero, yurtimizda inson oliy qadriyat, o'z navbatida, uning mazmunli hayot kechirmog'i ham qadrli sanaladi. Qadr mavjud bo'lsa, shundagina "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" nomi ostida ilgari surilayotgan bosh g'oya yanada o'z kuchiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
2. <https://kun.uz/uz/08840161?q=%2Fuz%2F08840161>
3. <https://yuz.uz/uz/news/imkoniyati-cheklangan-insonlar-uchun-imkoniyat-cheklanmasligi-kerak>
4. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/nogironligi-bor-shaxslarning-huquqlari-ni-konstitutsiyada-belgilashga-qanday-ehtiyoj-bor>

¹ <https://pravacheloveka.uz/oz/news/nogironligi-bor-shaxslarning-huquqlarini-konstitutsiyada-belgilashga-qanday-ehtiyoj-bor>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI

Raxmonova Gullola Shavkatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abdunabiyeva Fotima Nodirjonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun oilaning o'rnini juda muhimligi, oilaviy ma'naviyatni yuksaltirish, oilada bola tarbiyasi, ularga milliy g'urur, milliy qadriyatlarni o'rgatish kabi masalalar muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: oila, hamkorlik, kelajak avlod, barkamollik, burch, muhit, ma'naviyat, hamkorlik.

АННОТАЦИЯ

Важное место в статье занимают такие вопросы, как роль семьи в воспитании подрастающего поколения гармоничной личностью в дошкольных образовательных организациях, повышение духовности семьи, воспитание детей в семье, воспитание у них национальной гордости, национальных ценностей.

Ключевые слова: семья, сотрудничество, следующее поколение, совершенство, долг, окружающая среда, духовность, сотрудничество.

ABSTRACT

An important place in the article is occupied by such issues as the role of the family in educating the younger generation with a harmonious personality in preschool educational organizations, increasing the spirituality of the family, raising children in the family, fostering their national pride and national values.

Keywords: family, cooperation, next generation, perfection, duty, environment, spirituality, cooperation.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida bir qancha islohotlar hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning barkamol bo'lib etishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta'lim tashkilotlari

alohida o‘rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol insonni voyaga etkazishga intilish xalqimizga xos milliy xususiyatlardan biridir.

Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo‘lib voyaga etadi.

Oilaviy ma‘naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida har bir oila a‘zolarining muayyan ma‘naviy dunyoga ega bo‘lishi ular o‘rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma‘naviy fazilatlarini er-xotinlik munosabatlarining sharqona an‘analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi.

Oila ma‘naviy olami o‘zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma‘naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday qadriyatlarining oilada e‘zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma‘naviy muhitni yaratadi. Bu esa o‘ziga kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o‘ta muhimdir. Shu asosda har bir oila a‘zosining iste‘dodi va salohiyati to‘la ro‘yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma‘naviyat maskani sifatida shakllanib boradi.

Oila tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma‘rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o‘taydi. Har bir ota-ona o‘z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta‘minlaydigan hamma xususiyatga to‘liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV sessiyasidagi nutqida ta‘kidlaganidek, “Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan “O‘z bolangni o‘zing asra” degan da‘vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya‘ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas‘uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi, deb o‘ylayman”.

Haqiqatan ham har bir ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma‘naviy sog‘lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o‘rganish, kitob o‘qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi.

Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o‘qishga qiziqtirish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o‘z mas‘uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim. Oilada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan

sogʻlom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega boʻlgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila maʼnaviyatining tutgan oʻrni alohidadir.

Oila tarbiyasi boʻyicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda oʻziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islom taʼlimotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha taʼkidlanadi: “Islomda tarbiya taʼlimdan koʻra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, koʻchada, maktabda oʻzini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini oʻziga boʻysundirishdek ogʻir ishni yoʻlga qoʻydi.

Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani koʻrsa, shunga tahlid qilib oʻsadi. Oilada ota olijanob keng feʼl, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq boʻlishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qargʻamaydigan va muloyim boʻlmogʻi lozim. Farzandlarimizni sogʻlom eʼtiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan.

Rasululloh sallallohu alayhi vassalam “Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, otda choptirishni oʻrgatinglar” deb farzandlaringizni chaqqon, sogʻlom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatni targʻib qildilar”.(Termiziy va Abu Dovud rivoyatlari). Zeroki sogʻlom va baquvvat farzand hamma joyda ham oʻz yurtiga naf keltiradi. Oilada ayniqsa, qiz bola tarbiyasiga eʼtibor berish asosiy oʻrin egallaydi. Qiz bolani erta turmushga bermaslik, ularni ilm-hunar oʻrganishga yoʻnaltirish ham ota-onaning vazifasi hisoblanadi.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni koʻribgina qolmay, balki uni qoʻllab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar eʼtiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishlash boʻyicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhviy majlislar, ota-onalar uchiin ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarda koʻrgazmalar tashkil etish va konsertlar qoʻyib berish, shuningdek, bu tadbirlarni oʻtkazish vaqtlari va unga masʼul boʻlgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va maz-muni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash boʻyichajuda koʻp ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan oʻzgarishlarni hammadan koʻproq koʻradi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish boʻladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nima-larga koʻproq eʼtibor berish kerakligi, ularni maktab taʼlimiga tay-yorlash, sogʻligʻini saqlash, ovqati va kun tartibini toʻgʻri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

MTT va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad — oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usul-lari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, ommalashtirishdir. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan avvalo o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi kerak.

Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bildiradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday o'ynayotganini ko'radilar, bolalarning o'quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya tashkilotlarining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Рахмонова Г. Ш. и др. ЗАДАЧА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ СОЗРЕВАНИЯ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 162-162.
2. Рахмонова Г. Ш. РОЛЬ, СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В СОЗРЕВАНИИ ЧЕЛОВЕКА //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 121-124.
3. Shavkatovna R. G., Nawaz S. Spiritual and Moral Education of Schoolchildren //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 78-82.
4. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 371. – С. 05069.
5. Shavkatovna R. G. Technologies for the Development of Spiritual and Moral Competencies in Students //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 4. – С. 14205-14210.
6. Рахмонова Г. Ш. Содержание развития духовно-нравственных компетенций у студентов //Проблемы педагогики. – 2022. – №. 1 (59). – С. 14-16.
7. Ниязова С. Д. ОСОБЕННОСТИ ПОСТРОЕНИЯ И ПРОВЕДЕНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 166-172.
8. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. ВЛИЯНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ДОШКОЛЬНОМ И МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 114-121.
9. Ниязова, Гулбахор Давроновна. "Воспитание нравственности у детей дошкольного возраста." *Проблемы педагогики* 3 (48) (2020): 19-21.
10. Ниязова Г. Д., Ниязова С. Д. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ ДЕТЕЙ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1048-1055.
11. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. ФОРМИРОВАНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ СПОСОБОВ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ

ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ЗАНЯТИЯХ «ОЗНАКОМЛЕНИЕ С ПРИРОДОЙ» //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1093-1101.

12. Qosimovna H. G. et al. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MUHQOTGA O'RGATISH METODIKASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1373-1378.

13. Qosimovna H. G. Boshlang'ich Sinflarda Raqamli O'yinlarga Asoslangan Ta'limni Tashkil Etishning Ahamiyatli Tomonlari //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 42. – С. 334-336.

14. Qosimovna H. G. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRSHDA SENSOR TARBIYANING AHAMIYATI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 1181-1186.

15. Qosimovna H. G. et al. МАКТАБГАЧА ТА'LIM JARAYONIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MAQOL VA MATALLARNING O'RNI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1379-1384.

NATRIY VA KALIYNING INSON HAYOTIDAGI BAJARADIGAN VAZIFASI

Kosimova Xurshida

Ass.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Qahramonov Kamoliddin Otabek o'g'li

2-bosqich 217-gruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada natriy va kaliyning inson tanasidagi bajaradigan vazifasi o'rni va ahamiyati, shuningdek, ular yetishmaganda yoki ortganda kelib chiqadigan kasalliklar haqida so'z borgan. Natriy va kaliy inson tanasida nerv impulslarining uzatilishini tartibga soladi. Natriy mushak va nerv tolalari qisqarishini ta'minlaydi. Kaliy-tanadagi barcha suyuqliklarning va hujayra ichi muhitining asosiy elementi hisoblanadi. Ular muntazam ravishda tanavvul qilinayotgan mahsulotlar tarkibida bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: natriy, kaliy, impuls, giponatremiya, giperkalemiya, suv-tuz balansi, oliguriya, o'tkir glomerulonefrit.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается роль и значение функции, которую натрий и калий выполняют в организме человека, а также заболевания, которые возникают, когда их не хватает или увеличивается. Натрий и калий регулируют передачу нервных импульсов в организме человека. Натрий способствует сокращению мышечных и нервных волокон. Калий-основной элемент всех жидкостей организма и внутриклеточной среды. Важно, чтобы они были в составе продуктов, которые регулярно заготавливаются.

Ключевые слова: натрий, калий, пульс, гипонатриемия, гиперкалиемия, водно-солевой баланс, олигурия, острый гломерулонефрит.

ABSTRACT

This article discussed the role and importance of sodium and potassium in the human body, as well as the diseases that arise when they are insufficient or increased. Sodium and potassium regulate the transmission of nerve impulses in the human body. Sodium ensures muscle and nerve fibers contract. Potassium is the main element of all fluids in the body and the intracellular environment. It is important that they are regularly contained in the products being prepared.

Keywords: sodium, potassium, impulse, hyponatremia, hyperkalemia, water-salt balance, oliguria, acute glomerulonephritis.

Natriy inson tanasi to‘qimalarining muhim qismi bo‘lgan mineral elementdir. Bu osmotik bosimni saqlaydigan va kislota-asos muvozanatini, nerv-mushaklarning qo‘zg‘aluvchanligini va elektr impulslarining uzatilishini tartibga soluvchi asosiy hujayradan tashqari kationdir.

Natriy asab tizimidagi impulslarni o‘tkazish va mushaklarning qisqarishi uchun zarur bo‘lgan muhim mikroelementdir. Natriy ioni boshqa elektrolitlar (kaliy, xlor, karbonat anioni) bilan o‘zaro ta’sir qiladi va organizmdagi suv-tuz balansini tartibga soladi. Ular birgalikda asab tugunlarining normal ishlashini, kuchsiz elektr impulslarining uzatilishi va natijada mushaklarning qiqrarishini ta’minlaydi.

Natriy barcha tana suyuqliklari va to‘qimalarida mavjud, ammo eng yuqori konsentratsiya qon va hujayradan tashqari suyuqlikda bo‘ladi. Hujayradan tashqari natriy darajasi buyraklar tomonidan nazorat qilinadi. Odamlar uchun natriyning manbai osh tuzidir. Ko‘pchilik bu elementning kunlik ehtiyojini oladi. Ichakdagi natriyning so‘rilishiga gastrin, sekretin, xoletsistokinin, prostaglandinlar ta’sir qiladi. Tana o‘z ehtiyojlari uchun keladigan natriyning bir qismini oladi, qolgan qismi esa buyraklar tomonidan chiqariladi, elektrolitlar konsentratsiyasini juda tor doirada saqlaydi.

Natriyni ushlab turish mexanizmlari: siydikda natriy yo‘qotilishini oshiradigan yoki kamaytiradigan gormonlar ishlab chiqarish (natriuretik peptid va aldosteron), siydik suyuqligining yo‘qolishini oldini oladigan gormon ishlab chiqarish (antidiuretik gormon), chanqoqlikni nazorat qilish (antidiuretik gormon). Qondagi natriyning anormal darajalari odatda ushbu mexanizmlardan biri bilan bog‘liq. Qondagi natriy darajasi o‘zgaranda, tananing to‘qimalarida suyuqlik miqdori ham o‘zgaradi. Ko‘pincha, bu suvsizlanish yoki shish paydo bo‘lishiga olib keladi (ayniqsa, oyoqlarda).

Natriy buyraklar orqali chiqariladi va uning konsentratsiyasi buyrak usti bezlarida sintezlanadigan aldosteron gormoni tomonidan tartibga solinadi. Natriyni doimiy darajada ushlab turadigan boshqa omillar - karbonat angidraz fermenti faolligi, oldingi gipofiz bezidan gormonlar ta’siri, renin, ADH, vazopressin fermenti sekretsiyasi.

Tadqiqot nima uchun qo‘llaniladi?

Ko‘pincha suvsizlanish, shish va boshqa kasalliklar bilan yuzaga keladigan giponatremiya va gipernatremiya darajasini aniqlash. Miya, o‘pka, jigar, yurak, buyrak, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari patologiyasini aniqlash uchun. natriy etishmovchiligi yoki ortiqcha bo‘lishining oqibati yoki sababi bo‘lib, elektrolitlar tarkibi buzilgan bemorlarni davolash samaradorligini nazorat qilish, masalan, diuretiklarni qabul qilish, arterial gipertenziya, yurak etishmovchiligi, buyrak va jigar kasalliklari. Organizmda suvsizlanishning ortishi yoki suvga ehtiyoj yo‘qligi Giponatremiya (zaiflik, letargiya, chalkashlik) va gipernatremiya (tashnalik, siydik miqdorining kamayishi, konvulsiyalar, qo‘zg‘alish) belgilari bilan namoyon bo‘ladi.

Natriy darajasining keskin pasayishi bilan odam zaiflik va charchoqni his qilishi mumkin, ba'zi hollarda chalkashlik komagacha bo'ladi. Natriy konsentratsiyasining sekinroq pasayishi bilan hech qanday alomat bo'lmasligi mumkin, shuning uchun uning organizmdagi darajasi alomatlar bo'lmasa ham tekshiriladi.

Natriy deyarli barcha dengiz mahsulotlarida (qisqichbaqa, qisqichbaqa, sakkizoyoq, kalamar, midiya, dengiz karam), baliqda (hamsi, sardalya, kambala, smetana va boshqalar), tovuq tuxumida, don mahsulotlarida (grechka, guruch, marvarid arpa, jo'xori uni) mavjud. tariq, dukkakililar (no'xat, loviya), sabzavotlar (pomidor, selderey, sabzi, karam, lavlagi), sut mahsulotlarida ham Na bor.

Kaliy - tananing yumshoq to'qimalarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan muhim hujayra ichidagi element. Ichki sekretsiya bezlari, kapillyarlar, qon tomirlari, nerv hujayralari, miya, buyraklar, jigar, yurak va boshqa mushaklar bu elementsiz to'liq ishlay olmaydi. Kaliy barcha tana suyuqliklarining 50% ida mavjud.

Kaliyning roli va asosiy vazifalari

Kaliyning tanadagi asosiy roli (natriy bilan birga) hujayra devorlarining ishlashini ta'minlashdir. Elementning yana bir muhim vazifasi yurak (magniy) va uning fiziologik funktsiyalari uchun asosiy ozuqa konsentratsiyasini saqlab qolishdir.

Kaliy yurak ritmini normallantiradi, qonning kislota-asos muvozanatini saqlaydi, anti-sklerotik vositadir: hujayralar va qon tomirlarida natriy tuzlarining to'planishiga to'sqinlik qiladi.

Kaliy miyani kislorod bilan ta'minlashga, aqliy faollikni oshirishga yordam beradi, asab impulslarini uzatishda ishtirok etadi, qon bosimini pasaytiradi, toksinlardan tanani tozalaydi va allergik kasalliklarni davolashda yordam beradi.

Kaliy tananing energiya darajasini saqlaydi, chidamlilik va jismoniy kuchni oshiradi.

Kaliy organizmdan natriy va suyuqlikning siydik bilan chiqarilishiga yordam beradi, hujayra ichidagi osmotik bosimni tartibga soladi, nerv impulslarini o'tkazish va uzatishda muhim rol o'ynaydi. U atsetilxolin hosil bo'lishida, organizmning bufer tizimlarida oqsillar sintezida, uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi, chiziqli va silliq mushaklarning ohangini oshiradi, bir qator fermentlarning faolligiga ta'sir qiladi va ishqoriy ta'sir ko'rsatadi.

Kaliy tuzlari barcha yumshoq to'qimalarimiz: qon tomirlari, kapillyarlar, mushaklar va ayniqsa yurak mushaklari, miya hujayralari, jigar, buyraklar, endokrin bezlar va boshqa organlarning normal ishlashi uchun zarurdir. Kaliy hujayra ichidagi suyuqliklarning bir qismidir (tanadagi barcha tuzlarning 50% kaliy tuzlari). Kaliy tuzlari tanadan ortiqcha suvni olib tashlashga yordam beradi, shishishni, siydikni ushlab turishni bartaraf etishga yordam beradi. Kaliy - anti-sklerotik vosita, qon tomirlarida va hujayralarda natriy tuzlarining to'planishini oldini oladi. Charchoqni

oldini oladi, shuningdek, surunkali charchoq sindromi rivojlanish xavfini kamaytiradi. Past kaloriyalik dietani qo'llab-quvvatlovchilar, mashaqqatli mashqlarni sevuvchilar va qariyalar uchun, ayniqsa, tanadagi kaliyning normal darajasi saqlab qolinishi muhimdir. Tananing kaliyga bo'lgan ehtiyoji tana vazniga, jismoniy faollikka, fiziologik holatga, iqlimga va yashash joyiga bog'liq. Tanadagi kaliy etishmovchiligi diuretiklar va glikokortikoid gormonlarining haddan tashqari dozasi, tez-tez qusish, diareya, kuchli terlash, buyrak usti bezlari po'stlog'ining giperfunktsiyasi bilan yuzaga kelishi mumkin. Gipokaliemiya mushaklar kuchsizligi, apatiya, uyquchanlik, ichak atoniyasi, ko'ngil aynishi, qusish, shish, oliguriya (yurak chegaralarining kengayishi va kengayishi, aritmiya paydo bo'lishi, arterial gipotenziya, EKGdagi o'zgarishlar) ga olib keladi.

Giperkaliemiya o'tkir glomerulonefrit, buyrak usti bezlari po'stlog'ining gipofunktsiyasi, spironolakton bilan davolash paytida va boshqalarda paydo bo'lishi mumkin. Bu jismoniy va ruhiy qo'zg'alish, ekstremitalarning paresteziyasi, terining rangsizligi, to'qimalarning gidrofilligining pasayishi, diurezning kuchayishi va ekskretsiyaning ko'payishi bilan namoyon bo'ladi. siydikda natriy miqdori, EKGdagi o'zgarishlar.

Kaliyning eng boy manbalari: quritilgan mevalar, yangi meva va sabzavotlar, rezavorlar, unib chiqqan donalar, dukkakli va to'liq donalar, yong'oqlar, kartoshka, ismaloq, karamning barcha turlari, lavlagi, uzum, non, sitrus mevalari (pomelos), yalpiz barglari, kungaboqar urug'lari, banan. Kaliy baliq va sut mahsulotlarida ham juda ko'p. Albatta yoz va kuz oylarida qovun va tarvuzlarni ko'proq iste'mol qilish kaliyga bo'lgan ehtiyojga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular kaliyning yana bir manbaidir.

Yil davomida, ayniqsa qishda, ratsionda quritilgan mevalar, banan va apelsinlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ular kaliyning ajoyib manbalari bo'lib, yangi sabzavot va mevalarni iste'mol qilishning iloji bo'lmaganda uning etishmasligi muammosini hal qilishga yordam beradi. Yangi sabzavotlardan yangi tayyorlangan sharbatlarni iste'mol qilish orqali tanani sezilarli miqdorda kaliy bilan ta'minlash mumkin. Masalan, bir stakan yangi tayyorlangan sabzi sharbatida taxminan 800 mg makronutrient mavjud. Dukkaklilardan tayyorlangan sho'rvalar dietaga kaliy qo'shishning yana bir usuli hisoblanadi. Oziq-ovqatlarda kaliyning maksimal miqdorini saqlab qolish uchun ularni bug'lash yoki minimal miqdorda suvda qaynatish tavsiya etiladi. Hech qanday holatda kaliyni har qanday kimyoviy birikmalar bilan tozalangan shaklida iste'mol qilish mumkin emas: bu ovqat hazm qilish traktini bezovta qiladi va katta dozalarda u hatto hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki barcha elektrolitlar ichida natriy inson tanasida eng ko'p uchraydi. U hujayradan tashqari va hujayra ichidagi bo'shliqlar orasidagi suyuqlikni taqsimlashda katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, u nerv

impulslarini uzatishda va yurak mushaklarining qisqarishida ishtirok etadi. Ma'lum miqdorda natriy bo'lmasa, organizm ishlay olmaydi, shuning uchun uning darajasi barqaror va sezilarli tebranishlarga duch kelmasligi juda muhimdir. Kaliy B6 vitaminining so'rilishini osonlashtiradi, spirtli ichimliklar unga aksincha ta'sir ko'rsatadi. Kun davomida kaliyga boy ovqatlar iste'mol qilish zarur. Apelsin, banan va pishirilgan kartoshka uzoq vaqtdan beri kaliy manbalari sifatida tan olingan. Shuning uchun ularni kundalik ratsionga muntazam ravishda kiritish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Jo'rayeva A.A Majmua biokimyo (2017-2018)
2. Malikova G.Y. Ma'lumotlari asosida.
3. Atamuratova.T. Ma'lumotlari asosida.
4. calorizator.ru
5. helix.ru

ENDOCRINOPATHIES AND SLEEP APNEA

Bahriyeva Nigora Naimovna

Scientific adviser:

Assistant of the Department of Endocrinology, Samarkand State Medical University

Mahmudova Intizor Abdurauf qizi

Keldiyorova Navbahor Nuriddin qizi

Nazarov Qilichbek Ilxom o'g'li

Students, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

ABSTRACT

One of the most common sleep breathing disorders is obstructive sleep apnea (OSA). It is characterized by recurrent episodes of upper airway collapse during sleep, which lead to severe consequences including intermittent hypoxia, fluctuations in blood pressure and heart rate, increased sympathetic nervous system activity, endocrine dysfunction, and sleep fragmentation¹⁻⁵.

Keywords: acromegaly, apnea, hypopnea, polysomnography, IRF-1.

INTRODUCTION

The results of recent studies indicate a connection between OSA and endocrine diseases, such as acromegaly, Cushing's disease and syndrome, thyroid dysfunction, diabetes mellitus and obesity. In addition, there is evidence of an association between hypogonadism and OSA, regardless of the patient's age and weight. In women, there is a negative correlation between the apnea-hypopnea index and the level of serum estradiol and progesterone, which suggests a connection between OSA and ovarian dysfunction. Sleep disturbances of varying degrees (from simple snoring to severe OSA) occur in most patients with acromegaly⁶⁻¹⁰. In prospective and retrospective studies using polysomnography to diagnose OSA, the prevalence of this disorder among patients with uncontrolled acromegaly averaged 69%. At the same time, breathing disorders during sleep can aggravate cardiovascular pathology, which is one of the main causes of death in acromegaly¹¹⁻¹⁵.

MATERIALS AND RESEARCH METHODS

In our study, which involved 55 patients with acromegaly (18 men (28.2%) and 37 women (67.38%)) who were undergoing inpatient treatment in the Diabetology Department of the Russian Republican Scientific and Practical Center for Emergency Medicine, the majority of the examined patients had sleep disturbances (85.4%, n =

47), as evidenced by the increased apnea-hypopnea index, which was 27.0 [12.0; 47.0]. Among them, 27 patients (49.1%) had severe sleep apnea, 13 (23.6%) patients had moderate apnea, and 7 (12.7%) had mild sleep disordered breathing. The reasons for the high prevalence of OSA in patients with acromegaly are craniofacial deformation, as well as thickening and swelling of soft tissues, which lead to a narrowing of the lumen of the upper respiratory tract and, accordingly, obstruction of air flow¹⁶⁻²⁰. The cause of soft tissue swelling may be increased sodium reabsorption in the distal tubules of the kidneys due to the direct stimulating effect of growth hormone and IGF-1. Another factor contributing to the occurrence of OSA in patients with acromegaly may be overweight and obesity. In addition, if, along with acromegaly, the patient has hypothyroidism, including central one, then it can also contribute to the occurrence of apnea. Finally, a role for impaired neuromuscular control of the pharyngeal muscles cannot be excluded, since myopathy of the pharyngeal dilator and sternohyoid muscles has been observed in experimental animal models of acromegaly. Effective treatment of acromegaly (surgical or drug) leads to a decrease in breathing disorders during sleep, but in a significant number of patients, manifestations of OSA persist, despite the controlled phase of acromegaly. This fact indicates the need to conduct research to identify sleep breathing disorders in all patients with acromegaly, regardless of the presence of clinical and biochemical remission²¹⁻²⁶.

Research results. The results of a number of prospective and retrospective studies indicate an increase in the prevalence of OSA in patients with hypothyroidism. The main reason may be the infiltration of soft tissues with mucopolysaccharides and proteins, which is a characteristic manifestation of hypothyroidism and leads to a narrowing of the lumen of the upper respiratory tract⁴¹. In addition, dysregulation of the pharyngeal dilator muscles due to the development of myopathy, as well as enlargement of the thyroid gland as such, may also be involved in the occurrence of obstruction, even in the absence of dysfunction of the thyroid gland. In the case where a decrease in thyroid function is not accompanied by other disorders, in particular obesity, there is a fairly good chance that the appointment of replacement therapy for hypothyroidism with levothyroxine sodium will lead to a significant reduction in breathing disorders during sleep²⁷⁻³⁵. Whereas a combination of conditions, each of which in itself can be the cause of the development of OSA, reduces the likelihood of normalization of respiratory disorders without the use of special therapy, which consists of creating continuous positive pressure in the upper respiratory tract (CPAP therapy). Given that hypothyroidism occurs in less than 5% of patients with OSA, this is probably not a mandatory procedure, but if it is detected, it makes sense to wait for the effect of levothyroxine sodium replacement therapy before recommending CPAP - therapy. In the pathogenesis of breathing disorders during sleep with hypercortisolism

due to Itsenko-Cushing syndrome or disease, centripetal obesity is of greatest importance, that is, fat deposition in the face, neck, abdomen, and also, probably, in the parapharyngeal space³⁶⁻⁴⁰.

CONCLUSIONS

From a practical point of view, it is necessary to be wary of the development of breathing disorders during sleep in patients who are planned to be prescribed androgen therapy and, in case of corresponding complaints, recommend an examination to exclude this pathology. Thus, endocrine diseases may be accompanied by sleep-disordered breathing, in particular OSA. Treatment of the underlying disease in some cases can help reduce the manifestations of OSA, but often these measures are insufficient. Considering the potential risk of developing cardiovascular pathology and cognitive impairment due to OSA, in such patients it is necessary to promptly identify sleep-disordered breathing and prescribe CPAP therapy.

REFERENCES:

1. Отамуродов УГ угли, Абдужамбиллов АН угли, Сабирова ДШ. Гипертиреоз. *Sci Educ*. 2023;4(5):134-139.
2. Damirov AT, Xurramova S, Islomov A, Ulashev M, Ikramov R, Mirzakhakimov P. Type 2 diabetes and bone mineral density in postmenopausal women. *Sci Educ*. 2023;4(11).
3. Хамраев Х, Содиков С, Хамраева Д, Собирова Д. Клинико-функциональное состояние печени у больных с сахарным диабетом. *Журнал Проблемы Биологии И Медицины*. 2018;(1 (99)):189-191.
4. Eshmatovich QA, Xudoyberdievich ZS, Amurovna KA, Sayfutdinovich KZ, Ruslanovna RM, Qizi OFJ. РОЛЬ ПОЛИМОРФНЫХ ВАРИАНТОВ ГЕНОВ IL17A И ЦИТОХРОМА P450 ПРИ БОЛЕЗНИ ГРЕЙВСА. *J Biomed Pract*. 2022;7(4). Accessed January 12, 2024. <https://tadqiqot.uz/index.php/biomedicine/article/view/5550>
5. Мизамова МАК, Эшпулатова ГНК, Эшмуродова ЗНК, Салимова ДЭ. Осложнения акромегалии, связанные со здоровьем, текущие и перспективные варианты лечения. *Sci Educ*. 2023;4(4):187-195.
6. Нарбаев А, Джураева З, Курбонова Н, Кувондилов Г, Давранова А, Содиков С. Особенности изучения многофакторного управления сахарным диабетом 2 типа. *Журнал Проблемы Биологии И Медицины*. 2017;(4 (97)):78-79.
7. Полиморфизм Генов, Участвующих В Иммунорегуляции И Биосинтезе Тиреоидных Гормонов При Диффузном Токсическом Зобе. :39-43.
8. Ибрагимов УС, Туракулов ЖТУ, Гуломов ШНУ, Салимова ДЭ. Просвещение пациентов: Гипогликемия (низкий уровень глюкозы в крови) у людей с

диабетом. *Sci Educ.* 2023;4(4):226-233.

9. Содиков С, Каримова Н, Каримова З. Реабилитация больных пожилого возраста сахарным диабетом 2-типа. *Журнал Проблемы Биологии И Медицины.* 2017;(4 (97)):105-106.

10. Хамидова МН, Исмадова ИФ, Бердиев ЖШ, Негматова ГШ, Даминов АТ. САХАРНЫЙ ДИАБЕТ И COVID-19. *Eurasian J Med Nat Sci.* 2022;2(13):190-204.

